

N. Bekmirzayev

# NOTIQLIK SAN'ATI ASOSLARI



**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi  
O‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi markazi**

---

---

**N. Bekmirzayev**

# **NOTIQLIK SAN’ATI ASOSLARI**

*O‘quv qo‘llanma*

Toshkent — “Yangi nashr” — 2008

*Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv metodik birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Kengash nashrga tavsiya etgan*

Mas'ul muharrir: **A. Rafiyev** — filologiya fanlari nomzodi, dosent

Taqrizchilar: **N.Rahmonov** — filologiya fanlari doktori, prof.

**M.A. Sharipova** — Toshkent madaniyat kolleji

“Til va adabiyot” kafedrasi yetakchi o'qituvchisi

Ushbu o'quv qo'llanmada notiqlik tarixi hamda bugungi kun notiqligi haqida ma'lumot berildi.

Qo'llanma madaniyat kolleji talabalariga, axborot tizimlari va kutubxona xodimlariga mo'ljallangan

---

*Ushbu kitobni otam Bekmirzo Murod  
o'g'lining va akam Berdirayim Bekmirzo  
o'g'lining ruhi poklariga bag'ishlayman.*

Muallif

## SO'ZBOSHI O'RNIDA

Hozirgi tezkor zamonda mustaqil O'zbekiston yoshlarida yangicha dunyoqarashning shakllanishida notiqlik san'ati sabog'i muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki yangicha dunyoqarash ruhida tarbiyalanayotgan har bir talaba, yangicha dunyoqarashga intilayotgan har bir xodim to'g'ri va savodli yozish, o'qish bilan birga chiroyli gapirish, nutqiy madaniyat va notiqlik san'ati sirlaridan voqif bo'lishlari bugungi va ertangi kunning talabi ekanligini har taraflama his etmog'i shart.

Notiqlik san'ati «Ritorika» nomi bilan qadimiy tarixga ega. Kollejlar talabalarini notiqlik san'ati asoslari bilan tanishtirish maqsadida yaratilgan ushbu o'quv qo'llanmada notiqlik tarixi bilan bog'liq va ifodali o'qish o'rnlari K.Oripov, M. Obidovalarning «Ifodali o'qish» (T., "O'qituvchi", 1994), nutq texnikasi va orfoepiya yoritilgan o'rnlar T.Qudratovning «Nutq madaniyati asoslari» (T., "O'qituvchi", 1993) kitoblaridan foydalanish asosida yoritildi. Mazkur ishimiz bu sohadagi dastlabki qo'llanmalardan bo'lganligi bois, unda bahsli o'rnlar uchrashi mumkin. Bu borada foydali maslahatlar bildirgan hamkasblarga va yuqorida nomlari va kitoblari sanab o'tilgan mualliflarga hamda kitobxonlarga oldindan minnatdorchilik bildirib, keyingi ishlarimizda albatta inobatga olamiz.

Mazkur o'quv qo'llanma bilan T. Mo'minova va M. Sharipovalar tomonidan tuzilgan "Notiqlik san'ati asoslari" o'quv dasturini solishtirganda qisman nomuvofiqlik seziladi. Jumladan, dasturda nazariy qismga 10 soat ajratilgan. Biroq notiqlik haqida

gap borarkan, «Notiqlik san'ati»ning boshqa fanlar bilan aloqasi hamda «Nutq madaniyati» fanidan farqini talaba yoshlarga yetkazish zarur. Shuningdek, «Notiqlik san'ati tarixi», ayniqsa, «Sharq va Markaziy Osiyoda notiqlik» taraqqiyotidan talabalar xabardor bo'lishlарини hisobga olib, o'quv qo'llanmada shu 3 ta katta ma'vzuga 6 saat ajratishni lozim topdik. Bu olti saatning 4 soati «Amaliy mashg'ulot»лар qismidan, 2 soati «Yakka dars»лар qismidan qisqartirish hisobiga erishildi.

*O'z fikrini mutlaqo mustaqil,  
ona tilida ravon, go'zal va lo'nda  
ifoda eta olmaydigan mutaxassisni,  
avvalambor, rahbar kursuda  
o'tirganlarni bugun tushunish ham,  
oqlash ham qiyin.*

Islom KARIMOV

## KIRISH

Insonga fikrini ifoda etish uchun sezgi organlaridan biri sifatida Alloh tomonidan til berildi. Aqlni esa inson ixtiyoriga qoldirdi. Endi inson bolasi aqlini ishga solib, tili orqali so'zlar (nutqi)ni ifodalashga kirishdi. Yaratgan Egam tanamizdag'i sezgi organlarimizdan biri til (zabonimiz)ni ehtiyot qilib joylagan. Unga o'ttiz ikkita tishlarimiz ortidan joy berib, yana lablar bilan berkitdi. Bu suyaksiz tilimizga ehtiyotkorlik chorasi ham edi. Chunki shu bir parcha (go'sht) til orqali: yaxshilik va yomonlik; go'zallik va xunuklik; mehribonlik va yovuzlik; baxt va baxtsizlik; mansab va itoatkorlik; boylik va kambag'allik; do'stlik va dushmanlik; visol va ayrılıq; obro' va obro'sizlik; omad va omadsizlik; ezgulik va johillik; mehnatsevarlik va dangasalik; halimlik va qo'pollik; havas va hasad; taraqqiyot va zalolat; yarashish va janjal; tinchlik va urush; ruhiy tetiklik va tushkunlik; sog'lomlik va bemorlik; izzat va sharmandalik; xursandchilik va dilxiralik; madaniyatlichkeit va madaniyatsizlik kabi bu foniy dunyoda mavjud bo'lgan barcha narsaga erishish mumkin.

Sezgi organlarimizning ko'z, qulqoq va burundan tashqari barchasini odam o'ziga bo'ysundira oladi, jumladan, tilni ham. Madomiki, shunday ekan, biz o'zimiz aql va farosatimizni ishga solib, loaqlal tilimizni jilovlay bilishimiz zarur. Shundagina biz so'zimiz va nutqimizning qanchalik kuch-qudratga ega ekanligini his etib yashaymiz.

Notiqlikni o'rgatuvchi va targ'ib qiluvchi qadim adabiyotlardan tortib bizning davrimizda yozilgan va yozilayotgan maqola va

kitoblarda notiq, notiqlik, nutq odobi, notiqlik san'ati; voiz, voizlik, voizlik san'ati kabi atama va tushunchalarni o'qiyamiz. Og'zaki nutqda odamlar orasida: so'z ustasi, so'zga chechan, so'zga usta, so'zamol, so'zni boplaydi, gapni do'ndiridi, gapga usta, chirolyi gapiradi; suhandon, tilchi-da, adabiyotchi-da, shoir-da singari iboralarni eshitamiz. To'g'ri, hamma ham nutqiy nuqson siz tug'ilsa, albatta gapiradi. Biroq hamma odamlar ham gapga chechan bo'lavermaydi. Gapga chechanlik, ya'ni notiqlik bu – qobiliyat va iste'dod. Notiqlik bu – san'at. Qachonki, inson Alloh bergen tabiiy qobiliyat bilan cheklanib qolmay, o'z nutqi va tili ustida erinmay ishlasa, mashq qilsagina chinakam notiqlik mahoratini egallashi mumkin.

---

## I bo‘lim. NOTIQLIK SAN’ATI HAQIDA TUSHUNCHА

Notiqlik bu — so‘z san’ati, so‘z san’ati bo‘lganda ham ohangdan libos kiyib talaffuz bilan jilolangan so‘z san’atidir. Madomiki, “so‘z” qudratini chuqur anglagan, “so‘z” ne’matining Alloh tomonidan faqatgina insonga in’om etilganligini his etgan buyuk allomalargina uni qadrlaganlar va e’zozlashga undaganlar. Shu ma’noda notiqlik san’ati boshqa san’at turlari orasida alohida mavqega ega ekanligi tan olingan haqiqatdir. Qadimda mohir notiqlargina lashkarboshlik va davlat arboblari lovozimlariga saylab tayinlanganliklari ham bu haqiqatga aniqlik kiritadi. Tarix bizga hamisha saboq bergen, saboq bermoqda va bundan keyin ham saboq beradi. Biz bugun shu sohada tarixdan saboq olayapmizmi? — degan savol turibdi qarshimizda. Yo‘q, deyish ham joiz emas, harakat qilyapmiz. Bugungi kunda ko‘pgina idora rahbarlari nutqidagi kamchiliklar, muallimlar nutqidagi chaynalishlar, teleko‘rsatuvlardagi, hatto jurnalistlar nutqidagi g‘alizliklar bizning ma’naviyatimizga yarashmaydi. Chunki biz Mustaqillikning barcha chashmalaridan bahramand bo‘lib turgan ekanmiz, notiqlik san’ati chashmasidan ham bebahra bo‘lmasligimiz kerak. Nima qilishimiz zarur? Avvalo, maktabda nutqni, uning grammatikasini chuqur o‘rganishimiz, fikrimiz va tafakkurimizning asosi bo‘lmish notiqlik san’ati sirlarini o‘rgatishimiz va o‘rganishimiz juda muhim. Til va tafakkur bir-biriga chambarchas bog‘liq bo‘lgani holda, notiqlik san’atini bilmasdan haqiqiy ijodiy tafakkur, go‘zal va chiroyli nutq so‘zlashimiz amri mahol. So‘zlayotgan nutqimizni maromiga yetkazib o‘z ona tilimizda ifodalashimiz uchun notiqlik san’ati qoidalaridan xabardor bo‘lishimiz kerak. Hozirgi ayrim o‘quvchi va talaba yoshlarimiz nutqida uchraydigan nuqson, fikrplashdagи oqsoqlik, fikrini bayon etishda qolipdan chiqolmaslik, tafakkuridagi to‘mtoqlik, ortiqcha kirish so‘zlarni (anaqa, haligi, nima edi?, nima desam ekan? kabi) ishlatalish kabi qusurlarning kelib chiqishi teran notiqlik malakalarining zaifligi bilan bog‘liqligi ma’lum.

Maktabdan tortib, akademik litsey va kollej hamda institut va universitetlar, malaka oshirish institutlari o'quv rejalariga notiqlik san'ati darsini kiritish, bu darsning o'quv yurtlarining o'ziga xos xususiyatlariga qarab uning dasturi va darsligini yaratish juda dolzarb. Chunki Vazirlar Mahkamasining "Akademik litseylar va kasb-hunar kollejlarini tashkil etish va ularning faoliyatini boshqarish to'g'risida"gi qarorida bir qancha muhim masalalar bilan bir qatorda Davlat ta'lim standartlarini ishlab chiqish, yangi darslik va o'quv qo'llanmalarini yaratish vazifasi ham qo'yilgan.

Milliy dasturda belgilangan vazifalarni jadal amalga oshirish mustaqil mamlakatimizning buyuk kelajak sari yuksalishini ta'minlaydigan omillardan ekanligi muhim. Prezidentimiz I.A.Karimov Oliy Majlisning XIV sessiyasidagi (1999-yil 14-aprel) ma'ruzalarida: "Yana bir bor ta'kidlab o'tishga to'g'ri keladi: amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning taqdiri shu masalaga, ya'ni kadrlar tayyorlashga chambarchas bog'liqligini biz aniq va ravshan anglab olishimiz lozim. O'zini shu mamlakatning haqiqiy vatanparvari deb biladigan har bir kishi bu Dasturni amalga oshirishga o'z mehnatini, o'z ulushini qo'shadi deb ishonaman", – degan edilar.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi O'zbekistonimizning madaniyat va ma'naviy yuksalishi borasidagi dasturulamaldir. Bugun biz — barchamiz, xalqimiz va Vatanimiz uchun bunday mas'uliyatni chuqur va izchil anglamog'imiz shart.

Ma'lumki, jamiyat madaniy-ma'rifiy taraqqiyotining, millat ma'naviy kamolotining muhim jihatlari notiqlik san'atiga ham borib taqaladi. Shu bois ham mamlakatimizda madaniy-ma'rifiy islohotlarning davlat siyosati darajasiga o'sib chiqishi, farzandlarimizning notiqlik malakalarini oshirish, nutqiy madaniyati masalalariga e'tiborni qaratish har qachongidan ham dolzarblik kasb etmoqda. "Davlat tili haqida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunlar, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va boshqa ko'pgina hujjalarda ma'naviy-ma'rifiy tarbiyaga, til masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Fikrimizni o'z ona tilimizda mustaqil, ravon, go'zal va lo'nda ifodalash uchun bizda nutqiy madaniyat, notiqlik yetarli darajada shakllanmog'i kerak.

Umuman, yosh avlodda notiqlik qobiliyatini shakllantirish va izchil kamol toptirish, bu yo'lda samarali usullarni izlab topish va

ta’limga yo‘naltirish olimlarimiz va o‘qituvchilarimizning eng muhim vazifalaridan biridir.

### **“Notiqlik san’ati”ning predmeti, maqsad va vazifalari**

Notiqlik san’atining predmeti hali tuzilmagan, chiroyli sayqal bilan tuzilishi lozim bo‘lgan so‘z asaridir. Jozibali, teran so‘z va gaplarning jonli nutq orqali ifodalanishi notiqlik san’atining predmeti sanaladi. Har bir nutq egasining nutqini kuzatish va tekshirish, undagi yutuq va nuqsonlarni aniqlash, har bir ijodkor, shoir yoxud yozuvchining asarlaridagi badiiy notiqlik mahoratini kuzatish, shu yozuvchi yoki shoirning og‘zaki ommabop nutqidagi notiqqa xos yutuqlarni ko‘ra bilish mazkur fanning predmet obyekti sanaladi. Notiqlik san’atining turlari ko‘p. Jumladan, ijtimoiy-siyosiy notiqlik, bunda asosan davlat va jamiyat ahamiyatiga ega bo‘lgan yig‘inlarda so‘zlanadigan ma’ruza, akademik nutq, bunda ilmiy yo‘nalishdagi ma’ruzalar, auditoriya notiqligi, talaba va o‘quvchilar uchun o‘qiladigan ma’ruzalar, ijtimoiy-maishiy nutq, turli tadbirdorda so‘zlanadigan nutq kabilarning nutqiy kamchiliklarini va yutuqlarini (ham og‘zaki, ham yozma shaklini) tekshirish jarayoni ham notiqlik san’ati predmeti doirasiga kiradi.

Notiqlik san’atining tekshirish obyekti notiq nutqidagi gap qurilmalari, u nutqida ishlatgan so‘zning qudrati, jozibasi, go‘zal ifodasi va maftunkorlik xislatlarini aniqlashga qaratilgan bo‘lishi lozim. Notiqlik san’ati amaliy jihatdan chiroyli nutq tuzishning qonuniyatları, sirlari, til normalari, nutqning sifatlari, nutqiy uslubning nozik tomonlarini his etish va notiq nutqida uchrashi mumkin bo‘lgan nuqsonlar va talaffuzga doir muammolarni hal etish yuzasidan baxs yuritadi. Eng muhimi, o‘z bilimi va dunyoqarashiga suyangan holda to‘g‘ri va chiroyli so‘zlash yo‘llarini o‘rgatadi. Notiqlik san’atining og‘zaki yozma shakllari mavjud bo‘lib, har bir notiqning nutqi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu holat esa notiqning o‘ziga xos uslubi bilan o‘lchanadi.

Notiqlik san’atining asosiy vazifasi notiq bo‘lishga undovchi qonuniyatlarni o‘rgatishdan iborat. Biroq hamma ham notiq bo‘lavermaydi. Buning uchun bo‘lajak notiqda qobiliyat va iste’dod bo‘lishi kerak. Chunki u – san’at. Shuning uchun ham ba’zi notiqlar materialni chuqur bilgani holda o‘z fikrini erkin nutqi

bilan yetkazib berolmasligi, natijada tinglovchilar uni tushunmasligi mumkin. Mohir notiqlar nutqini esa tinglovchilar yaxshi tushunadi. U voqeа-hodisa haqida aniq-ravshan va jonli ma'lumot berishi orqali tinglovchi ongiga ta'sir etishi, ularni kuldirishi, yig'latishi va xayolot olamini zabit etishi mumkin. Notiqlik san'atining maqsad va vazifalaridan assosiyлari ham ana shunday no'noq notiqlar kamchiliklarini aniqlash ya mohir notiqlar yutuqlarini kuzatish va yo'l-yo'riq ko'rsatishdan iborat. Shu ma'noda notiqlik san'ati notiq bo'lishga undovchi qonuniyatlarni o'r ganadigan fandir.

Nutqimizda uchrab turadigan nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish, notiqlik san'ati zimmasidagi umum davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ijtimoiy-siyosiy vazifalardan sanaladi. Shu ma'noda, birinchidan, notiqlik san'atini yetarli darajada egallash har bir jamiyat a'zosining madaniylik darajasini ham belgilaydi. Ikkinchidan, O'zbekiston mustaqiliga ko'z olaytiruvchi yot unsurlarga qarshi mafkuraviy kurashda notiqlik san'ati asosiy qurol sifatida faoliyat ko'rsatmog'i lozim. Notiqlik san'atining har qachongidan ham o'tkir va keskir bo'lmog'i bugungi kunning muhim talabi.

Yuqorida jiddiy sabablardan kelib chiqib notiqlik san'atini kamolot sari yuksaltirishga muntazam g'amho'rlik qilish lozim bo'ladi.

Notiqlik haqidagi ta'limot uzoq o't mishiga ega. U avvalo qadimgi Rim va Afinada shakllangan bo'lsa ham, ungacha Misrda, Assuriyada, Vavilon va Hindistonda paydo bo'lganligi ma'lum. U zamonlarda davlat arboblarining obro'-e'tibori va yuqori lavozimlarga ko'tarilishi ularning notiqlik mahoratiga ham bog'liq bo'lgan. Notiqlik san'ati sarkardalik san'ati bilan teng qo'yilgan. Bunga Demosfen va Siseronlar hayoti yorqin misol.

Bizning ota-bobolarimiz yashagan hududlarda avvalo xalq og'zaki ijodi, "Avesto", "O'rxun-Enasoy" yodgorliklari, Turon zaminning Alp Er To'ng'a (eramizdan oldingi VII asr) haqidagi dostoni va boshqa yozma yodgorliklari xalqimiz tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniyati, tilini o'r ganishda muhim manba bo'lish bilan birga, notiqlikka undovchi materiallarga boyligi bilan qimmatga egadir.

Xullas, bu soha bugunning dolzarb muammosi ekanini anglash vaqtি keldi. Ko'pgina hollarda (teleko 'rsatuvlarda, o'zaro suhbatlarda, o'quvchi va talabalarning mavzu yuzasidan savollarga bergen javoblarida) yoshlarimizning chaynalib, o'z fikrini ravon

aytolmasliklarining guvohi bo‘lamiz. Nega? Chunki nutqimizda nuqson ko‘p. Buni bartaraf etish uchun esa oiladan tortib, bog‘cha va maktablarda ham bolalarimiz nutqidagi kamchiliklarga e’tibor berish zarur. Birorta so‘zni noto‘g‘ri talaffuz qilsa yoki noo‘rin ishlatsa, albatta, erinmasdan ulardagi shu kemtiklikni to‘g‘rilash lozim. Har qanday odamni gapidan, muomalasidan, ko‘z qarashidan, o‘zini dadil tutib gapirishidan bilib olish mumkin. “Ish bilguncha gap bil” degan ibora bekorga aytilmagan. Albatta, gap bilgan odam ishni ham biladi. Ishni bilmasa, u o‘scha ish haqida fikr bildirolmaydi. Bizning ota-bobolarimiz azaldan odamiylikni, qadr-qimmat va mehr-oqibatni har qanday zaru oltinlardan, ma’danu boyliklardan afzal bilgan. Odamiylik, mehr-oqibat birinchi galda so‘zlarimiz orqali amalga oshiriladi. Insonga berilgan ulug‘ ne’matlardan biri ham shu so‘z va so‘zlash ne’matidir. Buning qadriga yetish muhim fazilat.

### **“Notiqlik san’ati”ning boshqa fanlar bilan aloqasi va “Nutq madaniyati”dan farqi**

“Notiqlik san’ati” azaldan mavjud ekan, u albatta boshqa fanlar bilan munosabatda bo‘lib kelmoqda. Notiqlikning asosiy quroli yozma nutqda ifodalanadigan so‘z san’ati – badiiy adabiyot bo‘lib, u hozirgi o‘zbek adabiy tili va o‘zbek shevalariga asoslanib ish ko‘radi. Chunki nutqning va tallaffuzning hamda ohangning to‘g‘riliği uning asosiy fazilatidir va u grammatika qonuniyatlariga asoslanadi.

Notiqlik san’ati hamma vaqt mantiq va ruhshunoslikka suyanadi. Mantiqqa murojaat qilmasdan turib, aniqlik va mantiqiylikni ta’minalash ham, baholash ham mumkin emas. Mantiq so‘zlar butun bir gapdan kelib chiqadigan hukm va tushunchalarni belgilaydi. Ya’ni u mantiqiy hukmlar va tushunchalar bilan ish ko‘radi. Agar so‘zda tushuncha ifodalansa, gapda hukm va fikrlar o‘z mavqeiga ega. Mazkur so‘z va gaplar bir-biriga qarama-qarshi bo‘imasligi zarur. So‘zlardagi ko‘p ma’nolilik ham turlicha tushunchalarga sabab bo‘ladi. Ba’zan hukm bilan gapda bir-biriga moslasholmaslik holati ham kuzatiladi. Masalan, “Notiq bo‘lishni kim xohlamaydi, deysiz?” gapi so‘roq gap, inkor shaklida, biroq unda tasdiq hukmi bor.

Talaffuz va ohang orqali ham bunday holatni kuzatish mumkin: O‘qishga kirdi. — darak gap; O‘qishga kirdi? — so‘roq gap; O‘qishga kirdi!— undov gap. Sinonim so‘zlarni ishlatischda ham tushuncha o‘zgaradi. Masalan, visol, jamol, araz, chehra kabi so‘zlar tushunchasida ijobiy holat, bashara, turq, aft kabi so‘zlar tushunchasida salbiy holat kuzatiladi.

So‘zlarning ma’nosini va ifodalananayotgan tushuncha o‘rtasidagi munosabatni mantiq tekshiradi. Mantiq — so‘zlar, gaplar, birikmalar orasidagi ma’no aloqalarini ta’minlaydi.

Nutq qurilishi o‘rinli yoki o‘rinsiz bo‘lib ko‘rinadigan holatlarda ruhshunoslikka murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. Notiqlik bilan ruhshunoslik aloqasida notiq o‘z fikrlarini bayon qilishda auditoriyani kuzatishi, har bir tinglovchining kayfiyatini hisobga olib nutq so‘zlashi lozim. Notiq va tinglovchi o‘rtasida samimiyligi muomala asosiy vazifa bo‘lishi kerak. Notiq zarur va muhim gaplarni aytishdan oldin butun tinglovchilarning diqqatini o‘ziga qarata olsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Tinglovchilar hamma gapni ham qabul qilavermaydi. Ba’zan noo‘rin gaplardan ehtiyyot bo‘lish, auditoriyani qiziqtiradigan gapni topib gapirish notiqning mahoratiga bog‘liq. Ayniqsa, boshqa mavzu va voqeal-hodisalarga o‘tib ketmasligi kerak. Tilning o‘rinsiz qo‘llanadigan u yoki bu vositasi tinglovchilar ruhiy holatini qay darajada vayron etishini ruhshunoslik aytib bera oladi.

Shu ma’noda ruhshunoslik notiqning o‘z malaka va mahoratini kengaytirishi va mukammallashuvini o‘rganishi orqali “Notiqlik san’ati”ga yordam berishi mumkin.

Bulardan tashqari, “Notiqlik san’ati” nafosat haqidagi fan bo‘lib, estetika bilan, badiiy adabiyot, adabiyotshunoslik, tilshunoslik, adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid bilan ham aloqadordir.

Oliy va o‘rta maxsus ta’lim o‘quv dargohlarida “Nutq madaniyati” fanini o‘rgatish ko‘zda tutib kelinmoqda. Bunday o‘quv reja asosida notiqlik san’ati va nutq madaniyati aralash o‘rgatilmoqda. Biroq bu ikkala fan bir-biriga yaqinday tuyulgani bilan aslida o‘zaro farqlanadi. Bu holatni ularning fan sifatida shaklanishi jarayonini kuzatish orqali ham, o‘z oldilariga qo‘yan vazifalari, maqsadi, predmeti, tasvirlash obyektlariga xos bo‘lgan xususiyatlarida ham kuzatish mumkin.

Notiqlik qadimiy davrdan beri alohida mahorat, san'at sifatida muayyan aniq shaxsdagi noyob qobiliyat. Shu ma'noda notiqlik va nutq madaniyati orasida bog'liqlik bo'lsada, har qaysisi o'ziga xosligi bilan farqlanadi. Bu haqda professor E.Begmatovning (Qung'urov R., Begmatov E., Tojiev Yo., "Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari" (T., "O'qituvchi" 1992-y.) fikrlarini keltirib o'tish o'rinnlidir:

1. Nutq madaniyati, chinakam ma'noda adabiy til bilan bog'liq hodisadir. Uning paydo bo'lishi, lisoniy asosi, talab va mezonlari adabiy til va uning mezonlari bilan bog'liqdir. Notiqlik san'ati uchun bular asosiy belgilar emas. Notiqlar orasida adabiy til talablariga to'la amal qilmaydiganlar, ma'lum lahja yoki shevada ham chinakam notiqlik san'atini namoyish qiluvchilar uchraydi. So'zga chechanlik, notiqlik til materialining xarakteriga qarab emas, nutqning ta'sirchanligiga, nutqiy san'atga qarab belgilanadi.

2. Notiqlik — og'zaki nutq bilan bog'liq hodisa, demak u nutqning og'zaki shaklidir. Notiqlik san'ati — og'zaki nutq san'atidir. Nutq madaniyati esa nutqning ham og'zaki, ham yozma shakli uchun taalluqli tushunchadir.

3. Nutq madaniyati jamiyat a'zolarining umumiy nutqiy faoliyatini ko'zda tutadi. Nutq madaniyati sohasining maqsad va pirovard orzusi barchaning, butun xalqning nutqini madaniylashtirishni mo'ljallaydi. Mumtoz ma'nodagi notiqlik esa, alohida shaxslarning nutqiy mahoratini, san'atini ifodalaydi. Notiqlik, asosan, nutq vositasida kishilarga muayyan g'oya va maqsadlarni yetkazishni, ularni ma'lum maqsadga safarbar qilishni ko'zda tutadi. Ya'ni notiqlik san'atida tinglovchilarni ma'lum maqsadga jalb qilish asosiy o'rinn tutadi. Shu sababli ham professor V.D.Kudryavsev notiqlik .nutqiga shunday izoh beradi: "Har qanday og'zaki nutq notiqlik nutqi bo'lib, u nimanidir tushuntirish va isbotlashnigina emas, balki tinglovchilar tushunchasiga ta'sir etishini ham maqsad qilib oladi" (Кудрящев В.Д. "Основа орторского искусства". — Иркутск. 1966, 3-бет.)

4. San'atkor notiq nutqi asosan ko'pchilik tinglovchiga, keng auditoriyaga mo'ljallangan bo'ladi. Notiqni birdan ortiq shaxslar tinglaydi. Nutq madaniyati mana shunday tinglovchilardan tashqari kishilar orasida odatiy suhbatlarni, yakka kishiga qaratilgan nutqlarni ham o'z ichiga qamraydi.

5. Har bir kishi ona tilining imkoniyat va boyliklarini yaxshi egallagan, nutq madaniyati talablariga javob beradigan so‘zamol shaxs bo‘lishi mumkin. Ammo har bir shaxs ham san’atkor ma’nosidagi notiq bo‘lmasligi, bo‘la olmasligi mumkin. Lekin adabiy tildan foydalanuvchi har bir notiq nutq madaniyatidan xabardor bo‘lishi shart. Bu o‘rinda T.A. Degterevaning ushbu fikrlarini keltirib o‘tish o‘rinlidir: “U (maktab – E.B.) kelajak so‘z san’atkorlarida nutq madaniyati asoslarini shakllantiradi. Birorta yozuvchi ham, birorta siyosiy va ilmiy asarlar muallifi ham, notiqlik san’atining birorta dahosi ham yo‘qki, nutq madaniyatining maktab beruvchi tayyorgarligidan o‘tmagan bo‘lsin” (Дегтерева Т.А. “Становление норм литературного языка”. –М; 1963, 170-bet.).

6. Nutq madaniyati ko‘pchilikni, keng xalq ommasini ko‘zda tutib ish ko‘rvuchi sohadir. Bu ma’noda nutq madaniyati keng omma uchun mo‘ljallangan talabdir, ammo “notiqlik – bu avvalo qobiliyat, shaxsiy qobiliyatdir” (Jalolov H.S. “M. Kirovning notiqlik mahorati” – Toshkent, “O‘zbekiston”, 1981). Alovida san’atkorlik ma’nosidagi notiqlik (mumtoz ma’noda) nutqiy san’atni, nutqiy go‘zallikni hisobga oladi. Nutq madaniyati esa kishilarning barchasini san’atkor notiq qilishni ko‘zda tutmaydi. U, asosan, ona tilida yoki o‘zga bir tilda to‘g‘ri, madaniy gapira olish va yoza olish faoliyatini tarbiyalashni maqsad qilib oladi. Shu sababli to‘g‘ri va mazmunli so‘zlovchi barcha kishi ham hali san’atkor notiqlikni da’vo qila olmaydi. Fikrimizning dalili uchun A.N. Kunitsinning “Lektorning notiqlik san’ati haqida” nomli asaridan A.V. Lunacharskiyning notiqlik qobiliyati haqida hikoya qilingan ushbu o‘rnlarni keltiraylik: “1925-yili Rossiya fanlar akademiyasi yubiley sessiyasiga butun ilm olamidan vakillar keladi. U (Lunacharskiy – E.B.) bular oldida rus fanining shuhratini ko‘z-ko‘z qildi. Maorif xalq komissari Lunacharskiy 1917-yildan keyingi yetti yarim yil davrida Rossiyada erishilgan fan yutuqlari haqida ma’ruza qildi. U bilardiki, ma’ruzani turli millat vakillari eshitishadi. U o‘z ma’ruzasini rus tilida boshlaydi, nemis, ingliz, fransuz, italyan tillarida davom ettiradi va sof klassik lotin tilida tugallaydi. Hamma hayratda qolgan edi. Tinglovchilarining hech biri buning uddasidan chiqa olmasdi. Parij gazetalaridan biri keyinchalik bu haqda shunday yozdi: ”Dunyoda eng ma’rifatli maorif ministri

**Rossiyadadir”** (Кунисын А.Н. “Об ораторском искусстве лектора”. – Ленинград, 1969, 11-бет.).

7. Nutq madaniyati – bu faqat nutq haqidagi nutqiy faoliyatga tegishli tushuncha va soha emas, u til madaniyati bilan ham, ya’ni adabiy tilni va uning normalarini o‘rganish va bu normalarni qayta ishlash bilan ham shug‘ullanadi. Notiqlik san’ati esa bunday ilmiy-normativ faoliyatni ko‘zda tutmaydi.

8. Notiqlik, ko‘proq nutqning mazmuniga, mantiqiy asoslariga, mundarijaviy tuzilishiga e’tibor qiladi, nutq madaniyati sohasi esa ko‘proq nutqning til qurilishi – lisoniy tuzilishiga e’tibor qiladi.

9. Notiqlik, asosan, aniq bir shaxs – notiq yoki guruqlar – notiqlar nutqi haqida qayg‘uradi. Bunda u notiqni tinglayotganlar, ya’ni keng ma’noda tinglovchilar ommasi nutqini ham ko‘zda tutmaydi. Nutq madaniyati esa bundan farqli ravishda umuman kishilarning nutqiy faoliyatini, nutq madaniyatini ko‘zda tutadi. Shu sababli nutq madaniyati maqsadiga ko‘ra va nutqiy faoliyati nuqtai nazaridan keng maqsadli soha, notiqlik esa tor sohadir.

10. Notiqlik san’ati notiq uchun oldindan qanday so‘zlash sxemasi va rejasini bermaydi va bu tip nutq doimo ham oldindan tayyorlangan, tayyorgarlik ko‘rgan nutq emas, nutq madaniyati sohasi esa jamiyat a’zolarini ona tili, ya’ni adabiy til boyliklari va vositalaridan maqsadga muvofiq, sharoit va uslub taqozasi talabiga ko‘ra o‘rinli foydalana olish ko‘nikmasini beradi. Bunday ko‘nikma, aslida, har qanday san’atkor notiq uchun ham zarur.

11. Notiqlik va notiqlik san’ati haqidagi fan ancha qadimiy tarixga ega,<sup>1</sup> nutq madaniyati ilmiy muammo va ilmiy soha sifatida hali yangi va yoshdir. Professor E.Begmatovning yuqoridagi fikrlariga xayrihoh bo‘lganimiz holda har ikkala fanning bir-biriga yaqinligidan tashqari, alohida xususiyatlarga ham ega ekanligi, ularning alohida-alohida fanlar sifatida faoliyat ko‘rsatishiga imkoniyat beradi. Notiqlik san’ati va nutq madaniyatidagi yaqinlik va farqlarni etika va estetika fanlariga qiyoslash mumkin.

<sup>1</sup>Notiqlik san’ati haqida ma’lumot olish uchun qarang: Xo‘jayeva L., “Notiqlik san’ati”, – Toshkent, 1967; Jalolov H. “Notiqlik san’ati” – Toshkent, “O‘zbekiston”, 1979; Inomxo‘jayev S. “Notiqlik san’ati asoslari”, Toshkent, “O‘qituvchi” 1982; B.O‘rinboyev, A. Soliyev, “Notiqlik – mahorat”, – Toshkent, “O‘qituvchi”, 1984 va boshq.

## II bo'lim. NOTIQLIK SAN'ATI TARIXI

### 1-bob. Qadimgi Yunon va Rim notiqligi tarixi

Qadim zamonlardan beri jamoat oldida so'zga chiqib, odamlarga o'z fikrini tushuntirish, ular ongiga ta'sir etib, o'z ortidan ergashtirish, biror narsa, voqeа, hodisa haqida gapirganda ishontirish va isbotlab berishga intilish, insonlar orasidan so'zamol notiqlarning chiqishiga zarurat tug'dirgan hamda notiqlik san'atining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan. Buning uchun esa, avvalo, ma'lum ijtimoiy sharoit va muhit zohir bo'lishi lozim edi. So'z erkinligi ana shunday sharoitlardan muhimi sanaladi. Qadim Yunonistonda demokratiya tuzumining o'rnatilishi natijasi o'laroq, xalq yig'inlarida, senat kengashlarida, davlat ishlarida, sud ishlarida mamlakatning har bir ozod kishisi erkin nutq so'zlash huquqiga ega bo'lgan.

Davlat ishlarini boshqarishda qatnashishni istagan, lashkarboshilikni xohlagan har bir kishi uchun chirolyi va ta'sirchan nutq so'zlash san'atini egallash majburiy bir ehtiyojga aylangan. Bunday shaxslar xalq yig'inlariga to'plangan odamlar oldida nutq so'zlab yo yutuq, yoxud mag'lubiyat quchganlar. Ular orasida so'zga chechanlari keskin dalillar bilan xalqni ishontirib, odob bilan so'zlagan davlat arboblari xalq nazariga tushib yanada obro' orttirganlar, gapni eplab gapira olmaganlari esa xalq nazaridan qolgan. O'sha davr notiqligi haqida keyingi davr yozuvchilarining guvohlik berishlaricha, Femistokl va Perikllar Afina demokratiyasining yo'lboshchilari bo'lishlari bilan birga nihoyatda kuchli notiq bo'lganlar. Afinada notiqlik san'atining keng rivoj topishiga sud tartibot qoidalarining ham kuchli ta'siri bo'lgan. O'sha davr sud majlislarida sudlanuvchi yoki da'vogar o'z fikrlarini ishonchli isbotlar asosida gapira olishi lozim bo'lgan. Biroq sudlashuvchilarda bunday so'zga chechanlik qobiliyatiga ega bo'lganlar deyarli bo'lman. Demak, ularga maslahat berib ko'maklashadigan, ular ishi yuzasidan sudda gapirishi kerak bo'lgan gaplarni yozib beradigan zukko shaxslarga ehtiyoj paydo bo'ladi.

Natijada qadimgi yunon tilida “logograflar” deb ataladigan, tajribali, qonunni biladigan “advokat”larga ehtiyoj tug‘iladi. Logograflar sudda qatnashayotgan jinoyatchi va da’vogarlarga nimani gapirishi lozimligini yozib bergenlar va shu mehnatlari evaziga haq olganlar. Logograflar odamlarning hojatlarini chiqarish hisobiga qalam haqi olib kun kechira boshladilar. Logografiyaning tirikchilik vositasiga aylanishi notiqlik san’atining rivojida muhim rol o‘ynaydi. Dastlab “Notiqlik san’ati”ning asta-sekin siyosiy va sud notiqligi vujudga keladi, keyinroq mashhur voqealarni, ulug‘ zotlarni madh qiluvchi epidektik notiqlar maydonga keladi.

Afinada eradan oldingi V asr o‘rtalarida notiqlik san’ati shakllangan bo‘lsa-da, adabiy faoliyat o‘rnida qabul qilinmagan va u nutqlarning matnlari bosilmagan.

Bu san’atni ilk bor adabiy janr darajasiga ko‘targan hamda notiqlikka ilmiy yondoshgan kishilar sofistlar hisoblangan. Ular o‘zlaridan oldin o‘tgan notiqlarning faoliyatlarini nazariy asoslashga kirishib, “Ritorika” ilmini yaratadi. Oldin notiqlarni “Ritor” so‘zi bilan atashib so‘ngra notiqlik san’atidan saboq o‘rgatuvchilarni “Ritor”lar deb ataydilar.

Sitsiliya oroli ritorikaning asl vatani hisoblanadi. U joylarda V asr o‘rtalariga kelib demokratianing yo‘lga qo‘yilishi, notiqlik taraqqiyoti uchun omil bo‘ldi. Qadimgi yunonlar Sitsiliyalik Korak hamda Tisiylarni ritorikaning asoschilari deb tan olganlari holda, ulardan bizgacha deyarli hech narsa yetib kelmagan. Biroq ularga vatandosh bo‘lgan sofist Gorgiy (taxminan 483–376) ni ritorikaning birinchi namoyandasini deb bilishgan. A.Alimuhamedovning (“Antik adabiyot tarixi”, T., “O‘qituvchi” 1969) ma’lumotiga ko‘ra: “Gorgiy 427-yilda o‘z shahri Leontina uchun harbiy yordam so‘rab maxsus elchi sifatida Afinaga keldi va xalq majlisida gapirgan nutqi bilan Afina yoshlarida juda kuchli taassurot qoldiradi. Shundan keyin ko‘p o‘tmay Gorgiy butunlay Afinaga ko‘chib kelib, shu yerda ritorika maktabi ochadi va o‘z shogirdlariga so‘z san’atini o‘rgatish barobarida notiqlik bilan ham shug‘ullanadi. Gorgiy asosan mifologik ma’ruzalarda tantanali nutqlar so‘zlagan, uning nomi ostida bizga qadar “Yelena” va “Palimed” sarlavhali ikkita yozma nutq yetib kelgandir. Gorgiyning aytishicha, notiqning eng muhim vazifasi tinglovchini ishontirish, uni maftun etish, rom qilishdir. Maftun etishning asosiy vositasi

sifatida yozuvchi birinchi o'ringa uslubni qo'yadi va shu maqsad bilan o'zining asarlarida "go'zal" uslubning namunalarini namoyish qilmoqchi bo'ladi. Agar siz Gorgiyning asarlarini ko'zdan kechirsangiz, bu odam tashviq etgan "fusunkor" uslubning faqatgina jimjimador tashqi bezaklardan, balandparvoz iboralardan boshqa narsa emasligiga aslo shubhangiz qolmaydi. Darhaqiqat, notiqning bizga qadar yetib kelgan asarlarida tantanali epitetlar, majoziy ifodalar haddan tashqari ko'p uchraydi. Yozuvchi, hatto jumlalarni ham bo'g'in-bo'g'lnlarga bo'lib, ularning har birini bir xil uzunlikda to'qiydi va har qaysi jumlaning oxirini bir-biriga o'xshash qofiyadoshroq so'zlar bilan tugatadi. Qadimgi yunonlar Gorgiyning usulini "jimjimador uslub" yoki muallifning nomiga nisbat berib "Gorgiy uslubi" deb ataganlar".

Gorgiyning bu uslubi zamondoshlariga yoqib qolgan va ularda kuchli ta'sir uyg'otgan. Shuning uchun ham uning ijodi uzoq yillar notiqlik prozasining asosiy namunasi sifatida mashhur bo'ladi.

Ellinizm davrining olimlari Afinada yashab ijod etgan notiqlardan o'nta notiqni mashhur va ulug'laridan deb, ritorika ilmini o'rganishda ularning asarlaridan foydalanishni afzal bilganlar. Shuning uchun bo'lsa kerak, Antifont, Andokid, Lisiy, Isokrat, Isey, Likurg, Demosfen, Esxin, Giperd va Dinarxlarning asarlari bizgacha yetib kelgan.

### Lisiy

(taxminan eramizdan avvalgi 459–380 yillar)

Afinada yashab ijod etgan mashhur notiqlar orasida eng mo'tabarlaridan sanalgan Sitsiliyalik Lisiydir. Uning otasi Perklning taklifi bilan Afinaga kelib, shu yerda yashab qoladi. Uning oilasi o'ziga to'q xonadonlardan bo'lishiga qaramay, kelgindi bo'lgani sababli Afina fuqaroligini ololmaydi. Peloponnes urushida Afina yengiladi. Natijada demokratiyaning tarafдорларидан sanalgan Lisiyning akasi qatl etiladi, o'zi esa zo'rg'a qochib qoladi. 403-yilda demokratiya qayta tiklangach, Lisiy yana Afinaga kelib, logoraflik bilan mashg'ul bo'ladi.

Qadimgi yunonlarning fikriga ko'ra, Lisiy butun ijodi davomida uch yuzga yaqin nutq yozgan. Shundan bizgacha sud nutqlaridan iborat o'ttiz to'rttasi saqlanib qolgan.

Lisiy logograflik kasbi davomida unga ishi tushib kelgan kishilarning hojatini bitirishdan oldin, ularning dunyoqarashini, psixologiyasi va tabiatini chuqur o'rganib, keyin ularga o'z qo'llaridan va tillaridan yozganday qilib nutq yozib beradi. O'sha paytda Afina sudida ishtirok etuvchi kishilarning ko'p qismi davlat qonunlaridagi murakkabliklarni chuqur tushunmaganlar. Juda ko'pchiligi tahsil ko'rмаган kishilar bo'lgan. Shu sababli ular so'zga chechan, so'zamol odamlarning sud hay'atini aldab ketishlaridan cho'chishib, ilmoq dor va balandparvoz so'zlarga gumonsirab qarashgan.

Bularga kimdir bu so'zlarni to'qishda yordam bergen bo'lishi mumkin deb qarashgan. Ikkinchidan, logograflardan yordam istab kelganlar orasida, turli tabaqa vakillari, turli kasb egalari bo'lishgan. Shuning uchun ham Lisiy nutq yozib berishdan oldin undan yordam so'rab kelgan buyurtmachini o'rganadi. Shundan keyingina u odamga ijtimoiy kelib chiqishiga, jamiyatda tutgan o'rniga, shaxsiy xarakteri va tabiatiga moslab nutq yozib bergen. Lisiya murojaat etayotgan kishi agar qishloqdan kelgan oddiy bir dehqon bo'lsa yoki shaharda yashasa ham o'rtacha dunyoqarashga ega bo'lsa, unday odamlar kitobiy so'z va iboralarni, murakkab qonundagi kerakli boblarni isbot keltirib ishonarli nutq so'zlashi qiyin va buning iloji yo'q. Agar nutqini shu yo'sinda uddalay olsa, nutqning soxtaligi bilinib qolishi tabiiy hol. Lisiy san'atkorigining asosiy siri shundaki, u nutq yozishga kirishar ekan, bir maqsadni ko'zlaydi, u ham bo'lsa, sudda gapi rayotgan kishi haqida sud hay'atlari ko'nglida ishonarli taassurotlar qoldirish, so'zlovchining har bir gap-so'zлари, qalbidan chiqayotgan samimiy gaplar ekaniga ishontira olishidir. Lisiy byurtmachilar orasida olifta o'ziga bino qo'ygan dimog'dor shaxsni, tiyinni-tiyniga urib foyda ko'raman deb yurgan xasis olibsotarmi, xotini izmida yurgan, o'z fikri bo'limgan laqma ermi yoki shallaqi ayolmi, maqtanchoqmi, ayyormi yoxud sodda omi insonmi, kim bo'lishidan qat'iy nazar – Lisiy ularning har biri xarakter xususiyatiga, tabiatiga, bilimi va jamiyatdagi mavqeiga mos keladigan o'z nutqi bilan tinglovchilarni ishontiradigan uslubni topadi. Shuning uchun ham Lisiy yozgan nutqlarning hammasida so'zlovchining tabiatiga mos gaplar o'rin olgan bo'ladi. Lisiy uslubiga xos husn va latofat ham nutq tilining sodda, aniq va fikrning lo'ndaligida ko'rinadi. Lisiydagи bu mahorat

— ya’ni har kimni o‘z tilida, o‘z tabiatiga mos gapirtirish, gapiruvchining qiyofasini to‘la ko‘rsata olish, yunon tarixida o‘tgan logograflarning birontasida uchramaydigan hodisa. Bu borada Lisiyga ulardan birortasi ham teng kelmaydi. Ularning Lisiydan farqli tomoni shunda ediki, ular o‘zлari yozib bergan nutqlarni ko‘plab dalillar bilan to‘ldirgani holda, shu dalillar asosida joyjoyiga qo‘yib, da’voni isbot etishga, nutqlari shaklining chiroyli bo‘lishiga ortiqcha e’tiborni qaratganligida, nutq so‘zlovchining tabiatini hisobga olmaganligida.

O‘sha davr sud qoidalariga ko‘ra sudlanuvchilarning nutqi uch qismdan tashkil topgan. Ular nutqlarining kirishi sud hay’atiga murojaatdan boshlangan va shu orqali hay’atning iltifotiga erishishga urinishgan. Nutqlarining asosiy qismida esa voqeahodisalar tafsilotini aniq va ravshan hikoya qilishga, nihoyat nutqining yakunida aytgan gaplarining to‘g‘riligiga, dalillarga ishontirishga uringan, o‘ziga raqib bo‘lgan tomonlarning dalillarini puchga chiqarib, o‘zining haq ekanligiga mumkin qadar ishontirishga bor kuchini sarflashgan.

Lisiyga qadar va undan keyin o‘tgan logograflar yozib bergan nutqlarida bor kuchni nutqning kirish va xulosa qismiga berib, asosiy hikoya qilib beriluvchi bayonot qismiga ko‘proq e’tiborni qaratmaganlar. Lisiy esa ulardan farqli o‘laroq, butun fikrni kirish va xotima qismiga sarflamasdan, notiqlik mahoratini ko‘rilayotgan ishning — ya’ni, voqeahodisalarining tafsilotini sodda va aniq, ravshan hikoya qilishga qaratadi. Lisiy yozgan nutqining bayonot qismidagi nafisligi kamdan-kam’ logograflarga nasib etgan. Lisiy voqealar bayonini yozganida oddiy so‘zlar orqali qisqa va lo‘nda hikoya qilish yo‘lidan borib, dalil va da’volarni bayonotga yog‘day singdirib yuboradi. Natijada bitilgan nutq qanchalik sodda bo‘lmasin, shu sodda nutq tagida yashirinib yotgan tabiiy holat va samimiyat tinglovchilar qalbiga yetib boradi. Natijada hay’at a’zolari ko‘nglida ham gunohkorga nisbatan rahmdillik kayfiyatini uyg‘otadi. Bu o‘rinda bir misolga fikrimizni qarataylik: Eratosfen ismi shaxsning Evfilet tomonidan o‘ldirilishi haqidagi sud majlisida bu holat yaqqol seziladi. Mazkur ish yuzasidan gunohkor sifatida sudga tortilgan qotil Evfilet hay’at a’zolariga o‘zining shaxsiy turmushi haqida hikoya qilib beradi. U uylanganining dastlabki paytlarida xotiniga ishonolmay yuradi. Birinchi farzandi

**tug‘ilgandan so‘ng** xotiniga ishonchi va mehri ortadi. Xotinini **ko‘p** tergamay qo‘yadi. Shunday kezlarda Evfiletning onasi **olamdan o‘tadi**. Dafn marosimida Eratosfenning nigohi Evfiletning **go‘zal** xotiniga tushib, unga yetishish uchun yo‘l izlaydi. U **maqsadiga** erishish uchun Evfiletning uyida oqsochlik qiladigan **qizni** qo‘lga oladi. Qizning ko‘magida Evfiletning xotini bilan **topishadi**. Evfilet esa xotinining xiyonatini sezmasdan xotirjam **yashayveradi**. Shunday kunlarning birida notanish bir ayol uni **xotinining sirlaridan** ogoh qiladi. Ayolning gaplariga qaraganda, **Eratosfen** bu ayolning ham bekasini yo‘ldan urgan va tashlab **ketgan**. Bu sovuq xabarni eshitgan Evfilet uyidagi oqsoch qizni **qistovga** olib so‘rasaki, haqiqat bo‘lib chiqadi. Shundan so‘ng, **Evfilet** Eratosfen bilan xotini o‘rtasidagi jirkanch jinoyatni ochishda **cho‘ri** qizdan yordam so‘raydi. Qizning yordami badaliga uning **gunohidan** kechishga va‘da beradi.

Tez orada Evfilet oqsoch qizning xabariga ko‘ra, raqibini qo‘lga **tushiradi**. Uch-to‘rtta qo‘ni-qo‘shnilardan guvoh sifatida **foydalangan** Evfilet ular bilan birga xotinining yotog‘iga bostirib **kiradi** va Eratosfenni jinoyat ustida qo‘lga olib, uni o‘ldiradi.

Lisiy Evfiletning tabiatiga mos nutqni yozgan. Evfiletning **soddaligini**, biroz bo‘lsa-da, laqmaligini hisobga olgan, biroq vaqtি **kelganda** o‘z oriyati yo‘lida hech narsadan qaytmasligini, darg‘azab **qasoskorga** aylanishini ko‘rsata oladigan nutq uslubini topgan. **Evfiletning oddiy tilda** aytgan hikoyasini eshitgan har bir tinglovchi **voqeani** go‘yo o‘z ko‘zları bilan ko‘rgandek his etib, shohidlar **■figa** xayolan qo‘shilganini sezmay qoladi. Bunday o‘ylab qaralsa, **■dangan** er, uning go‘zal xotini, begona ayollarni yo‘ldan uradigan **otg‘ir** va olifta yigit, ularga qo‘shmachilik qilgan oqsoch qizning **qiyofasi** ko‘z o‘ngimizda paydo bo‘ladi.

“ Lisiy tomonidan bitilgan har bir nutq sud minbaridan turib **■pirayotgan** qonunshunosning safsata gaplari emas, balki mohir **notiq** qalamiga mansub bir asar sifatida ahamiyatli. Uni ijro **■tayotgan** odam go‘yo sud minbari sahnasida rol ijro etayotgan **■ktyorni** eslatib, tinglovchilar ongiga hikoyasini singdirib, ular **■albini** junbushga keltiradi.

“ Yunonlarda notiqlik san‘atining quloch yoyishi sud notiqligidan **■ng**, harbiy notiqlik va siyosiy notiqlik turlarining, sal o‘tmay **■pideyktik** —tantanali notiqlik paydo bo‘lishiga olib keldi.

Epideyktik notiqlikda balandparvoz so‘zlar ishlatalar, shu bois ham bunday nutq matnini tayyorlash anchagina izlanishni talab qilardi. Natijada logograflar o‘zlaridan oldingi voizlarning merosiga va xalq og‘zaki ijodiga murojaat eta boshladilar. Shu tariqa chirolyi so‘zlash san’ati asta-sekin shakllanib, badiiy adabiyotning rivojida muhim ahamiyat kasb etdi. Ya’ni, tragediya, komediya va roman janrlarining tug‘ilishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Eng muhimi, notiqlik san’atining rivoji adabiy tilning shakllanishiga, shuningdek, notiqlik san’ati nazariyasi bo‘lmish “ritorika” ilmining vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Rimdagagi barcha shoirlar va notiqlar shu mакtabdan, ya’ni ritorika maktabidan ta’lim olganlar.

Notiqlar tomonidan yaratilgan nurlq matnlari nasriy va poetik ijod namunasi sanalgan. Bunday ijodkor notiqlarning nomi o‘z mamlakati doirasidan chiqib, jahonga ma’lum va mashhur bo‘lgan. Aristotel, Demosfen va Sitseronlar shular jumlasidandir.

### Aristotel

(eramizdan avvalgi 384–322-yillar)

Markaziy Osiyoda Arastu nomi bilan mashhur bo‘lgan Aristotel eramizdan avvalgi 384-yilda Stag‘irda (Makedoniya yarim oroli) shifokor oilasida dunyoga keldi. Uning otasi Nikomax podsho Aminti II saroyida shifokorlik qilgan.

Aristotel 17 yoshida Afinaga keladi va bu yerda o‘z zamonasining mashhur olimlarilari bo‘lgan Platonga shogird tushadi. Platonning vafotidan so‘ng Aristotel 347-yili Afinadan Troad tomon o‘tib, Assosga boradi. Chunki bu yerda ustozning tarafdorlari ko‘p edi. Unga, ayniqsa, zo‘ravon, zolim Germiy homiylik qiladi. Aristotel Germiy vafotidan so‘ng Lesbos yarim orolidagi Mitilen shahriga ko‘chib o‘tadi va u yerda 342-yilgacha yashaydi. 342-yili Makedoniya podshosi Filipp o‘zining Aleksandr ismli 13 yoshli o‘glining tarbiyasi uchun Aristotelni Mitilenden chaqirib oladi. Bu yerda u falsafa maktabini ochadi va katta kutubxona tashkil qiladi.

Shu davrda Gretsiyada chirolyi so‘zlashga qiziqish kuchayib ketgan edi. Natijada qator notiqlik maktablari ochiladi. Bu maktablardan so‘z san’ati ustalari yetishtirib chiqardi. Keyinchalik

chiroyli so‘zlash haqidagi qo‘llanmalar maydonga keldi. Shunday asarlardan biri Aristotelning «Ritorika» nomli kitobidir. Buyuk olim uni mashhur «Poetika» nomli asaridan so‘ng, ya’ni eramizdan oldingi 330-yillarda Afinaga so‘nggi marta qaytib kelganda yozgan edi.

Ma’lumki, ungacha Anaksimon, Lampsak ham «Ritorika» nomli qo‘llanma yaratgan edi. Bu ikki asar bir-biriga tamoman o‘xshamaydi. Ularning birinchisi qo‘llanma bo‘lsa, ikkinchisi chiroyli so‘zlash nazariyasi bo‘yicha ilmiy mulohazalardan iborat.

Aristotelning «Ritorika»si uch kitobdan tashkil topgan. Asarning birinchi va ikkinchi kitoblari, asosan chiroyli so‘zlash, ishontirish uslublari haqidagi fikr va mulohazalardan iborat bo‘lsa, uchinchi kitobida nutq mantiqiga juda katta ahamiyat beriladi. Olimning fikricha, notiq tilidagi turli «qorishmalar», ya’ni so‘zlearning noto‘gri va noto‘rin talaffuz qilinishi, jumlalarning mantiqan har xil tuzilishi so‘zlovchining katta xatosidir. Aristotel har bir jumlaning asosiy fikrni ifoda etishga qaratilishi, ravon va tinglovchi tushunadigan darajada sodda bo‘lishini talab etadi. U notiqning hissiyot bilan so‘zlashi mulohaza yuritayotgan fikrning tinglovchi qalbiga tez yetishida muhim omil bo‘lishini alohida uqtiradi. Bundan tashqari, Aristotel notiqning auditoriyani o‘ziga jalb etishi uchun hazil-mutoyiba so‘zlar bilan lirik chekinish qilib, tinglovchilarni hayajonlantira bilishi zarurligini, agar turli ko‘rgazmali qurollardan foydalansa, har xil epitet, chog‘ishtirish va metofaralarni qo‘llasa, nutqining ta’sirchanligi yanada oshishini, ammo keltirilgan misollar ko‘payib ketib, tinglovchini zeriktirib qo‘ymasligi kerakligini ham ta’kidlaydi.

Arsitol notiqlik san’atini egallashni 5 qismga bo‘lib o‘rgatadi:

Materialni kashf etish (har tomonlama tayyorlash).

Materialni joylashtirish shakli (rejasi).

Materialni eslab qolish (o‘zlashtirish).

Materialni so‘z yordamida to‘g‘ri aks ettirish.

Materialni to‘g‘ri talaffuz etish.

Aristotelning fikrlari hozirgi kunda ham o‘z qimmatini saqlab kelmoqda.

## Demosfen

(eramizdan avvalgi 384–323-yillar)

Umrini ona-Vatanining gullab-yashnashiga bag‘ishlagan davlat arbobi, mashhur notiq Demosfen eramizdan oldingi 384-yili Afinada o‘ziga to‘q oilada dunyoga keldi. Otasining ismi ham Demosfen bo‘lib, quroq ustaxonasining egasi edi.

Bo‘lajak notiq 5 yoshga to‘lganida otasidan ajraladi. Demosfen bilan singlisiga otadan katta meros qoladi. Bolalarning tarbiyasi va merosi vaqtincha tog‘asiga topshiriladi. Tog‘a esa barcha boyliklarni qo‘lga kiritib olgach, bolalarning tarbiyasi bilan qiziqmaydi. Natijada Demosfen juda nimjon va kasalmand bo‘lib o‘sadi.

Demosfen voyaga yetgach, tog‘asi unga faqat qullari, uyi va uy jihozlarini hamda pulning ma’lum bir qisminigina berib aldaydi. Demosfen tog‘asidan mol-mulkning qolganini yaxshilik bilan qaytarib berishini so‘raydi. Biroq tog‘a bundan bosh tortganidan keyin u qolgan merosini sud orqali undirib olishga qaror qiladi. Sudda muvaffaqiyat qozonish uchun Afinaning davlat qonunlarini yaxshi bilish, shu bilan birga, ravon so‘zlash, da‘vosining to‘g‘riligiga kishilarni ishontirish kerak edi. Shu sababli Demosfen notiqlik san‘atini o‘rganish uchun o‘z davrining meros ishlari bo‘yicha mashhur advokati Isey maktabida ta’lim olishga majbur bo‘ladi. U to‘rt yil davomida qunt bilan o‘qiydi va bu davrda ko‘pgina yozuvchilarining asarlari bilan tanishib chiqadi. Ayniqsa, mashhur tarixchi Fukidid (eramizdan oldingi V asrda yashagan Afina tarixchisi va davlat arbobi. U Pelopan urushida ishtirot etgan va uning tarixini yozgan) va faylasuf Platonning tanlangan asarlarini puxta o‘rganadi. Bo‘lajak notiq Fukidid asarlarini sakkiz marotaba qayta ko‘chirib yozib, uni deyarli yoddan o‘zlashtiradi.

Demosfen o‘qishni tugatgach, vasiylari bilan suplashadi va sud besh yil davom etadi. Bir necha yil surunkasiga bo‘lgan kurash bo‘lajak notiq xarakterining toblanishida, bir so‘zli va matonatli bo‘lishida katta rol o‘ynaydi.

Yoshlik chog‘laridayoq ko‘pchilik oldida so‘zga chiqishni orzu qilib yurgan Demosfen o‘qish yillarida o‘qituvchisi bilan sud majlislariga qatnashadi.

Demosfen notiqlik bilan shug‘ullanishdan avval o‘z ustozi yo‘lidan borib, boshqalarga sudda so‘zlanadigan nutqning matnini

yozib berar va bu ishlari uchun yaxshigina haq olar edi. Bora-bora nutqiy matnlar yozish Demosfenni qoniqtirmaydi. U otashin vatanparvar sifatida o‘z ijtimoiy faoliyatini Vatan ravnaqi uchun sarflashni orzu qiladi.

Yosh notiqning xalq oldidagi birinchi nutqi ayanchli holda: to‘polon, kulgi, qiyqiriq, hushtak chalib masxaralash bilan qarshi olinadi. U o‘z nutqini tugatolmay minbardan tushishga majbur bo‘ladi.

Demosfen nutqining bunday ayanchli tugashi tabiiy edi, chunki uning tovushi juda past bo‘lib, bir oz duduqlanar, “R” harfini talaffuz etolmas, g‘o‘ldirab, mujmal gapirar edi. Bulardan tashqari, uning elkasini qimirlatib turadigan odati ham bo‘lib, ko‘pchilik orasida o‘zini to‘gri tuta bilmas edi.

Xalq majlislaridan birida Demosfen o‘zini ikkinchi bor sinab ko‘rdi. Lekin bu safar ham muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Shundan so‘ng Demosfen o‘z nutqidagi kamchiliklarni boshqa takrorlamaslik uchun astoydil bosh qotiradi. Har kuni bir necha soatlab noto‘gri talaffuz etayotgan so‘zлari ustida qayta-qayta mashq qiladi. Hatto og‘ziga tosh solib olib, qattiq va ravon gapirishga harakat qiladi. «R» tovushini to‘g‘ri talaffuz etish maqsadida kuchuk bolasining irillashini kuzatadi va o‘zi ham xuddi shu tovushni qaytaradi. Nihoyat, uzoq muddatli tinimsiz mashqlardan so‘ng Demosfen o‘z maqsadiga erishadi. Mashhur notiq bo‘lib yetishadi. Ammo, shunga qaramay, u hech qachon tayyorgarliksiz nutq so‘zlamas, oldindan yozib qo‘ylgan matnni yodlab olar, har bir so‘z ustida puxta o‘ylar, jumlalarni aniq va chiroyli tuzishga harakat qilar edi. Ulug‘ notiqning nutqi shu qadar sodda, ravon, mantiqan puxta va jozibali bo‘lardiki, bu faqat mashaqqatli mehnat samarasini edi.

Demosfen hech vaqt bo‘limg‘ur safsatalarni yoqtirmas, xotirjamlik bilan tinglovchilarning fikrini o‘ziga tortar, ularni o‘zi himoya qilayotgan ishning haqligiga ishontirish uchun butun kuch-quvvatini sarflar edi.

Demosfen 30 yoshga to‘lganda davlat ishlarida ham ishtirok eta boshlaydi. U o‘zining butun mahorat va bilimini Vatanning dushmani—makedoniyalik podsho Filippga qaratadi. Afina davlati Makedoniya rahbarligiga o‘tgach, Demosfen dushmanlari qaytadan bosh ko‘taradilar. Aslida bu voqeadan bir necha yil ilgari Xalq partiyasi Demosfening vatanparvarligini yuksak baholab, uni

«Oltin gulchambar» bilan taqdirlashga tavsiya etgan, Xalq majlisi ham buni ma'qullab, qaror qabul qilgan edi. Makedoniya tarafdorlari bu qarorga qarshi chiqadilar. Hatto o'z davrining mashhur notiqlaridan bo'lgan Esxil majlis qarori ustidan sudga shikoyat qilib ariza beradi. U xalq majlisining noto'g'ri qaror chiqarganligini isbotlashga urinib, Demosfennning bunday oliv mukofotga munosib emasligini uqtiradi. Qayta bo'lgan sud ikki buyuk notiqning yakkama-yakka olishuviga aylanib ketadi.

Sud bo'layotgan maydonga shunchalik xalq to'plagan ediki, go'yo mavj urib turgan dengizni eslatardi. Demosfenni qoralab so'zga chiqqan Esxil tamomila kurakda turmaydigan gaplar bilan tuhmat toshini ota boshlaydi.

«Gulchambar»ni "himoya qilish maqsadida so'z olgan Demosfen esa, Vatanining gullab-yashnashi yo'lida tinmay kurashganini, shu bilan birga, Exsilning sotqinlikdan iborat faoliyatini yorqin nutqida obrazli turzda tasvirlab beradi. G'animlarning qarshiligiga qaramay, sud juda to'g'ri va oqilona qaror chiqaradi. Sud hukmiga muvofiq Esxilga katta miqdorda jarima solinib, Afinadan badarg'a qilinadi.

Demosfenning «Gulchambar» haqidagi nutqi faqat Esxil ustidan qozonilgan g'alabagina emas, balki Afina va butun Gretsiyadagi vatanparvarlarning tantanasi ham edi.

Suddagi muvaffaqiyatidan so'ng, Demosfenning davlat oldidagi obro'si yanada oshadi. Biroq, turli sabablarga ko'ra, Makedoniya bilan Afina o'rtaida boshlanib ketgan urushda afinaliklar mag'lub bo'lib, barcha vatanparvarlar o'z yurtlaridan badarg'a qilinadilar. Faqat aristokrat boylargagina siyosiy va iqtisodiy huquqlar beriladi. Demosfen sirtdan o'limga mahkum etiladi. Shundan so'ng u Kalavri oroliga qochib borib, Poseydon ibodatxonasiga yashirinadi. O'sha vaqtarda ibodatxonaga qochib kirgan odamni, kim bo'lishidan qat'i nazar, qamash yoki o'ldirish mumkin emas edi. Chunki u xudoning panohi va himoyasida hisoblanar edi.

Dushmanlari Demosfenning yashiringan joyidan xabar topib, uni tiriklayin qo'lga tushirishga harakat qiladilar. Ular notiqqa bo'lmag'ur va'dalarni berib, Antipatra huzuriga olib bormoqchi bo'ladilar. Demosfen o'z dushmanlarining yovuz niyatini fahmlagach, uyga hat yozish bahonasi bilan ibodatxonanining ichkarisiga kirib, zahar ichadi.

Buyuk notiq eramizdan oldingi 322-yilning 12-oktabrida shu tariqa dunyodan o'tadi.

### Sitseron

(eramizdan avvalgi 103–43-yillar)

Mark Tulliy Sitseron eramizdan oldingi 103-yilda Rimdan uzoq bo'limgan Arpina shahrida badavlat oilada dunyoga keldi. Uning bolalik yillari Arpina shahridagi otasiga qarashli yerlarda o'tadi. Otasi o'z farzandiga yaxshi ta'lim-tarbiya berish maqsadida Rimga ko'chib o'tadi. Sitseron u yerda Yunon murabbiylari qo'lida tahsil ko'radi. Yunon tili va adabiyotini mukammal egallagach, Yunonistonning mashhur so'z ustalari Lisiniy, Kross va Mark Antoniy kabi notiqlardan so'z san'atining nozik sir-asrorlarini o'rganadi, ularning ajoyib nutqlarini tinglaydi.

Bo'lajak notiq ayni vaqtida falsafa bilan shug'ullanadi. Lekin uni ko'proq notiqlik san'ati qiziqtiradi. Sitseron notiqlarning turli mimika va harakatlar bilan so'zlayotganini ko'rib, notiq bo'lish uchun aktyorlikdan ham xabardor bo'lish kerak ekan, degan xulosaga keladi. Shuning uchun Ezop va Rossiy kabi o'z davrining mashhur aktyorlaridan saboq oladi.

Sitseron uzoq tayyorgarlikdan so'ng, 25 yoshida birinchi marotaba xalq oldida nutq so'zlashga jur'at etadi. U avval fuqarolik, so'ngra jinoiy ish jarayoni bo'yicha gapiradi. Biroq uning bu nutqiga davlat boshliqlaridan Sull hamda Kott ismli mashhur notiqlar qarshi chiqadi. Shundan so'ng u ritorika va falsafa fanlaridan mukammalroq nazariy bilim olish maqsadida zamonasining buyuk notiqlaridan hisoblangan Antio Askalonskiydan ta'lim oladi, mashhur so'z ustalaridan o'rganish niyatida Kichik Osiyoning bir qancha shaharlarini kezib chiqadi.

U ancha vaqtgacha nutq so'zlashda yangi usullar qidiradi. Nihoyat, Osiyo hamda Attika (O'rta Gretsyaning (Yunoniston) janubi-sharqidagi dengiz ichkarisiga ancha yorib kirgan yarim orol Attika deb ataladi) usullari omuxtasidan iborat bo'lgan yangi bir uslub kashf etadi.

Sitseron o'z zamonasining ko'pchilik so'z ustalari singari o'z faoliyatining ilk davrlaridayoq nutqida uslubning chiroyliligi, iboralarining jonliligi, jumlalarning nafis bo'lishiga katta e'tibor beradi.

Sitseron Osiyoga sayohat qilib, notiqlik san'atining sirlarini o'rganib yurgan vaqtida Rim hukmdori Sull vafot etadi. Shundan so'ng yosh notiq Rimga qaytib keladi va 31 yoshidan boshlab davlat ishlarida ishtirok etadi.

Sitseron konsullik lavozimiga saylangach, butun notiqlik mahoratini siyosiy nutqlarga bag'ishladi. U suddagi nutqlarida o'zi yaratgan uslubdan foydalanib, raqiblarini «qo'l-oyog'i bog'langan quyonday taslim qildi». Hukmdor Rull tomonidan qabul qilgan senat qonunlarini qattiq qoralab, Rull tarafdorlariga zarba beradi. Kelgusi yili (59-yil) Sitseron o'rniqa Sezar konsul bo'lib saylangach, senatning Rull proektiga juda yaqin bo'lgan yangi qonunlari qabul etiladi. Gabini va Pizonlar o'zлari konsul bo'lib ish boshlagan 58-yilning dastlabki davrida Sitseronni Rimdan badarg'a etish haqida hukm chiqarishga harakat qiladilar. Dushmanlari tomonidan qasos olinishi muqarrar ekanligiga ishongan notiq Yunonistonga jo'nab ketadi.

Vatandan haydalishi Sitseron uchun nihoyat darajada og'ir bo'ladi. U bir yarim yildan so'nggina do'stlarining yordami tufayli Italiyaga qaytib kelish uchun ruxsat oladi. Ona-Vatanga bo'lgan cheksiz muhabbat buyuk notiqning ilhomini tag'in ham jo'sh urdiradi. U nutq nazariyasi ustida tinimsiz ijod qila boshlaydi. Oradan ko'p o'tmay, mashaqqatli mehnat samarasи sifatida, uning uch kitobdan iborat «Notiqlar haqida» nomli asari dunyoga keladi. Mazkur asar dialog shaklida yozilgan bo'lib, Litsiniy, Kross, Mark Antoniy, Yuliy Sezar, Strabon, Katull, huquqshunos Ssevola va uning shogirdlari Katt, Sulnitsiy, Rуflarning ijtimoiy va siyosiy nutqlari, ularning notiqlik san'ati hamda bu san'atining eng mayda-chuyda masalalaridan tortib siyosiy muammolargacha bo'lgan fikr-mulohazalarini o'z ichiga oladi.

Sitseronning fikricha, notiq shunchaki sud ishlarining barcha qonun-qoidalarini yaxshi biladigan qonunparast emas, balki davlat ishlarini chuqur tushunadigan, xalq qayg'usiga hamdardlik qila oladigan davlat arbobi bo'lmog'i kerak. Shuning uchun notiqlik san'atiga qiziqqan har bir kishi faqat Ritorika ilmiga oid ibridoiy bilimlar bilan cheklanmasdan va o'zining tabiiy iste'dodiga ishonib qolmasdan, doimo turli fanlarni o'qib-o'rganmog'i, ilm va madaniyatning yuqori cho'qqilariga intilmog'i darkor. Bundan tashqari, «Notiqlar haqida» asarining muallifi notiqlarning odamlar

diliga qo'rquv, g'azab va qaygu sola bilishi va aksincha, bu xildagi hayajonli holatlardan kishilarni xalos qilib, ularning ruhida xotirjamlik, mehr-shafqat hislarini uyg'ota olishi kerakligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, agar notiq odamlarning turli-tuman xarakterlarini sezmasa, inson tabiatidagi umumiy xususiyatlarni bilmasa va har bir kishini goh bezovta qiladigan, goh tinchlantiradigan sabablarni tushunmasa hech-qachon o'zining maqsadaga erisha olmaydi.

Sitseron «Brut», «Notiq» nomli boshqa asarlarida Rim notiqlik san'ati tarixi haqida bataysil fikr yuritib, attikachilarining nazariyalariga tamomila qarshi mulohazalar bilan maydonga chiqadi. Uning ta'kidlashicha, har qanday notiqning ko'zda tutgan asosiy maqsadi tinglovchining zavqini uyg'otib, ularni o'ziga moyil qilishdan iboratdir. Notiq sharoitga qarab mavjud uslublarning hammasidan baravar foydalanishi zarur.

Sitseron bu fikrni davom ettirib, «kimki jo'n narsalar haqida oddiygina, kundalik voqealar haqida o'rta darajada, ulug' hodisalar haqida esa zavq-shavq bilan gapirsa, shu odam so'z san'atining chinakam ustasi bo'ladi» deydi.

Poeziya tilining vazni va ohangdorligi, uzun va qisqa hijolarning, unli va undosh tovushlarning almashinushi, bir so'zning oxiri va ikkinchi so'zning boshida ikki unlining qator kelishiga yo'l qo'ymaslik, so'zlarni to'g'ri talaffuz etish, grammatik qoidalarga katta e'tibor berish kabi notiqlik san'atining muhim masalalari ham Sitseron asarlarida o'zining to'la ifodasini topgan.

Tinglovchini toliqtirib qo'ymaslik uchun nutq davomida ko'tarinki usulni bir parda pasaytirib, nutq mavzuiga aloqador shaxslar bo'lsa, ularning goh salbiy, goh ijobiylar xarakteristikasini berish, ilgari o'tgan mashhur zotlar haqidagi biron latifani eslatib ketish, lozim bo'lganda, ba'zi bir hayotiy manzaralarni, dramatik voqealarni eslash, o'mniga qarab biroz hikmatli so'z, maqol va qochiriq gapni qistirib o'tish — Sitseronning eng sevgan usullaridan edi.

Sezar vafotidan so'ng davlatni uning nabirasi Oktavian boshqaradi. U o'z davlatini mustahkamlash maqsadida Sitseronning Senat oldidagi mavqeい va obro'sidan foydalanmoqchi bo'ladi. Biroq Sitseron Oktavianga ishonmaydi. Sitseronning dushmanlari yangi hukumdorni o'zlari tomonga og'dirib olgach,

undan buyuk notiqni qatl etishni talab qiladilar. Shunday qilib, so'z san'atining mohir ustasi shafqatsiz jazoga hukm etiladi. Oldin uning o'ng qo'li qirqib tashlanadi, so'ngra boshi tanasidan judo qilinadi.

Sitseronni butun insoniyat oldida ulug'lab, obro'sini oshirgan narsa uning ajoyib, takrorlanmas nutqlari bo'ladi. Uyg'onish davrida Italiya, Fransiya va Olmoniyaning insonparvar olimlari Sitseronning ilhombahsh nutqlarini sevib o'rgandilar. O'sha davrda chiroli so'zlagan kishilar «siseronchilar» deb atalar eda

Rimda bir qancha vaqtgacha notiqlik san'ati rivojlanishdan to'xtab qoldi. O'rta asrlarga kelib esa notiqlikning diniy va sxolistik tomonlari avj olib ketdi. Din homiylari notiqlik san'atini o'z qo'llariga olganlaridan so'ng uni o'zlarining maqsadlarini amalga oshirish uchun xizmat ettira boshladilar. Din ahllarining o'rtasida ham iste'dodli notiqlar bor edi. Ulardan ayniqsa Vasiliy Velikiy, Grigoriy Bogoslov, Ioann Zlatoust va Avreliy Avgustinlar katta shuhrat qozondi.

O'rta asrlarning ikkinchi yarmidan boshlab, ya'ni X1–XII asrlardan «universitet notiqligi» deb nomlangan notiqlik san'ati rivojlandi. Dorilfununning tarix o'qituvchisi Yan Gus ilg'or (progressiv) fikrlari uchun gulxanda yondirilgan. Oksford dorilfununing magistri Duns Skott, sxolistik falsafa o'qituvchisi parijlik Per Abelyarlar ham san'atning atoqli vakillari edi.

O'rta asrning so'nggi davrlarida ko'zga ko'ringan yetuk notiqlardan biri florensiyalik monax Savonarola edi. U ilk bor cherkovni xristianlikning prinsiplariga qaytishga chorladi. To'g'ri, Savonarola cherkovdan voz kechishni targ'ib qilmadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, uning maftunkor nutqlari o'z-o'zidan katalitsizmga ketma-ket zarba bo'lib tushaveradi. Natijada notiqning cherkovdagagi xizmati kun sayin og'irlasha boshladi. Ashaddiy dindorlar Savonarolani xuddi Yan Gus kabi ta'qib ostiga olib, turli ig'volar tarqatdilar, so'ngra tiriklayin gulxanda kuydirdilar.

XVI asrda burjuaziyaning tug'ilishi bilan yangi – insonparvarlik dunyoqarashi shakllana boshladi. Uning xarakterli xususiyatlaridan biri insonning kuch-quvvatiga, aql-zakovatiga ishonch hamda antik dunyo madaniyatiga katta qiziqish uyg'otish edi. Insonparvarlar xalq yaratgan madaniy boyliklarni ko'z qorachig'idek saqlashni

targ‘ib qildilar. Shuning uchun ham ko‘p vaqtlargacha «uygotish» termini «gumanizm» termini bilan yonma-yon turib keldi.

Shu davrning ko‘zga ko‘ringan yetuk notiqlari sifatida Erazm Retterdamskiy, Ulrix fon Gutten hamda katolik cherkovining turli xil namoyishlariga o‘zlarining ajoyib nutqlari bilan zarba bergen Martin Lyuter va Kalvinlarni sanab o‘tish mumkin.

Bu davrda Olmoniyada notiqlik san’atini mukammal egallaganlardan biri Tomas Myunser edi. Myunser dehqonlar o‘rtasida shunday ajoyib nutqlar so‘zlar ediki, uni tinglagan har bir dehqon yuragida yangi hayotga nisbatan katta umid uyg‘onar edi. Hatto shuning natijasida dehqonlar pomeshchik va feodallarga qarshi kurashga otlanib, qo‘zg‘olon ham ko‘tardilar.

## 2-bob. Sharq va Markaziy Osiyoda notiqlik tarixi

Notiqlik san’ati (Ritorika) tarixi haqida gap ketganda jahon fanida notiqlik san’atining taraqqiyoti eramizdan oldingi V asrning o‘rtalarida Afinada deb tan olingan. Qadimgilarning fikricha, notiqlik san’atining asl vatani Sitsiliya oroli bo‘lgan. Notiqlik san’atining asoschilari deb sitsiliyalik Korak hamda Tisiyni tan olganlar. Biroq ulardan bizgacha deyarli hech narsa qolmagan. Ular hayoti va ijodi to‘g‘risida fan olamida birozgina iz qolgani aytildi. Keyinchalik ularga vatandosh bo‘lgan sofist Gorgiy (483–376) hamda Lisiy (459–380)larni notiqlik san’atining ulug‘ namoyandalari sifatida ulug‘laganlar. So‘ngra bu fan taraqqiyotida Aristotel, Demosfen, Sitseronlarning ijodi yanada yorqin o‘rin egallagan.

Umuman, notiqlik san’atining fan sifatida tug‘ilishi, shakllanishi va taraqqiyoti zaminida Gretsiya va Rim notiqlik maktablari muhim o‘rin tutadi. Biroq Markaziy Osiyo va Sharqda, aniqrog‘i, Turon zaminda joylashgan xalqlarning, jumladan, o‘zbeklarning ham notiqlik san’ati tarixi manbalari eramizdan oldingi VII asrlarga borib taqalishi adabiy va tarixiy manbalardan ma’lum bo‘lmoqda. Yodingizda bo‘lsa, qadimgi notiqlik san’atining taraqqiyoti zaminida badiiy adabiyot janrlarining paydo bo‘lganligi antik adabiyot tarixidan ma’lum. Ya’ni avval nutqning paydo

bo'lishi, nutq matnlarining yozilishi (logograflar tomonidan), ularning to'planishi, tantanali nutqlarda badiiy tasvirlarning yoritilishi natijasida badiiy adabiyotning doston, roman, drama kabi janrlari shakllanib, taraqqiyot yo'lini tutganligi xususida gap bormoqda.

Madomiki, shunday ekan, eramizdan oldingi VII asrlarda yaratilgan xalqimizning qadimiyligi adabiy va madaniy merosi sanalmish sof turkiy tilda bitilgan Alp Er To'ng'a dostoni ham xuddi Yunon va Rim notiqlari nutqlari matnlaridan badiiy ijod namunalari tug'ilib, shakllanib, taraqqiyotga yuz tutgani kabi bizda ham mavjud bo'lgan notiqlik matnlarining mevasi bo'lsa-chi? Chunki hech bir xalq tarixida badiiy ijod o'z-o'zidan paydo bo'Imagan. Nutq sohasida bo'ladimi, notiqlik sohasida bo'ladimi, badiiy ijod sohasida bo'ladimi, avval ularning og'zaki shakli namoyon bo'lgan. Aniqrog'i, yozma badiiy adabiyotdan oldin xalq og'zaki ijodi yaratilgan, keyinchalik yozma adabiyot shu og'zaki ijod zaminidan o'sib chiqqan. Buni hech kim inkor etmasa kerak?! Shu ma'noda bizda Turon zaminida yaratilgan Alp Er To'ng'a dostoni eramizdan oldingi VII asrda paydo bo'lgan ekan, o'zbek notiqligi tarixi ham Yunon va Rim notiqligi tarixidan oldinroq yuzaga kelmaganmikan, degan xulosaga olib keladi. Masalani oydinlashtirish, albatta, tarixchi, tilshunos va adabiyotshunos olimlarimizning dolzarb ilmiy izlanishlarini talab etadigan muammo. Shunday bo'lsa-da, hozircha bizda mavjud bo'lgan ma'lumotlarga tayanib fikr yuritamiz. Bu o'rinda taniqli yozuvchi Pirimqul Qodirovning 2005-yilda chop etilgan "Til va El" kitobi kengroq ma'lumot beradi: Turon zaminning eramizdan oldingi turkiy tilda yozilgan Alp Er To'ng'a haqidagi dostoni hali atroflicha tahlil etilgani yo'q.

Bu doston bizgacha to'liq yetib kelmagan. Uning besh yuz satrga yaqin ayrim parchalari Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" dostonida va Mahmud Qashg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida keltirilgan.

Bu dostonga birinchi bo'lib katta e'tibor bergen olimimiz professor Abdurauf Fitrat edi. Uning "Eng eski turk adabiyotining namunalari" deb atalgan va 1927-yilda nashr etilgan risolasida Alp Er To'ng'aga bag'ishlangan 40 satrli marsiya, tang'uglar bilan Alp Er To'ng'aninig jangiga oid 32 satrli she'r, qish va yoz

manzaralariga bag‘ishlangan 86 satrli she’riy tasvirlarni adabiy tilimizning eng qadimgi namunalari deb baholanadi.<sup>2</sup>

Fitrat Alp Er To‘ng‘aga bag‘ishlangan qadimiy doston parchalarini Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” dostonidan va Mahmud Qashg‘ariyning “Devonu lug‘atit turk” kitobidan olinganini ko‘rsatib o‘tadi.

Moskvalik sharqshunos olima I.V.Stebleva ham “Devonu lug‘atit turk”da keltirilgan Alp Er To‘ng‘aga bag‘ishlangan 348 satr she’rni terib olib, ular orasidagi mantiqiy bog‘lanishlarni topadi va ularni ming yillar davomida ko‘p qismlari yo‘qolib ketgan ulkan bir qahramonlik dostonining uzviy bo‘laklari deb baholaydi.<sup>3</sup>

Bu olimlarning “Alp Er To‘ng‘a” dostoniga oid tadqiqotlarini yangi avlodga mansub adabiyotshunoslarmiz M.Ibrohimov va Sh.Xolmatovlar davom ettirdilar. Bu ishlarning yakuni sifatida Abdurashid Abdurahimovning so‘zboshisi va tahriri bilan 1995-yilda “Alp Er To‘ng‘a yoki Afrosiyob jangnomasi” degan kitob nashr etildi.

Bu kitobning kirish qismida Alp Er To‘ng‘aga quyidagicha baho berildi: “Alp Er To‘ng‘a miloddan avvalgi VII asrda Turon davlati shakllanishiga asos solgan buyuk xoqondir... Eronliklar Alp xoqonni Afrosiyob deb ataganlar. Og‘zaki va yozma adabiyotda Alp Er To‘ng‘aning bahodirligini madh etuvchi katta doston yaratilgan. Doston qahramonlik mavzuida bo‘lib, uning tiklanishi turkiy xalqlar dostonchiligi tarixini eramizdan avvalgi asrlardan boshlashga imkon beradi.<sup>4</sup>

Alp Er To‘ng‘a haqidagi she’riy dostonidan kelib chiqqan holda adabiyotshunos olimlar bu qahramonga baho berishda tarixchilarimizga nisbatan ancha dadil fikr bildirmoqdalar.

Tarixchilarimiz Alp Er To‘ng‘aga oid to‘liq ma’lumotlarni tarixi manbalardan topolmaganlari uchun ularda “Alp Er To‘ng‘a tarixiy shaxsmi yoki afsonaviy qahramonmi?” degan ikkilanishlar bor. Buning yana bir sababi, Firdavsiyning “Shohnoma” asarida Afrosiyob salbiy qahramon qilib ko‘rsatilganligidir.

Buxoro tarixiga oid juda qimmatli ma’lumotlar bergen Narshaxiy yozadi: ”Afrosiyob Romtan (Romitan) shahrini bunyod

<sup>2</sup>A. Fitrat. “Eng eski turk adabiyotining namunalari”, Toshkent — Samarqand, 1927.

<sup>3</sup>И.В. Стеблева. “Развитие тюркских поэтических форм XI веке”, М., 1971, 270-б.

<sup>4</sup>A. Abdurahimov. “Alp Er To‘ng‘a yoki Afrosiyob jangnomasi”. 1995, 2-b.

qilgan. Romtan Buxorodan qadimiyroqdir. Afrosiyob har vaqt bu viloyatga kelganda Romtanda turgan, boshqa joyda turmagan. Forsiyarning kitoblarida aytlishicha, Afrosiyob ikki ming yil yashagan va jodugar bo‘lgan, asli Nuh payg‘ambarning o‘g‘illaridan ekan. U o‘zining Siyovush nomli kuyovini o‘ldirgan. Siyovushning Kayxusrav nomli o‘g‘li bo‘lib, otasining xunini talab qilib Afrosiyobni o‘ldirdi. Afrosiyobning qabri Buxoroning Ma’bad darvozasi yaqinidagi katta tepalik ustidadir.<sup>5</sup>

Narshaxiy o‘z nomidan keltirgan tarixiy faktlarda Afrosiyobning bunyodkor podshoh bo‘lganini, Buxorodan ham qadimiyroq Romitanni qurbanligini, bu viloyatga kelganda doim shu Romtanda turganligini, “Afrosiyob” nomi bilan bizgacha yetib kelgan tarixiy Romitan qal’asi o‘z davrining podsholari turadigan poytaxt shahar bo‘lganini yozadi. Biz Buxoroning 2500 yillik to‘yini o‘tkazdik. Agar Romitan undan ham oldin qurilgan bo‘lsa, demak, bu joyni qurdirgan Alp Er To‘ng‘a – Afrosiyob eramizdan oldingi yettinchi asrda yashab o‘tgan bo‘lishi mumkin.

Narshaxiyning bu ma’lumotlari tarixiy asosga ega bo‘lganini Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilik”da yozgan quyidagi satrlari tasdiqlaydi:

Tojiklar ayur ani Afrosiyob  
Bu turk beklaridan, oti belguluk  
To‘ng‘a Alp Er edi quti belguluk.

Mahmud Qashg‘ariy “Devonu lug‘atit turk”da Yusuf Xos Hojib bildirgan fikrni yanada aniqroq bayon qiladi:

“Turklarning mashhur qahramoni Afrosiyobni Alp To‘ng‘a deb atashlariga sabab, uning sherni yiqitadigan botir pahlavon bo‘lganligi edi”<sup>6</sup>.

O‘zbek milliy ensiklopediyasida Afrosiyobning “Avesto”da yana uchinchi bir nom bilan tarixga kirganligi yoziladi: “Afrosiyob – mifologik obraz, “Avesto”da “Frang – Krisyan” deb atalgan”, deyiladi. Keyinchalik bu ijobiy obraz Firdavsiyning “Shohnoma”siga Afrosiyob nomi bilan faoliyati salbiylashgan holda o‘tadi. Ensiklopediyada Afrosiyobga munosabat masalasida bir muhim nuqta ko‘rsatib o‘tiladi:

<sup>5</sup> Narshaxiy. “Buxoro tarixi”. 1991, 98-99-betlar.

<sup>6</sup> Mahmud Qashg‘ariy. “Devonu lug‘atit turk” III jild. 1960, 272-bet.

“Afrosiyobning Eron podshohlari bilan jangga kirishuvi, ya’ni Eron bilan Turonning mifologik raqobati g‘oyasi “Avesto”da yo‘q. Afrosiyobni Eron shohlarining dushmani qilib ko‘rsatish g‘oyasi yozma abadiyotga birinchi bo‘lib Firdavsiyning “Shohnoma”si orqali kirgan... Bu talqinda Firdavsiy zamoni uchun muhim bo‘lgan turk davlatchiligi va Eroniy davlatlar orasida tarixiy yuzma-yuz turish harbiy-siyosiy muxoliflik o‘z aksini topgan”.<sup>7</sup>

Ana shu harbiy-siyosiy muxoliflik Afrosiyob – Alp Er To‘ng‘aga munosabat turkiy tilli manbalarda ijobiy, “Shohnoma” kabi forsiyzabon manbalarda salbiy bo‘lishga olib kelgan.

Dostonda ko‘rsatilishicha, Alp Er To‘ng‘ani Eron shohi Kayxusrav ziyofat paytida mayga zahar qo‘shib berib o‘ldiradi.

O‘limi muqarrarligini sezgan Alp Er To‘ng‘a sadoqatli yorini eslaydi va yaqin odamlariga iltijo qiladi:

Turkon xotun huzuriga  
Mendan yetkur vido qo‘shig‘in.  
Aytgin: menga qilgan xizmatni  
Qilar tobug‘chi endi unga

Turon malikasi sevikli Alp yorini eslab musibat chekadi:

Ketdi ko‘zimning nuri,  
Ketdi tanamning ruhi.  
Qaydan topay sevganim  
Qoldi cheki yo‘q qayg‘u.

Bunday iztirobga to‘la samimiyo so‘zlarni faqat chindan yashab o‘tgan va el-yurt orasida sevimli bo‘lgan qahramon haqidagina aytish mumkin.

Biroq Alp Er To‘ng‘aning o‘limidan keyin turk davlatchiligi uzoq vaqt inqirozli asrlarni (qariyb ming yildan oshiqlar) ta’kid bizniki – N.B.) boshidan kechiradi.

Nihoyat, VI–VII (melodiy – N.B) asrlarga kelib Bilge xoqon va uning qahramon inisi Kultegin davrlarida turk buduni (xalqi) qaytadan qad rostlaydi. Biz buni O‘rxun va Enasoy daryolari bo‘yida VI–VII asrlarda toshga bitilgan dostonlardan bilamiz.<sup>8</sup>

<sup>7</sup> “O‘zbek Milliy Entsiklopediyasi”, I jild, 2000, 517-bet.

<sup>8</sup> Primqul Qodirov, “Til va EI”, G‘.G‘ulom NMIU, 2005-yil, 14–22 betlardan olindi.

Xalq og‘zaki ijodining ilk tajribalari notiqlik san’atiga, badiiy so‘z san’atining ravnaqiga, yozma adabiyotga boy manba bo‘lib xizmat qilib kelgani va kelayotgani barchaga ma’lum, shu ma’noda “Alp Er To‘ng‘a” dostoni, muqaddas kitob “Avesto”, O‘rxun va Enasoy yodgorliklari va boshqa yozma yodgorliklar Markaziy Osiyo xalqlarining tarixi, ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, madaniyati, tilini o‘rganishda muhim manba bo‘lish bilan birga, ma’lum notiqlik san’atiga undovchi, unga manba bo‘luvchi qimmatga ham egadir.

“Avesto”ning muqaddas kitob sifatida to‘la shakllanishi eramizdan avvalgi birinchi ming yillik o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. “Avesto”da notiq foydalanishi lozim bo‘lgan o‘rinlar juda ko‘p. Jumladan, “G‘alla yerdan unib chiqqanda devlar larzaga keladi, g‘alla o‘rib olinayotganda devlar nola – faryod chekadi, g‘alla yanchib un qilinayotganda esa devlar mahv bo‘ladi... G‘allani mo‘lko‘l bo‘lishi go‘yo devlarning labiga qizdirilgan temir bosgandek ularni tumtaraqay qiladi...”<sup>9</sup> Bu jumlalar orqali odamlarni mehnat qilishga, mehnatga muhabbat bilan yondoshmoqqa chaqirish mumkin. Unda notiqlik kuchini oshiradigan da’vat mujassam. Demak, notiq uchun bu kabi dav‘atkorlikka undovchi misollar “Avesto”dan keng o‘rin olganligidan ko‘z yumib bo‘lmaydi. “Avesto”dan o‘rin olgan rivoyat va afsonalardagi vatanni himoya qilishga chorlovchi, qahramonlikka undovchi “Siyovush” (“Siyovarshan” deb berilgan “Avesto”da) kabi qahramonliklarning butun xatti-harakati da’vatkorlik qudratiga ega. Biroq milodgacha notiqlik san’ati tarixi notiqlik maktablari uchun manba va material bera olgani holda, maktablar darajasiga o‘sib chiqmagan bo‘lishi mumkin. Ammo kim kafolat bera oladi, qadimgi Afinada, Yunoniston va Rimda paydo bo‘lgan notiqlik maktablarida yoki maktab darsliklarining paydo bo‘lishida “Alp Er To‘ng‘a” dostoni, “Avesto” kabi muqaddas kitob yoki “Bundaxishn” hamda “Denxard” kabi qimmatli manbalarning ta’siri bo‘limganligiga. Albatta ilm va fan qayerda bo‘lmasin, qaysi bir xalqda yaratilmasin, o‘zaro bir-biriga ta’siri bo‘lishi tabiiy holat. Jahon ilmida o‘zaro ta’sir hamisha bo‘lgan va bundan keyin ham bo‘ladi. Shu asosda jahon fani, qaysi sohada bo‘lmasin, bir-birini to‘ldirib, boyitib boradi.

<sup>9</sup> N.Mallayev, “O‘zbek adabiyoti tarixi”, Toshkent, 1965, 76-bet.

Sharqda, jumladan, Movarounnahrda badiiy, ilmiy ijodning taraqqiyoti, shuningdek, va'zxonlik, "Qur'on"ni targ'ib qilish bilan mushtarak holda so'zning ahamiyati, ma'nosi va undan maqsadga muvofiq foydalanish borasida qadimdan ko'p yaxshi fikrlar aytilgan.

Vaz'xonlikning, balog'at (chechanlik, notiqlik) san'atining o'suvi barobarida nutq oldiga qo'yilgan talablar mukammallahib bordi. Buyuk allomalar Abu Rayhon Beruniy, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino, Abu Abdulloh al-Xorazmiy, Mahmud Qashg'ariy, Zamaxshariy, Abu Ya'qub Sakkokiy tilga, lug'atga, grammatika va mantiqshunoslikka bag'ishlangan asarlar yozdilar yoki boshqa sohalarga doir asarlarida bu mavzuga aloqador fikrlar bildirdilar.

Buyuk qomusiy olim Beruniy (973–1048) o'zining «Geodeziya» asarining kirish qismida fanlarning paydo bo'lishi va tarmoqlanib ko'payishi haqida so'z yuritib, har bir fanning inson hayotidagi zaruriy ehtiyojlar talabi bilan yuzaga kelishini aytadi. Uningcha, grammatika, aruz va mantiq fanlari ham shu ehtiyojning hosilasidir. Inson nutqi o'z tuzilishi, materialiga ko'ra rostni ham, yolg'onnei ham ifodalashi mumkin. Bu ko'plab munozaralarga sabab bo'ladi. Inson bu munozaralar jarayonida rostni yolg'ondan ajratadigan «mezon»ni yaratadi. Bu mantiq fani edi. Inson nutqida shubhali o'rinalar sezilsa, ma'lum «mezon» yordamida ular tuzatiladi. Olim mantiqni o'rganmasdan, uni malomat qilganlarga hayron qoladi va ularga achinib: «Agar u dangasalikni tashlab, oromga berilmasdan, gap bilan bog'lanib keladigan nahv (grammatika), aruz (she'r o'lchovi) va mantiqni (logika) mutolaa qilganida edi, so'zning (nutq) nasr va nazmga ajralishini bilgan bo'lardi» — deydi (Beruniy. To'plangan asarlar. III tom, 192, 64-bet). Demak, Beruniy nutqning ikki xil — nasr, nazm ko'rinishi borligini ta'kidlamoqda. Nutqning bu turlari ma'lum qoidalalar asosida shakllanadi. Nasr nahv qonun-qoidalari, nazm aruz talablariga binoan tuzatiladi. Aruzga qaraganda nahvning ta'sir doirasi keng, u nasr uchun ham, nazm uchun ham zarur. Beruniy yozadi: «Nahv nasrda va aruz nazmda aytilgan so'zning me'yorini o'lchovi va xatosini tuzatuvchi aniq ikkita mezon bo'lib qoldi, lekin nahv bular ikkisining umumiyrog'idir, chunki u nasmni ham, nazmnini ham birgalikda o'z ichiga qamrab oladi» (O'sha asar, 64-bet).

«Xullas, yaxshi nutq tuzish uchun nahv, aruz, mantiq fanlari hamkorligidan foydalanish zarur bo‘ladi. Ularning birontasiga ahamiyat bermaslik, bulardan birining qoidasi buzilishi qolgan ikkitasiga ta’sir qilmay qolmaydi» (O’sha asar, 64-bet).

Beruniy shakl va mazmun birligiga katta ahamiyat beradi. Uningcha, shakl mazmunga hizmat qilishi kerak. Mazmunsiz har qanday chiroyli shakl ham el orasida e’tibor qozonmaydi. Nutqning nasriy shaklida ham, nazmiy shaklida ham mazmun bosh mezondir.

Ulug‘ vatandoshimiz Abu Nasr Forobi (870—950) to‘g‘ri so‘zlash, to‘g‘ri mantiqiy xulosalar chiqarish, mazmundor va go‘zal nutq tuzishda leksikologiya, grammatika va mantiqning naqadar ahamiyati zo‘rligi haqida shunday deydi: «Qanday qilib ta’lim berish va ta’lim olish, fikrni qanday ifodalash, bayon etish, qanday so‘rash va qanday javob berish (masalasi)ga kelganimizda, bu haqda bilimlarning eng birinchisi — jismlarga va hodisalarga ism beruvchi til haqidagi ilmdir deb tasdiqlayman».

Ikkinci ilm grammatikadir: u jismlarga berilgan nomlarni qanday tartibga solishni hamda narsalar (substansiya) va hodisalarning (aksidensiya) joylashishini va bundan chiqadigan natijalarni ifodalovchi hikmatli so‘zlarni va nutqni qanday tuzishni o‘rgatadi.

Uchinchi ilm mantiqdirdi: «ma’lum xulosalar keltirib chiqarish uchun logik figuralarga binoan qanday qilib darak gaplarni joylashtirishni o‘rgatadi. Bu xulosalar yordamida biz bilmagan narsalarni bilib olamiz hamda nima to‘g‘ri, nima yolg‘on ekanligi haqida hukm chiqaramiz» (Abu.Nasr Forobi. Risolalar, T., 1975, 54-bet).

Ko‘rinadiki, grammatika va mantiq fanlarining nutq tuzishdagi ahamiyatini ikki buyuk olim ham yuksak darajada anglaganlar va ularga katta ahamiyat bergenlar. Beruniy ham, Forobi ham qadimgi grek falsafasiga va boshqa fanlarga oid asarlardan oziqlanibgina qolmay, ularni to‘ldirdilar, g‘alat o‘rnlarga izoh berdilar.

Beruniy bilan zamondosh bo‘lgan Abu Abdulloh al-Xorazmiy (vafoti 997-y.) ham o‘zining “Mafotix-ul-ulum” (“Ilmlar kalitlari”) asarida o‘sha davr notiqligining ba’zi bir masalalari, adabiyotshunoslik fani istilohlari, ularning ta’rifi haqida, shuningdek, devonxona ish qogozlari va ularning shakllari,

ishlatiladigan atamalar haqida ma'lumot beradi. Asarning beshinchi bobida aruz va qofiya ilmi hamda she'riyatda ishlatiladigan badiiy tasvir vositalari, ularning fazilatlari va nuqsonlari ustida so'z boradi. Asarda aruz ilmi, undagi 15 bahr ko'minishlari she'riy misollar bilan beriladi. Aruz ilmiga tutash qofiya ilmi, uning istilohlari ta'rif va izohlar bilan qayd etiladi. Asarning beshinchi bobi besh bo'linmadan tashkil topgan. Beshinchi bo'linma X asr O'rta Osiyo she'riyatiga bagishlangan. Bu shuni ko'rsatadiki, X asrdayoq o'l kamizda badiiy nutq yuksak darajada rivojlangan, uning nazariyasi mukammal ishlangan edi (X. Xayrullayev, R.M. Bahodirov. Abu Abdulloh al-Xorazmiy. M. 1988, 58-bet; «O'zbek. adabiyoti va san'ati» gaz., 1989, 18-avgust).

Sozning qadri, undan foydalanish, kam so'zlab, ko'p ma'no yuklash, ravshan fikrlash kabi masalalar ustida XII—XIII asr mutafakkirlari Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yughnakiylar ham ibratli fikrlar bildirganlar.

Ulug' shoir Yusuf Xos Hojib turkiy xalqlarning XII asrdan ajoyib badiiy yodgorligi bo'lgan "Qutadg'u bilig" ("Baxt keltiruvchi bilim") asarida so'zlarni to'g'ri tanlash va qo'llash haqida: "Bilib so'zlasa so'z bilig sanalur" degan edi. Gapirishdan maqsad so'zlovchining ko'zda tutgan narsa, hodisa, voqealarni tinglovchiga to'g'ri, ta'sirchan yetkazishidan iborat. Shunday ekan, nutqning to'g'riliqi, ravonligi va mantiqiyligiga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Mutafakkir yana so'zlovchini tilning ahamiyatini tushungan holda hovliqmasdan, so'zning ma'nolarini yaxshi anglab, ravon nutq tuzishga chiqaradi:

Tilning foydasi talaydir, ortiqcha hovliqma,  
Goho til maqtaladi, goho so'kiladi.  
Modomiki shunday ekan, so'zni bilib so'zla,  
So'zing ko'r uchun ko'z bo'lsin, (u) ko'ra bilsin

Til va so'zni avaylashga, og'ziga kelgan so'zni o'ylab gapirishga chaqiradi:

Kishi so'z tufayli bo'ladi malik,  
Ortiq so'z qiladi bu boshin egik,  
Tilingni avayla — omondir boshing,  
So'zingni avayla — uzayar yoshing

Adib Ahmad Yugnakiy (XII—XIII) ham so‘zlaganda nutqni o‘ylab, shoshmasdan tuzishga, keraksiz, yaramas so‘zlarni ishlatmaslikka, mazmundor so‘zlashga chaqiradi. Noto‘g‘ri tuzilgan nutq tufayli keyin xijolat chekib yurmagan, deb so‘zlovchini ogohlantiradi:

O‘qib so‘zla so‘zni eva so‘zlama,  
So‘zing kizla, kedin, boshing kizlama.

Amir Xisrav Dehlaviy (XV asr) ham nutqni ta’sirli, emotsional, shuningdek, mazmundor tuzishga da’vat qiladi:

So‘zlariningda bo‘lsin fikru o‘y yoniq,  
Bo‘lsin har so‘zingda bir nuqta aniq.

Aytileyotgan fikrning mazmundor va ohangdor bo‘lishi lozimligi haqida yozadi:

Nazm aytsam, aytaman ta’b o‘lchovida o‘lchabon,  
O‘lchab aytilsa nuqta, bo‘lmas uchov besamar.

### **Abu Homid G‘azzoliy**

Abu Homid Muhammad ibn Muhammad G‘azzoliy 1085-yilda Tus viloyatida ipchi Abu Homid oilasida tavvalud topdi. G‘azzoliy uning taxallusidir.

Muhammad G‘azzoliy ukasi Ahmad bilan yoshligidan otadan yetim qoldi. Muhammad va Ahmad otasining yaqin do‘sti ko‘magida chuqur ilm olishga kirishadi. Muhammad G‘azzoliy bolalikda mashhur olim Ahmad Róziqoniyidan fiqh darslari oladi, o‘smyrligida Jurjon shahriga borib, Abu Nasr Ismoiliydan tawhid ilmidan saboq oladi. So‘ng Nishopur shahrida Imom Horamayndan mazhab, rahbarlik, bahs, hadis usullari va mantiq ilmlarini o‘rganadi, ilm-fan arboblarining ta’limotlarini chuqur o‘zlashtiradi. 20 yoshida sevimli va zukko shogird sifatida el og‘ziga tushadi. Alisher Navoiy hazratlari «Saddi Iskandariy» dostoni muqaddimasida G‘azzoliyni “Ko‘k gumbazi uzra bezakli qandil”, “Falakdan turib kishilarga baxt va tol‘e ushaladi” deya ta’riflaydi. (Alisher Navoiy. «Saddi Iskandariy». Nasriy bayoni bilan. Toshkent, G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot -matbaa birlashmasi, 1991, 513-bet).

«Nasoyim ul-muhabbat» nomli asarining 439-raqamli maqolatida esa Navoiy uni «Hujjat ul-islom Muhammad ibn Muhammad G'azzoliy Tusiy, kuniyati Abu Homid va laqabi Zaynuddindir» deya qayd qiladi. (Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to‘plami, 17-tom, 249-bet).

Abu Ibrohim al-Bag‘dodiy «Bag‘dod tarixi» asarida yozadi: «U shunday kimsa ediki, bu dunyodagi ko‘zlar uningday notiqni, uningday zukko va oqilni ko‘rmagan edi».

Ibn Mukriy «Tuhfat ul-Irshod»da: «Uning muborak ismi bilan ko‘kraklar masrur bo‘lib ko‘tarilib ketadi, nafaslar quvonchga to‘ladi», — deydi.

Bunchalik ko‘p va yuksak baholarga sazovor bo‘lgan bu inson kim edi?

Nima uchun turli tabaqaga oid barcha insonlar uni bunchalik alqadilar?

G‘azzoliy zamondoshlarining buzg‘unchilik va gunohlarini, hayotni chigallashtirgan bid‘atchilarni, ikkiyuzlama va badnafs zolimlarni ayovsiz fosh qilib, oddiy va halol mehnatkashlarning e’tirofiga yetishgan, islom dinining haqiqatlarini butun insoniyatga ochib ko‘rsatgan, shubhali bulutlarni tarqatib yuborgan qalbi iymon bilan to‘la ajoyib bir siymo edi. U uqtirgan ilmlar soyasida butun Sharq xalqlari tartibli yashashni o‘rgandilar. Uning nomini tilga olgan olimlar, uning kitoblarini qo‘lma-qo‘l olib yozib chiqqan, ko‘paytirgan va tarjima qilib elga tarqatgan insonlar ham hurmatga sazovor bo‘ldilar. Uning nomi tilga olingan joyda shovqin-suronlar pasayib, boshlar egila boshlaydi.

G‘azzoliy har sohada adolat sohibi va imomlarning imomidir.

Uning nozik va daqiq tadqiqotlari sunnat ahliga dushman bo‘lganlarning niqoblarini olib tashlaydi. Uning kitoblari go‘zalligi va komilligi jihatidan quyosh nurlariga o‘xshaydi. Do‘stlar ham, dushmanlar ham uning dahosi qarshisida bosh egadilar.

Avvalo «G‘azzoliy» kalimasini ko‘raylik.

Imom Navaviy «G‘azzoliy» taxallusidagi «Z» ni maddali, ya’ni ikkita degan ekan, ammo uning o‘zi «at-Tibyon» asarida bitta «Z» bilan yozib, G‘ozol — Tus viloyatidagi bir qishloqning oti, deya izohlagan. Ibnul-Asir ham ikki «Z» bilan yozgan va uning taxallusini otasining kasbi bilan bog‘lagan. G‘azzoliyning otasi «g‘azzol», ya’ni ipchi bo‘lgan. Ana shu sabablarga ko‘ra, turli

mamlakatlarda taxallus turlicha yoziladi. Masalan, Turkiyada, G'azzoliy deb yozish rasm bo'lgan, O'zbekistonda ham ko'pchilik mamlakatlar qatori qadimdan G'azzoliy deb yoziladi.

G'azzoliyning ipchi otasi nihoyatda tadbirkor, uddaburon va aqlli kishi bo'lgan. Ammo tirikchilik taqazosi bilan ilm ololmagan, «uylansam bolalarimni albatta o'qitaman», deb niyat qilgan. Ammo niyat boshqa, hayot .boshqa - u uylanib ikki o'g'il ko'rganida o'lim to'shagiga yotib qolgan. Olamdan ko'z yumarkan, do'stlari uni ko'rgani kelishganida yum-yum yig'lagan.

Bir yaqin do'sti unga:

— Menga qara, oshna, bu dunyoda faqat sen o'layotganing yo'q. Erta-indin biz ham ortingdan yetib boramiz, namuncha ko'zyosh? — deb uni koyigan.

— Men bunga yig'layotganim yo'q. O'g'illarimni o'qitmoqchi edim, orzuyim ushalmadi, - degan u.

— Armoning faqat shu bo'lsa, ularni o'qitish menga sendan omonat bo'lsin, men o'qitaman ularni, — deydi shunda do'sti. Ota olamdan o'tganda ham sadoqatli do'st omonatga xiyonat qilmadi — bergen va'dasining ustidan chiqdi: ikki o'g'il — Muhammad va Ahmadning yuksak ilm olishlariga imkon yaratdi. Keyinchalik bu ikki aka-uka islam olamining ustun olimlari bo'ldilar. Imom Horamayn: «G'azzoliy — butun olamni qamragan bir dengiz, Qiyo sahrosining telba arsloni, Havofilni ham yoqib yuboradigan otashdir», deb ta'riflagan edi. 1085-yilda, 27 yoshida Imom Horamayn vafot etganidan keyin G'azzoliy turk sultonii Alp Arslonning mashhur vaziri Nizomulmulk huzuriga boradi va sayroyda uyuşhtirilgan bahslarda hamma olimlarni yengib chiqadi, mamlakatning eng nomdor Nizomiya madrasasiga bosh mudarrislikka tayinlanadi. O'n-o'n bir yil ichida shuhratning eng yuksak cho'qqisiga ko'tariladi, dunyoda eng katta muvaffaqiyat qozongan «Ihyo ulum ad-din» asarini yaratadi. Oddiy odamlargina emas, hatto vazirlar, maliklar, amirlar ham uning fatvolariga quloq soladilar. Muhammad G'azzoliyning ukasi Ahmad G'azzoliy esa uni ilm uchun kam ishlayotganlikda ayblardi. Bir kuni Muhammad G'azzoliy xalqqa va'z aytayotganda ukasi ichkari kirib keladi va so'z so'rab, shunday she'r o'qiydi:

Men kuchliman, xalq zayf deb, halqqa berar bo'lding quvvat,  
Xalqni kuchli qilmoq uchun sarf aylading qancha g'ayrat.

Xalq kuchlandi – olg‘a ketdi, horib ortda qolding o‘zing,  
Hidoyatga boshladingu, o‘zing qolding behidoyat.  
Nima bo‘ldi, og‘ajonim, gapim kirmas qulog‘ingga,  
Aytsang hamki xalqqa shuncha go‘zal o‘git, va‘z - nasihat?  
Ey, charx toshi! Qachongacha temirlarni charxlaysanu,  
O‘zing o‘tmas bir matohsan, ko‘zlarining yo‘q basirat.

Shundan keyin Muhammad G‘azzoliy o‘zi haqida shubhaga tushadi, hech kimga hech nima demay, ishini tashlab ketadi. Faqat ilm bilan shug‘ullanadi. Ammo bosh vazir Nizomilmulk uning qayerdaligidan xabar topib, undan zudlik bilan ishga qaytishini talab qiladi. Olim Nishopurga qaytib, yana madrasada dars bera boshlaydi. Ammo bu ish yana uzoqqa cho‘zilmaydi. G‘azzoliy qaytadan Tusga ketib qoladi. Atrofiga 300 talabani to‘plab, xususiy darslar beradi.

Abu Homid Muhammad ibn Muhammad G‘azzoliy 1111-yilda vafot etadi.

G‘azzoliy bor-yo‘g‘i 53 yil umr ko‘rdi. Ammo shu umri davomida 100 ga yaqin asar yozib qoldirdi. Ular Islom dinining turli tarmoqlariga taalluqli bo‘lib, dalillar qamrovi jihatidan juda katta miqyosga ega. Tafsir, hadis, tarix, falsafa, fiqh, tasavvuf olimlari uchungina emas, hech qanday ilm bilan shug‘ullanmaydigan oddiy insonlar uchun ham kerakli asarlari behisobdir. Chunonchi, faqihlar (yuristlar) G‘azzoliyning «Bosit», «Vojib» kabi asarlaridan; tafsirchilar, kalom ilmining olimlari «Qavoid-al-Aqoid», «Ar-Risolat al-Qudsiya», «Al-Iqtisod fi'l-e'tiqod» singari kitoblaridan; tasavvufchilar va umuman barcha haqiqat oshiqlari «Ihyo ulum ad-din» nomli buyuk asaridan bahramand bo‘lib, katta ruhiy quvonchni boshdan kechiradilar. Umuman barcha mo‘min-musulmonlarga uning «Hujjat ul-Haq», «Mufassil al-Xilof», «Qavosim al-Botiniya» kabi asarlari kundalik hayotiy muammolarni hal qilishda juda asqotadi.

Yuqorida qayd etganimizday, G‘azzoliy hayoti davomida ikki marta o‘zi haqida shubhaga bogan. Birinchisida, ukasining she’ri ta’sirida, o‘rgangan ilmlarimning hammasida kamchiliklar ko‘p bo‘lsa kerak, deb o‘ylaydi, o‘ziga mutloq haqiqatni izlay boshlaydi, haqiqat yo tuyg‘ularda, yo aniq bilimlarda bo‘lishi mumkin, har ikkalaaside bo‘lishi mumkin emas, degan fikrga boradi. Oldiniga haqiqat tuyg‘ularda deb biladi, ammo tez orada tuyg‘ular aldashi

mumkinligini ko‘radi va aniq bilimlar haq, degan xulosaga keladi, so‘ng «balki aql ham aldar» deya taraddudga tushadi. Provardida esa Ollohning hidoyati—qalbga yoruglik beruvchi ilmlar kabi, aniq ilmlar ham haqiqat ekanligiga ishonch hosil qiladi.

G‘azzoliyning ikkinchi ruhiy iztirobi 38 yoshida yuz berdi. Bir kuni u: «Qilayotgan barcha ilmlarim shon-shuhrat, amalmansab, nufuz va mol-dunyo uchun emasmi?» — degan shubhaga tushadi. Haqiqat faqat mutasavviflarning kamtarona yashash tarzida bo‘lishi mumkin, degan xulosaga kelib, tinchini yo‘qotadi. Shuning uchun u madrasani tark etib, faqirona hayot kechirishga o‘tadi. Yeyish-ichishni ham keskin kamaytirib, jismonan zayiflashadi.

Shunda uning shaxsiy tabiblari nima qilishlarini bilmay dovdirab qoladilar. Shu ahvolda u 10 yil darbadar kezadi. Bir daf'a vazirning so‘zini inobatga olib Nishopirda ishlagan bo‘lsa ham, baribir ishga qattiq bog‘lanmaydi, mutasavvifga aylanib, umrining oxiriga qadar ko‘zga tashlanmay yashaydi.

G‘azzoliyning falsafiy ishlari ham talaygina. Ular ichida «Taxafut al-filosifa» hamda «Maqosid al-filosifa» asarlari yetakchi o‘rin egallaydi. Bularda Forobi, Ibn Sino, Abun Xayyon at-Tavhidiy, «Ihvon us-safo» risolalarining ta’sirini ko‘rish mumkin.

Ayni chog‘da G‘azzoliy «Taxafut al-filosifa» asarida Forobiyni va Ibn Sinoni tanqid qilib, ularni Arastu va Aflatun ta’sirida bo‘lganlikda ayblagan va umuman falsafachilikka qattiq qarshi chiqqan. Holbuki, Forobiyning asarlari ham, G‘azzoliyning «Maqosid al-filosifa» asari ham lotinchaga o‘girilgan va g‘arbliklarning yunon falsafasini o‘rganishlariga yordam bergen. Forobi bilan Ibn Sinoni tanqid qilishdan maqsadi esa, aslida, dinning ba’zi mavzulari yanglish tushunilishini tuzatish uchun bo‘lgan. Bu yaxshi niyatdir.

G‘azzoliyning barcha asarlari bugungi kunda ham xalqimiz ma’naviyatini yuksaltirish uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilaveradi.

### **Kaykovus va uning “Qobusnama” asari**

Amir Unsurulmaoliy Kaykovus Kaspiy dengizining janubiy qirg‘og‘idagi gilon qabilasiga mansub bo‘lib, u hijriy 412-yilda, milodiy 1021–1022-yilda o‘rtahol feodal oilasida tug‘ildi. Kaykovus

hayoti haqida keng ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Undan bizga mashhur asari "Qobusnomा" yetib kelgan. Kaykovus "Qobusnomा"ni hijriy 475-yilda, melodiy 1082–83-yilda yozadi. Bu haqda muallif quyidagilarni yozadi: "Sana 475 da boshladim", deydi. Bu Kaykovusning 63 yoshiga to'g'ri keladi.

«X1 asrning 82–83-yillarida G'arbiy Eron podshohining nabirasi Kaykovus ibn Iskandar o'z o'g'li Gilonshohga bag'ishlab «Nasihatnomा»sini yaratadi va o'sha davr an'anasisiga ko'ra, uni bobosi podishoh Shams ul maoliy Qobus sharafiga «Qobusnomा» deb aytaydi (Kaykovus «Qobusnomा», T., «O'qituvchi» 2006-y. 5-bet)»

Qadimdan ma'lumki, ulug' zotlar farzand tarbiyasiga jiddiy etibor bergenlar. Shu bois Sharqda "Kalilla va Dimna" nomi ila mashhur bo'lgan "To'tinoma" ("Shukasaptati"), "Panchatantra" ("Besh hikmat"), Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" ("Baxt-saodatga boshlovchi bilim"), Muslihiddin Sa'diyning "Guliston" va "Bo'ston", Nosiriddin Rabg'uziyning "Qissai Rabg'uziy", Alisher Navoiyning "Mahbubul-qulub" ("Ko'ngillarning sevgani") kabi o'nlab asarlar borki, ular asrlar davomida tarbiyaviy dastur namunasi bo'lib kelmoqda. Bunday qimmatli asarlar ajdod-avlodlarimizni halollik, poklik, to'g'rilik, mardlik, odamiylik kabi xislatlarga chorlab kelgan. Shular orasida Kaykovusning "Qobusnomा" asarining ham o'z o'rni bor. Unda bitilgan kichik rivoyat va hikoyatlar, kitobning yanada chiroyiga-chiroy qo'shib, kitobxon ongini charxlashga xizmat qiladi.

"Qobusnomा"ning asosiy yo'nalishi Qur'oni karim suralari, Muhammad (s.a.v)ning faoliyatni va ko'rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyalar bilan uyg'unlashib ketadi. Aniqrog'i, "Parvardigori olamni tanimoq zikrida", "Payg'ambarlarning hilqati zikrida" boblari bilan boshlanadi.

"Qobusnomा" 44 bobdan iborat bo'lib, unda Kaykovus o'zining hayotiy tajribalari bilan o'g'li Gilonshohni tarbiyalashni maqsad qiladi. Kaykovus o'z o'g'liga nasihat qilar ekan, aslo zulm otiga minmaslikka da'vat etadi. Kitobdag'i barcha pand-nasihatlarini o'g'li uchun bebahो meros deb biladi.

Kaykovus musiqa ilmini, adabiyot va san'atni, tabiyot fanlarini yaxshi egallagan olim kishi bo'lgan.

O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi Subutoy Dolimov hamda adabiyotshunos olim Ulug'bek Dolimovlarning yozishicha: "Qobusnomा" asrlar mobaynida G'arb va Sharq mutafakkirlarining e'tiborlarini o'ziga jalb etib kelgan: 1702–1705-yillarda turk tiliga, 1786–1787-yillarda Muhammad Siddiq Rashidiy tomonidan uyg'ur tiliga, 1881-yilda Qayum Nosiriy tomonidan tatar tiliga hamda XIX asrdayoq ingliz, farang, olmon, rus tillariga tarjima qilindi. 1935-yilda Tehron dorulfununining professori, atoqli adib Said Nasifiy "Qobusnomा"ni Tehronda bosmadan chiqardi.

1860-yilda "Qobusnomा" o'zbek tiliga birinchi marta Muhammad Rizo Ogahiy tomonidan (forschadan o'zbek tiliga – ta'kid bizniki N.B.) tarjima qilindi. Ogahiy tarjimasining qo'lyozma nusxasi O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida va Sankt -Petrburgdagи Saltikov-Shedrin nomli kutubxonada saqlanmoqda.<sup>10</sup>

"Qobusnomা"ning Ogahiy tomonidan qilingan tarjimasini adabiyotshunos olim Subutoy Dolimov qayta ishlab nashrga tayyorlagan. Bu nodir asar Subutoy Dolimov tomonidan 1965, 1973 va 1986-yillarda uch marta nashr qilingan edi. 1992, 2006-yillarda esa adabiyotshunos olim Ulug'bek Dolimov (Subutoy Dolimovning o'g'illari – ta'kid bizniki N.B.) tomonidan qayta to'ldirilgan holda nashrdan chiqarildi. Mana shu so'nggi nashrdan chiqqan "Qobusnomा"ning yettinchi bobi "Suxandonlik bila baland martabali bo'lmoq zikrida" deb nomlangan.

Mazkur bobda Kaykovus farzandiga murojaat qilar ekan quyidagilarni yozadi: «Kishi suxandon, suxango'y (notiq) bo'lishi kerak. Ammo, ey farzand, sen suxango'y bo'lg'il va lekin durug'go'y (yolg'onchi) bo'limg'il. Rostgo'ylikda o'zing shuhrat qozong'il, tokim biror vaqt zarurat yuzidin yolg'on so'z desang qabul qilg'aylar. Har so'z desang ham rost degil va lekin yolg'onga o'hshag'on rostni demag'ilkim, rostga o'xshagan durug' durug'ga o'hshagan rostdin yaxshidur, nedinkim ul durug' maqbul bo'lur, ammo ul rost maqbul bo'lmas. Demak, nomaqbul rostni aytishdan parhez qil, toki mening bila Abu Suvor Shopur binni Abu al-Fazlning orasidagi voqeа sening boshingda sodir bo'lmasin.

Ey farzand, bilg'ilki, so'z to'rt nav bo'lur, undoqkim xaloyiq ham to'rt nav bo'lg'ondek. Biri ulkim, bilur va bilg'onin ham

<sup>10</sup> Kaykovus, "Qobusnomा". Toshkent, "Meros" 1992, 165–166-betlar.

bilur. Ul olimdur, unga tobe bo‘lmoq kerakdur. Biri uldurkim, bilmas va bilmag‘onin bilur, ul qobildur, unga o‘rgatmoq kerak. Biri uldurkim, bilur va bilg‘onin bilmas, ul uyqudadur, uni bedor qilmoq kerakdur. Biri uldirkim, bilmas va bilmag‘onin ham bilmas, u johildur, undan qochmoq kerakdur. Ammo deb erdimki, so‘z ham to‘rt navdur: biri bilinmayturg‘on va aytilmayturg‘on; ikkinchisi, aytilaturg‘on va bilinaturg‘on: uchinchisi, ham bilanturg‘on va ham bilishga zaruratsiz, ammo aytsa bo‘laturg‘on, to‘rtinchisi bilaturg‘on va aytilmayturg‘on. Ammo aytilmayturg‘on va bilinmay turg‘on undoq so‘zdurki... dunyoning salohi unga bog‘liqdir. Ul so‘zdin aytuvchiga ham, eshituvchiga ham ko‘p naf yetar. Ammo bilinaturg‘on, biroq aytilmayturg‘on undoq so‘zdirkim, bir muhtasham odamning aybi senga ma’lum bo‘lur. Lekin aql tariqidin xayolga kelsang uni aytmoq besharmlikdur. Chunki aytsang ul muhtashamning qahri yo u do‘sning ozori senda hosil bo‘lur, yoxud o‘z boshingga ulug‘ sho‘rish va g‘ovg‘o paydo qilursen. Shul vajdin ham bul so‘z bilinaturg‘on, ammo aytilmayturg‘on so‘zdur. Bu so‘zlarning yaxshirog‘i ham bilinaturg‘on va ham aytulaturg‘on so‘zdur.

Bu to‘rt nav so‘zning ikki yuzi bordir. Biri xo‘b va biri zisht. Har so‘zni xaloyiqqa zohir qilsang, yaxshi yuz bila zohir qil, toki maqbul bo‘lsin va xaloyiq sening so‘z bila baland martabaga egalig‘ingni bilsunlar. Nedinkim kishining martabasini so‘z bilan bilurlar, ammo so‘zning martabasini kishi bila bilmaslar, chunki har kishining ahvoli o‘z so‘zining ostida pinhondur, ya’ni bir so‘zni bir iborat bila aytsa bo‘lur, eshitg‘on kishining esa ko‘ngli undan tira (qorong‘u) bo‘lg‘ay va yana o‘shal so‘zni bir iborat bila aytsa bo‘lurkim, eshitg‘on kishining joni undin rahatda bo‘lg‘ay.

Ey farzand, so‘zning yuzin va orqasin bilg‘il va ularga rioya qilg‘il, har na so‘z desang yuzi bila degil, to suxango‘y bo‘lg‘aysan. Agar so‘z aytib, so‘zning nechuk ekanin bilmasang qushga o‘xsharsanki, unga to‘ti derlar, ul doim so‘zlar, ammo so‘zning ma’nosin bilmas.

Suxango‘y shu kishi bo‘lg‘ayki, ul har so‘zni desa, xalqqa ma‘qul bo‘lg‘ay va xalq ham har so‘z desa unga ma‘qul bo‘lg‘ay. Bunday kishilar oqillar qatoriga kirgay, yo‘q ersa ul inson suratida mavjud bo‘lg‘on bir hayvondur.

So'zni bag'oyat ulug' bilg'il, so'z osmondin kelmas va ul har narsa emasdur. Qay bir so'zki bilsang joyini o'tkarmay aytg'il, vaqt ni zoe qilmag'il, yo'q ersa donishg'a sitam qilg'on bo'lg'aysan. Har so'z desang rost deg'il va be'manilikni da'vo qilg'uvchi bo'limg'il.

Bilmag'on ilmdin dam urmag'il va undin non talab qilmag'il. Harna matlubing bo'lsa, bilg'on ilm va hunardin hosil bo'lur. Bilmag'on hunar da'vosidin hech narsa hosil bo'imas, faqat behuda zahmat chekarsan

Ammo, ey farzand, hech kishining oldida ifrat (haddan oshish) qilmag'il va ifrotni shumlig' deb bilmag'il. Har ishda miyona (o'rtacha) bo'lg'il, so'z aytmoqda va ish qilmoqda... sangin (og'ir) bo'lg'il. Rozingni (siringni) o'zingdan o'zga kishiga aytmag'il, agar aytsang so'ngra uni roz demag'il.

Xaloyiqning orasida bir kishining qulog'iga so'z aytish yaxshi emasdur. Agar bu so'z garchand yaxshi so'z bo'lsa ham, tashqarisindan uni yomon so'z deb gumon qiladilar va ko'p odamlar bir-birlaridan dargumon bo'ladilar. Gar so'z demoqchi bo'lsang, shunday so'z degilki, so'zingning rostlig'iga guvohlik bersinlar. Agar o'zingni zo'rlik bila aybdor qilmoq tilamasang, biror narsaga guvoh bo'limg'il va agar guvoh bo'lsang, guvohlik berar vaqtida ehtiroz (saqlanish, ehtiyotlanish) bo'lg'il. Agar guvohlik bersang, mayl bila bermag'il.

Har so'zni andisha bila boshlag'il, toki aytg'on so'zingdin pushaymon bo'limg'aysan.

Andishani ilgari tutmoq ham bir nav karomatdur. Hech so'zni eshitishdan diltang bo'limg'il. Ul so'z ishinga xoh yarasun, xoh yaramasun, uni eshitgil, to yuzingga so'z eshigi beklanmasun va foydasi favt (yo'qotish, o'lim) bo'imasin.

Sovuq so'zlik bo'limg'il. Sovuq so'z bir tuxumdur, undin dushmanlik hosil bo'lur.

Agar har qancha dono bo'lsang ham o'zingni nodon tutg'il, toki senga hunar o'rgatish eshigi hamisha ochiq bo'lg'ay. Gar so'zni va hunarni yaxshi bilsang ham hech bir so'zni sindirmag'il, to'g'ri ta'rif qilg'il va uni bir rangda aytg'il: xosga xos so'z, omiya omiya so'z degil, toki u hikmatga muvofiq bo'lsun va eshitg'on kishiga og'ir kemasin, yo'qsa so'zingni dalil va hujjat bila ham eshitmag'aylar. Undin so'ng ularning rizosiga qarab so'zlag'il, to salomat bo'lg'aysan.

Ey farzand, agar har nechakim suxondin bo'lsang, o'zingni bilg'ondin kamroq tutg'il, to so'zlash vaqtida nodon va beburd bo'lib qolmag'aysan. Ko'p bilib, oz so'zlag'il va kam bilib ko'p so'z demag'il. Nima uchunki aqlsiz shundog' kishi bo'ladur — u ko'p so'zlar. Debdurlarki, xomushliq salomatlik sababidur, chunki ko'p so'zlaguchi oqil kishi bo'lsa ham, avom uni aqlsiz derlar. Aqlsiz kishi xomush bo'lsa, uni oqil hisoblaydilar. Har necha pok, porso (xudojo'y), ravish (yo'l, yo'sin, qoida) bo'lsang ham o'zingni ta'rif qilmag'ilki, har kishi sening guvohlig'ingni eshitmas. Qo'shish qilkim, xaloyiq seni ta'rif qilsunlar va shundoq so'z degilkim, u ishga yarasun, bekor va zoe ketmasun.

Ey farzand, demak, yolg'on va bexudo so'z aytmoq devonalikning bir qismidir. Har kishiga so'z aytur bo'lsang qarag'il, ul sening so'zingga xaridormu yoki xaridor emasmu? Agarda uni so'zingga xaridor topsang, unga so'zingni sotgil. Yo'q ersa, ul so'zni qo'yib, shundoq so'z degilkim, unga xush kelsin va sening so'zingga xaridor bo'lsin. Lekin inson bila inson bo'lg'il, odamiy bila odam bo'lg'il, nedikim inson boshqa, odamiy boshqadur.

Ey farzand, toki qila olsang, so'z eshitmakdin qochmag'ilkim, kishi so'z eshitmak bila suxango'y hosil qilur. Avvalo buni shundoq dalillash mumkin, agar o'g'lon onadan tug'ilsa, unga yerning ostidan bir joy qilib sut berib, ul joyda parvarish qilsalar, onasi va doyasi unga gapirmaslar, u o'g'lon hech kishining so'zin eshitmasa, ulug' bo'lgonda lol (soqov) bo'lur. Ko'rmasmusankim, barcha lollar kar bo'lurlar".

Kaykovusning «Qobusnoma» asari hayotimizda yashashimiz uchun qayerda, qachon, qanday holatda muomala-munosabatga undaydi. Hatto bugunning odamlar o'rtasidagi muomala saboqlariga o'rgatadigan kitobi, deb ko'pchilik amerikalik sotsiolog Deyl Karneygining kitobini misol keltiradilar. To'g'ri, unda g'arbcha muomala keng o'rin olgan, Kaykovusning «Qobusnoma»si esa sharq axloqi yo'nalishida bo'lib, ham foniy dunyo, ham boqiy dunyo saboqlaridan ta'lim berishi bilan qimmatlidir. Shu ma'noda «Qobusnoma» beباho kitob bo'lib qolaveradi. Ayniqsa, notiqlik bobida undan ko'p foydalanish mumkin.

Mavzuni «Qobusnoma»dagi ibratlifi fikr bilan yakunlamoqchimiz: "...Nutqni juda yaxshi va san'atkorona o'rganib ol, doimo gapga chechan bo'lishga harakat qil... Nutqi shirin kishining mehribon kishilari ham ko'p bo'ladi".

## Alisher Navoiy notiqlik haqida

O'zbek xalqining buyuk mutafakkiri, insonparvar shoiri Alisher Navoiy o'z ijodini hamisha ijtimoiy faoliyat bilan birga qo'shib olib bordi. Alisher Navoiy o'zbek mumtoz adabiyoti va adabiy tilining asoschisi bo'lish bilan birga barcha turkiy xalqlar adabiyoti va adabiy tili rivojiga ulkan hissa qo'shganligi shubhasizdir. Navoiy turkiy tilda go'zal nutq tuzish va bu tilda ajoyib o'lmas asarlar yozish mumkinligini ham ilmiy, ham amaliy jihatdan isbotladi. Alisher Navoiyning "Muhokamatul lug'atayn", "Mahbub ul-qulub", "Nazmul-javohir" va boshqa qator asarlari o'zbek tilida nutq tuzishning go'zal namunalari bo'lish bilan birga, tilning yuksalishiga ham katta xissa qo'shdi.

Bizning ota-bobolarimiz qadimdan odamiylikni, qadr-qimmat va mehr-oqibatni har qanday zaru oltinlardan, ma'danu boyliklardan, duru gavharlardan ustun qo'yib kelishgan. Alisher Navoiyning:

Odami ersang, demagil odami,

Onikim yo'q, xalq g'amidin g'ami, – misralari ham bu fikrimizning dalili sanaladi.

Hazrat Alisher Navoiy Husayn Boyqaroni "Sohibqiron" deb ulug'lagan bo'lsalar, Husayn Boyqaro ham Alisher Navoiyning turkiy tilda bitilgan "Xamsa"sin o'qigach, "So'z sohibqironi" deb ataydi va Navoiyga bag'ishlangan risolasida buni qayd etadi:

Erur so'z mulkining qahramoni,

Erur gar chin desang sohibqironi.

Navoiy so'z qadrini benihoya ulug'lagan va uning qudratini o'z davridayoq, hayotlik chog'idayoq sinab ko'rghan ulug' siymo edi. Shu bois ham hazrat Navoiy yozadilar:

So'zdirki, nishon berur o'likka jondin,

So'zdirki, berar jonga xabar jonondin.

Insonni so'z ayladi judo hayvondin,

Bilkim, guhari sharifroq yo'q ondin.

Demak, odamning tirikligidan nishona ham so'z, oshiq-ma'shuqlar qalbidagi ishq-muhabbat tuyg'ularini tarannum etuvchi ham so'z, hayvonat olamidan odamni ajratib turuvchi ham so'z – ekanligini uqtirarkan, undan-da go'zal narsa yo'qligiga ishontiradi. Navojy so'z gavharini, uning qadr-qimmati va

go‘zalligini, inson ruhida jon kabi muhimligini ta’kidlaydi. Ulug‘ Navoiyning “Ey so‘z, ne balo ajib guharsen, Gavhar neki, bahri mavjvarsen, Derlar seni, dur, savob emas, bu, Sen javharu ruhu dur quruq suv” kabi so‘z sha’niga aytgan gaplarini, “Muhokamatul-lug‘atayn” asarida tilimiz boyligini namoyish etganini, “Majolis un-nafois” asarida so‘zdan unumli foydalanish mahorati haqidagi fikrlarini ko‘z oldimizga keltiraylik.

So‘zning, notiqlikning qudrati beqiyos ekanligi haqida zamondoshimiz, O‘zbekiston Qahramoni Abdulla Oripov Alisher Navoiy ijodi misolida shunday xulosaga keladi:

Temur tig‘i etmagan joyni  
Qalam bilan oldi, Alisher.

Taniqli olim Nusratilla Jumayevning (“Istiqlol va ona tilimiz” “Sharq” nashriyoti, 1998-yil, 46–47-betlar) fikrlarini keltiramiz: “Alisher Navoyining:

Olibmen taxti farmonimga oson  
Cherik chekmay Xitoydan to Xuroson, —

degan so‘zlarida ham shunday hikmat bor. Cherik – bu lashkar. Shoir lashkar tortmasdan Xitoydan Xurosongacha bo‘lgan sarhadni zabt etganligi haqida faxrlanib so‘zlamoqda. Ma’lumki, Alisher Navoyining ta’sir doirasi va darajasi har qanday sarkardadan ham ustun bo‘lgan. Nutq va tafakkur salohiyati uni vaziri a’zam darajasiga ko‘targan edi.

Bobokalonimiz hazrat Alisher Navoyining til va nutq, nutq odobi, notiqlik san’ati haqidagi fikrlari aynan haqiqatligiga shubha bo‘lishi mumkin emas.

Misollarga murojaat qilaylik:

Yaxshi so‘zlay olish (nutq) — san’atdir, noyob hunardir. Uni egallahsga intilgan:

Erdin so‘z hunar, enchidin bo‘z hunar.

(“Mahbub ul-qulub” dan)

Insonning odob-axloqini belgilaydigan omillardan biri uning so‘zi, nutqidir:

Suvning mazasi muz bila, oshning mazasi tuz bila, odam yaxshilig'i so'z bila.

(“Mahbub ul-qulub” dan)

So'z zohir etar zamir ishi ko‘prigidin,  
Til muxbir erur ko‘ngil pinhon emgagidin,  
Fahm ayla kishi holini so‘z demagidin,  
Kim berdi xabar hadisi ko‘nglidagidin.

(“Nazmul-javohir” dan)

Kishining so‘zi(nutqi) uning aqliy kamolotidan darak beradi:

Odamki demak birla kiromiydiru bas,  
So‘z durri ishining intizomiduru bas,  
Sihat onchaki, ahli aql komiduru bas.  
Aqliga dalil aning kalomiduru bas.

(“Nazmul-javohir” dan)

So‘zlaganda diling bilan tiling bir bo‘lsin, chunki dildagi tilga chiqadi:

Haq seni sevgay el bila bo‘lsang,  
Tilu ko‘nglingni bir qilib birro‘y,  
Nuqta sursang shukuftau xandon,  
Zist qilsang, kushodou xushro‘y.

(“Arbain” dan)

Demonkim ko‘ngli poku ham ko‘zi pok,  
Tili poku so‘zi poku o‘zi pok.

(“Xamsa” dan)

Tilki fasih va dilpazir bo‘lg‘ay — xo‘broq bo‘lg‘ay,  
agar kungul bila bir bo‘lg‘ay.

(“Mahbub ul-qulub” dan)

So‘zlaganda o‘ylab so‘zla, tushunib bilib gapir:

So‘zni ko‘nglungda pishqarmaguncha tilga kelturma,  
Harnakim ko‘nglungda bo‘lsa til surma.

(“Mahbub ul-qulub” dan)

Xushmuomala, shirin so‘z bo‘l. Tiling bilan kishilarga ozor berma:

Har kimki chuchuk so‘z elga izhor aylar,  
Har neki ag‘yor durur yor aylar,  
So‘z qattig‘i el kunguliga ozor aylar,  
Yumshog‘i ko‘ngullarni giriftor aylar.

(“Nazmul-javohir” dan)

Tilni, so‘zni qadrla, uni hurmat qil:

Donau dur so‘zini afsona bil,  
So‘zni jahon bahrida durdona bil.

(“Xamsa” dan)

Oz gapirmoq — hikmatga sabab; oz yemoq — sog‘likka sabab.  
Og‘ziga kelganini demoq — nodonning ishi va oldiga kelganni  
yemoq — hayvonning ishi.

Ko‘p demak birla bo‘limgil nodon,  
Ko‘p emak birla bo‘limgil hayvon.

(“Mahbub ul-qulub” dan)

Chin, to‘g‘ri so‘zla, nutqingda halol bo‘l. Yolg‘on so‘z baxtsizlik keltiradi. Chin so‘z mo‘tabar, yaxshi so‘z muxtasar...

(“Mahbub ul-qulub” dan)

Yaxshi, ezgu so‘z (nutq) kishiga obro‘, baxt keltiradi. Ezgu so‘zli bo‘l:

Kim istasa mazhari karomat bo‘lmoq,  
Har nav’ ishda istiqomat bo‘lmoq,  
So‘zdir anga mujibi g‘aromat bo‘lmoq,  
Til zabtidadur anga salomat bo‘lmoq.

(“Nazmul javohir” dan)

Tilingni tiy. Ko‘p so‘z, ezma va vaysaqi bo‘lma. Bu zararlidir.  
Befoyda so‘zni ko‘p aytma va foydalig‘ so‘zni ko‘p eshiturdin  
qaytma. Oz degan oz yanchilur, oz yegan oz yiqlur.

(“Mahbub ul-qulub” dan)

Til ildamidin bo'lur g'aromat hosil,  
Yuz nav' nadomatu malomat hosil,  
Oz so'zlagandin istiqomat hosil,  
Soqitligidin vale salomat hosil.

(“Nazmul-javohir”dan)

So'zlaganda sharoitni, suhbatdoshingni hisobga ol, beo'rin so'z  
aytma...

(“Mahbub ul-qulub”dan)

Gapirganda qaytariqlardan qoch, chunki ular fikrning ta'sirini  
susaytiradi:

Bir deganni ikki demak xush emas,  
So'z chu takror topti dilkash emas.

(“Xamsa” dan)

Til — shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir.  
Agar nutq noma'qul bo'lib chiqsa — tilning ofatidir.

(“Mahbub ul-qulub”dan)

Til shirinligi — ko'ngilga yoqimlidir,  
Muloyimligi esa — foydali. Chuchuk til  
Achchiqqa aylansa ko'pchilikka zarari tegadi,  
Qanddan may tayyorlañsa xarom bo'ladi.

(“Mahbub ul-qulub”dan)

Muloyim so'z — vahshiylarni ulfatga aylantiradi; sehrgar —  
ohang bilan afsun o'qib, ilonni inidan chiqaradi.

Bayt:

Husn-jamoli yo'q odam shirin so'z bo'lsa,  
Go'zal va shirin so'zi bilan barchani qo'lga oladi.

(“Mahbub ul-qulub” dan)

Demak, shirinsuhanlik, chiroyli gapirishga intilish, notiqlik  
qadimiylar tarixga ega ekan, bizning ham ajdodlarimiz intilgan

qoidalarga amal qilishimiz lozim bo‘ladi. Alisher Navoiyga qadar va unga zamondosh bo‘lgan allomalarimiz asarlarlarida va o‘git-nasihatlarida inson uchun manaviy zebu ziynat bo‘lgan shirin muomala, chiroyli va muloyim so‘zlash, notiqlik san’atini egallashga chaqiriq, da’vat tarix o‘zanidan bizgacha kelib bog‘lanadi. Bu san’atni egallash uchun har bir kishi chidam va iroda bilan harakat qilishi zarur.

Alisher Navoiy hazratlari “Mahbub ul-qulub” asarining birinchi qism 21-bandida “Nasihatgo‘y va va’zxonlar to‘g‘risida” shunday yozadilar:

“Voiz haq so‘zini targ‘ib qilishi, payg‘ambar so‘zidan chetga chiqmasligi kerak, eng avval uning o‘zi Haq va payg‘ambar yo‘liga kirishi, so‘ngra esa nasihat bilan elni ham shu yo‘lga solishi lozim. O‘zi yurmagan yo‘lga elni boshlamoq – musofirni yo‘ldan adashtirib, biyobonga tashlamoq va sahroda uni yo‘qotmoqdir. O‘zi mastning elni hushyorlikka chaqirishi – uyquchi kishining odamlarni bedorlikka da’vat etganiga o‘xhash bir narsadir.

Uyqusida so‘zlagan kasal odamdir,  
Unga qulqoq osgan esa tentakdir.

Va’z murshidlar – pirlar hushyor kishilarning ishidir va ularning nasihatini qabul etgan maqbul kishidir. Avvalo, uning o‘zi bir yo‘lga tushib olgan bo‘lishi, keyin esa boshqa odamlarni o‘scha tomon boshlab borishi kerak. Yo‘lga bilmay kirgan yo‘qoladi va maqsadidan boshqa yerga yetadi.

Va’zxon shunday bo‘lishi kerakki, uning majlisiga bo‘sh kirgan odam to‘lib chiqsin; to‘la kirgan odam esa yengil tortib chiqsin, xoli qaytsin. Voiz olim va halol ish ko‘rvuchi bo‘lsa, uning nasihatidan chetga chiqqanlar gunohkor bo‘ladi.

Agar u boshqalarga buyursa-yu, o‘zi qilmasa, uning so‘zlari hech kimga ta’sir etmaydi va foyda keltirmaydi. O‘z yordamchilari orqali nasihat qiluvchi voiz – o‘zi qolib, shogirdini kuylatuvchi qo‘sinqchidir.

Alisher Navoiy ijodini dengizga qiyos qilish mumkin. Unda duru gavharlar behisob, biz ulug‘ mutafakkirlarning so‘zga, nutqqa va notiqlik san’atiga qaratilgan fikrlarini yortishga harakat qildik. Bu hali hammasi emas. Mazkur mavzu katta ilmiy ishlarga manba,

material berishiga aminmiz. Navoiydek ulug' alloma so'z qudratiga shunchalik e'tiborlarini qaratgan ekan, bizning burchimiz uning fikrlarini o'qimoq va uqimoqdan iborat bo'lib qolmasdan, balki qo'limizdan kelgancha unga amal qilish ham ekanligini esdan chiqarmaylik.

### Zahiriddin Muhammad Boburning badiiy nutq mahorati

Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asari badiiy nutqning go'zal namunasidir. Bobur o'zi hammabop yozishi bilan birga boshqalarga ham shunday ish tutishni maslahat beradi. Jumladan, o'z o'g'li Humoyunga yozgan bir xatida birovga yuboriladigan maktubni muallifning o'zi bir necha bor o'qib ko'rishi lozimligi, uning ravonligiga, so'zlarning ko'zda tutilgan ma'noni to'g'ri aks ettirayotganligiga ishonch hosil qilishi, shundan so'nggina uni jo'natish mumkinligini ta'kidlaydi. So'zlarning xato yozilishi aytilmoqchi bo'lgan fikrni xiralashtiradi, o'quvchini qiynaydi: "...yana men degandek, bu xatlarining bitibsen va o'qimaysen, ne uchunkim, agar o'qur xayol qilsang edi, o'qiyolmas eding. O'qiyolmagandan so'ng, albatta tag'yir bo'lur eding. Xatingni xud tashvish bila o'qisa bo'ladur, vale asru mug'laqdur. Nasri muammoni hech kishi ko'rgan emas. Imlong yomon emas. Agarchi xili rost emas, iltifotni to bila bitibsen. Qulunjni yo bilan bitibsen. Xatoingni xud har tavr qilib o'qisa bo'ladur, vale bu mutloq alfozingdin maqsud tamon mafhum bo'lmaydur. G'olibo xat biturda kohilliging ushbu jihattindur. Takalluf qilmay deysan, u jihattin mutloq bo'ladur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfov bila biti: ham senga tashvish ozroq bo'lur va ham o'qig'uvchiga" ("Boburnoma" T., "Fan", 1960, 421-bet).

Bobur hayoti va sulolasini chuqur o'rgangan va romanlar yozgan taniqli yozuvchi Pirimqul Qodirovning ("Til va El", T.; G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2005-y.) yozishicha: "Bobur Mirzo so'z bilan jonli tasvir yaratish mahoratini mukammal egallagan adib edi. Buni o'zi ham sezardi. Shuning uchun umrining oxirida o'g'li Humoyunga "Boburnoma"ni tugallab taqdim etganda unga bir ruboii ilova qiladi:

“Bu olam aro ajib alamlar ko’rdim,  
Olam elidin turfa sitamlar ko’rdim.  
Har kim bu vaqoyi’ni o‘qir, bilgaykim,  
Ne ranju, ne mashaqqatu, ne g‘amlar ko’rdim”.

“Voqe” – “Boburnoma”ning dastlabki nomi edi. Bobur o‘z zamonida boshdan kechirgan barcha ko‘rguliklarni haqqoniy tasvirlashga intilganining sababi bu ruboiyda aniq ko‘rsatilgan. Uning eng zo‘r istagi: “Voqe”ni o‘qiganlar haqiqatni bilsinlar, u qilgan xatolarni takrorlasmasınlar.

“Boburnoma” ham “Temur tuzuklari” kabi avlodlarga ulkan hayotiy tajriba, saboq va qisman vasiyat tarzida yozilgan edi.

Adibning Hindistonda tartib bergan so‘nggi devonida uning dasxati saqlanib qolgan. Bu dasxat bilan ikki satr she’r yozilgan:

Har vaqtki ko‘rgaysen mening so‘zimni,  
So‘zumni o‘qib sog‘ingaysan o‘zumni.

Ushbu satrlar bitilgan sahifa chetiga Bobur Mirzoning chevarasi Shohjahon tomonidan quyidagi sharh bitilgan:

“Ushbu turkiy bayt jannatmakon Hazrat Bobur podshohning o‘z qo‘llari bilan bitilgan dastxatdir.

Shohjahon binni Jahongir, binni Akbar, binni Humoyun, binni Bobur Podshoh” (S. Azimjonova “Boburning hind devoni”, 1966-y., 38-bet).

Bu noyob sahifada biz ham Bobur Mirzoning, ham Shohjahonning dastxatlarini ko‘ramiz. Eng muhimi va bizning mavzuimizga bevosita aloqador tomoni shundaki, Bobur Mirzo so‘z orqali odamning o‘zini ko‘rish mumkin, deb hisoblagan “Har vaqtki ko‘rgaysen mening so‘zimni” degan satrda so‘z ko‘rinadigan bir mavjudot sifatida baholanadi.

Albatta, so‘zning shakli faqat qog‘ozda ko‘rinadi, ammo so‘zning ichki mazmunida surati chizilgan tasvir ham bor. Bu tasvirda Boburning hayoti, boshidan kechirganlari, uning tilida aks etgan didi, fe’l-atvori, ichki kechinmalari — hammasi mavjud. Bobur shuni hisobga olib, “So‘zimni o‘qiganda o‘zimni ko‘rganday bo‘lasen” (“Sog‘ingaysen o‘zimni”) deydi.

Badiiy tilga bunday tirik jon ato qilishga faqat daho darajasidagi realist adiblargina muyassar bo‘ladilar. Ajoyibi shundaki,

“Boburnoma” memuar asar sifatida Bobur she’riyatning hayotiy asoslarini ochib beradi va shu bilan ularning ta’sir kuchini oshiradi. Boburning she’riy asarlari esa uning nasriy asarida aytilmagan ichki kechinmalari va qalb tug‘yonlarini she’riyat vositalari bilan yanada ta’sirliroq qilib ifoda etadi.

“Boburnoma”da 1506–1507-yil voqealari orasida qish kunida Hirotdan Qobulga qorli dovondan oshib o’tib borish mashaqqati tasvirlanadi. Bir hafta davomida qor tepib yo’l ochib boradilar. Qor ko’krakka uradi. Otlar yurolmaydi. Dovon tepasida qor bo’roni kuchayib ketadi. Sovuq behad qattiq. Ba’zi bek va navkarlarning qo’l-oyog‘ini sovuq uradi. Boburni tor bir tog‘ kamarida panalashga undaydilar. ”Ko’ngulga kechdikim, barcha el qorda va chopqunda, men issiq uyda istirohat bila... Muruvattin yiroq va hamjihatlikdin qiroq ishdur. Men ham har tashvish va mashaqqat bo’lsa ko’rayin, har nechuk el toqat qilib tursa turayin... Xuftongacha qor oncha chopqilab yog‘diki, boshimga va qulog‘imning ustiga to’rt ellik qor bor edi... O’shal kecha qulog‘imga sovuq ta’sir qildi” (“Boburnoma”, 256–258-betlar).

“Andoqekim, borchaga o’lim xavfi bo‘ldi”, deydi Bobur dovon ustidagi xatarli ahvolni yakunlab. Yana shu og‘ir vaziyatda u she’riyatdan madad oladi. Eng yetuk g‘azallaridan birining matla’i o’sha mashaqqatli damlarda topiladi. Bu haqda muallif o’zi shunday guvohlik beradi:

“Muddatul umr (butun umr davomida) muncha mashaqqat kamroq tortilib edi. Bu matla’ o’sha fursatda aytildi:

Charxning men ko’rmagan jabru jafosi qoldimu,  
Xasta ko’nglim chekmagan dardu balosi qoldimu?”

Dovonga ko’tarilishda eng pahlavon yigitlar qatori bir hafta qor tepib mashaqqat chekkani – bir mardlik. Eldan ajragisi kelmay xatarli joyda qolgani yana bir mardlik. O’shanda Boburning qulog‘iga sovuq yomon ta’sir qiladi. Buning asorati Hindistonga borganda ham bilinadi. Issiq mamlakatda ham qulog‘ og‘rig‘idan qiynalganlarini, simob qo’shilgan dorilardan iste’mol qilganini oradan yigirma yil o’tgach, 1628-yil voqealarida yozadi. Simob esa qulog‘ orqali asab tizimiga salbiy ta’sir qilishini u davrdagi tabiblar bilmagan bo’lishlari mumkin. Umrining oxirida Boburni

ko‘p qiyagan uyqusizliklarga shu qulqoq og‘rig‘ini davolash uchun iste‘mol qilingan simob sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Dovon ustida topilgan she’riy baytga qaytaylik. Bu bayt Bobur qalbining tug‘yoni. “Charxning men ko‘rmagan jabru jafosi qoldimu?” degan nido Yaratganga rahm-shafqat so‘rab qilingan murojaatdek tuyuldi. Bu bayt o‘lim bilan yuzma-yuz turgan odam tomonidan aytilayotgan nasr bilan yozilgan tasvirda yaqqol ko‘rsatilganligi uchun Bobur qalbining o‘scha paytdagi nidosi bizni larzaga soladi.

G‘azalning oxirgi bayti — maqtasi yanada kuchli taassurotlar uyg‘otadi:

Ey, ko‘ngil, gar Bobur ul olamni istar, qilma ayb,  
Tengri uchun de bu olamning safosi qoldimu?

“Boburnoma”da tasvirlangan o‘ta dramatik voqealar, ulug‘ bir iste‘dod o‘z vatanidan judo bo‘lib, o‘zga yurtlarga ketishi, atrofidagi odamlarning xoinliklari va boshqa ming xil salbiy hodisalar bu mard siyemoni ham jonidan to‘ydirgan paytlar bo‘lganligi, so‘nggi baytda yaqqol sezilib turadi.

Ayni paytda, Boburning azob-uqubatga to‘la foniylaridan ko‘ra “ul olamni”, ya’ni boqiy dunyoni afzal ko‘rishi tasavvuf ta’limotiga ham mos keladi.

Ko‘pgina adabiyotshunoslar Bobur she’riyatida ruboiy janrini ustun qo‘yadilar. Oybek domla Boburni turkiy ruboiyning Umar Xayyomi deb atagani ko‘pchilikka ma’lum.

Chindan ham, Bobur ruboiylaridagi mazmun va shakl mukammalligi: falsafiy fikr teranligi va badiiy til go‘zalligi Umar Xayyomning ruboiylari bilan bemalol musobaqa qila oladi.

Ko‘ngli tilagan murodiga etsa kishi,  
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.  
Gar bu ikkisi muyassar o‘lmasa olamda,  
Boshini olib bir sorig‘a ketsa kishi.

Qatrada quyosh aks etganidek, bu to‘rt satrda “Hind sorig‘a bosh olib ketgan” Boburning o‘z taqdiri aks etib turadi. To‘rttagina satrda ulug‘ bir shaxs taqdirini bo‘ttirib ko‘rsata olish, yana bu tasvirni mardona ruh va teran bir falsafiy fikrga yo‘g‘irib, uning

ta'sir kuchini oshirish daho darajasidagi shoirgagina nasib etadigan ijodiy kashfiyotdir.

Bu ruboiyda birorta ortiqcha so'z ham, harf ham yo'q. Nafaqat so'zlar va iboralar, balki alohida harflar va tovushlar she'riy vazn, turoq va qofiyalarga shunday mahorat bilan joylashtirilganki, birotasining o'rnini almashtirib bo'lmaydi. Masalan, "Boburnoma"ning ko'p joylarida "bo'ldi" yoki "bo'lmasdi" so'zlar uchraydi. Ammo yuqoridagi to'rtlikda "muyassar o'lmasa" iborasidagi so'z "bo'lmasa" shaklida emas "b" tushirib qoldirilib, "o'lmasa" shaklida ishlatiladi. Chunki "b" qo'shilsa, aruzning nozik ohangi xiyol buzilishi mumkin edi. Yoki harakat yo'nalishini bildiradigan "borgan sari" degan adabiy tilimizda qabul qilingan iborani oling. Agar ruboiydagи "sorig'a" so'zi o'rniga "sarig'a" so'zi ishlatilsa edi, aruz vaznning qoidasi buzilgan bo'lardi. Chunki "sari"da "a" qisqa talaffuz etiladi. "Sorig'a" degandagi "o" esa uzun talaffuz etishga imkon beradi, shu tufayli aruz vazniga yaxshi tushadi. "G" o'rniga andijoncha sheva bilan "G'" deb aytish ham she'rning mardona ohang bilan jaranglashiga xizmat qiladi.

Boburning kuya solib aytildigan g'azallari orasida eng mashhuri "Yaxshilik" g'azali ekanligi bejiz emas. Bu yerda asrlar davomida eskirmaydigan umrboqiy hayot falsafasi nihoyatda yuksak san'atkorlik bilan ochib berilgandir. "Ahli jahon yomonliq qilsa ham, sen unga o'xshama, undan yaxshi bo'l" degan fikr beshinchi baytda o'zining teran falsafiy ifodasini topadi:

Bori elga yaxshilik qilg'ilki, mundin yashxi yo'q,  
Kim degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilik.

G'azalning xulosaviy bayti kishini chuqur o'yga toldiradi:

Yaxshilik ahli jahondan istama Bobur kibi  
Kim ko'ribdi, ey ko'ngil, ahli jahondin yaxshilik.

"Jahonda yaxshilik istamaydigan odam yo'q. Nega Boburga o'xshab yaxshilik istamaslik kerak?" Mana shu yerda yana tasavvuf falsafasi esga tushadi. Tasavvuf doim beg'araz yaxshilik qilishga undaydi. Yaxshilik qilib qo'yib, unga javoban yaxshilik kutish tasavvuf nazariyasi bo'yicha ta'magirlik hisoblanadi. Demak, Boburning ushbu g'azali chin musulmonlarcha beg'araz yaxshilik qilishga undaydi.

Ayni vaqtida, “Kim ko‘ribdi, ey ko‘ngil, ahli jahondin yaxshilik” degan satr g‘azal xulosasida takrorlanishi Boburning ilk g‘azalida shakllana boshlagan e’tiqodiga mos keladi. “Jonimdin o‘zga yori vafodor topmadim. Bobur o‘zingni o‘rgatako‘r, yorsizki, men istab jahonni. Shuncha qilib, yor topmadim” degan falsafiy xulosa umr bo‘yi Boburning esidan chiqmaydi. Chunki u o‘z davridan juda oldinga ketgan, o‘z muhitidan beqiyos darajada baland turgan siymo ekanligini ich-ichidan his qiladi. Shu sababli, najotni faqat tashqaridan kutmasdan, o‘z kuchiga ham ishonishni, xudo bergen ulkan iste’dodga suyanib yashashni doimiy e’tiqodga aylantiradi. Bu e’tiqod uning ijodini yangi bir yuksaklikka ko‘targan eng zo‘r omillardan biriga aylanadi.

Javoharla’l Neru “Bobur — dilbar shaxs. Uyg‘onish davrining tipik hukmdori, mard va tadbirkor siymo bo‘lgan” (Javoharla’l Neru. “Hindistonning kashf etilishi”, 1955-y. M. 272-bet) degan dono fikrni jahonda birinchi bo‘lib aytgan. Bu fikrning yangiligi shundaki, 1950-yillarda Uyg‘onish tushunchasi hali Sharqdan chiqqan buyuk siyolarga nisbatan tadbiq etilmas edi.

“Boburnoma”ni ingliz tiliga tarjima qilgan V. Erskin yozadi: “Bobur siymosining mislsiz belgisi — uning tabiiyligi, hayotiy va samimiyligidir. Osiyo tojdorlari orasida Bobur singari daho darajasidagi iste’dodli kishilar kamdan-kam uchraydi”, (“Boburnoma”ning inglizcha nashri, 1921-yil, 8-bet).

Bu yuksak baholarning hammasi asosli. Faqat bitta qo‘srimcha fikr bor. Bobur singari daho faqat Osiyo hukmdorlari orasida emas, Yevropa, balki butun jahon tojdorlari orasida yana necha marta paydo bo‘lganiykin? Masalan, Angliyaning o‘zida Bobur kabi faqat toju taxtinigina emas, jonini ham suykli o‘g‘liga baxshida qilgan qirol bo‘lganmikin? Rossiyada, masalan, eng mashhur podsholardan Ulug‘ Pyotr ham, Ivan Grozniy ham toju taxt tufayli o‘z o‘g‘illarini o‘limga mahkum qilganlari tarixdan ma’lum.

Ehtimol, shu narsalar ham sabab bo‘lib, “Boburnoma”ning rus tiliga qilingan tarjimalaridan uning oxirgi lavhasi — Bobur o‘g‘li Humoyunga o‘z jonini bag‘ishlab, uni bir o‘limdan olib qolganligi qisqarib ketgan. Asarning ruscha tarjimasida bu muhim lavha umuman yo‘q. Nazarimizda, buning sababi ushbu lavha

Bobur Mirzoni boshqa mamlakatlardan o'tgan podsholarga nisbatan juda baland ko'tarib yuborishida bo'lsa kerak.

Sho'ro mafkurasining "podsholar ideallashtirilmasin" degan ko'rsatmasidan kelib chiqib, tarjimonlar tengsiz bir fidoiylik namunasi bo'lgan lavhani tarixiy asardan chiqarib tashlaganlar"<sup>11</sup>

Ko'rindiki, nafaqat Boburning badiiy ijodi, hatto hayotining o'ziyoq ulkan saboq daryosi ekanligi sir emas. Boshqacha aytganda, "Bobur shoh va shoir sifatida qanday uyg'unlashgan bo'lsa, uning ijod sarchashmasi bilan tashvishlarga to'la hayoti ham bir-biriga monand, chirmashib ketgan. Ularni ayricha tasavvur etish aslo mumkin emas. Boburning badiiy notiqlik mahorati uning asarlarida shundaygina "man a men" deb ko'rinish turadi. Uni faqat o'qib his etish mumkin.

---

<sup>11</sup> Pirimqul Qodirov. Til va El., T., G'. G'ulom nomidagi NMIU, 2005-y. 184–191-betlar.

### **III bo'lim. NOTIQLIK SAN'ATINING ASOSIY KO'RINISHLARI**

Jamiyatda turli kasb egalari hamkorlikda ish olib borayotgani va ularning o'zaro bir-birlari bilan chambarchas bog'liq ekanligi taraqqiyotimizni ta'minlaydigan omillardan sanaladi. Shunga ko'ra turli soha va kasb egalari va guruhlariga qarab ularga mo'ljallab tuzilishi lozim bo'lgan nutq ham turlich'a ko'rinishga ega bo'ladi. Shu bois notiqlik san'atida notiqliknинг bir necha turlari mavjud. Jumladan: ijtimoiy-siyosiy notiqlik, bunga davlat va jamiyat ahamiyatiga ega bo'lgan yig'inlarda, majlislarda o'qiladigan ma'ruzalar kiradi. Akademik notiqlik, bu barcha turdagи ilmiy konferensiyalardagi, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyasi himoyalaridagi ma'ruzalar, bakalavr talabalari uchun bitiruv malakaviy ish hamda magistr talabalari uchun magistrlik dissertatsiyalari yuzasidan qilinadigan ma'ruza (axborot)larni qamrab oladi. Auditoriya notiqligi esa – universitet, institut, kollej talabalari hamda litsey va maktab o'quvchilari uchun darsma'ruzalarini o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy-maishiy notiqlik – bunga turli tadbir va yig'inlarda, yubiley tantanalarida so'zlanadigan qisqa va lo'nda nutq yoki suxan so'zlar kiradi. Soha notiqligi (kino, teatr aktyorlari, konsert boshlovchilari yoki konsertni olib boruvchi aktyorlar nutqi) – bu og'zaki notiqliknинг alohida turi hisoblanib, tinglovchi tomoshabinlar uchun umumtushunarli bo'lgan adabiy tilda, chiroli talaffuz orqali amalga oshiriladigan nutqdir. U yana boshqa nutqlardan diologik xarakteri bilan ham farqlanadi. Teleradio jurnalistlari notiqligi – bunda ko'rsatuv yoki eshittirish olib borayotgan jurnalist adabiy tilda omma uchun tushunarli bo'lgan zaylda nutq so'zlashi, so'zlarni aniq va ravshan ohang bilan talaffuz etishi muhim. Shuningdek, fakt va voqealarni bayon etishda, o'z nutqida qaytariqlarga yo'l qo'ymasligi uchun oldidagi matndan foydalanishi yoki uni mukammal o'zlashtirgan bo'lishi lozim. Diniy va'zxonlik (notiqlik) – bunga nomoz jumada, amri ma'ruflarda

imom tomonidan qilinadigan ma’ruzalar kiradi. To‘y, “o‘rtakash”lari notiqligi – bu holatda “o‘rtakash”ning notiqligi uning bilim saviyasi bilan bog‘liq. Ba’zilarining gaplari tutruqsiz, ba’zilari ma’noli notiqlik bilan to‘yni boshqaradi. Ular orasida bilimsizlari bo‘lsa notiqligi ham bachkanalashib boraveradi. Ular so‘zlarining ohangi bilan, baland ovozi bilan to‘y yig‘inni boshqaradi. Bunday no‘noq o‘rtakashlarni notiq deyish qiyin. Ko‘pincha obro‘li to‘ylarni aktyorlar boshqarmoqda. Ularning nutqida ham “o‘rtakash”lar notiqligini kuzatish mumkin.

Bularga qo‘srimcha notiqlikning yana bir qancha mayda turlariga og‘zaki suhbat, bahs-munozara, suhbat-semenar, oilada va do‘sst tengqurlar o‘rtasidagi notiqlik ham kiradi.

Notiqlik san’atining shakllari ham mavjud bo‘lib, bular monologik va diologik notiqlik hisoblanadi. Monologik notiqlikka ma’ruza, muzokora kabilar kirsa, diologik notiqlik – bahs, munozara, suhbat kabilarni qamrab oladi. Notiq monologik nutqida tayyor matndan foydalanish imkoniyatiga ega. Biroq diologik notiqlik bundan mustasno. Buning ustiga munozara va bahs jarayonida amal qilinishi lozim bo‘lgan omillarga qa’iy amal qilish talab etiladi. Bular quyidagilar: milliy-madaniy qoidalarga amal qilish, milliy etikaga rioxaya qilish, raqibining gapini bo‘lmaslik, suhbatdoshga hurmat, reglamentga rioxaya qilish, eng muhimmi, sabrli, bardoshli bo‘lish, o‘zini tuta bilish, tiliga to‘g‘ri kelgan har bir so‘zni aytishdan o‘zini tiyish, har bir so‘zni o‘ylab gapirish, ya’ni “yetti o‘lchab, bir kesish”, kesganda ham A. Oripov aytganidek:

Mana, o‘tib olding asal oyidan,  
Endi suv ichgaysan turmush soyidan,  
Yetti o‘lchab bir kes, yetmish o‘lchab kes,  
Lekin kes, Yoshulli, aytgan joyidan.

Muzokoralarda yumshoq, shirin muomala va yoqimli so‘zlarni qo‘llashning muhimligini his etish zarur.

Matn asosida nutq so‘zlashning ijobiy va salbiy tomonlari bor. Ijobiy tomon deganda, notiq o‘z fikrlarini oldindan o‘ylab tayyorlagan matnni asos qilib oladi, fikrlarining mantiqan birligini ta’minlaydi. Fonetik va fikriy xatolarga yo‘l qo‘ymaydi. Salbiy tomoni esa tinglovchilar nazarida bilimsizday, notiqlik san’atini

eplayolmaydiganday ko'rindi. Notiq va tinglovchilar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik ancha susayadi.

Matnsiz nutq so'zlash notiqning xotirasi o'tkirligini, matn mazmunini chuqur o'zlashtirib olganini ko'rsatadi. O'ziga ishongan notiqgina matnsiz nutq so'zlay oladi. Bu notiqning mazkur san'atni mukammal egallab olganligidan, bu sohada u erishgan mahoratdan darak beradi.

Shunday qilib, "Notiqlik san'ati"ni quyidagi ko'rinishlarga ajratish mumkin:

a) ijtimoiy-siyosiy chiqishlar tili; b) targ'ibot va tashviqotchilar nutqi; v) akademik nutq; g) suddagi nutq; d) maxsus so'z ustalarining chiqishlari va boshqalar.

Ijtimoiy-siyosiy mavzulardagi chiqishlarga odatda mas'ul kishilarning rasmiy nutqlari, hisobotlari kiradi.

Targ'ibot va tashviqotchilarning chiqishlari odatda ma'lum bir massalalarni ommaga singdirish, omma ongidagi tushunmovchilik va chalkashliklarga barham berish, ularni to'g'ri yo'lga solish, omma uchun noma'lum bo'lgan holatlardan ularni xabardor qilish, ayrim narsa-hodisalar mohiyatini to'la ochib berish kabi vazifalar bilan bog'liq bo'ladi.

Notiq o'z nutqining grammatik jihatdan to'g'ri tuzilishi, shu davr adabiy til normasiga mos kelishi, mazmunli hamda sodda, aniq va mantiqli bo'lishiga jiddiy e'tibor berishi kerak. Shundagina uning nutqi ommaga tushunarli bo'ladi, ommaning uning fikri va mulohazalarini tushunishi oson bo'ladi. Biroq tushunarlikning o'zi hali yetarli emas. Nutq ta'sirchan ham bo'lishi kerak. Ta'sirchanlikni esa yuqorida sanab o'tilgan grammatik jihatdan to'g'rilik, soddalik, anqlik, mantiqiylik kabilalar ta'minlay olmaydi. Ta'sirchanlikni ta'minlash uchun ulardan tashqari tilning tasviriy vositalarini mukammal bilish va ulardan foydalana olish zarurdir. Tilning tasviriy vositalari hisoblangan metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish, epitet, takror, adabiy ko'chirmalar va boshqalarning o'rni beqiyosdir.

Ayniqsa, ohangning roli o'zgachadir. Quyidagi misollarga e'tibor beraylik: Odam bo'l, otang kabi ahmoq bo'lma – Odam bo'l otang kabi, ahmoq bo'lma; Bu ahmoq prokurorning gapini qaytarib o'tiribdimi, hali. Bu, ahmoq, prokurorning gapini qaytarib

o‘tiribdimi, hali?; Tramvayga ikki bolali xotin chiqdi – Tramvayga ikki, bolali xotin chiqdi.

Bu gaplarda ohangning o‘zgarishi gap mazmunining tamomila o‘zgarib ketishiga sabab bo‘lgan. Yana bir misol: *Mulla a ‘lam to ‘g‘ri odam emas* – *Mulla a ‘lam, to ‘g‘ri, odam emas*.

Ko‘rinadiki, notiq nutqi jarayonida to‘xtamlarga, ohangga alohida e’tibor berishi kerak. O‘zbek tilida, ma’lumki, mantiqiy urg‘uning o‘zgarishi ham ma’noga ta’sir qiladi. ***Men dorilfununga boraman.*** – ***Men dorilfununga boraman.*** – ***Men dorilfununga boraman.*** Birinchi holatda subyektga, ikkinchi holatda obyektga va uchinchi holatda harakatga e’tibor qaratilganligi yaqqol seziladi.

Bulardan tashqari, nutqda ta’sirchanlikni ta’minalash uchun maqollar, matallar, hikmatlar, so‘z va iboralar va ayniqsa, frozeologizmlardan keng foydalanish zarur. Yozuvchi A.Qahhor o‘z hikoyalarinining ko‘pchiligidagi epigraf sifatida maqollar keltirish bilan darhol o‘quvchi diqqatini tortadi:

*Osmon yiroq* – *yer qattiq* (“Bemor”); *Otning o‘limi* – *itning bayrami* (“O‘g‘ri”); *Ola qarg‘a qag‘ etadi, o‘z ko‘nglini chog‘ etadi* (“Bashorat”) kabilar.

Shuningdek, notiq doimo tejamkorlikka e’tibor berishi, zurur bo‘Imagan so‘zlarni qo‘llamaslikka harakat qilishi, ortiqcha takrorlarga berilmasligi kerak. Nutqning cho‘zilib ketishi, unda takrorlar bo‘lishi, zarur bo‘Imagan so‘zlarning ko‘p uchrashi nutqni siyqalashtiradi, uni zerikarli qilib qo‘yadi.

Xullas, o‘z nutqi uchun zarur bo‘lgan eng muhim belgilarga albatta e’tibor berish kerak. Og‘zaki yoki yozma, publisistik yoki badiiy, ijtimoiy-siyosiy yoki boshqa nutqlarning eng muhim belgilari grammatik jihatdan to‘g‘rilik, adabiy til qoidalariga mos kelish, sodda-ixchamlik, aniqlik, mantiqan to‘g‘rilik kabilardir. Bular nutqning tushunarligini ta’minalab turadi. Tilning badiiy tasvir vositalari ham nutq uchun eng muhim belgilar bo‘lib, ular nutqning ta’sirchanligini ta’minalaydi.

Buyuk so‘z san’atkorlari, notiqlar doimo ana shu belgilarga alohida e’tibor bergenlar va bu bilan notiqlik san’ati rivojiga, tilning rivojiga katta hissa qo‘sghanlar. Notiq til vositalaridan yaxshi foydalanganidagina namunali nutqqa erisha oladi. Har bir notiq ulardan o‘rganishga harakat qilsa, o‘z nutqining omma uchun tushunarli va ta’sirchan bo‘lishiga erishishi shubhasizdir.

## Nutq texnikasi va orfoepiya

Yoqimli va jarangdor ovozga ega notiq o‘z tinglovchilarini ovozining shiradorligi bilan ham asir etadi. Bunday muvaffaqiyatga erishish uchun notiq o‘z ovozining kuchini, shiradorligini, yoqimliligin bilishi zurur. Lozim bo‘lganda undan foydalana bilish malakasiga ega bo‘lishi kerak. O‘z ovozida kamchilik sezgan notiq uni yo‘qotishga harakat qiladi. Buning uchun ovozdan foydalanish va uni yaxshilash texnikasi ustida hamma vaqt uzlusiz mashq qilib borishi lozim bo‘ladi. Chunki bir-ikki mashq bilan ovozni yaxshilab bo‘lmaydi.

Notiqning ovozida quyidagi xususiyatlar bo‘lmog‘i lozim:

- jarangdorlik (tovushning tozaligi va tembrning yorqinligi);
- keng diapazonlik (ovozning eng pastlikdan eng yuqorigacha bo‘lgan darajasi);
- havodorlik (erkin so‘zlaganda yaxshi eshitiluvchanlikka ega bo‘lishi);
- ixchamlik, harakatchanlik;
- chidamlilik (uzoq ishlash qobiliyatiga ega bo‘lish);
- moslashuvchanlik (dinamika, tembr, melodikaning eshitilish sharoitiga moslasha olishi);
- qarshi shovqinlarga nisbatan barqarorlik (xalaqit beruvchi shovqinga qarshi membr va tessituaraning o‘zgarib turishi);
- suggestivlik (ovozning hayajonni ifodalash va bu orqali, qanday so‘z aytilayotganidan qat‘i nazar, tinglovchining xulqiga ta’sir qilish xususiyati).

Nutq texnikasi deyilganda nutqni tinglovchi yoki o‘quvchiga yetkazishda qo‘llaniladigan vositalar tushuniladi. Nutq ikki xil ko‘rinishda bo‘lganidan uning texnikasini ham ikki xil ko‘rsatish mumkin: 1. Og‘zaki nutq texnikasi. 2. Yozma nutq texnikasi.

Og‘zaki nutq texnikasi tovush, bo‘g‘in, so‘zlarni, uning shakllarini talaffuz etishni yaxshilash borasida nutq organlarini faollashtiruvchi mashqlarni anglatadi. Bunga nafasdan foydalanish, tovush tembrlarini yaxshilash, diksiyaga e’tibor berish va undoshlarni talaffuz etish, ohang kabilar kiradi.

O‘zbek adabiy tili og‘zaki nutq texnikasining rivojiga o‘zbek madaniyatining atoqli namoyandalari — shoirlar, yozuvchilar, san’atkorlar, aktyorlar katta hissa qo‘shdilar.

Hozirgi kunda ikki yo'nalişda she'r o'qish texnikasi mavjud bo'lib, ulardan biri an'anaviy usul, ya'ni she'r turoqlarga, so'z birikmalariga bo'lib o'qiladi. Bu usulni keksa avlod ijodkorlarining she'r o'qishlarida kuzatish mumkin. Ikkinchisi usul E.Vohidov, A.Oripov, S.Sayyid, Iqbol Mirzo kabi shoirlarning she'r o'qishlarida seziladi. Bu usulda, asosan, misradagi har bir so'zga alohida urg'u beriladi, so'zlar bir-biridan kichik pauza bilan ajratib o'qiladi.

Yoshlar orasida keyingi yo'nalişga, usulga ergashib she'r o'qish odat bo'lmoqda.

## Orfoepiya

Til, uning amaliy ko'rinishi bo'lgan nutq tabiiy holatda talaffuz qilinuvchi ovozga (tovushga) asoslanuvchi hodisadir. Ammo adabiy til, adabiy nutq haqida gap borganda, tabiiy ovoz va talaffuz bilan bir qatorda, muayyan normalarga, qoidalarga solingan talaffuz haqida gapirishga to'g'ri keladi. Adabiy til doirasida amal qiluvchi tabiiy normalar va muayyan normalarga solingan talaffuz qoidalari yig'indisi — adabiy talaffuz yoki, boshqacha aytganda, orfoepik normalar deb ataladi. Orfoepik normalar fanda qisqacha orfoepiya deb ham nomlanadi. Orfoepiya<sup>12</sup> termini hozirda ikki hodisani, birinchidan, muayyan adabiy tilga xos adabiy til normalari va ularga doir qoidalari yig'indisini, ikkinchidan esa, tilshunoslikning adabiy til talaffuzi, adabiy talaffuz normalari, adabiy talaffuz qoidalari, to'g'ri talaffuz qoidalarni anglatadi.

Demak, orfoepiya adabiy tilda so'zlovchilarining barchasi uchun yagona talaffuz qoidalarni belgilaydi. Bu jihatdan u barcha uchun yagona bo'lgan imloviy qoidalarni eslatadi.

Demak, adabiy nutqning muayyan qoidalarga solingan normalarga egaligi nutq tipining o'ziga xos mohiyatidan darak beradi. Adabiy talaffuz — ushbu tilda gaplashuvchi barcha kishilar uchun umumiy va qonuniy bo'lgan talaffuzdir. Adabiy talaffuz talaffuzning milliy til doirasida mavjud bo'lgan barcha boshqa ko'rinishlaridan ustun turadi va namunali hisoblanadi. Shuning uchun ham, odatda, milliy til doirasidagi talaffuz ko'rinishlari

<sup>12</sup> Orfoepiya — grekcha so'z (nutq, gap) so'zidan olingan.

ikki uslubga bo'linadi: 1) normalangan adabiy talaffuz; 2) kundalik so'zlashuv talaffuzi.

Kundalik so'zlashuv talaffuzi dialekt va shevalarda, oddiy xalq vakillarining kundalik so'zlashuv jarayonlarida keng tarqalgan.

Adabiy talaffuz deyilganda birinchi uslub — normalangan talaffuz tushuniladi. Til tarixida adabiy til har doim mavjud bo'limgandek, adabiy talaffuz ham adabiy til tarixida doimo bo'lgan emas. Adabiy talaffuzning yuzaga kelishi adabiy til og'zaki shaklining yuzaga kelishi bilan bog'liqdir.

Adabiy til og'zaki shaklining paydo bo'lishi, u bilan bog'liq holda adabiy talaffuz normalarining yuzaga kelishi adabiy tilning milliy til bo'lib shakllana boshlashi davriga to'g'ri keladi. Chunki bu davrda adabiy til umumxalq aloqa quroliga aylana boradi, adabiy tilning og'zaki shakli jamiyat hayotida muhim rol o'ynay boshlaydi. Natijada adabiy til doirasida umumxalq xarakteridagi yagona talaffuzni yuzaga keltirish ehtiyoji tug'iladi. Ammo adabiy talaffuz normalari yo'q joyda, sun'iy ravishda yaratilmaydi, balki tildagi talaffuz imkoniyatlariga tayanilgan holda normalarga solinadi.

Turli milliy tillarda adabiy talaffuz normalarining shakllanishi shuni ko'rsatadiki, adabiy talaffuzning dastlabki namunalari avvalo iqtisodiy-siyosiy jihatdan rivoj topgan adabiy-madaniy markazda yuzaga keladi. Ana shu ulkan adabiy-madaniy markzlarda yashovchi jamoatchilik vakillari, ziyolilar adabiy talaffuz namunalarini, uning madaniy xususiyatlarini yaratuvchilardir. Odatta xalqning adabiy-madaniy markazdan tashqarida yashovchi vakillari mana shu markazdagi talaffuzga amal qilishga intiladi, uni namunali deb tan oladi. Ko'p hollarda mana shu madaniy markaz dialekti yoki shevasi adabiy talaffuz tayanuvchi baza, manba vazifasini o'taydi. Adabiy normaning, jumladan, adabiy talaffuzning ba'zi munozaralari o'rinni, talaffuzdagi dubletlilik va variantlilik o'sha dialekt yoki shevadagi namunaviy materiallarga tayangan holda bartaraf qilinadi.

O'zbek adabiy talaffuzining yagona normalarini ishslashda jonli halq tili talaffuz imkoniyatlariga tayaniladi. Bu adabiy talaffuzni xalq tiliga yaqinlashtirish, uni demokratlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga adabiy talaffuz normalarini belgilashda muhim ijtimoiy, siyosiy, adabiy-madaniy markaz bo'lgan Toshkent talaffuziga tayanildi. Toshkent shevasi ayniqsa *o* lashish masalasini

hal etishda yetakchi rol o'ynaydi. Hozirgi o'zbek adabiy tili talaffuz xususiyatlarini o'rgangan barcha tilshunoslar o'zbek tili talaffuz normalari asosan, Toshkent shevasi talaffuz normalariga mos kelishini qayd etishgan.

O'zbek adabiy talaffuzining Toshkent shevasiga asoslanishi o'zbek adabiy tilining og'zaki shakli bilan Toshkent shevasi aynan bir xil ekan, degan ma'noni anglatmaydi. Adabiy til normalarining shakllanishi murakkab hodisadir. Yuqorida ta'kidlaganimizdeki, o'zbek adabiy talaffuzida dealektal asos – Toshkent shevasi yetakchi, tayanch rol o'ynaydi. Ammo adabiy talaffuzning shakllanishida quyidagi faktorlarning o'rni ham muhimdir:

– o'zbek adabiy tili avvalo umumxalq so'zlashuv nutqi imkoniyatlari tayanib normalandi. Bu hol o'zbek tili normalarini boshqa qardosh turkiy xalqlar adabiy tillari normalaridan farqlab turuvchi mezondir;

– o'zbek adabiy talaffuzida 1917-yildan oldingi adabiy tilga xos ba'zi kitobiy talaffuz xususiyatlari saqlanib qolgan. Demak, bu ma'noda hozirgi o'zbek adabiy talaffuzida tarixiy an'ananing ma'lum o'rni bor. An'anaviy talaffuzga ko'ra, ko'pgina so'zlar o'z kitobiy, ya'ni yozma shakliga ko'ra aytildi. Masalan, arabcha va forscha so'zlar, poetik leksika va boshqalar. Demak, so'zlar yozma shakliga ko'ra talaffuz etiladi;

– o'zbek adabiy talaffuzining shakllanishida rus tilining ta'siri sezilarlidir. Rus tilidan, rus tili orqali boshqa tillardan o'zbek tiliga ko'pgina so'zlar qabul qilingan. Qoida deb qabul qilingan normalarga ko'ra, o'zbek adabiy tilida bu so'zlar rus tilidagi holatda talaffuz qilinadi. Natijada o'zbek adabiy talaffuzida ruscha o'zlashmalarga xos ф, с, щ, ж (дж), в, о, х, ё kabi tovushlarni talaffuz qilishga to'g'ri keladi. Bu hol o'zbek adabiy talaffuziga ma'lum ta'sir o'tkazadi. Bunday hol o'zbek aksentuatsiyasi (urg'uning o'rni)dagi siljishlarda ham ko'rinadi;

– o'zbek adabiy talaffuzining shakllanishida imlo (yozuv) muhim rol o'ynaydi. Yagona va umumiylar imlo qoidalari so'zlarning yozma shakllarininggina emas, balki talaffuz shakllarining ham turg'unlashishishga, qolipga tushishiga asos bo'ladi. So'zlarni yozilganidek talaffuz qilishga intilish hozirda matabda, radio va televidenieda, ilmiy va rasmiy doiralarda keng tarqalgan. Bu hol o'zbek adabiy talaffuziga ham sezilarli ta'sir o'tkazadi. Bu ta'sirga

ko‘ra so‘zлarni talaffuz qilinganda, uning yozma matndagi shakliga iloji boricha yaqinlashishga harakat qilinadi. Demak, keltirilgan ma’noda, o‘zbek adabiy talaffuzi normalarining turg‘unlashuvida yozilgan nutq, yozma matnlar, shuningdek, imlo lug‘atlari sezilarli rol o‘ynaydi;

– adabiy tilning ommaviy nutq sifatidagi funksiyalari nihoyatda kengaydi, bu ilmiy nutq, ilmiy-ommabop nutq, nutqning boshqa tiplariga o‘zining kuchli ta’sirini o‘tkazmoqda. Shuningdek, jamiyatning turli tabaqalariga mansub kishilar savodxonlikda tenglashib bormoqdalar. Bu hol ham adabiy til yagona talaffuz normalarining shakllanishiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Demak, o‘zbek adabiy talaffuzining yuzaga kelishi faqatgina yetakchi sheva imkoniyatlariga tayanib qolmaydi. Bu normalar kompleks omillar ta’sirida shakllanadi va rivojlanadi.

Shunday qilib, o‘zbek tilida ma’lum qonun-qoidalar asosida talaffuz normalari yuzaga keladi. Bu normalar adabiy tilda so‘zlovchi barcha kishilar uchun umumiy va majburiydir.

Adabiy talaffuz qoidalari tilning turli sohalariga tegishlidir. Masalan, leksikani olaylik. Undagi so‘z guruhlari ma’lum o‘ziga xos talaffuz normalariga ega. Shunga ko‘ra leksika doirasida talaffuzning shunday ko‘rinishlarini belgilash mumkin:

- o‘z qatlam (asl turkiy) ga mansub so‘zlar talaffuzi;
- o‘zlashma qatlamga mansub so‘zlar talaffuzi. Bunda o‘zbek tilidagi aslida forscha-tojikcha yoki arabcha bo‘lgan so‘zlar talaffuzidagi o‘ziga xoslik, shuningdek ruscha-internasional so‘zlar talaffuzida o‘ziga xoslik borligini qayd etish mumkin;
- o‘zbekcha so‘zlar talaffuzi. Bu guruhgа o‘zlashma so‘zlar negizida o‘zbek tilida hosil qilingan yangi so‘zlar yoki so‘z formalarining aytilishini kiritish mumkin.

Adabiy tilning orfoepik qoidalari, xuddi orfografiya kabi ma’lum qoidalarga solinadi. Orfoepik qoidalalar tilning quyidagi vositalari va hodisalariga tegishli bo‘лади:

1. Tovush (fonema)lar talaffuzi:
  - a) unli tovushlar talaffuzi;
  - b) undosh tovushlar talaffuzi;
  - d) tovush birikmalari (qo‘sш va yondosh unli va undoshlar) talaffuzi.

## 2. So‘z va so‘z formalari talaffuzi:

- a) alohida so‘zlarning talaffuz xususiyatlari;
  - b) ‘ belgisi bilan yoziluvchi so‘zlar talaffuzi;
  - c) so‘z grammatik formalarining, alohida qo‘sishchalarining, qo‘shma so‘zlar, qo‘shma fe’llar talaffuzi;
  - d) qisqartma otlar talaffuzi;
  - e) o‘zlashma so‘zlar talaffuzi
- 3) ism va familiyalar talaffuzi.

Quyida til hodisalari talaffuziga qisqacha to‘xtalamiz.

## Notiq nutqining to‘g‘riliqi

Nutqning to‘g‘riliqi uning adabiy til normalariga mosligidir. Adabiy til normalari ko‘p tarmoqli bo‘lgani uchun nutqning to‘g‘riliqi ham bir qancha shartlarni o‘zida qamraydi. To‘g‘ri, nutq o‘zida adabiy tilning fonetik, talaffuz, lug‘aviy so‘z yasalishi, grammatik (morphologik, sintetik), uslubiy normalarini mujassamlashtirgan bo‘lishi lozim. Bularning birortasidan biroz chetlashgan nutq ham to‘g‘ri nutq bo‘la olmaydi.

Nutqning to‘g‘riliqi uning eng muhim aloqaviy fazilatidir. Nutq to‘g‘ri bo‘lmasa, boshqa kommunikativ fazilatlari ham buziladi. Nutqning tuzilishi to‘g‘ri bo‘lmasa, uning mantiqiyligi, aniqligi, o‘rinliligi kabilar haqida gapirib ham bo‘lmaydi.

To‘g‘ri nutq tuzish uchun so‘zlovchi adabiy til normalarini egallab olgan bo‘lmog‘i lozim. Bu esa juda murakkab sermashaqqat ishdir.

**Talaffuz normalari.** Kishilar yoshlikda o‘zi mansub bo‘lgan sheva normalari asosida til o‘rganadilar. Dialektal normalar juda qat’iy va qattiq amal qilgani uchun ularni buzish, ulardan qutulish oson ish emas. Nutq shaxsiy hodisa. Nutqni har bir shaxsning o‘zi tuzadi. Normativlarni tanlash, baholash ham shaxs tomonidan bajariladi. Norma bir variantni tanlaganiga qaramasdan, uning yonida boshqa “shaxsiy” variantlar ham turadi. Agar so‘zlovchi adabiy normalarni yaxshi egallamagan bo‘lsa yoki o‘z shevasi bergen “shaxsiy” variantni afzal deb qarasa, uning nutqi adabiy normalardan chetlashuvi mumkin.

Talaffuz deganda tilning tovush sistemasi — fonemalar, ularning sifatlari, ma'lum fonetik sharoitlarda o'zgarishlari ko'zda tutiladi.

O'zbek tili xususiyat jihatidan qariyb mustaqil qardosh tillarga teng bo'lgan uch lajhadan tarkib topgan. Bu lajhalar adabiy tilda so'zlayotgan kishilar nutqida har qadamda o'zining borligini sezdirib turadi. Notiq o'zi bilibmi, bilmaymi, o'z lajhasi qonuniyatlari ta'siriga o'tib qoladi. Bu narsa ko'pincha so'z va so'z shakllarining talaffuzida, leksik tanlashlarda va boshqalarda ko'rindi. Ma'lumki, qipchoq va o'g'uz lajhalarida tanglay uyg'unligi (garmoniyasi) mavjud.

Tanglay uyg'unligi talabiga ko'ra unlilar ikki xil — yumshoq va qattiq talaffuz etiladi. O'zak, negizlarning qattiq va yumshoq talaffuz etilishi turkiy tillarga xos hodisa bo'lib, singarmonizm deb yuritiladi (Tovushlar uyg'unligi ikki xil bo'ladi: tanglay uyg'unligi va lab uyg'unligi (*o'tqa, itka, ko'zum kabi*). U boshqa — qozoq, qirg'iz kabi turkiy tillarda uchraydi). So'z o'zak-negizlarini bunday ikki xil talaffuz etish lahjaning har bir vakiliga bolalikdan singgan bo'ladi. Qattiq unlili negizlarga qattiq, yumshoq unlili negizlarga yumshoq unlili qo'shimchalar qo'shiladi: *otka, xasqa, paxtag'a* (sheva talaffuzi: *otqa, xosqa, poxtog'a*); *ishka, bizarga, sanga, maktabka, daskaga* (adabiy orfoepik: *otga, xosga, paxtag'a, ishga, bizlarga, senga, maktabga, doskaga*) kabi.

Singarmonizm (tanglay garmoniyasi) qonuniga ko'ra quyi ko'tarilish, keng unli (a) qattiq o'zak-negizlarda ochiq (o) shaklida talaffuz etilganidek, yumshoq o'zak-negizlarda yumshoq (a) tarzida aytildi. Masalan, badring (bedring), bahadir (bexedir), kitap (kiteb) kabi.

Bulardan tashqari, "o" va "a", "u" va "o'" unlilarining so'z bo'g'inlaridagi o'rnii ham adabiy til va shevalarda bir-biridan farq qiladi. Bunday holat ham so'zlovchi nutqining adabiy normadan chiqib ketishiga olib keladi. Masalan, adabiy tilda: *balog'at, bashorat, anor, qanor, oza* kabi. Adabiy orfoepik qozon, qora, qorovul, holva so'zları qorluq lahjasining Qarshi guruh shevalarida (Qarshi, Shahrisabz, Buxoro, Samarcand shahar shevalari) qazon, qaro, qaravul, halvo tarzida aytildi. Shuningdek, qipchoq shevalaridagi *ura, urgan, Usup, Usan, Irgash, iyart* kabilar adabiy til normasiga ko'ra *o'ra, o'ragan, Yusuf, Husan, Ergash, ergashtir* shaklida talaffuz etiladi va hokazo.

O'zbek adabiy tilida xalq shevalaridan farqli holda *ts* va *s* fonemalari amal qiladi: *six* va *sex*, *semir* va *sement* kabi. Shevalarda bo'limgan *ts* tovushining talaffuzi ham ko'p hollarda normani buzishga sabab bo'ladi. Agar *ts* tovushi *s* bilan almashtirib talaffuz etilsa, shu fonemaga aloqador nimadir yo'qoladi. Adabiy tilda labtish *f*, *v* fonemalari amal qiladi. Ular o'zbek adabiy tilining tarixiy-ag'anaviy qatlamiga mansub: *faqat*, *fan*, *vatan*, *vazir*, *vazifa* kabi. Bu tovushlar (Buxoro – Samarqand guruh shevalaridan tashqari) o'zbek shevalarida uchramaydi. Misollardagi *f* o'z sifati bilan *paqilloq*, *pat*, *paxta* so'zlaridagi *p* tovushiga, *v* o'z sifati bilan *suv*, *qo'rquv*, *ovqat* so'zlaridagi *v* tovushiga o'xshamaydi. Keyingi so'zlardagi *v* tovushi *u* ga teng aytildi: *suu*, *qo'rquu*, *auqat* kabi. Adabiy tilda *x* va *h* fonemalari Toshkent va ba'zi boshqa shevalardagidek *x* yoki *h* ekanligi noaniq tarzda emas, balki aniq eshitiladigan bo'lak-bo'lak tovushlar sifatida talaffuz etiladi. Masalan: *ham*—yuklama, *xam*—*bukilgan*, *egilgan*; *hol-ahvol*, *xol*—yuzdag'i kichik qora nuqta kabi. Adabiy normaning bu nozik talabini nazarda tutmagan nutqda *gavhar* “gavxar” bo'lib, *har* “xar” bo'lib eshitiladi.

Talaffuz normalari tushunchasiga yuqoridagilardan tashqari, ayrim so'zlar va so'z guruhlarining tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan, ammo tilning tovushlar tizimiga mos talaffuzlari ham kiradi. Masalan, “ijtimoiy” so'zida *j* tovushi o'rnida *sh* talaffuz etiladi. Holbuki, o'zbek tilida *j* tovushi bor. Yoki quyidagi bir xil fonetik sharoitda boshqa-boshqa tovushlar talaffuz etiladi. *Oldirkeltir*, *burga-burka* kabi. Ko'p bo'g'inli *mantiq*, *ittifoq*, *ishtiyoq* kabi so'zlar egalik qo'shimchalari bilan turlanganda *q* tovushi *g'* ga o'tmaydi. Ammo o'zbek adabiy tili normasiga ko'ra ko'p bo'g'inli so'zlar egalik qo'shimchalari bilan o'zgarganda so'z oxirida kelgan *q* tovushi *g'* ga, *k* tovushi *g* ga aylanadi.

Adabiy talaffuz ba'zi bir uslubiy xususiyatlarga ham egadir. Ba'zan so'z, so'z birikmalarining oddiy talaffuzidan nazmiy yoki kitobiy talaffuzi farq qilib turadi. Bunday talaffuzda so'zlar uslubiy bo'yoqqa ega bo'ladi. So'zlashuv nutqida esa ular uslubiy bo'yoqsiz aytila beradi. Shuni aytish kerakki, tildagi ba'zi bir so'zlarga bunday uslubiy bo'yoqqa egadir. Siyosatga, fanga, san'atga, texnikaga aloqador so'zlarning bir qismi uslubiy bo'yoqlidir, xolos.

So‘zlarning talaffuzi turli shaxslarda turli nutq sharoitlariga ko‘ra qandaydir darajada o‘ziga xoslik kasb etishi mumkin.

## **Ommaviy chiqishlarda notiqlik san’atining ahamiyati**

Notiqlik san’ati – ijtimoiy hodisa. Ayniqsa, ommaviy chiqishlarda notiqning nutqi va uslubi muhim ahamiyatga ega. Ommaviy chiqishlar hamma uchun, uning tinglovchilari: oddiy dehqondan tortib, injenergacha, pedagogdan tortib tibbiyot xodimigacha, o‘quvchidan tortib talabagacha, boringki, jamiyatimizda taraqqiyot uchun xizmat qiladigan ommaga mo‘ljallanadi. Go‘yoki badiiy asar o‘z bahosini faqat adabiy tanqidchidangina emas, o‘quvchilar ommasidan kutgani kabi ommaviy chiqishlarda so‘zlanadigan nutqning tinglovchilari turli toifadagi odamlar bo‘lishi mumkin. Aniqroq aytadigan bo‘lsak, teleko‘rsatuvlardagi nutqday, ko‘pchilikka manzur bo‘ladigan (televedeniyyedagi hamma ko‘rsatuvlarni ommabop deyish qiyin) sodda uslubdagi yoshu qari tushunadigan va uni eshitib fikrlaydigan aniq, ravon va xalq tilidagi va dilidagi nutq bo‘lishi kerak.

Ommaviy chiqishlarda nutqda to‘g‘rilik, ma’nан yetuklik va lo‘ndalik kabi sifatlar o‘z aksini topmog‘i lozim. Nutqning to‘g‘riliги – adabiy til normalariga mosligidir. Nutq o‘zida adabiy tilning fonetik, talaffuz, lug‘aviy so‘z yasalishi, grammatik (morphologik, sintetik), uslubiy normalarini mujassalashtirgan bo‘lishi lozim.

Adabiy til uchun begona unsurlari bo‘Imagan, axloq normalari tan olmaydigan so‘zlardan xoli bo‘lgan nutq sof nutq hisoblanadi.

Ommaviy chiqishlarda notiq o‘z nutqining adabiy normalar darajasida bo‘lishiga erishmog‘i lozim. O‘z shevasiga xos bo‘lgan til vositalarini nutqqa o‘rinsiz olib kirish nutqni buzadi. Shunisi ham borki, adabiy tilda varianti bo‘Imagan, biroq shevada mavjud bo‘lgan so‘zлarni, fikrni oydinlashtirish maqsadida olib kirilsa va izohlansa, nutqqa sayqal bag‘ishlaydi. Chunki tilimizning behisob boyligi shevalarda mujassam. Hali ham ular umumxalq mulki bo‘lgan adabiy tilga olib kirilgan emas. Bu o‘rinda A.Qahhorning Qo‘qon shevasidagi “sinchalak” so‘zini butun boshli asarining nomi darajasiga ko‘tarishini eslash kifoya.

Bugungi kunda ba'zi o'zlarini "madaniyatli" qilib ko'sratmoqchi bo'lgan yoshlarimiz nutqida ruscha-o'zbekcha so'zlarni aralashtirib gapirishlari oqibatida nutqda varvarizmlarning ko'payishi sodir bo'lmoqda. Ko'pgina yoshlarmizning o'z nutqini nazorat qilmasligi, ma'qul so'z qidirishda erinchoqlik qilishi, ruscha atamalarning o'zbekcha shakllarini bilmaligi, ayrim hollarda o'zining ruschani ham bilihligini namoyish etishga intilishi orqasida varvarizmlar nutqimizga kirib kelmoqda va bunga qulqolarimiz ham o'rganib bormoqda: "Karoche senga zvanit qilaman", "Bratan bu masalani shes sekundda est qilamiz", "Dvijeniya bo'laptimi", "Molni "nal"gam, perichisleniyagam olamiz", "Yur, kafega prosto perekusit qilamiz, svejiy sosiska kelibdi", "Shefing gapida turadimi?" "Karoche bu sening problemang", "Gul, ti je znaesh, men simpotichniy yigitlarni yoqtiraman" kabi. Bunday nutq tinglovchiga to'la yetib bormaganidan tashqari, uning izzat-nafsiga tegadi, ranjitadi, so'zlovchiga nisbatan masxarali kulgu qo'zg'atadi.

Ommaviy chiqishlarda nutq so'zlayotgan ba'zi shaxslar o'z nutqlarida ayrim so'zlarni o'rinli-o'rinsiz ko'p takrorlaydilar. Bunday takrorlanadigan *xo'sh*, *xo'p*, *demak*, *aytaylik*, *ya'ni*, *olaylik*, *masalan*, *haligi*, *anaqa* kabi so'zlar parazit so'zlar deb yuritiladi.

Aniqlik nutqning muhim fazilatlaridan biri sifatida qadimdan ma'lum. G'arb va Sharq olimlari ham aniqlikni nutq sifatlarining birinchi sharti hisoblaganlar. Kaykovus: "Ey farzand, so'zning yuzin va orqasin bilg'il va ularga rioya qilg'il, har na so'z desang yuzi bila degil, to suxango'y bo'lg'aysan. Agar so'z aytib, so'zning nechuk ekanin bilmasang qushga o'xsharsanki, unga to'ti derlar, ul doim so'zlar, ammo so'zning ma'nosin bilmas", – deydi.

Shunday qilib, aniqlik nutqning aloqaviy fazilatlaridan biri bo'lib, u ashyoviy borliq bilan nutq mazmun rejasining mosligi sifatida yuzaga chiqadi. Boshqacha aytganda, ifodalangan tushunchalar tizimida so'zlarni ularning tildagi ma'nolariga mos holda qo'llashda ko'rinadi.

Nutqda bayon etilgan fikrning qismlari va alohida fikrlarning o'zaro mutanosibligi mantiqiylig deb yuritiladi. Mantiqli nutqda gaplardagi fikrlar butun nutqdan kelib chiqadigan fikrning qismlari hisoblanadi, ular orasida ziddiyat bo'lmaydi.

Notiq nutqining muhim fazilatlaridan biri ifodalilikdir. Shu nuqtai nazardan qaralganda, ommaviy chiqishlarda notiqlarning nutqlari xilma-xildir. Hatto bir mavzuga bag‘ishlangan turli kishilarning nutqi turlichay ifodalanishi mumkin. Bunday nutqlarning biriga tinglovchi qiziqib qarasa, boshqachasiga nisbatan loqayd munosabatda bo‘ladi. Nutqni ravon qilishda mavzu va xabarning mantiqi, dalillarning yangiligi, muallifning ta’sir o‘tkazish vositalari, nutqning struktura xususiyatlari muhimdir.

O‘z tuzilishi, xususiyatlari, fazilati, xossalari bilan tinglovchining fikr va tuyg‘ularini, diqqatini yorqinlashtirgan, aytilganlarda qiziqish uyg‘otgan nutq ifodali nutq hisoblanadi.

Ommaviy chiqishlarda notiq ifodalilikka qanday erishishi mumkin? Tilshunos B.N.Golovan ifodalilikka erishishning yettita shartini ko‘rsatadi.

Birinchidan, nutq muallifi tafakkurining erkin, mustaqil bo‘lishi. Siyqasi chiqqan gaplarga bog‘lanib qolgan shaxsning nutqi yuksak ifodalilikka erisha olmaydi. Chunki bunday notiq erkin tafakkur qilmaydi, nutqiga sharoitga munosib ifodaviy vositalarni krita olmaydi, ular ustida o‘ylamaydi, o‘lay olmaydi.

Ikkinchidan, nutq muallifi nima haqida so‘zlayotganini, kimgarga so‘zlayotganligini bilishi, shunga qiziqishi, beparvo bo‘imasligi lozim.

Uchinchidan, tilni, uning ifoda vositalarini, imkoniyatlarini yaxshi bilish (bunga til fanini bilish orqali erishiladi).

To‘rtinchidan, til uslublari (badiiy, ilmiy, publitsistik, so‘zlashuv kabi) xususiyatlari, xossalarni bilish.

Beshinchidan, nutqiy malaka ustida muntazam va ongli mashq qilish. Bunda olingen bilimni malakaga aylantirish muhimdir. So‘zlayotganda kishi uzoq o‘ylab nutqni ifodali qiladigan vositalarni topa olmaydi. Buni vaqt taqozo etmaydi. Bu borada bizga malakamiz yordamga keladi. U tezlik bilan bizga nutqni ifodali qiluvchi vositalarni topib berishi, keraksiz vositalarni uzoqlashtirishi lozim. Ammo bunga qanday erishish mumkin? O‘qigan badiiy, ilmiy va boshqa asarlarning tiliga ongli munosabatda bo‘lish, til vositalarini tahlil etish, yodlash, ulardan foydalanib nutq so‘zlash mashqlari o‘tkazish ifodali so‘zlash yuzasidan malaka hosil qilishning birdan-bir to‘g‘ri yo‘lidir. Kishi doimo o‘z nutqiy malakasini boyitishi, oshirib borishi zarur.

Oltinchidan, so‘zlovchining ifodali so‘zlashga bo‘lgan ongli ishonchi, ruhan tayyorgarligi. Kishi o‘ziga-o‘zi mening nutqim ifodasiz, nochor va qashshoq, shunga ko‘ra yorqinroq, ifodaliroq so‘zlashim uchun kitoblar o‘qishim, ulardan tilning ifoda vositalarini, maqol, hikmatli so‘zlarni, iboralarni o‘rganishim zarur deya olishi kerak.

Yettinchidan, tilda nutqning ifodaliliginu ta’minlovchi vositalarning bo‘lishi. Ular tilda borligi uchun ham biz o‘z nutqimizda ifodalilikka erishamiz.

Yana eng muhim jihat talaffuzning tiniqligi, so‘z tanlash, har bir so‘zga ohangdan libos kiydirilishi lozim. Gapning grammatik qurilishi til qonun-qoidasiga asoslanmog‘i shart. Nutq davomida keltirilgan she’riy misollar nutqdagi fikrlarni qo‘llab-quvvatlashga va mustahkamlashga xizmat qilishi tinglovchilar qiziqishini oshiradi.

Ommaviy chiqishlardagi nutqning og‘zaki (matn bo‘lsa ham) matnga qaramasdan o‘qilishi, iloji bo‘lsa, mikrofonsiz so‘zlanishi tinglovchi omma e’tiborini yanada o‘ziga jalb etadi. Bunday nutqda ilmiy jumlalar, chet tillardan olingan so‘zlar me’yorini saqlash ham notiqqa mas’uliyat yuklaydi. Demak notiq har bir so‘zning sodda shaklini tanlamog‘i, sheva va jargon so‘zlardan foydalanishning afzal tomonlari va me’yorlarini bilmog‘i, varvarizmlardan, o‘rinsiz ko‘p takrorlanadigan parazit so‘zlarni ishlatishdan umuman voz kechmog‘i lozim bo‘ladi.

Bugungi kundagi ommaviy chiqishlarda mafkuraviy va ilmiytarg‘ibot odamlar o‘rtasida maxsus ma’ruzalar qilish, har xil suhbatlar uyuştirish kabilar orqali amalga oshiriladi. Ana shu ma’ruzalar, suhbatlar va har xil chiqishlarning ommaga qay darajada ta’sir qilishi; ularni ishontirish, kayfiyatlarini o‘zgartirish, ular diqqatini qo‘yilayotgan masalalarga tortish notiqdan juda katta mahorat talab qiladi. Chunki har bir nutq ommani ishontira oladigan, ularga tushunarli, yorqin, ta’sirchan, mantiqli va aniq bo‘lgandagina kishilarga o‘zgacha ta’sir qiladi. Ana shularni ta’minlagan notiq esa o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga to‘la erishadi.

Taniqli notiqlar o‘z nutqlarining namunali bo‘lishini ta’minlashda quyidagi asosiy holatlarga alohida e’tibor bergenlar:

1) o‘zi to‘xtalmoqchi bo‘lgan masala yoki mavzuni chuqur o‘rganish, o‘zlashtirib olish, undagi masalalarga o‘z munosabatini aniq belgilab olish;

2) o‘z dunyoqarashiga ega bo‘lish, so‘z bilan ish birligi, nazariya bilan tajribaning dialektik birligiga erishish, fikrlarni ilmiy asoslash;

3) mavzuga mas’uliyat bilan yondoshish, uni omma oldida to‘liq ochib berishga, yoritishga diqqat qilish;

4) ommaviy chiqishlar paytida tinglovchilar bilan nihoyatda yaqin aloqa, muloqotni ta’minalash. Tinglovchilarning kayfiyatini his qilib turish, bu orqali esa ularning notiq fikrlarini faqat tushunib olishlarinigina ta’minalamasdan, bu fikrlarga ishontira olish;

5) har bir nutqqa jiddiy tayyorgarlik ko‘rish, jumladan, gapni nimadan boshlashdan tortib, nima bilan tugatishgacha jiddiy o‘ylab olish, masalalarni o‘rtaga tashlash ketma-ketligini yaxshi belgilab olish, ularning o‘zaro bog‘lanishini ta’minalash, ma’lum rejalar yoki reja-konspektlar tuzib olib, o‘zi uchun alohida va keng to‘xtalishi zarur bo‘lgan o‘rinlarni belgilab olish va boshqalar.

Ommaviy chiqishlarda nutqni ta’minalovchi asosiy omillar yuqorida sanab o‘tilganlar bilan cheklanmaydi, albatta. Shu omillarni yuzaga keltirishda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan yana bir omil ham borki, bu, yuqorida aytganimiz, tilni yaxshi bilish, undan o‘rinli va to‘g‘ri foydalanish malakasiga ega bo‘lish – nutq madaniyatini egallashdir. Mavzuni chuqur bilish, masalalarni to‘g‘ri anglash, ularga munosabat, tushunarilikni, ta’sirchanlikni, aniqlik va mantiqlilikni ta’minalash, bularning hammasi til orqali, uning bevosita ishtirokida amalga oshiriladi.

Notiqlik san’ati esa olam-olam mazmunni go‘zal ifodalab berishga asoslanadi. Ma’lumki, notiqlar ham har xil bo‘ladi. Har biri o‘z nutq uslubiga, o‘ziga xos bilimga, o‘zini tuta bilish, omma bilan til topa bilish mahoratlariiga ega bo‘ladi. Aristotel to‘g‘ri ta’kidlaganidek, nutq zamiridagi fikrlar gapiruvchi shaxs orqali gavdalananadi va uning nutqi davomida yuzaga keladi. Demak, har bir notiq o‘ziga xos ovozga, o‘ziga xos uslubga ega bo‘lishi lozim. Biroq, baribir har bir notiq Alisher Navoiy o‘zining “Mahbub ul-qulub” asarida keltirgan “Ko‘ngil xazinasining qulfi – tilo; U xazinaning kalitini – so‘z bil”, “Ko‘p, bemaza so‘zlaydigan ezma – kechalari tong otguncha tinmay huradigan itga o‘xshaydi”, “Xushsuxan odam yumshoqlik bilan do‘stona so‘z aytadi: ko‘ngliga tushishi mumkin bo‘lgan yuz g‘am – uning so‘zi bilan daf bo‘ladi. So‘zda har qanday yaxshilikning imkonibor”... “Til shuncha sharafi bilan nutqning qurolidir...”, “Tilning ixtiyorini qo‘lingda asragil; so‘zingni ehtiyyotlik bilan so‘zla.

Vaqtida aytish kerak bo‘lgan so‘zni asrama; aytish kerak bo‘lmas gapning yaqiniga yo‘lama. So‘z borki, eshituvchining taniga jon kirgizadi; so‘z borki, gapiruvchining boshini yelga uchiradi. Tiling bilan dilingni bir tut; tili va dili bir kishining aytgan so‘zi – but. So‘zni ko‘ngilda pishitmaguncha tilga olma” kabi hikmatlarga jiddiy amal qilishi lozim. Bu haqda keyingi paytlarda ko‘pgina o‘zbek adiblari, so‘z san’atkorlari, adabiyotshunos va tilshunos olimlar ham o‘z fikr-mulohazalarini bayon qilmoqdalar.

A.Qahhorning “Til haqida nutq” maqolasidagi (“Yoshlik” jurnali, 1987-yil, 9-son) quyidagi fikrlari bunga misol bo‘la oladi:

“Juda boy, chiroli tilimiz bor. Bu tilda ifoda etib bo‘lmaydigan fikr, tuyg‘u yo‘q!

Afsuski, radiomiz ko‘pincha xalq bilan mana shu boy, chiroli, purqudrat tilda gaplashmaydi. Odamlarki bor, bisotidagi bir xovuch so‘zni aylantirib oyligini olaveradi; o‘qish-o‘rganish bilan o‘zbek tilining imkoniyatidan to‘laroq foydalanishni istamaydi yoki bunga farosati etmaydi. Mana shunaqa odamlarning “ilmiy faoliyati” oqibatida shunday bir til vujudga kelganki, na muomalada, na oilada, na suhbatda hech kim bu tilda gapirmaydi; na oshiq ma’shuqasiga, na ota bolasiga, na bola onasiga bu tilda xat yozadi. Radio xodimlarining o‘zлari ham o‘zaro bu tilda gaplashmaydi. Bu tilni faqat mikrofon ko‘taradi. Bunga faqat mikrofon ‘toqat qiladi” ... “Ba’zan raislar, brigadirlar mikrofonga chaqiriladi. Hozirgi vaqtida texnika hatto duduq odamni ham gapirtirishga imkoniyat berishiga qaramay, brigadirlarning qo‘liga no‘noq jurnalist yozgan matnni berib, shuni o‘qishga majbur qilishadi”... “Institutni bitirgandan keyin joylarga borib o‘quvchilarga ingliz, nemis, fransuz, ispan tillarini o‘rgatasizlar. Mening sizlarga aytadigan eng zarur gapim shuki, sizlar joylarga chet tillar bilan birga (balki birinchi navbatda) o‘z ona tilimizga – o‘zbek tiliga cheksiz muhabbat tuyg‘usini olib boringlar! O‘zbek tili g‘oyat boy, nihoyat chiroli, har qanday fikr va tuyg‘uni ifoda qilishga qodir ekanini amalda ko‘rsatinglar; qayerda va qanday sharoitda ishlamanglar, til madaniyatimizning mash’ali bo‘linglar!

Men bu gapni tilimizning boyligiga daxl qiladigan, husn, latofotini buzadigan, tilimizni tahqir qilishga qaratilgan qiliqlarga barham berish maqsadidagina aytayotganim yo‘q. Bu gapning faqat tilimizgagina emas, tuzumimizga ham aloqasi bor...”.

Abdulla Qahhor qariyb yarim asr oldin aytgan bu fikrlar bevosita notiqlarga ham tegishli bo'lib, umuman til vositalaridan ustalik bilan foydalanishga e'tiborni tortishdan tashqari, nutq madaniyati uchun ham taalluqlidir.

Har qanday notiq nutqning madaniyatli bo'lishini ta'minlashga harakat qilar ekan, avvalo, o'z ona tilining bebaho ne'matlardan foydalana olishi, so'z qadriga eta bilishi kerak. Bundan tashqari, nutqning go'zal, latoftali, ma'nodor va oljanob bo'lishi uchun, kishining o'zi ham tabiatan samimiyl, musaffo bo'lishi kerak. Chunki hamma vaqt ham chiroyli so'zlarni qatorlashtirib tashlash, balandparvoz jumlalar tuzish bilan madaniy nutqqa erishib bo'lmaydi. Bu o'rinda Aristotelning quyidagi fikrlari o'rinnlidir: "Noyob so'zlar, metaforalar, cho'zilgan va boshqa so'zlarni g'alati deb atayman. Lekin kimdir butun nutqni shunday asosda tuzsa, yo topishmoq, yo varvarizm kelib chiqadi".

Kaykovusning shunday fikri bor: "Hamma qobiliyatlardan eng yaxshisi nutq qobiliyatidir... Nutqni juda yaxshi va san'atkorona o'rganib olish, doimo gapga chechan bo'lishga harakat qil... Nutqi shirin kishining mehribon kishilari ham ko'p bo'ladi"

Ko'rinadiki, so'zlovchi til vositalaridan o'rinnli foydalangan holda tinglovchi ongiga, sezgisiga va kayfiyatiga ta'sir qila oladigan, uni ishontira oladigan, ko'tarilayotgan masalalarni to'g'ri va oson anglab olishni ta'minlaydigan bo'lishi kerak.

Ommaviy chiqishlarda notiq tinglovchilar hushyorligini oshiruvchi turli savollar qo'yishi va unga javobni lo'nda qilib esda qoladigan sodda usul bilan tushuntirmog'i muhim ahamiyat kasb etadi.

Ommaviy chiqishlarda notiq bilishi lozim bo'lgan yana bir muhim jihat nutq jarayonida hayotiy misollardan foydalanishdir. Ayniqsa, nutqda milliylik va mahalliy xususiyat saqlanishi muhimdir.

### **Kutubxonashunoslik ishlarida notiqlik san'atining ahamiyati**

Insoniyatning buyuk kashfiyotlaridan hisoblangan kitob azaldan juda ulkan xizmatlarni ado etib kelmoqda. Kitoblarining ta'sir kuchi bilan tuzumlar o'zgargan, jamiyat rivojlangan, omma tarbiyalangan.

Xalqimizning kitobxonlik madaniyati qadim-qadimga borib taqaladi. Ajodolarimiz merosi, zardushtiylik namunasi bo‘lgan “Avesto” teriga bitilib, meloddan avvalgi davrlardan bizgacha yetib kelgan. Bizga qadar yetib kelgan qadimgi noyob bitiklardan bugungi adabiyotlarga kutubxonalaridan, qolaversa, kitob ishqibozlari bisotidan o‘rin olganki, bugungi kunda ana shu ma’naviy boylikdan foydalanish an’anasi tabiiy ravishda katta avlod vakillaridan yoshlarga o‘tmoxda.

Kitobga va kitobxonlikka nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish jarayonidagi eng faol shaxs, bu shubhasiz, kutubxonachi hisoblanadi. Kutubxona xodimlari birinchi galda albatta kutubxonaga kelgan yangi kitoblarning ko‘rgazmalarini tashkil etishi shart. Yangi kitoblar taqdimotini o‘tkazish, kitobxonlar konferensiyasini tashkil etish, kitob mualliflari bilan, yozuvchi, shoirlar bilan uchrashuvlar tashkil etish ishlarda kutubxona xodimlari bosh-qosh bo‘lmog‘i darkor. Ilm nurlarini o‘z bag‘riga jo qilgan kitoblar kutubxonalaridan joy oladi, kutubxona — nurxona, deb bejizga aytilmaydi.

Tarixdan ma’lumki, ilm va ma’rifatni keng tarqatishga imkon yaratgan mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotda ham katta yutuqlarni qo‘lga kiritganlar. Sababi ma’naviyat va ilm aholi orasidagi do’stlik va hamjihatlikni chuqurlashtirib, ishlab chiqarish samardorligini ta’milagan. Odamlarga to‘la yetib boradigan, tushunarli tilda yozilgan kitob va axborotlar o‘z-o‘zini kamolotga yetaklashning bebaho vositasidir.

Yangilikni uqqan har bir odam o‘z oilasida va ish joyida boshqalar bilan turli ilmlar borasida suhbat quradi. Turli kitoblarni, ilmiy manbalarni o‘rgangan kishilar qanchalik ko‘p bo‘lsa, jamiyatga shuncha ko‘p manfaat yetadi.

O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgandan keyin xalqimizning o‘tmishidagi an’analariga mustahkam tayangan holda ilgarilab bormoqda. Hozirgi zamон ilmiy-texnika yutuqlari mamlakatimizga keng kirib kelmoqda. Chet mamlakatlarning zamонaviy ilmiy-texnikasi mamlakatimizdagi ilmiy tadqiqot muassasalariga, o‘quv yurtlariga, ishlab chiqarish tashkilotlariga o‘z vaqtida yetib borishi uchun katta tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mustaqillik sharofati bilan milliy qadriyatlarimiz tiklandi va xalqimizning iymon va e’tiqodiga, tarixiy an’analariga mos keladigan qimmatli kitoblar yozildi va chop etildi.

Biroq ommaviy axborot vositalari hamda kitoblarni tarqatish va targ'ib qilishda qiyinchiliklar bor, lekin bularning yechimini topsa bo'ladi. Bu o'rinda yana kutubxona xodimlari faol bo'lishlari, hokimligu, idoralarga yelib yugurishlari zarur bo'ladi.

Kutubxonashunoslik va kutubxona xodimlari faolligini oshirishda avvalo ularning insoniylik fazilatlari hamda notiqlik san'atidan xabardor bo'lishlari qo'l keladi. Kutubxonachi avvalo targ'ibotchi inson. Shu ma'noda kutubxonachi ma'naviy axloqiy jihatdan qalbi pok, ilmi yetuk odam bo'lishi kerak. Tashqi ko'rinishi yoqimli, istarasi issiq, yuzida nim tabassum sezilib turishi lozim. Har bir so'zida mayinlik, gaplarida muloyimlik va shirinlik sezilib turmog'i darkor. Eng muhimi, muomala madaniyatini mukammal egallagan bo'lishi kerak.

Kutubxonachining boyligi shu kutubxonada joylashgan kitoblar ekanligini esdan chiqarmasligi lozim. Kutubxonaga ma'nvaiy oziq yoki ilm izlab kelgan kitobxonlarni iliq kutib olib, ularni ranjitmasdan shirin muomalada bo'lmog'i shart. Kutubxonashunoslik bilan shug'ullanuvchi xodimlar o'z kutubxonasidagi kitoblarni yaxshi bilishi, o'z xalqining milliy mafkurasini anglashi, o'z millatining tilini va adabiyotini, tarixini yaxshi bilishi zarur. Dunyoqarashi, fe'l-atvori keng bo'lib, o'z ona tilida ravon va aniq nutq so'zlashi, katta so'z boyligiga ega bo'lishi, kitob tanlashda kitobxonlarga yaqindan yordam berib, targ'ib ishlarini olib borishi kerak.

Eng muhimi, bugungi kun talablaridan kelib chiqib, axborot resurs markazlari hamda kutubxonalarda elektron pochta resurslaridan zamon talabi darajasida xabardor bo'lishlari shart. Shu kabi ishlarni mukammal amalga oshirishda kutubxona xodimlari malakasini uzliksiz oshirib borish juda muhim.

Chunki kutubxonaga maktab o'quvchisidan tortib talabagacha, ilmiy xodimdan tortib barcha soha mutaxasislarigacha tashrif buyurishlari aniq. Madomiki shunday ekan, kutubxona xodimlari ularga yaqindan yordam berishlari uchun, o'zlarini bugungi zamonaviy axborot tizimiga kirib kelayotgan barcha texnologiyalar bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsata olish malakalarini egallagan bo'lishlari kerak.

## Nutq a'zolari va ularning nutqdagi vazifasi

*Nutq tovushlarini hosil qiluvchi a'zolar nutq organlari deb yuritiladi.* Bular: o'pka, ikki bronx, traxeya, kekirdak, bo'g'iz, hiqildaq, halqum, og'iz bo'shlig'i, yumshoq tanglay, qattiq tanglay, til, tishlar, lablar, burun bo'shlig'idir. Ana shu a'zolarning hammasi birgalikda nutq apparati hisoblanadi. Nutq apparati to'rt qismdan iborat:

1. Bo'g'izdan quyi qism (o'pka, bronxlar, traxeya);
2. Bo'g'iz bo'shlig'i (halqasimon, piramidasimon, qalqonsimon, tog'aysimonlar va tovush psychalari);
3. Og'iz bo'shlig'i (til, qattiq tanglay, yumshoq tanglay, kichik til, tishlar, lablar);
4. Burun bo'shlig'i.

Bu to'rt qism nutqning hosil bo'lishida ma'lum vazifani bajaradi.

Nutq tovushlarining hosil bo'lish manbai o'pkadan chiqadigan havo (nafas)dir. Demak, o'pka havoni yuborib turadi. O'pkadan chiqqan havo (nafas) ikkita bronx va traxeya orqali o'tadi. Chiqib kelayotgan nafasni tovush hosil qiluvchi holatga keltirishda qorin bilan ko'krak qafasini ajratib turuvchi parda (diafragma) xizmat qiladi. Ammo hali nutq tovushlari hosil bo'lmaydi. Nutq apparatining birinchi qismi nutq tovushlarini chiqarish uchun tayyorlov bosqich hisoblanadi. Nutq tovushi ikkinchi qismda paydo bo'ladi. Bunda quyidan kelgan havo oqimi tovush psychalariga kelib uriladi va rangsiz tovush hamda shovqin hosil qiladi. Nutq tovushi tovush psychalarining tebranishi natijasida yuzaga keladi. Tovush psychalarining taranglashuvi va titrashi oliy asab sistemasining signali asosida taranglashadi va titraydi. Bu titrash shakllanmagan past tovushni hosil qiladi. Nutq tovushlari uchinchi va to'rtinchi qismlarda, ya'ni og'iz bo'shlig'ida hamda burun bo'shlig'ida shakllanadi. Bunda bo'g'iz, tomoq, yumshoq tanglay, hiqildaq, qattiq tanglay, til, tishlar, lablar, burun bo'shlig'ida shovqin hamda ovoz kuchayadi, tovushlar "rang" oladi. Tovush psychalaridan chiqqan kuchsiz tovush tomoq, og'iz, burun bo'shliqlariga urilib kuchayib boradi. Demak, ular rezonatorlik vazifasini o'taydilar. Og'iz bo'shlig'i to'rining yuqori qismida kichik til, yumshoq tanglay, qattiq tanglay, uning oldida yuqori qator

tishlar, ustki lab, og‘iz bo‘shtag‘ining quyi qismida til, pastki tishlar va lab joylashgan. Bo‘g‘izdan kelgan ovozli havoning qayerdan o‘tishi quyidagicha: agar yumshoq tanglay yuqori tortilib, kichik til orqaga surilib tomoqqa tegsa, burun bo‘shtag‘i yo‘li yopiladi va ovozli (yoki shovqinli) havo og‘iz bo‘shtag‘idan o‘tadi. Bu ovozli (shovqinli) havoga oliv asab sistemasi buyrug‘iga asosan kerakli nutq a’zolari shakl beradi. Yuqori tanglay pastga tortilib, kichik til oldinga surilsa, og‘iz bo‘shtag‘ining havo yo‘li yopiladi, ovozli (shovqinli) havo burun bo‘shtag‘idan o‘tadi. Burun tovushlarining hosil bo‘lishida og‘iz bo‘shtag‘idagi nutq a’zolari ham ishtirok etadi.

Nutq a’zolari harakatlanishiga ko‘ra nofaol va faol a’zolarga bo‘linadi. Harakat qiluvchi nutq a’zolari faol hisoblanadi. Ularga til, lablar, yumshoq tanglay, kichik til, tovush psychalari kiradi. Nofaol a’zolarga tishlar, qattiq tanglay, burun bo‘shtag‘i kiradi.

Faol nutq organlari ichida eng harakatchani tildir. U deyarli hamma nutq tovushlarining paydo bo‘lishi va shakllanishida ishtirok etadi. Tilning holatiga ko‘ra tovushlar til oldi, til o‘rta, til orqa tovushlar deb yuritiladi. Tilning old qismida *a*, *i*, *e* unlilari: *d*, *t*, *ch*, *s*, *j*, *z*, *sh*, *n*, *l*, *r* undoshlari, o‘rta qismida *y* undoshi orqa qismida *u*, *o'*, *o* unlilari; *g*, *k*, *ng*, *q*, *r*, *g'*, *x* undoshlari paydo bo‘ladi. Lablar ham tovush hosil qilishda faol bo‘lib, *u*, *o'*, *o* (qisman) unlilari; *b*, *p*, *v*, *f*, *m* undoshlarining paydo bo‘lishida ishtirok etadi, *h* tovush bo‘g‘izidan chiqadi. O‘zbek shevalarida deyarli hamma unlilarning til oldi juftlari uchraydi.

**Nutqda nafasdan foydalanish.** Tovush hosil qilishda nafas asosiy vositardan hisoblanadi. Shunday ekan, undan to‘g‘ri foydalana bilish uzoq va chiroyli so‘zlashning zaminini yaratadi:

Nafas olish uch turga bo‘linadi:

1. Kiftdan nafas olish. Nafas ko‘krakning yuqori qismida olinib, kiftlar ko‘tariladi. Bunday nafas olish zararli. U kishini tez charchatadi. Me‘yorida so‘zlashga imkon bermaydi.

2. Ko‘krak-qorin orqali nafas olish. Bunday nafas olganda o‘rta qovurg‘alar, biqin harakatga keladi, ya’ni ular kengayadi.

3. Aralash nafas olish, ya’ni pastki qovurg‘alar, diafragma ishtirokida nafas olish. Bunda ko‘krak qafasi va kiftlar ko‘tarilmaydi.

So‘zlaganda ravon, hovliqmasdan tabiiy nafas olish, uni kerakli ohang talabiga ko‘ra sarflash zarur. Nafas olish, tovush hosil qilish, uning talaffuzi bir-biriga mustahkam bog‘langandir. Bularning

har biri miyaning, oliy asab sisitemasining ishi hisoblanadi. Ma'lum lug'aviy ma'no tashuvchi yoki grammatik vazifa bajaruvchi so'z shaklini talaffuz qilish uchun berilgan belgi nafas olishni, nafasni o'pkadan chiqarish orqali unli va undosh tovushlar birikmasini yuzaga keltiradi. Tovushlarning sifati, jarangdorligi nutq a'zolarining tuzilishi va talaffuz jarayonida qanday ishtirok etganligiga bog'liq. Artikulatsiya nutq tovushlarini talaffuz etganda nutq a'zolarining harakatidir. Nutq tovushlari talaffuzida nutq a'zolarining harakati ikki xil: ma'lum tovushni talaffuz etishga chog'lanishi va aytish – *artikulatsiya*, tovush tugagach, nutq organlarining asl holiga qaytishi *rekursiya* deb yuritiladi.

Nutq tovushlarining aniq yoki noaniq talaffuzi artikulatsiya apparatining faol yoki nofaolligiga bog'liq.

Bir kishining nutq a'zolari boshqa kishining nutq a'zolaridan ko'pmi-ozmi farq qiladi. Shunga ko'ra odamlarning tovushi ham bir-biriga o'xshamaydi. Nutq tovushlarini birov ingichka, birov yo'g'on, birov jarangdor, birov xira talaffuz qiladi.

Ba'zi yosh bolalar unli va undosh tovushlarni aytishda artikulatsion nuqsonlarga yo'l qo'yadi. Masalan, *r* harfi o'rniga *l*; *s* harfi o'rniga *sh* harfini aytadi. Bunday nuqsonlarni muntazam mashqlar orqali tuzatib yuborsa bo'ladi.

## IV Bo'lim. MUOMALA — INSON ZIYNATI.

### I-bob. Muomala madaniyati

“Muomala” so‘zi zamirida butun insoniyat taqdiri mujassam. Uning ildizi Odam Oto va Momo Havomiz o‘rtasidagi muomala va muloqotlariga borib taqalsa ham ajab emas. Shundan buyon insoniyat muomalaning to‘g‘ri va ravon yo‘llarini izlaydi, ba’zan topganday bo‘ladi, yana yo‘qotadi va yana izlaydi...

Shunchalar mushkulmi muomala madaniyatiga erishish? Bu yo‘lda odamzodga nima to‘sinq bo‘lmoqda, deya o‘ylaysan, kishi. Birdan-bir to‘sinq bu — inson qalbidan chuqur joy olgan “men”i emasmikan? Odam bolasi eng ko‘p o‘z “men”ini o‘laydi. Bu “men” qurg‘ur shunchalar yopishqoq illat ekanki, inson qalb to‘riga shu qadar o‘rnashib olganki, hatto “men” egasini dunyoga keltirgan zot—volidai muhtaramasidan, padari buzrukvoridan ham o‘zini ustun qo‘yarkan. O‘z “men”ining soyasida qolgan odam o‘zligini yo‘qotib qo‘yarkan. Hazrat Navoiy aytganlariday: “El netib topgay menikim, men o‘zimni topmasam”.

Madomiki, shunday ekan, biz “muhtaram” “men”lar orasida yashayotgan ekanmiz, ularning do‘q-po‘pisalari bilan ham, erkaliklari-yu, maqtanchoqliklari bilan ham, o‘zaro muloqotlarimizda sal kechirimliroq bo‘lishimizga to‘g‘ri keladi. Ayniqsa, o‘smir yoshidagi “muhtaram men”larning g‘ururiga tegadigan gap, so‘zlarimiz oqibatida turli ko‘ngilsiz noxush voqealarning kelib chiqishi hech gap emas. Bunday voqeahodisalarga hayotimizda guvoh bo‘lib turibmiz. Bunaqa “men” otini minganlarga faqat Yaratgandan insofu tovfiq, sabr-bardosh va insoniy kayfiyat tilaymiz.

Manmansirash va keraksiz g‘urur odamlar boshiga ne-ne kulfatlarni yog‘dirmagan. Islom tafakkurining so‘nmas mevasi so‘fizmda inson o‘z “men”idan, g‘ururidan kechmay turib Olloohni tanimaydi, degan aqida mavjud. Inson bolasi shu aqidaga amal qilsagina, o‘zlaridagi ortiqcha g‘ururni sindirishga qurbi yetadi. Harbiy xizmatga chaqirilgan yoshlari xizmat taqozasi bilan bir-

birlaridagi ortiqcha g‘ururni ketkazishadi va bu darddan bir-birlarini xalos etishadi. Qarabsizki, xizmatdan qaytganlarning deyarli ko‘pchiligi muloyim, odamshnavanda bo‘lib, muomala madaniyatida ham o‘zgarish yasaydi.

Qisqasi, insoniyatning asab torlari taranglashgan hozirgi serg‘alva zamonda odamlar bilan shirin muomalada bo‘lish uchun har birimizdan sabr-toqat, bag‘rikenglik va yuksak saxovat talab etiladi.

Tasavvur qiling, farzand o‘z ota-onasini hurmat qilmasa, shogird ustozining yuziga oyoq qo‘ysa, fuqaro o‘z hokimining gapini ikki qilsa, u yurtda osoyishtalik, farovonlik bo‘lmaydi. Musulmonchilik qonun qoidalariga ko‘ra, Allohga, uning Rasuliga hamda hokimlarga nisbatan e’tiqodda bo‘lish buyurilgan: “Ey, mo‘minlar, Allohga itoat qilingiz va payg‘ambarlarga hamda o‘zlariningidan bo‘lgan hokimlarga bo‘ysuningiz!” (Qur’oni karim, Niso surasi, 59-oyat).

Yaratganga beedad shukurlar bo‘lsinki, Istiqlolga erishganimizdan so‘ng yurtimizda juda katta o‘sish-o‘zgarishlar sodir bo‘lmaqda. Ulkan qurilishlar, shifo maskanlari, o‘quv dargohlaridagi yutuqlar, shaharlarimizdagi obodonchilik va osmono‘par binolaru ko‘priklar — barchasi, birgina Toshkent shahridagi o‘zgarishlarning o‘ziyoq har qanday odamni o‘ylashga undaydi. Agar Shayxzoda hayot bo‘lganlarida, “Toshkentnoma” dostonini qayta yozgan bo‘lardilar. Ayni kunlarda kishilarimiz o‘rtasida bir-birlariga nisbatan hurmat-e’tibor qaytadan tiklanmoqda. Bu — yurt obodligidan el ko‘nglini shod etadigan omillardandir.

Ajdodlarimiz orzu qilgan kunlar bizga nasib etgan shu kunlarda ma’naviyatimizda, muomala madaniyatimizda ba’zan oqsoqlik sezamiz. Inson bolasidan qoladigan eng ulug‘ meroslardan biri — shirin muomala. Barcha narsaga yetgan aqlimiz shunga qolganda charchaydi. Nimagadir bir-birimizdan shirin so‘zimizni qizg‘anamiz. Odam hamisha — ochmi, to‘qmi, qiynalib yashayaptimi, farovon yashayaptimi, baribir shirin gapning gadosi. Shirin so‘z insonning ruhiy ozug‘i bo‘limganida akademik shoirimiz G‘afur G‘ulom xalq boshiga og‘ir musibatlar tushgan yillarda “bir og‘iz shirin so‘z nondek arzanda” — deb yozmagan bo‘ldi. Inson qalbiga ham oddiy va non kabi tabiiy shirin so‘zlar

bilan kirib boriladi. Biroq bunga hamma ham erisha olmaydi. Oddiy bo'lib ko'ringan muomala madaniyati o'ta murakkab, asrlar osha yechimini topgani holda amalda bajarilishi og'ir bo'lgan muammo. Chunki uni inson o'zi bajarishi kerak, bunga esa g'urur yo'l bermaydi. Uni yengish, sindirish hammaning ham qo'lidan kelmaydi. Madomiki, shunday ekan, insonning o'zi muammo. Agar muammo bo'Imaganida edi, G.Byuxner: "Inson tubsiz. Unga qaragan kishining boshi aylanib ketadi" demagan, Erkin Vohidov insonni bejiz tirik sayyoraga mengzamagan, Abdulla Oripov "Har bir inson – bir Vatan" – deb atamagan bo'lardi. Inson sirligicha qolmoqda. Odamzod bir-birini anglab yetmaguncha olam tinch bo'lmaydi. Bir-birini anglamoq uchun esa, eng avvalo, har kim o'zligini anglashi shart. Ko'ryapsizmi, qanchalar murakkabmiz?! Bundan cho'chimang, har narsaga qodir inson, muomala madaniyatini ham joyiga qo'ya oladi. O'zingiz o'ylab ko'rghanmisiz? Nima uchun hamma yoshu qari chiroyli bo'lishni xohlaydi, nima uchun ko'zgu oldida o'zining u yoq bu yog'ini to'g'rileydi? Nega? Odamlarga yoqish uchunmi? O'smir yoshidagilarning va o'rta yoshdagi erkak-ayollardagi bu harakatini qanday baholaysiz? Keksa yoshdagilarning bu xushxulqini-chi? Bu savollarga har kim o'z dunyoqarashi nuqtai-nazardan javob berishi mumkin. Yoki turli xil atir upalaru, turli xil bo'yoqlar bilan bo'yanish-chi? Bu talabaga berilgan topshiriqmi yoxud ishxona rahbarining topshirig'im? Yoki boshqalarning havasini keltirishmi, maqtanishmi, nima? Ayniqsa, ayollar va qizlarimizdagi qomatlarini bir maromda saqlab turishga bo'lgan xatti-harakatlarni aytmaysizmi?! Ana shunday tashqi shakl go'zalligini saqlash va ta'minlash uchun qanchalar vaqt va pul sarflanadi. Ayniqsa, shunday shaklu shamoyilga erishganlar orasida qisman bo'lsada, bechora va kambag'al kishilar ustidan kulish va ularni mensimaslik kabi xatoliklarga yo'l qo'yish hollari uchraydi. Bu hol ulardagi manmanlikni keltirib chiqarmoqda. Kamsitilganlarning esa dillari og'rimoqda.

Har bir odam o'zining shaklu shamoyil go'zalligiga vaqt va pul sarflash hisobiga erishadi. Agar odamlardagi shakl go'zalligiga ma'naviy-axloqiy go'zallik, muomala madaniyati ham qo'shilsa bormi, nur ustiga a'lo nur bo'lardi. Bundaylarni komillikka intilish yo'lidan borib, odamlarga shirin so'zları bilan ruhiy madad beradiganlar safiga kiritish lozim.

To‘g‘risini aytganda, pulni ham, vaqtini ham, so‘zni ham tejab ishlatgan ma’qul. Chunki pul ham, vaqt ham, so‘z ham boylik. Ana shu so‘z boyligimizni qadrsizlantirmaylik.

Avvalo muomala madaniyati salomlashishdan boshlanadi. Buning yorqin misolini o‘zbek xalq ertaklaridagi devlar, yalmog‘iz kampirlarning ham huzuriga kelgan kishilarga: — “Gar saloming bo‘limganda, ikki yamlab bir yutardim” — deb kechirgan holatlarini ham kuzatamiz. “So‘z boshi salom” deganlaridek, salomda gap ko‘p. Biroq salomlashishning ham o‘ziga yarasha qonun-qoidalari bor.

Bizda qadimdan amalidan qat’i nazar, o‘zidan bir yosh bo‘lsa ham katta kishilarni senlab gapirish odobsizlik sanalgan. Birniki — mingga, mingniki — tumanga deganlardek, onda-sonda uchrasa-da, ba’zi 10—15 kishiga rahbar bo‘lib qolganlar o‘z qo‘l ostidagilarga senlab muomala qilishi g‘alati tuyuladi. Abu Lays As-Samarqandiy “Bo‘ston ul-orifin” kitobida: “Ey, farzand, salollohu alayhi vassallam kattami yo kichikmi, albatta sizlab murojaat etar edilar. Salollohu alayhi vassallamning har bir odatlari biz — mo‘minlar uchun qonun bo‘lmog‘i shartdir” deb yozadi.

Muhtaram Prezidentimiz 2006-yilni “Homiylar va shifokorlar yili” deb atadi. Bunda juda katta ma’no bor. Chunki xalq sog‘ bo‘lsa, taraqqiyot, o‘sish, rivojlanish, qut-baraka, tinchlik va xotirjamlik bo‘ladi. El to‘q va farovon hayot kechiradi. Aslida yashashning mazmuni ham sog‘liq va iqtisodiy farovonlikka bog‘liq.

Ma’lumki, yil sayin tabobat ilmi kuchaygani sari, kasallik turlari ham ko‘payib bormoqda. Hozir qayoqqa qaramang, dorixonaga ko‘zingiz tushadi. Dorilar ko‘p, uni sotib olishga pul kerak. Kimlargadir bilinmas, ammo qo‘l uchida kun kechirayotganlar uchun og‘irlik qiladi. “Besh qo‘l barobar” emas deganlaridek, hammaning ahvoli ham birday yaxshi bo‘lib ketayotgani yo‘q. Bu holat oldin ham bor edi, hozir ham bor, keyin ham bo‘ladi.

Ajdodlarimiz qadim zamonalardan beri arzon va hammabop dorini izlab keladilar. Ana shunday dori haqidagi fikrni ham bobokolonimiz Abu Ali ibn Sino topganlar. Buyuk allomaning fikriga qaraganda, bemorni dori-darmon bilan birga so‘z bilan davolagan ma’qul ekan.

Bir og‘iz shirin so‘z... Qiziq, zamonaviy tibbiyot uskunalarini, noyob chet el dori-darmonlari ham ojizlik qilganda, shu bir og‘iz

shirin so‘z yoki muomala kasalga ruhiy dalda, jismoniy qudrat bag‘ishlaydi. Chunki shirin muomala bosh miyaga ta’sir qiladi. Bosh miya esa inson tanasidagi borliqni boshqaradi. “Yaxshi so‘z — jon ozig‘i, yomon so‘z — bosh qozig‘i” deganlaridek, shifokor doimo shirin so‘z va muomala ustasi bo‘lmog‘i shart.

Bir rivoyatda keltirilishicha, Luqmoni Hakim ko‘chada ketayotib, bir qizning dam-badam qon tuflab ketayotganini kuzatibdi. Hakim qiz izidan tushib, qaysi darvozaga kirganini ko‘ribdi-da, qiz kirib ketgan darvozani taqillatibdi. Qizning otasi chiqib, tabibni tanib qolib uyiga taklif qilibdi. Suhbat orasida Luqmoni Hakim: “Qizingiz bedavo dardga chalinibdi, afsus muolajaning iloji yo‘q”, — debdi. Tabibning so‘zlarini qiz eshik ortida eshitib turgan ekan. Birdan yuragi tez urib, yiqilibdi va xushidan ketibdi. Shu bir og‘iz so‘z ta’sirida qiz ruhiy dardga uchrab vafot etibdi. Oradan ma’lum fursat o‘tgach, qizning otasi tabibni uchratib qolib:

— Taqsir, qizimning bedavo dardini qanday bilgandingiz? — deb so‘rabdi.

— Qizingiz ortidan kelayotib, uning qayta-qayta qon tuflaganini ko‘rgandim.

Bu javobni eshitgan ota peshonasiga urib:

— E, attang, qizim o‘sha kuni shotut egandi, siz ko‘rgan tufuk shotut sharbati-ku! Eh, attang?.. — debdi.

Shunda tabib choldan uzr so‘rabdi. Shundan so‘ng Luqmoni Hakim:

— Bir so‘z bilan soppa-sog‘ odamni o‘ldirish yoki bemorni shirin so‘z bilan sog‘aytirish mumkin ekan, degan xulosaga kelgan. Yunon tabiblari: “Dardni bilmasang, yaxshisi, bemorni tinch qo‘y” deb bekorga aytmagan ekanlar...

Bugungi kunda beburd, bebosh, betayin kimsalarining do‘q-po‘pisa telefon qo‘ng‘iroqlaridan xastalanib yoki bu olamni tark etganlar ham yo‘q emas. So‘zning qudratini ko‘ryapmizmi?

O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishini eslaylik. Bu ham oson kechmadidi. O‘sha kezlarda bir guruh olimlarni viloyatlarga “Til qonuni”ni ommaga tushuntirish bo‘yicha safarbar etishdi. Ular orasida kamina ham bor edi. O‘shanda bir tumandagi ichki ishlар xodimlari bilan uchrashib, ma’ruzamni tugatdim. Men bilan birga yurgan tuman rahbarlaridan biri:

— Domlaga savollar bo'lsa, marhamat, — dedilar. Shunda bir kapitan yigit ilmoqli, dilni larzaga keltiradigan qaltis savol bilan murojaat qildi:

— Domla, hozir matbuotda, radio, televideniyada nihoyatda qaynoq voqealar haqida yozilmoqda, shunga fikringizni bildirsangiz, — deb qoldi. Savolni eshitishim bilan yuzimda qo'rquv aralash nim tabassum paydo bo'ldi. Bir zumda xayolimdan matbuotdagi bo'lar-bo'limas, ba'zan shaxsiy g'arazgo'ylik bilan yozilgan maqolalar o'ta boshladi. Bildimki, u yigit o'zi bilsa-da, meni sinab ko'rmoqchi. Agar men qaysi maqola haqida so'rayapsiz, desam ham chalkashib ketishim turgan gap edi. Chunki hali to'lqin tinmagan. Agar daryodan yoki ariqdan bir chelak suvni olib, diqqat bilan kuzatilsa, chelakdagi suvda har xil gardlarni kuzatish mumkin. Chelakni bir chetga qo'yib bir necha daqiqadan keyin qarasangiz, cho'kindilar chelak tagiga cho'kadi va suvni iste'mol qilish mumkin bo'ladi. O'sha paytda e'lon qilingan maqolalar daryodan yoki ariqdan olingan chelakdagi suvning dastlabki holatini eslatardi. Lekin men savolga javob berishim shart. Shunda xayolimdan daraxtni kesayotgan bolta haqidagi rivoyat o'tdi. Tanasi jarohatlanayotgan daraxt zorlanib:

— Sopi o'zimdanda, bo'limasa boltaning qo'lidan hech ish kelmasdi-ya, deb ingragan ekan.

Demak, javobga savolning o'zidan sop yasash kerak, degan fikr keldi miyamga va shunday javob berdim:

— Juda to'g'ri va o'rinli savol berdingiz, ukam. Haqiqatdan ham, matbuotda qaynoq voqelik haqida tinimsiz maqolalar chiqib turibdi. Sizga bir iltimosim bor, shu voqeliklar haqidagi maqolalarni qaynoqligicha iste'mol qilmang, og'zingizni kuydirib qo'yasiz — deyishim bilan zaldagilar chapak chalib yuborishdi. Yonimdag'i tuman rahbari muovini ham cho'chib o'tirgan ekan shekilli, birdan qo'limni siqib tabriklay boshladi. Chapaklar tingach: — Ukajon, — yana o'sha savol bergen yigitga murojaat qildim: — o'ta sovitib ham yubormang, tomog'ingizni og'ritib qo'yasiz. Zalda yana chapak chalindi. Shundan so'ng garchi zaldagilarning javobdan ko'ngli to'lgan bo'lsa ham, haligi yigitni mulzamlikdan, hijolatdan chiqarish uchun muomala madaniyatini ishga solib Abdulla Oripovning quyidagi she'rini o'qib berdim:

Juda yaxshi deymiz, mana bu narsa,  
Go'yo hukm kabi yangrar so'zimiz.  
O'ylab ko'rganmiz-mi hech biror marta,  
Xo'sh, kimmiz o'zimiz.

Juda yomon deymiz, mana bu narsa,  
Go'yo hukm kabi yangrar so'zimiz.  
O'ylab ko'rganmiz-mi hech biror marta,  
Xo'sh, kim biz o'zimiz.

Kimgadir yoqamiz, biz o'zimiz ham,  
Kimgadir yoqmaymiz biz ham o'zimiz.  
Shunchalik charxpalak ekan, bu dunyo,  
Demak, nisbiy erur har bir so'zimiz.

— deb gapimni tugatdim. O'sha yigit kelib, — Rahmat, domla, meni kechiring, — deb kechirim ham so'raydi. Agar shu she'mi o'qimasam, o'sha yigitning dilini og'ritgan bo'lardim. Hayriyatki, bu hijolatdan qutuldim.

Hozirgi yoshlarni "sodda" deb bo'lmaydi. Bugungi fan-texnika taraqqiyoti yoshlar va o'smirlar ongini ancha charxlab o'tkirlashtirib qo'ygan.

O'tgan asrning 50-yillaridagi katta-yu kichikni sodda, desa bo'ladi. Birgina misol: Paxta dalasini chigit ekishga tayyorlashda kuzda qilingan shudgordagi kesaklarni maydalash uchun zanjir oyoqli traktorga o'nlab tishli baronlar taqilib, ortidan 8–10 metrli osti va ustining qalinligi 40 sm keladigan maxsus mola yog'och bog'lanardi-da, ustiga 2–3 ta odam o'tqazilardi. O'sha odamlar changdan himoyalanish maqsadida faqat ko'zini ochiq qoldirib, boshi bilan burkab ro'mol yoki biror matoni o'rab olardi. Bu mart—aprel oyining ikkinchi yarmiga to'g'ri kelardi. Traktor esa kecha-kunduz ishlardi. Yog'och mola ustida o'tirgan odam tunda navbat almashardi. Ba'zilari kechasi uxlab qolib oyog'ini sindirib, shikastalanganlar ham bo'lardi. Lekin brigadirning gapi ular uchun qonun edi. Endi, o'ylaymizda, nahotki o'sha payt rahbarlarining xayoliga kelmagan. Shu bitta odamning og'irligi 80–100 kilo kelar, shularning o'rniga 4–5 ta qopda tuproq solib yog'och mola ustiga tashlab qo'yilsa ham bo'lardi-ku! Mana buni soddalik desa bo'ladi.

O'sha mehnatkash bechoralar bir-birining ko'ngliga yarasha, dilini og'ritmaydigan muomalada bo'lishardi. Qish kechalarida yig'ilishib, televizor, radio yo'q, qora chiroq yorug'ida biz o'quvchilarga tong otguncha dostonlarni o'qitib tinglashardi.

Biz tom ma'nodagi bozor iqtisodiyotiga kirib bormoqdamiz. Bunday sharoitda har kim o'z molini maqtaydi:

Demoqchimizki, shu kunlarda faqat mahsulot, pul va boylik ketidan quvib, ma'naviyatni, imonni, jumladan, so'z qadrini unutib qo'ymaslik ham insoniy burchimiz. Shu kunlarda ko'pchilikning sotuvchi va xaridorga aylanib borayotganligi ham rost.

Shu bois, sotuvchi xaridorni salom berib kutib oladi, uning kayfiyati bilan hisoblashadi, xushmomalalikni o'ziga odat qiladi va xatto so'zning ham narxini biladigan darajaga erishadi. Aslida savdo va ma'naviyat, jumladan, muloqot odobi hamisha bir-biri bilan bog'liqdir.

Agar o'tmishga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qadimiy davlatlardan biri hisoblangan Gretsiyada notiqlik san'atining rivojlanishida savdo ham muhim ahamiyat kasb etganligining guvohi bo'lamiz? Chunki Gretsiya savdo davlati edi. Savdo aloqalarini, savdo ishlarini muhokama qilish va yakunini ko'rib chiqish, qolaversa, xaridorlar sonini ko'paytirish uchun savdogarlar, so'z san'atidan ham yaxshi xabardor bo'lishlari talab etilgan.

Iqtisodning kelajagini, barqarorligini o'ylagan davlatlarda hamisha moddiylikni ma'naviyatdan ajratib qo'ymaslikka, aksincha, ma'naviyatni taraqqiy ettirish orqali iqtisodni rivojlantirishga harakat qilinadi.

"Jumladan, mashhur sotsiolog olim Deyl Karnegi Amerikadagi biznesmenlarga (tabdirkorlarga) notiqlik mahoratidan dars bergen va ular o'rtasida tez orada katta shuhrat topgan. Chunki Karnegidan saboq olganlaridan keyin tadbirkorlarning kishilar bilan muloqotga kirishishlari ancha oson ko'chgan va ularning savdo ishlari juda jonlanib ketgan. Shuning uchun avvaliga bu yigitcha savdogarlardan notiq tayyorlamoqchimi, deb o'ylagan va uning ma'ruzalariga 2 dollarni ham ko'p ko'rgan biznesmenlar keyinchalik Karnegining har bir kuni uchun 30 dollardan haq to'lab saboq olganlar" (S. Mo'min "So'zlashish san'ati", Farg'ona, 1997, 46-bet).

“To‘g‘ri so‘z tuqqaningga yoqmas” deganlaridek, ba’zi haqiqatgo‘y odamlar hamisha rost va haq gapni aytishdan tortinmaganlar. Faqat ular bir xil mazmundagi gapni turli ko‘rinish va har xil ohangda aytganliklari uchun ba’zilari jazo olib, ba’zilari mukofotlanganlar. Bir rivoyatda keltirilishicha: “Xorun ar-Rashid tush ko‘rsa, o‘ttiz ikki tishi tushib ketganmish. Shunda u munajjim va ta’birchilarni chaqarib, tush ta’birini so‘rabdi. Muabbir (ta’birchi)lardan biri:

— Ey, amir al-mo‘minin, butun qavm-qarindoshing va urug‘ aymog‘ing o‘lib, o‘zing yakka-yu yolg‘iz qolar ekansan, — debdi.

Horun ar-Rashid yurak-bag‘ri ezilib, soquvnafas muabbirni yuz darra uringlar, deb buyuribdi. Ertasiga boshqa ta’birchini chaqirib, tushining ma’nosini so‘rabdi:

— Ey, amir al-mo‘minin, Alloh sizga uzoq umr, katta davlat bergen, siz qarindosh avlodlaringizdan ko‘ra uzoq umr ko‘rar ekansiz, — debdi.

Bu gapdan Horun sevinib:

— Ikkalasi ham bir gapni aytdi, ammo bunisi fikrini odob bilan, chirolyi iboralar topib aytgani uchun yuz dinor mukofotga sazovor bo‘ldi, birinchisi qo‘pol so‘zlar aytib yuz darra edi”, — degan ekan.

Demak, har qanday yomon xabarni ham aql farosat bilan yumshoq qilib yetkazishga hamisha ajdodlarimiz amal qilishgan. Ba’zan oddiy gapni ham “tomdan tarasha tushganday” qilib yetkazish orqali har qanday odamni dovdiratib qo‘yish hollari muomala madaniyatini bilmaslikdan kelib chiqadi.

O‘zbek xalqining qadimiy udumlariga ko‘ra, chaqaloq tug‘ilgandan bir hafta o‘tar-o‘tmas uning qulog‘iga azon aytildi. Chaqaloq vujudiga ilk bor Yaratganning nomi musulmon ohanglari kirib borarkan, bola tarbiyasi xuddi shu damlardan boshlanadi.

Ohang — so‘z va gapning libosi. V.G.Belinskiy: “Gap so‘zda emas, ohangda, qaysi so‘zning qanday talaffuz etilishida”, — deydi. Ohang gapning mazmunini butunlay o‘zgartirib yuborishi mumkin. Afandining “Siz ahmoq, odam emassiz” deya uzr so‘ragani kabi.

Bolangizga ertalab “Turaqoling, o‘g‘lim!” degan jumlangizga, o‘g‘lingiz (buyruq, taklif, iltimos, yolvorish yoki yalinish) ohangiga qarab munosabat bildiradi. Agar buyruq ohangida aytadigan

bo'lsangiz, bolangiz sizni "nimaga baqirasiz?" – deb jerkib soladi. Demak, bu muomala madaniyatini o'rniga qo'ya olmaslik oqibati. Ham sizning, ham bolangizning kayfiyati buziladi.

Bir rivoyat o'qigan edim. Tabib bemorni davolash uchun ilon izlab topadi. Yo'lda kelayotib ilon tilga kiradi: – Sen meni o'ldirib zahrim bilan bir odamning hayotini saqlab qolmoqchi bo'lyapsan, to'g'ri-mi?

Tabib: – To'g'ri, – debdi.

– Endi quloq sol, – debdi ilon. – Bekor qilasan, bemor mening zahrim bilan tuzalmaydi. Agar biz chaqqanimizda tuzalar edi. Uni do'sti chaqqan. Odamning zahrini ilonning zahri yo'q qila olmaydi, – debdi va so'zida davom etibdi: – Bilasanmi, Alloh bizni shunday sovuq va badbashara qilib yaratdi, qo'l-oyoq ham, aql ham bermadi. Ammo biz ilonlar bir-birimizni chaqmaymiz. Siz insonlarga esa aqlga qo'shib butun borliqni berdi. Shunda ham noshukurchilik qilib, bir-birlaringizni chaqasizlar, – debdi. Tabib ilonni o'ldirmay qo'yib yuboribdi. Haqiqatdan ham, bemorni o'z do'sti chaqqan ekan, hech qanaqa dori kor qilmay olamdan o'tibdi. Tishi bilan chaqqan deb o'ylamang tili bilan, zahar zaqqum gaplar bilan chaqib boshiga yetgan. Shunday zaharli odamlardan o'zi asrasin. Bundaylarga qarab turib:

Namuncha zaharsiz, zaharsiz biram,  
Turqingiz chaplashga chidamas qalam.  
Buncha zaqqumni qanday yig'dingiz,  
Yorilsa, to'kilsa rasvoi olam, (N.B.)

— degingiz keladi.

Agar siz odamning ko'nglini ovlamoqchi bo'lsangiz, muomala madaniyatizingizni ishga soling, bu qo'lingizdan keladi. Bunga osonlik bilan erishishingiz mumkin.

Inson qalbi "ochilmagan qo'riq".

Kimgadir yaxshilik istasa ko'ngling,  
Guldayin ochilar yonog'ing, yuzing.  
Tik qarab turasan qochirmay ko'zing,  
Ishonchli chiqadi, har aytgan so'zing. (N.B.)

Qadimda donishmandlardan o‘ntasi yig‘ilib, “bu dunyoda kim baxtli hayot kechiradi? degan savolga javob izlashibdi. Hammalari bir fikrga kelishib: “Bu dunyoda shirin muomalali odam baxtli yashaydi, deyishibdi. Shunda ulardan biri” agar u mehnatkash bo‘lsa”, – deb qo‘srimcha qilgan ekan.

### **So‘z haqida so‘z**

Yaxshi muomala va samimi yunusabat qalblarga sevinch bag‘ishlaydi. Sevinchga to‘la qalblar faqat yaxshilik istaydi. Hamsuhbatingiz qalbiga sevinch taqdim etishingiz gunohlaringiz kechirilishiga sabab bo‘ladi.

So‘z guhariga erur oncha sharif  
Kim, bo‘la olmas anga gavhar sadaf.  
To‘rt sadaf gavharning durji ul  
Yetti falak axtarining burji ul,

– deb Alisher Navoiy so‘zga ta’rif beradi. Shuningdek, “Farhod va Shirin” dostonida ham shoir so‘zga alohida urug‘u berib:

So‘zdin o‘likning tanida ruhipok,  
Ruhdog‘i tan aro so‘zdin halok.  
Turguzib o‘lganni kalomi fash  
O‘ziga “Jonbaxsh” laqab deb Masih  
So‘zdin yetib o‘tqa azamat halil,  
So‘z yukiga xomil o‘lub Jabroil.  
Tangriki insonni qilib ganju roz,  
So‘z bila hayvondin ancha imtiyoz...  
Danovu dur so‘zini afsona bil,  
So‘zni jahon bahrida durdona bil,

– deb tariflaydi

Qulqoqda asra garonmoya so‘zniyu fikr et,  
Ki dursiz o‘lsa ne bo‘lg‘usidir sadaf holi.  
So‘zingni dog‘i ko‘ngil ichra asragilkim, hayf,  
Kim o‘yla durni go‘haridin etgasen xoli.

Navoiy

Bilib so'zlagin, so'z bilikka sonur,  
Biliksiz so'zi o'z boshini yeyur.  
O'qushqa, bilikka bu tilmochi til,  
Yorutochi erni yo'riq tilni bil.

Yusuf Xos Hojib.

So'z ichra mudom aql yashirindur,  
So'z chimildig'u, aql kelindur.

Nosir Xusrav.

Tildagi ketma-ket xatoga, hayhot,  
Chirolyi kiyimlar berolmas najot.  
So'zing kiyimingdek bekamu ko'st qil  
Yoki kiyimingni so'zingga, Jomiy.

Abdurahmon Jomiy.

Nodonlardek yuzlab so'zni qilma qator,  
Donolardek bir so'z degil, lek ma'nodor.

Sa'diy Sheroziy.

Har so'zning o'z joyi bor,  
Har nutqning makoni.

Hofiz Sheroziy

So'z bilan bo'lup bu olam paydo,  
So'z bilan bo'lup bu odam paydo.

Muhammad Solih.

Men, aql barkamolligi nuqtai nazaridan qaraganimda, so'zdan mo'tabarroq va qalbimdan buyukroq hech narsa topmadim. Chunki undan afzalroq biror narsa bo'lganida edi, Haq taolo payg'ambar (s.a.v.) ga o'sha narsa bilan murojaat qilgan bo'lardi.

Umar Xayyom "Navro'znama" kitobidan

Agar bo‘lsang ipak kabi muloyim,  
Muloyim sen bo‘lsang, quling bo‘layin.  
Qulog‘imga bergen panding olayin,  
Kishiga qattiq so‘z aytuvchi bo‘lma.

Oqmasdan qolmaydi bir oqqan ariq,  
Bir tanda odam goh semiz, goh oriq.  
Bir yuzi qoradir, bir yuzi yorug‘,  
Qora deb qattiq so‘z aytuvchi bo‘lma...

Maxtumquli.

So‘z qolip, fikr uning ichiga quyilgan g‘isht bo‘lsin.

A. Qodiriy.

### **Notiq amal qilishi lozim bo‘lgan qoidalalar** Notiq uchun 41 qoida

Yuqorida ko‘rganimizdek, har qanday shaxs shoir yoki yozuvchi, aktyor yohud rassom bo‘lolmaganidek, mohir notiq ham bo‘lomasligi mumkin. Lekin «izlanganga tole yor», deganlaridek, sidqidildan intilgan shaxs bunday mavqeni egallay oladi.

Quyidagi qoidalarga amal qilinsa notiq zarar ko‘rmaydi:

1. Nutqingiz rejasi varaqning bиринчи betiga yozilsin. Rejani bir necha varaqqa yozmang, adashib ketasiz.
2. Ommabop yo‘sinda so‘zlanayotgan muayyan nutqingiz taxminan o‘ylangan va tayyorlangan bo‘lishiga erishing.
3. Tajribali notiqgina o‘zining ommabop nutqini o‘z tajribasiga tayangan holda ko‘pchilik oldida dadil namoyon etishi mumkinligi yodingizda bo‘lsin.
4. Ommabop nutq oldidan albatga chuqur o‘ylab, anglab, uni tinglaydigan auditoriya va gapiradigan gap o‘zingizga bog‘liq ekanini his etib olmog‘ingiz shart.
5. Agar reglament belgilangan bo‘lsa, nutq mazmunini qisqartiring: ko‘p yomon gapirgandan ko‘ra, oz va soz so‘zlang.
6. Har bir nutqning boshlanishi, o‘rtasi va oxiri bo‘ladi. Eng muhimmi, nutqingiz oxirini qanday tugatishni esda saqlang.

7. Agar sizga reglament belgilangan bo'lsa, yaxshisi nutqingiz rejasini tuzing. Rejada asosiy punktlar saqlansin: aniqliq talab qiluvchi xabarlar vaqt, statistik ma'lumotlar va iqbiboslar (sitata), murakkab yoki kam tanish bo'lgan so'zlar, terminlar va hakozolar.

8. Siz notiqsiz, birinchi jumlani va nutqning xulosasini o'ylashga majbursiz, qolgan gaplarni o'z yo'nali shida bog'lab boraverishingiz mumkin. Agarda juda o'zingizga ishonsangiz, chiqish qilish oldidan rejani unitishingiz, undan foydalanmasdan tashlab yuborishingiz mumkin. U holatda nutqingiz yanada go'zal chiqadi.

9. Rasmiy hujjatlarni, notanish matnlarni o'qib berishingiz mumkin. Nutqning boshqa turlari esa o'qiganlaringizni mustahkamlaydi. Ya'ni, yuqorida ko'rsatilgan matnlardan tashqari qo'shimcha nutq matnini yozish shart emas. Chunki yozgan matnlaringiz gapireshingizni qiyinlashtiradi. Tajribasiz notiq yozilganlardan nimanidir tushirib qoldirishdan qo'rilib, battar xatoga yo'l qo'yishi mumkin.

10. Ommaviy auditoriyada chiqish qilayotgan notiq o'ziga ishongan, jismoniy ko'rinishi dadil, jasur va vazmin hamda tashqi ko'rinishi bilan jozibali bo'lmoji lozim. Shuning uchun omma oldida chiqish qilishdan oldin tashqi qiyofangizning go'zal bo'lishiga intiling.

11. Ko'pchilik, jumladan, tajribali notiqlar ham gapirish oldidan hayajonlanadi. Bu hayajonlanish tabiiy va foydali. Agar hayajonlanish bo'lmasa, demak, notiq o'z nutqiga mas'uliyatsiz, auditoriyaga e'tiborsiz.

12. Juda qattiq hayajonlanish zararli. Undan ochish kerak. Chiqish qilish oldidan yaxshi narsalarni o'ylab nutq mazmunidan o'zingizni chalg'iting. Auditoriya haqida vahima qilmang. Agar buning iloji bo'lmasa yoki chalg'ish yordam bermasa, qo'llaringizni elka kengligida qo'yib, barmoqlaringizni buking. So'ngra sakrab, bir qancha harakatlar qilib, orqaga chalqaying. Agar buni eplay olmasangiz oyoqlaringiz barmoqlarini kuchli harakat qildiring.

13. Nugg oldidan va gapirayotgan paytingazda suv ichmang — suv yuragingizga keraksiz yuk bo'ladi va ovozingizni bo'g'adi. Chiqish qilish oldidan keraksiz gaplardan gaplashmang.

14. Gapirish vaqt kelganda tashqi ko'riningizni to'g'rilib, dadil qadamlar bilan nutq so'zlash lozim bo'lgan joyni egallang.

15. Ustingizdagi kiyim-kechaklaringiz keng yoki o'ta tor bo'lmasin, poyafzalingiz oyoqlaringizni siqib qo'ymasin, galstuggingiz bo'yningizni bo'g'ib qo'ymasin. Liboslaringizdagi kenglik va torlik erkin gapirishingizga va o'zingizni erkin tutishingizga xalaqit beradi.

16. O'zingizni to'g'ri tuting, yelkangizni biroz buring. Iyagingizni biroz ko'tarib boshingizni to'g'ri tuting. Oyoqlaringiz yelka kengligida bo'lzin. Qo'llaringizni qorin ustida siqib ushlamang, buklamang, barmoqlaringizni chalkashtirmang, qo'llarni orqaga qilmang, cho'ntakka tiqmang, oyoqlaringizni chalishtirmang.

17. Notiq qotib turmasligi, qo'llarini erkin tutishi, gapirayotgan paytda qo'llarini silkitmasligi, juda qotirib gavdaga yopishtirib ham turmasligi lozim. Gapirish tempini, ovozini mazmunga qarab o'zgartirib turishi kerak. Nutq yumshoq va ishonchli bo'lishi, lekin juda cho'zilib ketmasligi kerak.

18. Gapirayotganda og'izni me'yorida ochib gapirish, me'yorida nafas olish va chiqarish lozim. Ovozni auditoriyaning katta-kichikligiga qarab moslash, o'ta baland ovozda qichqirib gapirmaslik kerak.

19. Ovozni yuqoriga va pastga yo'naltirmang, tinglovchilarga to'g'ri yo'naltiring.

20. Imkonи boricha mikrofondan foydalanmang: mikrofon auditoriyadagilar bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanishga xalaqit beradi.

21. Auditoriyaga tabassum bilan yuzlaning, ular diqqat bilan sizga boqmoqda. Ularga kuchli nazar va xush kayfiyatda ko'rinasiz.

22. Kichik jimlik qiling. Agar shovqin boshlansa, jimlikni cho'zing va birdan auditoriyaga qattiq nazar tashlang.

23. Nutqingizni yumshoq va yengil qilib boshlang. Kuchli zarb bilan boshlamang, bo'lmasa, nutqingizni yakunlashga kuchingiz yetmay qoladi, tinglovchilarning ham toqati toq bo'ladi.

24. Gapirayotganingizda unutmang, sizni eshitishni istagan odamlarga murojaat qilyapsiz, nimani yozsangiz ham sig'diraveradigan qog'ozga emas.

25. O'zingizni tutib ishonch bilan gapisangiz sizni ham zavq bilan tinglashadi.

26. Temp oralig'ini saqlagan holda baland ovozda gapiring. Keng va muhim ma'lumotni qisqa vaqtga sig'dirishga urinmang.

Shoshib gapirgan notiq ma'lumot berishdan qo'rqadi va minbardan tushirib yuborishlarini kutadi.

27. Gapirayotgan vaqtingizda auditoriyani kuzating. Tinglovchilarning diqqati sizga qaratilgan. Biroq nutqingiz davomida bir shaxsga hadeb murojaat qilavermang, chunki har bir tinglovchi qaysi nuqtaga qarayotganingizni, kimga qarab gapirayottaningizni kuzatib turibdi.

28. Og'zaki ommabop nutqingiz ko'pchilikdan kuchli: notiq ko'pchilikning diqqatini tortadi, fikrini qo'zg'aydi. Kuchli auditoriyani to'lqinlantiradi.

29. Katta auditoriyadan qo'rwmang, kichik auditoriyadan qo'rqing. Auditoriya qancha katta bo'lsa, ishontirish shuncha oson bo'ladi.

30. Ortiqcha gapirmang. Notiq nimaniki gapisra, omma shuni gapiradi, nimani o'ylasa, shuni o'laydi. Shuning uchun notiq nima gapirishini hamisha o'ylab gapiradi. Lekin u nimani o'ylasa hammasini gapirolmaydi. Gapisrib ulgurmaydi.

31. Insonsevar bo'ling – iloji boricha qisqa gapiring, nutqning ommabop jaranglashi tinglovchilarning butun borlig'iga ta'sir qiladi. Ayni damda tinglovchilar aytilayotgan narsalarning o'zları uchun eng kerakli ekanligini anglaydi.

32. Iloji boricha adabiy tilda gapirishga odatlaning, chet el so'zlaridan imkon darajasida kamroq foydalanishga harakat qiling.

33. Ba'zi notiqlar bir so'zni qayta-qayta takrorlaydilar. Siz bunday yaramas odatdan qoching.

34. Nutqingizni so'z bilan emas, jumla bilan bezashga odatlaning. Jumlalar bir-biriga mantiqan bog'lansin. Boshlagan jumlangizni yakuniga yetkazing. Gapirayotgan jumlalaringizning uzun-qisqaligini auditoriya va xonaning kengligiga qarab tuzing. Auditoriya qancha katta binoda bo'lsa, gapirayotgan jumlalaringizning o'rtacha uzunligi shuncha qisqa bo'lishi kerak.

35. Nutqda so'z va jimlikning (pauza) o'rni galma-galdan almashinib turishi kerak. Jim turish so'z va jumlaning tuzilishiga vaqt ajratish demakdir. Jim turishda auditorianing fikrlaringizga berayotgan bahosini anglaysiz. Ammo to'g'ri kelgan joyda tinimsiz jimlik ham yarashmaydi. Jimlik auditoriyadan javob kutayotgan paytingizda kerak.

36. Ommabop nutq ohangga bog'liq: ohang jumlalarga a'zo bo'lgan so'zga sayqal beradi. Nutq mazmuniga notiqning munosabatini belgilovchi ohang tabiiy va ishonchli bo'lishi kerak. Ohangni hech qachon jumlalar oxiriga surmang.

37. Notiq ommabop nutq so'zlayotganda o'zini bulbulday his etmasligi kerak. Siz odamlarning foydasiga gapiryapsiz, o'zingizni ko'z-ko'z qilish uchun emas. Shuning uchun hamma vaqt nutqingiz ustida ishlang, uning auditoriyaga ta'sirini kuzating. Odamlarning ma'lum guruhi sizni qo'llash-qo'llamasligini aniqlang. Sizga e'tiborlimi yoki parishonxotirmi, qiziqib eshityaptimi yoki ahamiyatsiz, do'stonami yoki zo'rma-zo'raki ekanini kuzating. Notiq gapirayotganda auditoriyada nima bo'layotganini ko'rib turishi lozim va o'z vaqtida auditioriya holatini izga solib turish kerak.

38. Agar auditoriyada shovqin ko'tarilsa, ovozingizni balandlatmasdan, aksincha, pasaytiring yoki jimgina auditoriyaga diqqat bilan qarang.

39. Zaldagi qochiriq gaplardan qo'rwmang. Nutq so'zlayotganingizda diskussiyaga yo'l qo'y mang. Mo'ljaldagi gaplaringizning hammasini aytishingiz shart.

40. Nutq davomidami yoki undan keyinmi, sizga berilgan savollarga javobni aniq, tushunarli, qisqa qiling, to'liq javob berish shart emas.

41. Har qanday nutqning yakuni dadil va mustahkam bo'lsin. Yakunlovchi ohangda ovozni ko'tarib kerakli gaplarning hammasini aytganingizni sezdiring, auditoriyaning diqqat-e'tibori uchun minnatdorchilik bildirishni unutmang.

### **Ma'ruzaga qiziqishni oshirish yo'llari**

Notiq o'z faoliyatida asosiy e'tiborni tinglovchilarning qiziqishini oshiradigan va mavzuning esda qolishida yordam beradigan quyidagi vositalar, usullar va uslublarni puxta ko'rib chiqishga qaratishi kerak:

1. O'rganilayotgan mavzuning nazariy va amaliy ahamiyatini tushintira olishi , uning ilmiy bilim sohasidagi ahamiyatini ko'rsata olishi;

2. Dastlabki jumla va ma'ruzalarning boshlanish qismi, ularning tinglovchilar bilan aloqa o'rnatishda va notiq nutqiga qiziqishni vujudga keltirishdagi roli.

3. Yangi muommolarning qo'yilishi.

4. Bayon qilinayotgan materialning yangiligi.

5. Bayonning aniqligi, ko'rgazmaliligi va ommaviyligi:

Nutqning yorqinligi, obrazli va ta'sirchanligi maruzada humor va hazil-mutoyiba.

A. Korneychukning "Qanotlar" pyesasida quyidagi bir epizod bor. Yozning issiq kunlaridan birida kolxozda ochiq havoda ma'ruza o'qilayotir. Ma'ruzachi Ovcharenko qog'ozdan ko'zini olmay zerikarli tarzda ma'ruza o'qiydi va o'qib bo'lган varaqlarni suvli grafin ostiga qistirib qo'yadi. Ma'ruza boshlanganiga ancha bo'lganga o'xshaydi, chunki grafin ostidagi varaqlar ko'p, grafindagi suv oz qolgan. Ko'plar mudrab o'tirishibdi. Kolxozchilardan biri Mefodiy esa hatto bemalol xurrak otib o'tiribdi. Rais o'rnidan turib bunday deydi: "Mefodiyning mo'ylabidan tortib ko'yinglar, bunaqa bemazagarchilik qilmasin". Kimdir Mefodiyning mo'ylabidan tortadi, u esa qichqirganicha o'rnidan turib quvonganicha so'raydi:

— Tamom qildimi?

Zerikarli, qiziqtirmaydigan, qogozga qarab o'qiladigan ma'ruza ana shunday qabul qilinadi. Afsuski, Shunday ma'ruzalar hamon uchrab turadi (E.A.Adamov. T., "O'zbekiston", 1980. 3–4-betlar).

No'noq notiqlarning hammasi bir-biriga o'xshaydi. Lekin har bir mohir notiqning o'z fazilati bor. Usta notiq gapirayotganida tinglovchilar bamisol nafas olmay o'tiradilar, noshud notiq xuzurida esa bemalol xurrak otib ham yuboraveradilar. Ammo, ma'ruza tinglovchi ongida bilimlar boyligiga aylanmog'i uchun nima qilish kerak?

Buning uchun fanning har qanday sohasiga oid har qanday mavzudagi ma'ruza uchta zaruriy fazilatga ega bo'lishi lozim. Birinchi va eng asosiy fazilat ma'ruzaning mazmunli bo'lishi, uning fikrlarga boy bo'lishidir. G'oyaviy-siyosiy yo'nalish va bilim qiymati eng qadrli narsadirki, bu narsa notiqqa muvaffaqiyat qozonish imkonini beradi. Notiq gapirayotgan narsasini yaxshi bilmasa, har qanday ajoyib shakl, har qanday iste'dod notiqqa yordam bermaydi.

Ma'ruza mazmuni jihatidan chuqur ilmiy, shakly jihatidan yorqin bo'lishi, hujumkor xarakterga ega bo'lib, ommabopligi va tushunarliligi bilan ajralib turishi kerak.

Ikkinci talab — muvofiqlik. Har bir ma'ruza mavzuga, davraga, joyga va auditoriyaga muvofiq bo'lishi lozim. Ma'ruza — aniq manzilga ega bo'lgan xatdir. Manzil noto'g'ri yozilganida xat yo'qolib ketganidek, manzilga nomuvofiq qilingan ma'ruza ham bexuda ketadi.

Nihoyat biz yaxshi ma'ruzaga nisbatan qo'yadigan oxirgi, uchunchi talab — uning qiziqish tug'dirish xususiyatidir. Gulxan uchun shox-shabba qanchalik kerak bo'lsa, ma'ruza uchun ham qiziqish shunchalik zarur. Gulxanni yoqib shox-shabba tashlab turmasangiz, u bir ozdan keyin o'chib qoladi. Ma'ruzani boshlab, unga qiziqarli materiallar kiritib turmasangiz, tinglovchining e'tibori so'nib qoladi.

Qiziqish nima? Biz bu tushuncha bilan duch kelib turamiz. Qiziqish notiq bilan tinglovchilar o'rtasidagi aloqadir. Istiqlol sharoitida xalqimiz ma'naviyatining o'sishi bilan bir vaqtida madaniyatning barcha sohalariga barqaror va yaxshi qiziqish oshib bormoqda. Qiziqish darhol e'tiborni keltyrib chiqaradi, e'tiborga ega har bir ma'ruzada g'oya muhim o'ringa ega. E'tibor — bilim darvozasi bo'lib, uni qizqish ochib beradi. Bizning idrok etishimiz notiqni qanchalik e'tibor bilan tinglashimizga bog'liq. E'tibor esa ma'ruza qiziqarli yoki zerikarli o'qilishiga qarab vujudga keladi eki barham topadi.

Ma'ruzaga qiziqishni darhol barham qiladigan o'rinalar bor. Notiq xabar qiladigan ma'lumotlarning keraksizligi; bu ma'lumotlarning hayotdan, amaliy qiziqishlardan ajralib qolganligi, mazkur auditoriya uchun keraksiz axborotlarning ko'pligi; hayot bilan aloqaning yo'qligi, eskirgan material va, nihoyat, shaklning yomonligi ana shunday faktorlar jumlasiga kiradi. Agar notiq ko'zini qog'ozdan ololmasa, bu narsa tinglovchilarda qiziqish tug'diradi, deb o'ylamay qo'ya qoling.

Nutqning ko'rgazmali, ommabop aniq bo'lmay quruq bo'lishi, yumorni pisand qilmaslik, his qilinadigan «emotsional asosning yo'qligi qiziqishga barham beradi. Notiq nutq estetikasiga rioya qilmasa, «latta chaynarlik» qilaver-sa, jumlalarni yorqin va aniq qilib tuzmasa, ish pachava bo'ladi. Bularning hammasi tinglov-

chilarni zeriktiradi, ular ko'zları ochiq holda, ba'zan esa ko'zlarini yumib olib uxlayveradilar yoki boshqa narsaga chalg'iylidilar. Qiziqarli ma'ruza hatto «uyquchi» tinglovchilarni ham uyg'otib, e'tiborni jalb qilishi mumkin.

To'g'ri, notiqlar har xil bo'lishadi. Ularni ikki xil — o'qib beruchilar va ijodkorlar deymiz. O'qib beruchi notiqning so'zları o'lik bo'lib, hayot belgilardan mahrum bo'ladi. Matn yozilgan varaqlar notiq tiliga osib qo'yilgan toshlardir. Ular tilni og'ir qiladi. Tinglovchilar bunday notiqlarni uncha hurmat qilmaydi. Ba'zan notiq qog'ozga qarab juda chiroyli so'zлarni o'qib beradi, lekin ular tinglovchilarni qiziqtirmaydi. Bu so'zlar kuzgi yaproqlarga o'xshaydi, ular chiroyli bo'lishi mumkin-u, lekin ularda jon bo'lmaydi. Notiq hech qanday qog'ozga qaramasdan mavzuni erkin bayon qilib bergeniga nima yetsin. Xulosa shuki, matnni yozish mumkin va lozim, lekin uni shunday o'zlashtirib olish kerakki, natijada matnsiz ham gapirish mumkin bo'lsin. Bosh matnda bo'lganidan, matn boshda bo'lgani ma'qulroq.

### **Notiq muvaffaqiyatining oltita sharti**

Mohir notiqliqning qiziqarli ma'ruza o'qiydi. Bunda ғilim, mahorat, qiziqish va muayyan tinglovchilarga bevosita murojaat zarur.

Lekin notiqning muvaffaqiyatini ta'minlaydgan alohida shartlar ham bor. Bunday shartlar oltita:

1. Minbarga chiqquncha ham, minbarda turganda ham ma'ruza bilan yashash kerak. Notiqlar har xil bo'lishadi. Ba'zilari ma'ruza o'qishadi, ba'zilari esa minbarda ma'ruza matni bilan yashab tinglovchilar bilan faol aloqa bog'laydilar, o'zlarini yo'qotmagan holda auditoriya bilan qo'shilib ketadilar. Bular o'qib beruvchilar emas, balki ijodkorlardir. Qiziqarli ma'ruza notiq shaxsiyatidan ruhdangan ilmiy mavzudagi mazmunli, zavqli suhabatdir. Bunday ma'ruza odatda uchta bosqichda o'tadi. Birinchidan, material to'planadi va singdiriladi, u bir shaklga solinadi va his etiladi. Ikkinchidan, ma'ruza ichki shaklda va ichki monolog tarzida o'zi uchun o'qiladi, bunda notiq o'zi bilan o'zi munozara yuritadi, o'ziga savol berib o'zi javob qaytaradi. Uchinchi bosqich boshqalar uchun ma'ruza bo'lib, notiq auditoriyaga kirganida o'zini

auditoriyada va auditoriyani o‘zida ko‘radi va his qiladi. Bunda u oddiy narsada qiziqarli narsani, ma’lum narsada noma’lum narsani, hamma masalalarda hayotiy muhim narsani topa biladi.

2. Materialni bilishgina emas, balki egallab olingan bo‘lishi kerak. Egallah ma’ruzani qat’iyat va mahorat bilan boshlash, asosiy qismni bayon qilish uchun eng yaxshi shaklni topish va ma’ruzani mohirona tugallash demakdir.

Qiziqarli ma’ruza ko‘p jihatdan uni qanday boshlashiga bog‘liq. Muqaddima notiqning auditoriyadagi dastlabki qadamlaridir. Ular qiziqarli bo‘lishi kerak. Notiqni muqaddimaga qarab kutib olyshadi, mazmun va shaklga qarab kuzatishadi. Muqaddima jangdagi dastlabki atakaning o‘zginasidir. Birinchi ataka juda katta ahamiyatga ega, albatta, lekin birinchi hujum jangning taqdirini belgilab bermaganidek, yaxshi boshlangan muqaddimaning o‘zi ham butun ma’ruzaning muvaffaqiyatini ta’minlay olmaydi. Kechirim so‘rab boshlanadigan muqaddima muvaffaqiyatsiz chiqadi. Muqaddimada ma’ruzaning asosiy fikri bayon qilinsa, u ta’riflab berilsa, shu ruh butun ma’ruza jarayonida bo‘rtib tursa, auditoriya mamnun bo‘ladi.

Ba’zan ma’ruzani hatto ko‘chirma keltirishdan boshlash mumkin. Ammo ko‘chirma o‘tkir quroq bo‘lsa-da, u hadeb ishlataverilsa, o‘tmaslashib qoladi. Ba’zan muqaddimani biror harakterli faktdan boshlab shundan kelib chiqib mavzuni bayon qilish mumkin. Kichkina tanaga kattakon bosh qanchalik yarashmasa, katta muqaddima ham shunchalik kelishmaydi.

3. Nutqni egallash — notiqning nutqi, so‘zni tanday bilishi, jumla tuzishda so‘zlardan to‘g‘ri foydalanishi, obraz yarata olishi, istioradan foydalana olishi, esda qoladigan o‘xshatishlar topa bilishi g‘oyatda muhim.

Mopassan so‘zlarning jonini qidirish kerak, degan edi. U so‘zlarning jonli bo‘lishiga astoydil ishonardi, yozuvchining vazifasi esa shu jonni topib, uni kitobxonga ko‘rsatishdan iborat deb hisoblardi. So‘zlarning jonini topa olsangiz, so‘zlar orqali o‘z qalbyngizni ham ifodalay olasiz.

Emotsionallik — nutqning haroratidir. U yuqori yoki past bo‘lishi mumkin, lekin isitma chiqib ketishiga yo‘l qo‘yib

bo'lmaydi. Qanday gapisirish, qanday qilib aytish ham muhim. Yomon talaffuz ma'ruza materialini idrok etish imkoniyatini barbob qiladi. Notiq yomon talaffuz o'qiyotgan ma'ruzani tinglaganda varaqlari yirtiq kitobni o'qiyoganday bo'lasiz.

Nutqini oqilona humor bilan bezay oladigan kishi nutqni yaxshi egallagan bo'ladi.

Yumor — no'tqning atridir, gulni xidiga qarab ajratish mumkin bo'lganidek yumoriga qarab odamning aqlini belgilash mumkin.

4. Notiqning o'zini tuta bilishi. O'zini yo'qotib qo'ygan notiq auditoriyadan ham mahrum bo'ladi. Avvalo, ma'ruza boshlarida vujudga keladigan hayajonni bosib olishi shart. So'zga chiqish notiqning o'ziga qiziqarli bo'lishi uchun ma'ruza materialini sistematik tarzda yangilab turish, yangi fikrlar, misollar, obrazlar, aforizmlarni kiritib turish zarur. Hech narsa qotib qolmasligi, bir gap hadeb takrorlanavermasligi kerak, aks holda o'zing ham qiziqmay qolasan, tinglovchilar qiziqishi ham so'nib boradi.

5. Auditoriyani boshqarishni o'z qo'liga ola bilish. Notiq ham muallif, ham ijrochi, ham dirijordir. U muallif sifatida yaxshi, ijrochi sifatida yomon bo'lishi yoki ijrochi sifatida yaxshi, dirijor sifatida yomon bo'lishi mumkin. U auditoriyani boshqara olmasligi, auditoriyani his qilmasligi mumkin.

Auditoriyani boshqarish — aloqa uzilib qolishining oldini olish demakdir. Bu narsa e'tiborning chalg'ishida, norozilikda va notiqqa ishonmaslikda namoyon bo'ladi. Qiziqarli ma'ruza yaxshi tugallansa, u tinglovchilar ongida yaxshi saqlanib qoladi. Ma'ruzani nima bilan tugallash kerak? Ko'pincha yig'ilishlarda notiq o'z nutqini sira tugallay olmaydi, tugallamoqchii bo'ladiyu, ilojini qilolmaydi.

Shu sababli nutqning oxirini oldindan tayyorlab qo'yish kerak.

6. Vaqtini suiiste'mol qilmaslik. Vaqt hamma masalalarda, shu jumladan notiqlik mahorati masalasida ham jiddiy, ammoadolatli hakamdir. Qisqacha ma'ruza notiq muvaffaqiyatining qisqa yo'lidir. A.P. Chexov qisqacha bayon — iste'dod belg'isidir, degan edi. Ma'ruzani cho'zgan sari notiq tinglovchilar g'ashiga tegaveradi. Shu sababli har bir ma'ruzada belgilangan vaqtga rioya qilish muhimdir. Belgilangan vaqt esa ikki xil bo'ladi: tashqi belgilangan

vaqt — notiqqa oldindan aytilgan vaqt chegarasi, ichki belgilangan vaqt esa notiqning vijdoni va tinglovchining sabr-toqatidir.

## **Odamlarga yoqish va ular e'tiborini qozonish qoidalari**

### **1. Insonlarga yoqishning besh qoidasi.**

Suhbatdoshingiz bilan chin dildan qiziqing!

Insonlarga ochiq chehra va nimtabassum bilan munosabatda bo'ling!

Unutmang, insonning ismi — uning uchun eng yoqimli va eng muhim ohangdir!

Eng yaxshi tinglovchi bo'ling! Boshqalarga ko'proq o'zlariga to'g'risida gapirishlariga imkoniyat bering!

Suhbatdoshingizni qiziqtiruvchi mavzular to'g'risida ko'proq gapiring!

### **2. Insonlar e'tiboriga erishishning o'n ikki qoidasi.**

Tortishuvlar paytida ma'naviy balandlikda bo'lishning yagona yo'li — bu tortishuvdan voz kechishdir!

Suhbatdoshingizning har qanday fikriga hurmat ko'rsating. Insonlarga hech qachon «nohaqsan» demang!

Agar siz nohaq bo'lsangiz, tez va keskin tan oling!

Suhbatni do'stona ohangda boshlang!

Suhbatdoshingizni har qanday masalada fikringizga «Ha, to'g'ri», deb aytishga undang va erishing!

Suhbat davomida kamroq gapiring, uning ko'proq gapirishiga imkoniyat yarating!

Mazmunli fikrlarni suhbatdoshingiz o'ziniki deb hisoblasin!

Har bir masalaga suhbatdoshingizning nuqtai nazari bilan qarang!

Boshqalarning fikri va xohishlariga ta'sirchan bo'ling!

Marhamatlik inson ekanligingiz bilinib tursin!

Kinolarda va radiolardagi eng yoqimli harakatlarni o'zingizga singdiring va kinoradio qahramonlaridek harakat qiling!

Otashin, aniq, insonga ichki quvvat beruvchi gaplarni gapiring!

### **3. Insonlarni xafa qilmasdan ularga ta'sir ko'rsatish va hurmatiga sazovor bo'lishning to'qqiz qoidasi:**

Gapni suhbatdoshingizni maqtab va yaxshi tomonlarini tan olish bilan boshlang!

O'zgalarning xato-kamchiliklarini to'g'ridan-to'g'ri aytmang, boshqalar misolida gapiring!

Oldin o'zingizning xatolaringiz to'g'risida gapiring va shundan so'ng suhbatdoshingizni sekinlik bilan tanqid qiling!

Suhbatdoshingizga buyruq bermasdan, unga savol berish orqali ishni bajartiring!

Insonlarga o'z muvaffaqiyatlarini saqlab qolishlari va yanada oshirishlariga imkoniyat bering!

Har bir insonning eng kichik muvaffaqiyatlarigacha qo'llab gapiring!

Odamlar o'rtasida sog'lom, obro'li muhit yarating va natijada ular shu darajada qolishga harakat qilsinlar!

Shunday qilingki, inson yo'l qo'ygan xatoliklarini osonlik bilan to'g'riliishi mumkinligini va bu qiyin emasligini his etsin!

Shunga erishingki, insonlar sizning bergen taklif, mulohaza va ko'rsatmalaringizni bajarib, natijalaridan o'zları zavqlansinlar!

### **4. Oilangizni yanada baxtliroq qilishning o'n qoidasi.**

Hech qachon tortishmang!

O'z umr yo'ldoshingizni to'g'ridan-to'g'ri o'zgartirishga urinmang!

Bir-biringizni tanqid qilmang, yaxshilab o'ylab, so'ng gapiring!

Bir-biringizga chin dildan minnatdorchilik bildirib turing!

Bir-biringizga doimo e'tiborli bo'ling!

Doimo har bir masalaga ehtiyojkorlik bilan yondashing!

Bir-biringizdan doimo yaxshi tomonlarni qidiring!

Jahlingiz chiqqanda masala yechimini keyinga qoldiring va maqsadga erishish uchun to'g'ri yo'l tuting!

Oilaning or-nomusini hamma narsadan ustun qo'ying!

Oilaning jamiyat o'rtasidagi obro'-e'tibori uchun har bir oila a'zosi mas'uldir!

## Xulosa

Bizda notiqlik mahoratini, uning sirlarini, qonun-qoidalarini to‘liq egallamasdan oliy maktablarni bitirib chiqayotgan yosh mutaxassislarning joylardagi faoliyatida bu kemtiklik sezilmoqda. Hatto teleko‘satuvlarda gapirayotganlar nutqida ham «Nima desam ekan», «Nima edi» degan ortiqcha kirish so‘zлarni eshitamiz. «Nima deyishni bilmasangiz nima uchun so‘z oldingiz», deydigan odam yo‘q. Xullas, bu soha bugunning eng dolzarb muammosi ekanini anglash vaqtি keldi.

Gap «so‘z» xususida ketayotgan ekan, bu ne’matni nihoyatda qadrlash tilimiz orgali namoyon bo‘ladi. Tilimizdan chiqayotgan so‘zlar nutqqa aylanadi. O’sha nutq esa so‘z va nutq egasining kimligini aniqlashga yordam beradi. Chunki odamning yaxshi-yomon xislatlarini gaplaridan bilib olamiz. Ko‘rinib turibdiki, so‘z san’ati tarixdan zamonamizga qadar bo‘lgan kenglikni bir-biriga bog‘laydi. Shu ma’noda yoshlарimiz o‘z so‘z va nutqlaridagi kamchilik va nuqsonlar, tillaridagi qusur va g‘alizliklar haqida qayg‘urishlari lozim.

«So‘z boshi — salom», — deganlaridek, ba’zi yoshlарimizning salomlashishiga kelsak, qo‘shtirnoq ichida «madaniyatli»lari «privet», «zdrov» desalar, boshqalari «som alaykum» deyishadi. Bunday yoshlар «som» arab tilida «o‘lim» degani ekanini bilsalar edi, bunday salomlashmasdi, deb o‘ylaymiz. Bu narsa oila, bog‘cha, maktab va o‘quv dargohlarida o‘rgatilishi lozim bo‘lgan muammo.

Ayniqsa, ko‘cha-ko‘yda, bozorda, yo‘lovchi transportlarida, hatto o‘quv dargohlarida ham qulqqa tez-tez eshitilib turadigan «korochche», «shes sekunt», «otvechat qilasanmi» kabi so‘zlarga ham, qanchalar xunuk bo‘lmасin, qulqolarimiz o‘rganib borayapti. Yoki «brat», «bratan», «bratishka» kabi so‘zlar ham shular jumlasiga kiradi. Bunday hollar go‘zal o‘zbek tilimizga hurmatsizlik emasmi?

«Yaxshining so‘zi moy, yomonning so‘zi loy,» — deydi dono xalqimiz. Zero, xulq, eng avvalo, nutqda ko‘rinadi.

Yoshlarning o‘z otasini «paxan», «boboy», onasini «mamulya», «babulya», «kampirsho» deb atashi; do‘sclarini o‘z ismi bilan atamay, Boburni — Borya, Temurni — Tolik, Muhammadni — Misha, Alisherni — Alik, Sanobarni — Sano, Rahimani — Raya, Gulchehrani — Gulya deb chaqirishlari; boshqalarni ham jismoniy kamchiliklari bilan atab: qiyshiq, cho‘loq, kar, kal, cho‘tir deb atashlari ularning ma’naviy qashshoq ekanliklarini bildirmaydimi? Ammo ular o‘zlarini «madaniyatli» hisoblaydilar. Shaxsni jismoniy kamchiliklar bilan chaqirishni hazil deb tushunadilar.

Jismoniy kamchiligi bor insonning ko‘nglini ovlash o‘rniga masxaralash aslida gunoh. Ko‘ngil buzish ham Ka‘bani buzish bilan barobar bo‘ladi.

Bular og‘zaki nutqdagi kamchiliklar. Bugungi kunda adabiy til normalarini bilmaslik tufayli o‘quvchi va talabalar, hattoki, ustoz va murabbiylarning yozma nutqlarida ham uchraydigan ba‘zi uslubiy va ilmodagi nuqsonlar xususida to‘xtalsak.

Ma’lumki, o‘zbek tilida oltita kelishik va har bir kelishikning o‘z qo‘s Shimchalari bor. Ammo nutqda qaratqich kelishigi o‘rniga tushum kelishigi, o‘rin-payt kelishigi o‘rniga jo‘nalish kelishigining ko‘s Shimchalarini almashtirib ishlatish hollari uchraydi:

Misol uchun, «Bu — Anvarning kitobi», deb aytish va yozish o‘rniga «Bu — Anvari kitobi» tarzida yoxud «Bu gapni uyda aytaman», deb aytish yoki yozish o‘rniga «Bu gapni uyga aytaman» (Uyning qulog‘i bormi?) deb ishlatish holatlariga tez-tez duch kelamiz. Bu albatta, shevaning ta’siri.

Aslini olganda, shevadagi so‘zlar adabiy tilni boyitishga xizmat qiladi. Abdulla Qahhor Qo‘qon shevasidagi «Sinchalak» so‘zini adabiy tilga o‘z asari bilan olib kirib, tilimizni boyitganini ta‘kidlagan edik. Biroq shevaga xos qo‘s Shimchalarni adabiy til qoidalariga mos holatda ishlatmaslik uslub va imlodagi xatolarning kelib chiqishiga ham sabab bo‘lishini unutmaslik kerak. Matbuot ham bunday kamchiliqdan xoli emas.

O‘zbek tili grammatikasida: yozilishi har xil, mazmuni bir xil bo‘lgan so‘zlar sinonimlar deyiladi, degan qoida bor. Bunga amalda noto‘g‘ri yondoshsak ham xatoga yo‘l qo‘yishimiz mumkin. Masalan, yuz, aft, turq, bashara, chehra, ruxsor kabi so‘zlarining ma’nolari bir xil deb «ruxsoringiz yoki chehrangiz chiroyli» deyish o‘rniga «basharangiz chiroyli» deb ishlatib bo‘lmaydi. Aks holda

«tushuncha» salbiy holatga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Shu boisdan so‘z tanlash mahorati hamisha yodimizda bo‘lishi lozim. Bu borada she’riyatda nozik ta‘b bilan so‘z tanlanadi. Masalan, Erkin Vohidovning «O‘zbegin» qasidasida:

So‘ylasin Afrosiyobu, so‘ylasin O‘rxun xati,  
Qo‘hna tarix shodasida bitta marjon, o‘zbegin, —

deyilgan. Agar shu o‘rinda «bitta» so‘zi o‘rnida «yakka» so‘zi ishlatilsa tushuncha o‘zgaradi, ya’ni «tarix shodasida»gi marjonlardan «yakka»si o‘zing, deya boshqalardan o‘zni ustun ko‘yish tushunchasini beradi. Nasrda esa «bitta o‘zim keldim», «yakka o‘zim keldim» deyilganda tushuncha o‘zgarmaydi.

Biz hamisha chiroyli kiyinishni xohlaymiz va bu tashqi shaklga moyillikdir. Lekin ma’naviy olamimiz uchun chiroyli gapirish va shirin muomala ham muhim ahamiyatta ega ekanligini, ya’ni insonning mazmunan chiroyli bo‘lishligini ta’minlaydigan omil ekanini unutamiz.

Shirin so‘z, xushmuomala bilan odamlar ko‘ngliga yo‘l topaylik. Hech qachon inson dilini og‘ritmaslikka harakat qilaylik. Bu qo‘limizdan keladi.

Shirin muomalada bo‘lish ham katta san’at. Insonni o‘rganish qiyin, uning qalbiga yo‘l topish qiyin. Bunga erishuvimizga ko‘mak beradigan bir ne’mat bor. Bu — Alloh bergen «so‘z» ne’matidir. So‘zga avval libos tanlang. Go‘yoki, o‘zingizga libos tanlagan kabi. Axir siz o‘zingizga yarashmaydigan, sizni chiroyli qomatli qilib ko‘rsatmaydigan libos yoki kiyimni kiymaslikka harakat qilasiz. So‘zingizga libos sifatida «ohang»ni kiydiring. Gapingizning libosi ham ohangdan tashkil topsin. Ana shunda tinglovchi, o‘sha «ochilmagan qo‘riq» so‘zingizni, gapingizni qabul qiladi, bag‘riga oladi. O‘z farzandingizga qattiqroq ohangda gapisangiz, «nimaga baqirasiz», deb tanbeh beradi. Hattoki, tabobatda «shunday xastalar bo‘ladiki, ularni faqat «so‘z» bilan davolamoq zarur», — deydi Abu Ali ibn Sino. Donishmandlar «so‘zni» doriga o‘xshatadilar, ortiqchasi zarar keltiradi, —deydilar. Bir rivoyatda keltirilishicha: yunon faylasufi Arastuning huzuriga ezma va sergap bir yigit kelib, notiqlik san’atini o‘rganmoqchi ekanini aytibdi. O‘sha kelgan yigit Arastuga dabdabali so‘zlarni izhor etganidan so‘ng:

- O‘rganganim uchun qancha haq to‘layman, — deb so‘raydi.
- Sendan ikki barobar haq olinadi, — debdi Arastu.
- Nima uchun? — hayron bo‘libdi yigit .
- Chunki sen bilan ikki barobar ishlashga to‘g‘ri keladi.

Senga so‘zlashni o‘rgatishdan avval jim turishni o‘rgatishim lozim,  
— degan ekan.

Eshitish qobiliyati tufayligina insonda til, nutq paydo bo‘ladi. Qulordan kirgan tovush, so‘z, gap va iboralar og‘izdan chiqadi. Dono xalqimiz: «Suv onasi — buloq, so‘z onasi — qulq», — deb bejiz aytmaydi. «So‘ramoq» so‘zining o‘zagi «so‘r» bo‘lib, inson so‘ragan gapni qulog‘i orqali «so‘radi». Shu bois uning fikri, so‘z boyligi ortib, nutqi ravonlashadi, yaxshi suhbatdoshga aylanadi.

Alisher Navoiy hazratlari: «Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim, orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim», — degan hikmatlarida shular haqida qayg‘uradi. O‘zimizga zamondosh O‘zbekiston xalq yozuvchisi O‘tkir Hoshimov: «Xalqning o‘zidan tinglab, o‘ziga qaytardim», deb yozgan bo‘lsa, O‘zbekiston Qahramoni, sevimli shoirimiz Erkin Vohidov ham:

*El ustozim, men esam tolib,  
So‘z durlarin termoqdir ishim.  
Odamlarning o‘zidan olib,  
Odamlarga bermoqdir ishim ...—*

deya haq gapni tan oladi.

Inson hamisha sodda va samimiyl so‘zni sog‘inib, tabiiylikka intilib yashaydi. Maqtov so‘zlar hammaga yoqadi, lekin bunda ham me’yorni saqlay bilish kerak.

## V bo'lim. AMALIY MASHG'ULOT

### 1-bob. Artikulatsiya va nafas mashqlari

Nutq organlari asosan to'rtga bo'lib o'rganiladi: 1) nafas yetkazuvchi organlar; 2) tovush hosil qiluvchi organlar; 3) tovushni shakllantiruvchi organlar; 4) qo'shimcha ton beruvchi organ.

Nafas yetkazuvchi organlar asosan, traxeya, bronxlar (o'pka va qo'shimcha holda ko'krak qafasi, uni tashkil qilgan qovurg'a, qovurg'a muskullari), plevra (parda), diafragmalardan iborat. Traxeya 16–20 tog'ay halqalarining ustma-ust joylashtirib biriktirilgani holatidagi nayga o'xhash nafas yo'li bo'lib, ichi epiteley (shilimshiq) qatlam bilan qoplangan. Bronxlar ikkita bo'lib, xuddi traxeyaga o'xhash, uning past tomonidagi o'tmas burchak bilan tarmoqlangan shoxchasiga o'xshaydi. O'pka o'ng va chap qismlardan iborat bo'lib, o'ng qismi uch va chap qismi ikki bo'lakdir.

Tovush hosil qiluvchi organlar xiqildoq deb atalib, u ustma-ust joylashgan uzuksimon, qalqonsimon, cho'michsimon, naysimon ko'rinishga ega.

Tovush shakllantiruvchi organlar asosan xalqum va og'iz bo'shlig'idagi organlardan iborat.

Qo'shimcha ton beruvchi organ burun bo'shlig'i hisoblanadi.

Og'iz bo'shlig'idagi til, yumshoq tanglayning kichik til va lablar fizologiyasi bilan bog'liq holda nutq tovushlari shakllanadi.

Artikulatsiya – (lot. articulo) – 1) tilshunoslikda: muayyan tovushni hosil qilishda nutq muchalarining harakati, holati, ishtiroki; 2) musiqada: asarni so'zda yoki ovoz bilan ijro etish usuli. Artikulatsiyaning asosiy turlari: legato (tovushlarning o'zarbo'lganligi) va stakkato (tovushlarni uzib-uzib sadolash). Ulardan tashqari, portamento, glissando kabi artikulatsiya ifodalari ham bor. Artikulatsiya ijrochining harakatlari (cholg'uni ushlashi, qo'li, butun vujudi va yelkalarining harakati, bormoq bosishi va bo'shatishi)ga bog'liq. To'g'ri artikulatsiya ijroning yuksak badiiy va ta'sirchan bo'lishida katta ahamiyatga ega; 3) texnik akustikada: radio, telefon va boshqalardan tovushning aniq eshitilishi.

Artikulatsiya to‘g‘ri qabul qilingan tovushlarning umumiy uzatilgan tovushlarga nisbatini (foizlarda) ko‘rsatadi va uzatuvchi tizimning akustik sifatini aniqlaydi.

## Nafas – nutq vositasi

Ifodali o‘qishning muhim vositalaridan biri nafasdir. U kishi organizmi (turli a’zolari) uchun ham asosiy ozuqa hisoblanadi. Shuning bilan birga, nutq so‘zlash jarayoni, ayniqsa, ifodali o‘qish san’ati nafas negizi (bazasi) bilan uzviy aloqadordir.

Nafas olinganda havo burun bo‘shlig‘idan kekirdakka boradi va (bronx) nafas yo‘li orqali o‘pkaga o‘tadi. O‘pkaga kirgan havo qovurg‘a muskullarini kengaytiradi, natijada qovurg‘alar qorin bo‘shlig‘idan birmuncha uzoqlashib, ikki yonga kengayadi. Aniqrog‘i, ko‘krak qafasi har tomonga kengayadi. Shu bilan bir vaqtida qorin bo‘shlig‘ini ko‘krak bo‘shlig‘idan ajratuvchi diafragma o‘pkaning havoga to‘lib kengayishi hisobiga pastga bosiladi. Nafasning bu xususiyatlari, ayniqsa, ongli ravishda mashq qilayotgan paytda yaqqol sezilib turadi.

To‘g‘ri nafas olish inson hayoti uchun ham, ifodali o‘qish uchun ham juda katta ahamiyatga ega. Agar noto‘g‘ri nafas olinsa – o‘rinsiz pauzalar qilinsa, o‘qitilayotgan matn mantiqan buziladi. Matndagi muallif maqsadi tinglovchiga to‘g‘ri yetib bormaydi, fikr tushunarsiz bo‘lib qoladi.

Shuning uchun oliy va o‘rta maktablarning o‘qituvchilari o‘zlarining va o‘quvchilarning nafas organlari muskullarini chiniqtirib borishlari lozim. Bu borada amalga oshiriladigan chora va tadbirlar insonni sog‘lom va baquvvat qiladi, tovush va nutqning aniq, ravon, burro va jarangdor bo‘lishini ta’minlaydi.

Quyida nafas olish faoliyatini yaxshilash uchun mashqlar tavsiya qilinadi. Ularni mustaqil ravishda har kuni, eng avval ertalabki badantarbiya mashq‘ulotlariga qo‘sib, qolaversa, har bir qulay imkoniyatdan foydalaniib bajarib turish lozim.

**1-mashq.** Dastalbki holat. Gavda to‘g‘ri tutilib, oyoq tovonlari bir-biridan elka kengligida uzoqlashtiriladi. Qo‘llar elka tekisligida oldinga cho‘zilgan holda ko‘tariladi, kaftlar bir-biriga tegib turadi. Bir deganda, tovon ko‘tarilib, panjalar uchida turiladi va qo‘llar ikki yonga yo‘naltirilib, burun orqali chuqur nafas olinadi.

**Ikki deganda**, gavda o‘z holiga qaytariladi, qo‘llar yana oldinga cho‘zilgan holda kaftlar bir-biriga tekkizilib, og‘izdan nafas chiqariladi.

Shu tarzda, bir deganda, yuqorida aytilgan holatga kelib, nafas olinadi, ikki deganda esa asl holatga qaytib, nafas chiqariladi. Bu mashq har safar 4—5 marta qaytariladi.

*Eslatma*: har bir mashqda nafasni faqat burun orqali olib, og‘izdan chiqarishni unutmang.

**2-mashq.** Bu mashqda gavdani to‘g‘ri tutgan holda tovonlar bir-biriga yaqinlashtiriladi, panjalar bir oz kenglikda tutilib, qo‘llar bo‘yinga olinadi.

Bir deganda, tovon ko‘tarilib, oyoq uchida turiladi. Qo‘llar ikki tomonga cho‘zilib, burun orqali nafas olinadi.

Ikki deganda, oyoq uchida turgan holatda o‘tiriladi. Tizza bir-biri bilan juftlashtirilib, qo‘llar oldinga cho‘ziladi va nafas chiqariladi.

Uch deganda, asta-sekin o‘sha holatda o‘rnidan turib, qo‘llar ikki tomonga cho‘zilib, nafas olinadi. Bu mashq ham har safar 4—5 marta qaytariladi.

**3-mashq.** Oyoqlar elka kengligida ochiladi. Qo‘llarning kafti pastga qaratilgan holda ko‘krakka qo‘yiladi, tirsak elka tekisligida ko‘tarilib, burun orqali chuqur nafas olinadi.

Bir deganda, gavda to‘g‘ri tutilgan holda o‘ng yon tomonga cho‘ziladi, ayni vaqtida gavdaning beldan yuqori qismi ham qo‘l bilan birgalikda o‘ng tomonga buriladi, chap qo‘l va gavda oldingi holatiga qaytadi, burun orqali chuqur nafas olinadi.

Uch deganda chap qo‘l yon tomonga cho‘ziladi, ayni vaqtida gavdaning beldan yuqori qismi qo‘l bilan birgalikda chop tomonga buriladi. O‘ng qo‘l esa ko‘krakda turganicha qimirlatilmaydi, so‘ngra nafas chiqariladi.

• To‘rt deganda, gavda va qo‘llar asl holatiga keltirilgan holda nafas olinadi.

**4-mashq.** Oyoqlar elka kengligida ochilib, qo‘llar belga qo‘yiladi. So‘ngra burun orqali chuqur nafas olinadi.

Bir deganda, gavda o‘ng tomonga egiladi, shu holatda o‘ng qo‘l beldan asta sirg‘alib tovongacha tushadi, chap qo‘l esa gavdadan tepaga qarab ko‘tariladi, ayni vaqtida nafas chiqariladi.

Ikki deganda, oldingi holatga qaytib, chuqur nafas olinadi.

Uch deganda gavda chap tomonga egiladi, bu holda chap qo'l asta pastga — oyoqqacha tushadi. O'ng qo'l esa, gavdadan tepaga qarab ko'tariladi, ayni vaqtida nafas chiqariladi.

To'rt deganda, gavda va qo'llar o'z holatiga qaytadi va chuqur nafas olinadi.

*Eslatma.* Bu mashqlarni “Ifodali o‘qish” darslarida amaliy mashg‘ulot o‘tkazishdan oldin bajarish maqsadga muvofiqdir.

### **Ovoz qanday hosil bo'ladi?**

To‘g‘ri nafas olish hayot uchun naqadar zarur bo‘lsa, ovoz ham kishilarning bir-birlari bilan bo‘ladigan muomalasida katta ahamiyatga egadir. Xo‘s, ovoz qanday hosil bo‘ladi?

Ovoz oliv asab tizimi signallarining mahsulidir. Oliy asab tizimi biror narsaga tikilish uchun ko‘zlarga, biror narsani olish uchun qo‘llarga, oldinga qadam tashlash uchun oyoqlarga buyruq (signal) bergani kabi ovoz chiqarish, nutq tovushlari yoki so‘zlarni talaffuz etish, ovozni jaranglatish yoki xirillatish, past yo baland gapirish uchun ham muayyan a’zolarga signal beradi. Bu a’zolar esa, oliv asab tizimining buyruqlarini bajaradi. Ana shunday buyruqlarni bajarishda, ovozning muhim a’zolari bo‘lgan halqasimon, piramidasimon va qalqonsimon tog‘aylar hamda ovoz psychalari asosiy rol o‘ynaydi.

Hiqildoqning ichki devori ovoz yorug‘ini hosil qiladi. Ularning cheti esa ovoz boylamlarini tashkil etadi. Gorizontal holatda yotgan ovoz boylamlari asosan elastik, to‘qimalardan (paylardan) tuzilgan. Ular oldingi tomonda qalqonsimon tog‘ay bilan birlashib turadi, orqada esa bir-birlaridan uzoqlashadi. Ana shu uzoqlashgan paytda ular o‘rtasida burchak hosil bo‘ladi, buni ovoz yorug‘i deyiladi. Ovoz yorug‘i uchburchak shaklidadir.

Tog‘aylarni bir-biriga yaqinlashtirib va uzoqlashtirib harakatga keltirib turuvchi kuch qalqonsimon va halqasimon bir juft muskuldir. Boylamlar tortilishi, qisqarishi yoki tebranishi mumkin. Ular tinch turganda esa deyarli harakatsiz bo‘ladi, ular orasidagi tovush yorug‘i kichik bo‘lib, nafas olinayotganda ovozsiz o‘tib turadi.

Dastlabki paydo bo‘lgan tovush zaif va deyarli tembrsiz bo‘ladi. Ovoz tembr va kuchga ega bo‘lishi uchun qo‘srimcha sharoitlar

talab qilinadi. Bunda halqum, burun-halqum va og‘iz bo‘shlig‘i rezonatorlik, ya’ni qaytarg‘ichlik vazifasini bajaradi. Ular tovushga ma’lum tus va kuch beradi. Bunday tuslanishning siri ovozning fizik xossasi, ya’ni uning qattiq jismlarga duch kelgach, urilib, qaytib rango-rang rezonans kasb etish tabiatini bilan bog‘liq. Qayerda qaytarg‘ichlar ko‘p bo‘lsa, o’sha yerda ovoz kuchli, jarangdor va ko‘rkam bo‘ladi. Demak, ovoz mashqlarida eng avval ana shu qonuniyatni nazarda tutish kerak.

### Sonor tovushlar

**m** – lab-lab undoshi ikki lab orasida paydo bo‘ladi. Bu undosh, so‘zning qayerida kelishidan qat’iy nazar, doimo bir xilda talaffuz etiladi: *arman, armiya, arg‘umon, birdamlik, bilim, vazmin, gilam*.

#### Misollar:

Bir tutam gul tutib boqding ko‘zimga,  
Dedingki: “Esdalik bo‘lsin buni ol”...  
O‘zimni yo‘qotdim, ne deding menga?  
Tutganing gulmidi va yoki xayol?

(Hamid Olimjon)

**Mashq.** Quyida berilgan so‘zlarni o‘qing **m** undoshining talaffuzini kuzating.

*Mablag‘, mabodo, mavjud, mavsum, magazin, madad, madaniy, mador, madhiya.*

**n** – til oldi undoshi hozirgi o‘zbek tilida turli xil talaffuz etiladi:

a) og‘zaki nutqda **n** bilan tugagan so‘zga **m** bilan boshlangan qo‘sishchalar qo‘silsa, **n** undoshi **m** kabi talaffuz etish hollari uchraydi. Masalan, kelgan+man=kelgamman, ton+moq=tommoq, men+mi=memmi, maymun+mi=maymummi, makon+mas=makommas;

b) **n** bilan tugagan so‘zning oxiriga **b** yoki **p** bilan boshlanadigan so‘z va qo‘sishchalar qo‘silsa ham **n** undoshi albatta og‘zaki nutqida **m** kabi talaffuz qilinadi: *o‘n + besh = o‘mbesh, o‘n + bir = o‘mbir, kun + bo‘yi = kumbo‘yi, ilon + po‘st = ilompo‘st*.

Tanbur, sunbul, nonpar kabi so‘zlarda ham **n** undoshining **m** tarzida talaffuz etilishini kuzatish mumkin: *tanbur – tambur, sunbul – sumbul, nonpar – nompar*.

d) og‘zaki nutqida **n** undoshi **I** undoshidan oldin kelgan so‘zlarda assamilatsiyalanib, **I** tarzida talaffuz etiladi: *tanla-talla, kelganlar – kelgallar, kunlar – kollar;*

e) og‘zaki nutqda **ni** va **ning** (tushum va qaratqich) shakllari, **di**, **ti** tarzida (**d** yoki **t** shaklida aytılıshi *oshti, nondi* kabi) ba’zi bir shevalarda har xil assimilatsiyaga uchrashi (*oshshi, ko’kki, suvvi* kabi) mumkin. Lekin bular adabiy normalarga tamoman ziddir.

Umuman, badiiy asarlarni ifodali o‘qishda **-ni** va **-ning** qo‘sishchasi hamisha o‘z holicha yozilishiga ko‘ra talaffuz etilishi kerak.

**Mashq:** Quyidagi harf birikmalarini o‘qing. Ularning talaffuziga ahamiyat bering.

mi, me, ma, mo, mo‘, mu, mi

ni, ne, na, no, no‘, nu, ni

mmi, mme, mma, mmo, mmo‘, mmu, mmi

nni, nne, nna, nno, nno‘, nnu, nni

**Uyga vazifa.** Yuqoridagi mashqning 1- va 2-qatoridagi harf birikmalari qatnashgan so‘zlarni topib yozing hamda ularning talaffuziga ahamiyat bering.

Namuna: *mijoz, milk, millat, nigoh, nido, nizo, nizom, nimta, nisbat.*

**ng** — sayoz til orqa undoshi bo‘lib, tanglayning o‘rta qismidan orqaroqda hosil bo‘ladi. Bu undosh o‘zbek adabiy tilida faqat so‘z o‘rtasida va oxirida uchraydi. Nutqimizda so‘z o‘rtasida unli tovushlardan oldin kelganda, birga qo‘sib aytish odat tusiga kirib ketgan: *ko‘ngil, singil, so‘ngak, rangli, tongi, changi.*

Misollar:

O‘rgilay ko‘zingdan, erka farzandim,  
Novvotim, asalim, shakarim, qandim,  
Umringni tilayman, ko‘ngil xursandim,  
Qo‘zichog‘im, oppog‘im, alla.  
Yonib turgan chirog‘im, alla.

(Amin Umariy)

Uxlay desa gul bargini yopinar bulbullaring,  
Ko'kdan oy ham tushib yursa arziydi, soz yo'llaring,  
Gilamlarday yoyilibdi burungi qoq cho'llaring,  
O'zin ko'ray desa yulduz, ko'zgu bo'lar qo'llaring,  
Yuragimda rasmung chizding, qadrondon Ukraina!

(Hasan Po'lat)

Og'zaki nutqda, ayniqsa, ayrim shevalarda **ng** ma'lum so'zlarday y lashadi: *siynam*, *ko'y nim*. Ammo bunday o'zgarish nutq madaniyati va ifodali o'qish qonun-qoidalariga ziddir.

**Mashq.** Quyidagi so'zlarni diqqat bilan kuzatib chiqing va har bir so'zni ifodali talaffuz qiling.

Angina, angidirid, angishvona, anglamoq, anglashilmovchilik, angraymoq, bong, tanimoq, dangal, dangasa, eng, jang, jingak, jingalak, zang, zanggor, manglay, mangu, mangulik.

**Mashq.** Quyidagi she'rni ifodali o'qing. Undagi bo'lsang, rahmating, gullaring, ko'zing, izing so'zlarining o'qilishiga diqqat qiling.

Daryo bo'lsang toshni-toshga urib oq,  
Quyosh bo'lsang sen osmondan kulib boq,  
Bulut bo'lsang rahmating quy, chaqmoq chaq.  
Chaman bo'lsang gullaring soch xushchaqchaq,  
Chashma bo'lsang sahar turib chaqchaq ur,  
Ohu bo'lsang ohu ko'zing yashirma,  
Arslon bo'lsang bosgan izing yashirma.

(Shuhrat)

I – sonor, sirg'aluvchi; yon tovushi tilning uchi tanglay oldi tomon bir oz qayrilib, unga taqalishi va tilning ikki yonidan havo o'tib ketishi natijasida paydo bo'ladi.

I – so'zning qayerida kelishidan qat'i nazar, doimo bir xil talaffuz qilinadi: *lab*, *lavlagi*, *lavozim*, *alam*, *alanga*, *albatta*, *alvasti*, *alvon*, *aldoqchi*, *misol*, *tamoyil*, *hosil*, *jamol*, *xayol*, *qizil*, *fil*.

Sevgi shunday tangridirki,  
Unga tengdir shoh, gado,

Qulni aylab shohu sulton,  
Shohni bo'lsa qul qilur,  
Sevgi shunday bir olovki,  
Jonga undan yo'q omon,  
Gulxanida o'rtab-o'rtab,  
Bir kun oxir kul qilur.

(Erkin Vohidov)

**1-mashq.** Quyidagi so'zlarni o'qing va 1 undoshining talaffuzini kuzating.

Adl,adolat,ayozli,ajal,ajralma,alam,alla,baliq,balet,ballada,balli,balo,balchiq,valdirash,valiahd,vallomat,dilorom,dilshod.

**2-mashq.** Quyidagi harf birikmalarini o'qing. Talaffuziga e'tibor qiling.

li, le, la, lo, lo', lu, li  
il, el, al, ol, o'l, ul, il

**Uyga vazifa:** 2-mashqdagi harf birikmalari qatnashgan so'zlarni topib yozing.

N a m u n a: *libos, lenta, langar, lola, gul, lo'li, lugma, linza.*

**R-** sonor, sirg'aluvchi, til oldi titroq tovush bo'lib, forscha, arabcha va ruscha-baynalmilal so'zlarning boshida, o'rtasida va oxirida unli tovushlar bilan birga kela oladi. Til oldi tovushlari bilan yonma-yon kelganda yumshoq (masalan, rad, rasadxona, ravshan, radio, rektor, ruh, karra), chuqur til orqa undoshlari hamda til orqa unliliri bilan yondosh yoki bir bo'g'inda kelganda qattiq talaffuz etiladi.

**Mashq.** O'qing. R tovushining talaffuziga e'tibor bering.

ri, re, ro, ro', ru, ra  
ir, er, ar, or, o'r, ur

**Uyga vazifa.** Yuqoridagi berilgan harf birikmalari qatnashgan so'zlarni topib yozing

N a m u n a: *rivoya, rioya, redaktor, realist, razryad, raz'ezd rost, rohat, ro'yxat, rubob, ruxsat, ruhlanmoq.*

## VI bo'lim. BADIY ASARLARNI IFODALI O'QISH

### She'riy asarlarni o'qish

Tinglovchiga asarning g'oyaviy mazmunini, muallifning hayot haqidagi fikr-mulohazalarini, qahramon ichki hissiyotlarini yetkazish ifodali o'qish oldiga qo'yiladigan asosiy vazifadir. Shu maqsadda har bir talaba ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlarini mukammal o'rganishi kerak. Uni puxta o'zlashtirgan kishining nutqi ravon, shirali bo'lib, o'z fikrini tinglovchilarga to'g'ri va izchil yetkaza oladi.

To'g'ri, badiiy asarlarning hammasi ham bir xilda o'qilavermaydi. Har qanday asarni ifodali o'qishga kirishishdan oldin uning g'oyaviy mazmunini, obrazlar tizimini va badiiy xususiyatlarini chuqur o'rganish lozim.

She'riy asarlarni ifodali o'qishning o'ziga xos xususiyatlari o'qiladigan asarning janri, ritmi, qofiyalanish tartibi va yand qurilishiga bog'liq.

Biz quyida barmoq va aruz she'riy tizimga mansub asarlarni o'qish haqida qisqacha fikr yuritib, misollar keltiramiz.

### Barmoq tizimidagi she'rlarni o'qish

Barmoq tizimidagi she'rlar aruz tizimidagi she'rlardan tuz'ilishi va o'qilishi jihatidan farq qiladi.

Barmoq tizimidagi she'rlar cho'ziq va qisqa bo'g'in larga ajratilmaydi, balki hijolar miqdoriga asoslanadi. Unda misralardagi hijo (bo'g'in) larning soni bir xilda, tekis takrorlanishi natijasida muayyan ritm hosil bo'ladi.

Qiziq, har yil yanvarda  
Men tug'ilgan bir kun bor.  
Kelishadi mehmonlar,  
Yog'ib turganda ham qor.

(Zulfiya)

Bu she'rnning har bir misrasida hijolar soni yettidandir

Qi-ziq, har yil yan-var-da  
1 2 3 4 5 6 7  
Men tu-g'il-gan bir kun bor.  
1 2 3 4 5 6 7  
Ke-li-sha-di meh-mon-lar,  
1 2 3 4 5 6 7  
Yo-g'ib tur-gan-da ham qor.  
1 2 3 4 5 6 7

Barmoq tizimi turkiy xalqlar poeziyasining eng qadimgi turi bo'lib, xalq og'zaki ijodi ham shu she'riy tizim asosida yaratilgan.

Barmoq tizimi shunchalik uzoq tarixga ega bo'lishiga qaramay, hozirgacha eskirgan emas, balki hozir ham o'zbek poeziyasida yetakchi o'rinni egallab turibdi.

O'zbek poeziyasida barmoq tizimining to'rt hijoli vazndan tortib, o'n olti hijoli vazngacha bo'lган o'n uch turi mavjud. Misradagi hijolarning turlicha kelishi natijasida vaznning soni ham ko'payib boraveradi. Masalan, Mirmuhsinning she'ridan olingan parcha to'rt hijoda yozilgan:

Vatan ko'r kam, -4  
Bahor o'l kam. -4

(Mirmuhsin)

Quyidagi parcha esa besh hijoli vaznga misol bo'la oladi:

O'rtog'im Turg'un -5  
Men bilan yurgin. -5  
Bizning bog'chani -5  
Bir borib ko'rgin. -5

(Qudrat Hikmat)

Sobir Abdullaning "Qiz sevgisi" nomli she'ri o'n uch hijoda yozilgan:

Mening sevgim har xil gulga o'xshamas aslo, -13  
Hazon bo'lmas gullar kabi kuz bo'lган chog'da. -13

Meni sevgan yor bulbulga o'xshamas aslo, -13  
Bahor kelib, tashlab ketmas kuz bo'lgan chog'da. -13

Hozirgi o'zbek poeziyasidagi she'riy asarlarning ko'pi 7, 9 11, 12, 13 hijolidir. 4, 5, 6 hijoli she'rilar ko'proq bolalar poeziyasida uchraydi.

Yuqorida tilga olingen she'rilar vazni bir turkumga kiruvchi hijolar guruhidan tashkil topgan va shuning uchun ular sodda vaznga mansubdir.

O'zbek poeziyasida sodda vazn bilan birga qo'shma va erkin vaznlar ham mavjud.

Agar she'rning har bayti ikki turkumga kiruvchi bo'g'inlar sonidan tashkil topsa qo'shma vazn maydonga keladi. Masalan:

Mehnatda mehnatchilar, -7  
Ezildi bu tanlar. -6  
Bizlarda chin ozodlik -7  
Bo'larkin qachonlar? -6

(Hamza)

Gruzin shoiri Shota Rustavelining Maqsud Shayxzoda va Mirtemir tomonidan tarjima qilingan "Yo'lbars terisini yopingan pahlavon" nomli asari ham qo'shma vazn namunasidir.

**Topshiriq.** Shukur Sa'dullaning quyida berilgan she'rini avval ichingizda o'qing, so'ngra qaysi vaznda yozilganligini aniqlab, har bir satrni hijolarga bo'ling.

### Yomg'ir yog'aloq

Yomg'ir yog'aloq,	Suv serob ekan,
Yam-yashil o'tloq,	Ko'p paxta unar.
Endi ekinlar	Yomg'irdan foyda
Chiqarar quloq.	Maysaga, donga,
Tarnovdan oshib	Yurt serob bo'lar
Tushadi shoshib.	Oq bug'doy nonga.
So'ng jilg'alardan	Yomg'ir yog'aloq,
Oqadi toshib.	Tomchi yumaloq.
Ariqlar to'lar,	Yomg'ir tinganda,
Zo'r anhor bo'lar.	Chiqar kamalak.

**Uyga vazifa.** Abdulla Oripovning “Har nechuk” nomli asarini hijolarga ajratgan holda ko‘chiring. She’rning qaysi vaznda yozilganligini aniqlang.

Dunyoda har kimning bor o‘z matlabi,  
Tuya so‘rab bo‘lmas echkiboqardan.  
Pismiqdan faylasuf chiqmagan kabi,  
Xaqgo‘y ham chiqmaydi betgachopardan.  
Kimo‘zar o‘ynasang toshbaqa bilan,  
Bo‘yningga olursan unga tenglikni.  
Dunyoning ishlari shunaqa ekan,  
Har nechuk odat qil fe’li kenglikni.

Barmoq tizimidagi she’rlarni ifodali o‘qishda faqat hijolarning tartibigagina emas, balki turoqlarga ham katta ahamiyat berilmog‘i lozim. Chunki turoq she’rning musiqiyligini tartibga solib turuvchi asosiy vosita hisoblanadi. Boshqacharoq qilib aytganda, turoq she’rning ritmini va o‘ynoqiliginи tartibga solib turuvchi asosiy omillardan biridir.

Misollar:

Rahmat aka	Bog‘chadan qiz,
Muborakka	Yurib tez-tez,
Magazindan	Borsa uyg‘a,
Oldi birdan:	Tayyor unga
Qo‘zichoq,	Qo‘zichoq,
Qo‘g‘irchoq,	Qo‘g‘irchoq,
Qo‘ng‘iroq,	Qo‘ng‘iroq.

(Qudrat Hikmat)

Tog‘ ustida / ajoyib bog‘,  
Ko‘m-ko‘k maysa /xuddi gilam,  
Bolajonlar /o‘ynar quvnoq,  
Chodirlarda /do‘stilar bilan.

Baland osmon /beg‘ubor, sof,  
Oqar, qaynar /buloqdan suv  
Kumush tongni /qutlar oftob,  
Bizning Chimyon /lageri bu.

(Qudrat Hikmat)

## **Erkin tizimdagи she'rlarnи o'qish**

Erkin vaznda yaratilgan she'rlarning o'ziga xos xususiyatlaridan biri ritmik pauzaning mo'llligidir. Erkin vazndagi she'rlarda jumlalarning qisqa-qisqa bo'lishi uning jangovarlik ruhini oshiradi. Bunday asarlarda ohang, ritm, intonatsiya, urg'u kuchli bo'lganligi uchun ularni adabiy kechalarda o'qish, deklamasiya qilib aytish qulaydir.

Erkin VOHIDOV

### **Bong uring**

Bong uring,  
hammani  
uyg'oting.  
  
Bong uring,  
shaharu  
qishloqda.  
  
Hayajon  
ko'taring,  
to'p oting,  
  
O't ketdi,  
hammayoq  
yonmoqda.  
  
Ovozlar  
boricha  
baqiring,  
  
Odamlar!  
Yo hayot,  
Yo mamot!  
  
Sim qoqing!  
Nol birni  
chaqaring:  
  
Yong'in, deng  
kerak, deng,  
tez najot!  
  
Dod soling  
ne kechar  
holimiz

Alamdan  
jonimiz  
qiynoqda.

Olamda  
topilmas  
molimiz —

Vaqtimiz  
yonmoqda,  
yonmoqda.

O'rmonlar  
yonsa-ku  
chopamiz,

Tinmaymiz  
o'rtansa  
xirmonlar.

Chorani  
qayerdan  
topamiz

Fursatga  
o't ketsa  
insonlar!

Vaqt yonar,  
biz majlis  
qilamiz,

Tamaki  
tutunj  
dimoqda.

Shu tutun  
ichida,  
bilamiz,

Umriz  
yonmoqda,  
yonmoqda.

Bir yonda,  
biz topib  
ulgurmay

Ming-minglab  
savolga  
javoblar.

Hatto biz  
varaqlab ham  
ko'rmay,

Javonda  
yonmoqda  
kitoblar.

Kechagi  
ayshdan bosh  
zirillab,

O'rinda  
yotibmiz,  
bir yoqda

Stolning  
ustida  
gurillab,

Ijodu  
kashfiyat  
yonmoqda.

Raygazda  
eshikka  
bitilgan:

“Bir uchqun  
dahshatning  
sababi!”

Shu yerda  
portlashga  
yetilgan,

Yonmoqda  
insonning  
asabi,

Yomondir,  
bu olov  
dahshati,

U bizni  
daraxtdek  
yiqadir.

Nahotki  
odamzot  
fursati

Shunchalar,  
shunchalar  
beqadr?

Kechalar,  
ko‘chalar  
charog‘on,

Yozuvlar  
elektron  
chiroqda.

O‘t bilan  
o‘ynashmang,  
o‘t yomon,

Aslida  
bu dunyo  
yonmoqda.

Biz esa  
qilurmiz  
tomosha,

G‘ov qo‘ymay  
yong‘inning  
yo‘liga,

Kim berib  
qo‘yibdi  
beparvo

Gugurtni  
bolalar  
qo‘liga.

Bong uring,  
hammani  
chaqiring

Bong uring,  
shaharu  
qishloqda.

Ovozlar  
boricha  
baqiring,

O‘t ketdi,  
hammayoq  
yonmoqda.

Odamlar  
uyqudan  
uyg'oning,  
Shoshiling,  
qidiring  
tez najot.  
Jon kuysin,  
qalb yonsin  
siz yoning,  
To yonib  
ketmasin  
bu hayot.

### Nasriy asarlarni ifodali o'qish

Nasriy asarlarni ifodali o'qish ham katta mahorat talab qiladi. Chunki adabiy asarning badiiy xususiyatlari, unda oldinga surilgan fikrlar yozuvchi dunyoqarashi kabi muhim masalalarni aniqlashda ifodali o'qish muhim ahamiyatga ega.

Buning uchun o'qituvchi matnni tanlashda juda ehtiyyot bo'lmos'i lozim. Matn yuqori saviyaga, yuksak badiiy qimmatga ega bo'lgan, shu bilan bir qatorda, ta'lim-tarbiyaga oid bo'lmos'i kerak. Olingan parcha hajm jihatidan juda ham katta bo'lmasligi maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, matnda dialoglar kam bo'lishiga e'tibor berish kerak. Shundagina og'zaki nutqni o'stirish, badiiy asarning g'oyaviy mazmunini chuqur tushunish, obrazlar tizimini o'rghanish, umuman, yozuvchining hayotga bo'lgan munosabatini anglash kabi ifodali o'qish darslari oldiga qo'yiladigan qator talablarga javob berishi mumkin.

Nasriy asarlarni ifodali o'qishni hammaga yaqin va oson bo'lgan xalq og'zaki ijodiga mansub ertakdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

### Ertaklarni ifodali o'qish

Ertak xalq og'zaki ijodining eng qadimgi turlaridan biri hisoblanadi. Unda fantaziya va mubolag'a kuchli bo'lib, xalq hayoti, urf-odatlari, intilish va kurashlari, orzu-armonlari aks ettiriladi.

Shunisi xarakterliki, deyarli barcha ertaklar asosida ezgulik bilan yovuzlik o'rtasidagi keskin kurash turadi va, albatta, ezgulik tantanasi bilan yakunlanadi.

Ertaklarni ifodali o'qishdan oldin, o'zbek xalq ertaklarida turlituman shaklda ishlataladigan a'anaviy (traditsion) muqaddima namunalaridan misollar keltirilib, ularning bir-biridan farqi tushuntiriladi. Masalan, "Tulki bilan tovus" ertagini muqaddimasiga diqqat qiling. "Ertagi yo ertagi, echkilarning burtagi, qirg'ovul qizil ekan, quyrug'i uzun ekan, g'oz karnaychi, chumchuq chaqimchi ekan, to'rg'ay to'qimchi ekan, bo'ri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, ertagimning eri bor, yetti kunlik yeri bor, yetti kunlik yerida dumi kalta bo'ri bor..."

Ikkinci ertak muqaddimasi esa undan butunlay farq qiladi: "Bor ekanda, yo'q ekan, och ekanda to'q ekan..." Bu parcha xuddi muallif bayoni kabi vazmin o'qiladi.

E'tibor berilsa, ikkala ertakning muqaddimasi ham boshqacha-boshqacha o'qilishini sezish qiyin emas. Masalan, birinchi ertak muqaddimasi sajda yozilganligi uchun ifodali o'qiganda ritmga ham katta e'tibor beriladi: "Ertagi yo ertagi echkilarning burtagi"...

Ertaklarning bunday xilma-xil an'anaviy muqaddimalari talabalarga to'g'ri o'qib ko'rsatilsa, ularning butun fikri-xayoli jalb etiladi, asar mazmuniga bo'lgan qiziqliklari tutib turiladi. Masalan, "Uch og'a-ini botirlar" ertagini o'qilishiga e'tibor qiling.

"Bir bor ekan (qisqa pauza), bir yo'q ekan (qisqa pauza), qadim zamonda (pauza) bir kishi bo'lgan ekan (pauza). Uning uchta o'g'li bor ekan (qisqa pauza), uchovi ham o'qigan (qisqa pauza), oq qorani tanigan (qisqa pauza), yuzlari oyday (qisqa pauza), o'zлari toyday (qisqa pauza), yomon bilan yurmagan (qisqa pauza), yomon joyda turmagan ekan (pauza), to'ng'ichi — yigirma yoshda (pauza), o'rtanchasi — o'n sakkiz yoshda (qisqa pauza), kenjası — o'n olti yoshda ekan (pauza)".

To'ng'ichi, o'rtanchasi va kenjası kabi so'zlarni o'qiyotganda mantiqiy urg'u beriladi, bu so'zlardan so'ng tire bo'lganligi uchun qisqa bir pauza qilinadi.

"Otasi (qisqa pauza), bir kuni bularni o'z oldiga chiqarib (qisqa pauza), har birining peshonasidan silab (qisqa pauza), bunday debdi (pauza):

— O‘g‘illarim (qisqa pauza), men boy emasman (qisqa pauza), mendan qolgan narsalar(qisqa pauza), sizning turmushingiz uchun yetmaydi (qisqa pauza), endi mendan biror narsa umid qilib o‘tirmanglar (pauza). O‘lganimdan keyin baxtsiz bo‘lib qolmanglar (qisqa pauza), deb sizlarni o‘qitdim (qisqa pauza), boqdim-ko‘rdim (qisqa pauza), voyaga yetkazdim (qisqa pauza), quvvatli bo‘ldingiz (qisqa pauza), yarog‘ ushslashni o‘rgatdim (qisqa pauza), yarog‘ ishlatalishga usta bo‘ldingizlar (qisqa pauza), qo‘rquitmay o‘stirdim (qisqa pauza), botir bo‘ldingizlar (pauza). Yana uch narsani aytaman (qisqa pauza), quloqlaringizga olib (qisqa pauza), eslaringizdan chiqarmanglar (pauza): to‘g‘ri bo‘ling — (pauza), bexavotir bo‘lasiz (pauza). Maqtanchoq bo‘lmang — (pauza) uyatga qolmaysiz (pauza). Dangasa bo‘lmang — (pauza) baxtsiz bo‘lmaysiz (pauza). Bundan boshqasini endi o‘zingiz biling (pauza). Qoratoyni (qisqa pauza), saman toyni (qisqa pauza), ko‘k toyni asboblari bilan tayyorlab qo‘ydim (pauza). Xurjunlaringizni bir haftalik ovqat bilan to‘lg‘azdim (pauza). Baxtingiz yo‘lda (qisqa pauza), uni topib olmoq uchun safarga chiqingiz (qisqa pauza), dunyonи tanimay (qisqa pauza), dunyo kishisi bo‘lmaysiz (pauza). Baxt qushini ushshamoq uchun (qisqa pauza) baxt oviga chiqinglar (pauza). Xayr endi (qisqa pauza), o‘g‘illarim, — deb so‘zini tamom qilibdi (pauza)”.

Bu matnda mehribon otaning — qariyaning sevimli farzandlariga qilayotgan nasihatni sezilib turishi kerak. Ota so‘zidagi yarog‘ ushslashni o‘rgatdim, qo‘rquitmay o‘stirdim, to‘g‘ri bo‘ling, maqtanchoq bo‘lmang, qora toyni, saman toyni, ko‘k toyni kabi so‘zlar xuddi yuqorida ko‘rsatilgandek, alohida ta‘kidlab, urg‘u berib o‘qilsa, g‘oyaviy mazmunining tinglovchi qalbiga borib yetishi osonlashadi.

### Hikoyalarni ifodali o‘qish

Hikoya epik turning kichik janri bo‘lib, kishi hayotidagi ma’lum bir voqeani tasvirlaydi, ammo shu voqeaga qadar bo‘lgan va undan keyin ro‘y beradigan voqealarni batatsil bayon etmaydi. Shunisi xarakterlikni, hikoyada qahramon hayotidan kichik bir epizodi olinib, unda hayotning muhim, tipik ko‘rinishi ixcham shaklda tasvirlanadi.

O'quvchi hikoyani ifodali o'qishda bu janrning ana shu jihatlarini e'tiborga olishi, matndagi muallif nutqi, tabiat tasviri, dialoglar hamda qahramonning ichki kechinmalarini puxta o'rGANishi lozim. Masalan, quyidagi Abdulla Qahhorning "O'g'ri" hikoyasining o'qilishini ko'rib chiqaylik. Bu hikoyada bir-biriga qarama-qarshi ikki sinf vakillari ishtirok etgan. Ularning ma'naviy qiyofasi ham, ijtimoiy kelib chiqishlari ham tamoman bir-biriga qarshidir. Asarda Qobil bobo obrazi xonavayron bo'lgan dehqonlarning yorqin timsoli bo'lsa, amin, pristav va ellikboshilar hukmron sinfning tipik vakillari sifatida tasvirlanadi. Shuning uchun o'qish jarayonida Qobil boboning nihoyatda soddaligi, amaldorlardan madad kutishi, ularga ishonchi, xo'ranganligi, amaldorlarning esa poraxo'rligi, ikki yuzlamachiligi, fuqaroni mensimasligi ravshan sezilib turishi kerak. Shundagina tinglovchida Qobil boboga nisbatan achinish, mehr-muhabbat, amaldorlarga cheksiz nafrat tuyg'ulari uyg'onadi. Hikoyaning boshlanish qismi muallif tavsiyi bo'lganligi uchun pauzalarga bo'lib quyidagicha o'qilishi mumkin:

"Kampir tong qorong'usida hamir qilgani turib (qisqa pauza), ho'kizidan xabar oldi (pauza). O (pauza)!.. Ho'kiz yo'q (qisqa pauza), og'il ko'cha tomondan teshilgan (pauza)... Dehqonning uyi kuysa kuysin (qisqa pauza), ho'kizi yo'qolmasin (pauza). Bir qop somon (qisqa pauza), o'n-o'n beshta xoda (qisqa pauza), bir arava qamish (pauza), uy (pauza). Ho'kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvgaga tashlab qo'yish kerak bo'ladi (pauza).

Odamlar dod ovoziga o'rGANIB qolgan (pauza): birovni eri uradi (qisqa pauza), birovning uyi xatga tushadi (pauza)... Ammo kampirning dodiga odam tez to'plandi (pauza). Qobil bobo yalang bosh (qisqa pauza), yalang oyoq (qisqa pauza), yaktakchan og'il eshigi yonida turib, dag'-dag' titraydi (qisqa pauza), tizzalari bukilib-bukilib ketadi (qisqa pauza), ko'zlar javdiraydi (qisqa pauza), hammaga qaraydi (qisqa pauza), ammo hech kimni ko'rmaydi (pauza). Xotinlar o'g'rini qarg'aydi (qisqa pauza), it huradi (qisqa pauza), tovuqlar qaqlaydi (pauza). Kimdir shunday kichkina teshikdan ho'kiz sig'ishiga ishonmasligi to'g'risida kishilarga gap ma'qullaydi (pauza).

Qobil boboning qo'shnisi (pauza),— burunsiz ellikboshi kirdi (pauza), U og'ilga kirib teshikni (qisqa pauza), ho'kiz bog'langan

ustunni (qisqa pauza) diqqat bilan ko'zdan kechiradi (qisqa pauza); negadir ustunni qimirlatib ham ko'rdi (qisqa pauza), so'ngra Qobil boboni chaqirdi va past tovush bilan dedi (qisqa pauza):

— Ho'kizing hech qayoqqa ketmaydi (qisqa pauza), topiladi!"

**Uyga vazifa.** Abdulla Qahhorning "Adabiyot muallimi" nomli hikoyasini yuqoridagi kabi pauzalarga bo'lib o'qib keling.

### Adabiyot muallimi

Abdulla QAHHOR

O'zining aytishiga ko'ra, "nafis adabiyot muallimi" o'rtoq Boqijon Boqoyev og'ilga kirib ta'bi xira bo'ldi: sigirning qulog'iga yana kana tushibdi! Kanadan ham ko'ra sigir uning achchig'ini keltirdi: kanani teray desa qo'ymaydi — boshini silkaydi, pishqiradi.

— Hayvon! Sigir emas, hayvon! — dedi og'ilning eshigini qattiq yopib, — hayvon!

Xotini Mukarram hovlida samovarga suv quyar edi.

— Hayvon! — dedi Boqoyev. — Bu sigirni sotib puliga cho'chqa olish kerak!

— Shaharda cho'chqa asrash mumkin emas, — dedi Mukarram samovarga ko'mir solayotib.

— Nima uchun? Taqiq qilinganmi. Kim aytdi? Men aytib edimmi? To'g'ri mumkin emas... albatta, mumkin emas...

— Uyga kiring, Hamida keldi.

Hamida o'n olti yoshlardagi tiyrak, quvnoq qiz, pochchasini ko'rib sevinib ketdi.

— Siz uuda ekansiz, bilsam daftaramni olib kelar ekanman... esizgina..

O'rtoq Boqijon Boqoyevning ta'bi ochildi — sigir, uning qulog'idagi ko'm ko'k kana, g'o'qillab tumshug'i bilan ariq yoqalarini buzib yurgan cho'chqa ko'z oldidan ketdi.

— Texnikumdan rafbakka o'tibsang deb eshitdim, rostmi? — dedi.

— Himm... yaxshi qilibsan. Rafbakka o't, deb men aytib edim shekilli? Himm... Auff, zarda bo'libman. Rafbak yaxshi, men bir borgan edim. Konselariyaning eshigiga praktikum deb yozib qo'yipti. To'g'ri emas. Praktikum, minimum, maksimum bular hammasi lotincha yoki lotinchaga yaqin so'zlar. Men shaxsan shunday deb bilaman.

Bir oz jim qolishdi.

— Boqijon aka, — dedi qiz uyalibroq, — bir narsani sizdan so'ramoqchi edim: biz sinfda Chexovning "Uyqu istagi"ni o'qidik, go'dakni o'ladirgan qizni sud qilmoqchimiz. Da'vogar go'dakning onasi Rahima bo'ladi, qoralovchi Sharifjon. Sudyalar ham bo'ladi, Men qizni oqlab butun gunohini uning xo'jayiniga yosh qizni bu qadar berahm ekspluatatsiya qilgan kishiga qo'ymoqchiman. Mana shu ... Shuni yozdim. Shu to'g'rida sizning fikringizni bilmoqchiman. Chexov shunday demoqchi emasmi?

O'rtoq Baqoyev o'ylab turib, so'radi:

— Nafis adabiyot darsini sizlarga kim beradi? Hakimov? Ahmoq odam! O'z ustida ishlamaydi. Savol alomati hamma vaqt "mi" dan keyin qo'yiladi desam, kuladi. Gap bunda ham emas...

Mukarram samovar ko'tarib kirdi. Hamida irg'ib turib, samovarni opasining qo'lidan oldi va stolga qo'ydi. U, homilador xotinga samovar ko'tartirib, qarab o'tirgan pochchasidan o'pkalamoqchi edi, biroq uyaldi, indamadi. O'rtoq Boqijon Baqoyev juda chanqab turgan ekan, ustma-ust to'rt piyola choy ichdi va terladi.

—Chuchvaradan keyin choy juda yaxshi ketadi-da, — dedi terini artib. — Himm... soqol ham o'sipti, sartarosh bo'lmasa odamlar maymun bo'lib ketar edi. Maymun, juni to'kilib, odam bo'lgan. Bu haqda Engelsning fikri bor.

—Haligi aytmadingiz, Boqijon aka, — dedi qiz, — Chexov shunday demoqchi emasmi?

O'rtoq Baqoyev yana bir piyoja choy so'radi.

— Chexovmi? Himm... burjuaziya realizmi to'g'risida so'zlaganda eng avval uning obyektiga diqqat qilish kerak. Burjuaziya realistlari tushungan, ular aks ettirgan obyektiv voqelikni anglash lozim bo'ladi.

Turgan gapki, Chexovning ijodi boshdan-oyoq, butun mohiyati bilan ilk burjuaziya realizmi, ya'ni... himm... Mukarram, tovuqqa moyak qo'ydingmi? Qo'yish kerak, bo'lmasa daydi bo'lib ketadi... Tavba, tovuqdan ahmoq jonvor yo'q — moyak qo'ysang tug'adi! Nima uchun moyak qo'ysang tug'adi? Xo'roz nima uchun saharda qichqiradi? Ajoyib psixologiya? Biologiya o'qiysizlarmi?

Hamida biologiyadan nimalar o'qiganini, bu o'qish yilida yana nimalar o'tilajagini so'zlab berdi va o'zining oqlash nutqida

fiziologik assoslар ham ko'rsatish niyati bor ekanini aytib, yana so'zni Chexov ustiga burdi.

— Himm... — dedi Baqoyev. — Chexov to'g'risida o'zimning fikrim bor. Boshqalar nima desa desin, har holda uning dunyoga qarashida... Uning dunyoga qarashi Pushkin va Lermontovlarning dunyoga qarashidan farq qiladi. Bir davr, bir sinf, bir mamlakat yozuvchilari bo'lishlariga qaramasdan mutlaqo farq qiladi!

— Chexov Pushkin bilan bir davrda yashagan emas-ku, — dedi Hamida. — Bizning kutubxonada uning Maksim Gorkiy bilan oldirgan surati bor. Chexov 1904-yilda o'lgan bo'lsa kerak.

O'rtoq Baqoyev bir oz o'ng'aysizlandi.

— Sizlar qaysi Chexov to'g'risida gapirayotibsizlar? Choydan quy! Bu Chexov haqidami? To'g'ri, bu 1904-yilning birinchi yarmidami, ikkinchi yarmidami o'lgan... Boshqa ro'molcha ber, bundan piyoz hidi kelyapti. Men ana u Chexov, ilk burjuaziya realizmining namoyandasini bo'lgan Chexov haqida so'zlayotibman.

— “Uyqu istagi” qaysi Chexovniki? — dedi Hamida.

— Hech shubhasiz, bu Chexovniki. Bu narsa birinchi marta “Sovremennik” jurnalida bosilgan.

Shundan keyin o'rtoq Boqijon Baqoyev uzundan-uzoq so'zlab ketdi. Uning nima to'g'rida so'zlayotganini Hamida bilmas edi. Detirding degan allaqanday mashhur tanqidchi Shelling degan yozuvchiga “sen dastyorga zor bo'lguncha o'g'ling dastyor bo'ladi” deb xat yozgan; Marks Dobrolubovni Mering bilan bir qatorda qo'ygan; Stending degan allaqanday bir dramaturg o'lar chog'ida Demping degan bir tanqidchiga: “Agar butun jonivorlarni xudo yaratgan bo'lsa, men uning zavqiga qoyil emasman, echkiemar ham jonivor bo'ldimi?» degan... Hamidaning boshi og'irlashib ketdi; ikki marta sekin og'zini ochmasdan esnadi.

Hamida mezbonlar bilan xayrlashib ko'chaga chiqqanda qorong'i tushgan edi: “Uyqu istagi” to'g'risida pochchasidan hech qanday fikr ololmadi. Uning so'zlaridan nima olgani haqida o'ziga hisob berar ekan, g'uvillab turgan boshida shundan boshqa hech narsa yo'q edi; praktikum, minimum, maksimum, Detirding, Stending, Shelling, Mering, Demping...”

## **Qissalarni ifodali o‘qish**

Qissalarda bir emas, bir necha personajlar qatnashadi va ular bosh qahramon atrofida guruhlashadi.

Qissalarni ifodali o‘qishga kirishishdan avval ularning janr xususiyatlari e’tibor berish zarur. Chunki qissalarning barchasini bir xilda o‘qib bo‘lmaydi. Masalan, avtobiografik qissalarda hayot osuda, osoyishta tasvir etiladi. M. Gorkiy, Sobit Muqonov, Sadriddin Ayniy, Oybek va Abdulla Qahhorlarning avtobiografik qissalari fikrimizning yorqin dalilidir. Bunday asarlar asar mazmunidan kelib chiqqan holda osoyishta shoshilmay o‘qiladi.

### **Masalan:**

Bolalikda ko‘rganlarim, eshitganlarim hammasi esimda. Ayrim hodisalar, xotiralar hozir ham quyoshdan bir tomchi kabi yalt etib ketadi xayolimda.

Umuman aytganda, bizning bolalik hayotimiz bo‘s, bema’ni, zeriktirgich, qayg‘u-alamga to‘la bir hayot bo‘lgan.

Ro‘za oylari men sahar turishni yaxshi ko‘rar edim, ammo ro‘za tutishga sira toqatim yo‘q edi. Ertasi tushda, ko‘pincha ertalabroq ro‘zamni ochib yuborardim. Qornim darrov ochib ketardi. Buvimning jahli chiqar, “Ochofat, ro‘zaning uvoliga qolding!” deb vaysar edi. “Jilla bo‘limganda ro‘zaning boshida, o‘rtasida, oxirida uch kundan tut. Qanoat lozim, qanoat qorin to‘ydiradi” derdi buvim xunob bo‘lib.

— Hali kichkinaman, Alloh taolo kichkinalarning og‘zi tinmasin, degan. Sizdaqa qariganimda tutarman ro‘zangizni, — deb buvimning jig‘iga tegardim.

Onamning ishi bo‘lmas va “Toliqib qolasan, o‘g‘lim, ro‘za, bizlarga farz, sabog‘ingni o‘yla! der edi, xolos.

...Ro‘za oqshomlari Shayxontohurda odam qalin. Bunday kechalar bozorshab deyiladi. Xuftondan keyin bir to‘da bolalar Shayxontohurga yuguramiz.

Shayxontohurda chiroqlar ko‘p, yaqinda elektr paydo bo‘lgan. Choyxonalar toza, ozoda, har kuni To‘ychi hofiz bir to‘da musiqachilar bilan ashula aytadi, hamma jim, sel bo‘lib eshitadi. Oshpazlar kabobu manti, palovu sho‘rva pishirishadi, ularning bozori chaqqon!

Bir chekkada bolalar, yigitchalar ot o'ynaydi, garmon bilan aylanadi. Bu yerda ham tiquilinch, kissasida yarim tangasi bo'lgan har kimsa aravaga tushib, maza qilishi mumkin. Ammo bizdaqa bechoralar ko'zimizni lo'q qilib tomosha qilamiz, xolos.

Kino ham bor, taxta devor bilan o'ralgan. Turli oldi-qochdi kartinalar ko'rsatilib turadi. Bolalar juda ko'p, bozorshabning har burchida tentirab yurishadi. Daraxt tepalariga qo'nib, tomosha qiladilar. Polisiyalar, mirshablar bilsa jazosini beradi, qo'ymaydi.

Har xil suratlar – oq poshsho, uning oilasi, to'ra va ministlari, Anvar poshsho, Istanbul ko'rinishlari, halifa va hokazolarni durbinda ko'rsatadigan olifta kiyingan, mo'ylovlari o'siq, kelishgan bir kishi baqirib tushuntiradi. Bu yerda uch-to'rt kishi sig'adigan kursi qo'yilgan va atrofi parda bilan o'ralgan. U kishi vaysab bo'lgandan keyin, odamlar duv etib chiqib ketadi. U choygami-nongami ketganda bizlar astagina durbinka yopishamiz. Agarda egasi kelib qolsa, bizni oldiga solib quvlaydi.

Baqqollar kichkina-kichkina do'konchalarida yarim kechaga qadar savdo qiladilar. Pashmak, turli-tuman, xilma-xil holvalar, pista-bodom, achchiq-chuchuk mag'izlar, novvot-parvardalar, oqnon, xo'rozqandlar serob. Emasak ham tomosha qilishni yaxshi ko'ramiz.

Shunday qilib bozorshabning bironta burchagini qoldirmasdan tomosha qilib kelsak ham charchashni bilmaymiz. Sahar bo'ldi deguncha madrasa tomiga nog'ora tomoshasiga yuguramiz, Semiz, baqaloq kishi katta nog'aralarni olov yoqib qizitib o'tiradi. "Jon, amaki, men qizitay, men olovga o'tin qalab yuboray", deb yalinamiz hammamiz. Yuzi jiddiy ifodali go'shtdor kishi: "Bo'ldi, bo'ldi, tur qoch!" deb koyiydi. Soat o'n ikki bo'lishini sabrsizlik bilan kutamiz. Naq o'n ikki bo'lganda olovda qizib turgan nog'aralarning taka-tum-baka-bangi boshlanib ketadi. Unga surnaychi jo'r bo'ladi. Bizlar jim qotib tinglaymiz. Nog'ora bazm uzoqlarga ketadi. Nog'ora chalinishi saharning belgisi. Yosh-qari hammasi saharlikka turadi. Oshmi, sho'rvami, shovlami kambag'al bechoralar quruq non-choy totinib, ro'za tutadi. "Qanoat qorin to'ydiradi" deydi bobom, u bu so'zni juda yaxshi ko'rardi.

Nog'ora-surnayni bir oz eshitgandan keyin, bu yerdan ham jo'nab qolamiz. Buvam bilan onam har kuni meni urishib qarshi olishadi.

(Oybek)

Abdulla Qahhorning “Sinchalak”, Asqad Muxtorning “Qoraqalpoq qissasi”. Pirimkul Qodirovning “Erk”, “Qadrim”, mashhur qirg‘iz yozuvchisi Chingiz Aytmatovning “Jamila”, “Sarviqomat dilbarim”, “Alvido, Gulsari”, “Oq kema” singari sof badiiy qissalari o‘tkir dramatizm, keskin konflikt zaminiga qurilgan va bu, mazkur asarlarni ifodali o‘qishda ham o‘z aksini topishi kerak.

### Romanlarni ifodali o‘qish

Roman epik turga mansub bo‘lib, insonning jamiyat bilan aloqasini har tomonlama keng rejada tasvirlashi, hayotning ko‘lamdor manzarasini chizishi bilan ajralib turadi.

Romanning qissa va hikoyadan farqi shundaki, unda turmushining yirik muammolari qalamga olinadi, ko‘plab personajlar ishtirok etadi. Roman janridagi asarlarni ifodali o‘qishning o‘ziga xos qiyinchiliklari ham shunda. Negaki, o‘sha personajlarning har birining tabiatini, madaniy saviyasini, yurish-turishi va hatto muammolarini, kishilar bilan o‘zaro munosabatini, dangasa yoki chaqqonligini, qo‘yingki, jamiyat hayotidagi ishtirokini tushunib yetmasdan turib ifodali o‘qib bo‘lmaydi.

Ma’lumki, roman, o‘z navbatida, tanlangan mavzi va tasviriy ifoda uslubiga ko‘ra, yana bir necha turga bo‘linadi. Masalan, “O‘tgan kunlar”, “Qutlug‘ qon” – tarixiy roman: “Quyosh qoraymas!” – harbiy roman; “Bo‘rondan kuchli” – zamonaviy roman; “Sariq devni minib” – sarguzasht roman; “Davr mening taqdirimda” – ijtimoiy-falsafiy roman; “Anna Karenina” – oilaviy-maishiy roman; “Sarob” – ijtimoiy-ruhiy roman va boshqalar. Ularning barchasi bir xil o‘qilsa, ko‘zlangan maqsadga hech qachon erishib bo‘lmaydi. Bunday o‘qish kishini charchatadi, asarga nisbatan qiziqish yo‘qoladi. Tinglovchi ham, o‘quvchi ham undan estetik zavq olmaydi.

Romanning ichki turlari aniqlab olingandan so‘ng, unda qatnashayotgan obrazlarning nutqi, xatti-harakati, so‘zlash uslubini ham ko‘z oldiga keltira bilish zarur. So‘ngra romandan olingan parchani bir necha marotaba o‘qib chiqsa, tinish belgilari, urg‘u, pauza va boshqa zaruriy narsalar aniqlab chiqilsa, maqsad yanada ravshanlashadi. Bu vazifalar bajarib bo‘lingandan keyin ifodali o‘qishga kirishsa bo‘ladi. Matn o‘qituvchi tamonidan tanlanadi.

Prozaik asarlarni ifodali o'qishda tinish belgilariga alohida e'tibor berish kerak. Pauza talab qilinadigan o'rinnlar hisobga olinishi va unga amal qilinishi zarur. Chunki, ko'p hollarda talabalar tinish belgilariga e'tibor bermay o'qiydilar. Shuning uchun ham amaliy mashg'ulotlarda o'qituvchi bunday hollarning takrorlanmasligiga e'tibor berib, kuzatib turishi lozim.

### Dramatik asarlarni ifodali o'qish

Dramatik asarlarni ifodali o'qishga kirishishdan avval, drama haqida qisqacha umumiy ma'lumot berish lozim.

Dramatik asarda epik va lirik asarlardagi kabi muallifning batafsil bayoni va hikoyasi bo'lmaydi, drama kishini faqat harakatda ifodalaydi. V.G. Belinskiy aytganidek, dramatizm faqat so'zlashuvdangina emas, balki bir-biri bilan so'zlashayotganlarning jonli harakatidan iboratdir.

Drama badiiy adabiyotning asosiy turlaridan bo'lib, monolog va dialoglar asosida quriladi. Shuning uchun ham u roman, qissa, hikoya va she'riy asarlardan tubdan farq qiladi.

Dramatik asarda muallif qahramonlarning turli kayfiyatini, holatini va hatto ichki hissiyotini ham ularning nutqi va xatti-harakati orqali bayon etadi. Binobarin, dramaturg o'z qahramonlari hayoti haqida hikoya qilmay, balki ularning o'zlarini harakatda ko'rsatadi. Maksim Gorkiy dramatik asarlarning o'ziga xos xususiyatlarini ta'kidlab, mazkur tur adabiyotning eng qiyin shakli ekanini, unda har bir shaxs muallifning izohisiz, o'z so'zi va ismi bilan harakatlanishini uqtiradi. Dramada barcha harakatlar qahramonlarning xususiyatlarini ochishning asosiy vositalaridir.

Dramatik asar qahramonlarining nutqi epik asar qahramonlarining nutqiga nisbatan dinamik hisoblanadi. Dramatik asarlarda nutqning aniqligi, uslubi, temp va ritm, pauzalar katta ahamiyatga ega.

Dramatik asarlarni qo'lga olish bilan darhol muallif izohiga ko'z tushadi. Bu izoh adabiyotshunoslikda remarka deb ataladi. Dramatik asarlarda beriladigan bu izohlar asarni sahnaga qo'yuvchi rejissyorga va ayniqsa, uni ifodali o'qimoqchi bo'lgan kitobxonga qaratilgandir. Binobarin, remarkada asar ishtirokchilarining tashqi qiyofasi, yoshi, xulqi, xatti-harakatlari, qiliqlari, sahna manzarasi

va boshqalar yoritiladi. Demak, muallif tomonidan bayon etilgan remarka asarni yaxshi tushunish, rollarga bo‘lib ifodali o‘qish uchun juda zarur. Masalan, Hamza Hakimzoda Niyoziyning “Boy ila xizmatchi” dramasiga yozilgan remarkani ko‘raylik.

### Ishtirok etuvchilar

G‘ofur – boyning xizmatkori, 30 yoshlarda.

Jamila – G‘ofirning xotini, 16 yoshda.

Solihboy – 50–60 yoshlarda.

Xolmat – boyning xizmatkori, 30–35 yoshlarda,

Hoji ona – boyning onasi,

Poshsho oyim, Xonzodaxon, Gulbahor – Boyning xotinlari

Qodirqul – mingboshi

Rahima xola – Jamilaning onasi.

Oyxon – Gulbahorning onasi

Hasan – ellikboshi.

Sifat buvi.

Imom.

To‘ra.

Pristav.

Qozi va boshqalar.

### Birinchi parda

Solihboyning ichkari hovlisi. Ro‘parada eshiklariga o‘ymakorlik bilan gullar chekilgan, bir-biriga yamashtirib solingen uchta naqshli dang‘illama uy. Bu uylarning oldida yozda ochilib, qishda yopiladigan naqshinkor, oynaband ravonlar. Ravonga asl turkman gilamlari, baxmal ko‘rpalar, ipak poyondozlar to‘shalgan. Shipga chinni qalpoqli zo‘r qandil osilgan. Hovlining sahniga xilma-xil gullar ekilgan. O‘ng yoki chap tomonda katta ko‘cha darvozasi.

Muallif tomonidan bayon etilgan bu remarkani ham ifodali o‘qish kerak. Remarkaning birinchi qismida asarda ishtirok etuvchi personajlarning nomlari, yoshi, kasbi va hatto jinslari ham bayon etilgan. Bu matnni ifodali o‘qiganda personajlarning nomlarini aniq-ravshan talaffuz etib, so‘ng bir oz pauza qilinadi va tiredan so‘nggi bayon o‘qiladi.

Remarkaning ikkinchi ifodali o'qishga kirishishdan avval, talabalarga monolog va dialog haqida qisqa ma'lumot berib, ularning ifodali o'qilishini ko'rsatish zarur.

Jumladan, monolog grek tilidan olingan bo'lib, asar qahramonining suhbatdoshiga yoki o'ziga qarata aytilgan nutqidir.

Monolog parda yoki ko'rinishlarning boshida kelsa, voqeа о'rn bilan birga, asarda ishtirok etayotgan personajlardan birining sahnada paydo bo'lishiga zamin hozirlaydi va u bilan tanishadiradi. Bulardan tashqari, monolog asar qahramonining fikr va kechinmalarini ifodalaydi. Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Boyila xizmatchi" dramasidagi bosh qahramonlardan biri Jamila monologi buning yorqin misolidar.

"Qush edim, qanotimni qayirdilar, gul edim, bulbulimdan ayirdilar. Sibir... Sibir... Qanday qo'rqinchli... U qanaqa joy bo'lsa ekan? Borsammikan? He, men nima deyapman? Qayerga ham bora olaman! Meni bu temir qafasga soldilar, ixtiyorimni qo'limdan oldilar. Aylanamda qancha poyloqchi, qancha qorovullar bor. (Kulib) Men endi boy xotiniman, ha, ha, ha. Boy xotin! G'oferjon menga nomahram! O'h-ho', qancha yig'ladim, yig'layversang ko'zingning yoshi tugab qolar ekan, ko'nikib ham qolar ekansan kishi. Mana endi yig'lamayman ham. Ko'zimga qatra yosh ham kelmaydi. O'limga ham tik qarab turaveraman. Ne qilay? Yashash uchun kurashdim, olishdim, boshimga tuproq solib faryod ko'tardim, foydasi tegmadi, ko'z yoshlаримning ariqda oqqan suvchalik qadru qimmati bo'lmadi. Birov, nimaga yig'laysan, deb so'ramadi. Ha, menday baxti qaroning kimga keragi bor? Xonzoda bo'lsa xuddi qarg'aday go'shtimni poylab, tepamda uchadi, He, shu ekan-da!"

Albatta, bu monogni ifodali o'qishdan avval, monolog kim tomonidan, qay vaqtida, qanday holatda aytilganini tasavvur qilish lozim. Matnni ifodali o'qiyotgan vaqtida Jamilaning ana shu vaziyatdagi holatiga yaqin hollarda bo'lishga intilish kerak.

Dialoglarni ifodali o'qishga tayyorlash ham xuddi shu tartibda olib boriladi.

Dialog grek tilidan olingan bo'lib, ikki kishi orasidagi so'zlashuv degan ma'noni anglatadi. Dramatik asarlardagi qahramonlar dialogi personajlarning asl maqsadlari, niyatları, intilishlarini, histuyg'ularini, fikr va tushunchalarini, ruhiy kechinmalarini va

ularning bir-birlari bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlarini ochib berishga, asardagi voqealarning rivojlanib borishiga yordam beradi. Bunday xususiyatlar, ayniqsa, iste’dodli artistlar tomonidan sahnada o‘ynalganda yanada yorqinroq namoyon bo‘ladi. Ammo, o‘qituvchi talabalarni dialog bilan tanishtirganda uni faqat ifodali o‘qish orqali tanishtiradi. Masalan, Abdulla Qahhorning “Ayajonlarim” pesasidagi kolxozi raisi Jamol ota bilan Karimjonning onasi o‘rtasidagi kichik bir to‘qnashuvdan hang-mang bo‘lib qolgan ikki yosh: Karimjon bilan uning sevgilisi Umidalar o‘rtasidagi kichik bir konflikt juda ustalik bilan berilgan:

B o‘ s t o n. Sen bilgan qonunni men bilaman! Haqqing yo‘q!  
Yo‘q haqqing!

J a m o l. Hoy, Bo‘stonbuvi, senga nima bo‘ldi, men sen bilan talashayotganim yo‘q!

B o‘ s t o n. Dod-Bedod! Voydod, hukumatga arzim bor! Hukumatginaga arzim bor! Sen shoshmay tur, men sen bilan ijroqo‘mda gaplashaman! (Yugurib hovliga kirib keladi).

U m i d a. Bu qanaqa xotin?

K a r i m j o n. (hayron). Ayam!. . . Ayam!. . .

U m i d a. Nima gap o‘zi?

K a r i m j o n. Hozir ma’lum bo‘ladi . . .

B o‘ s t o n.(medal taqib kiradi). Hozir men seni ijroqo‘mga olib bormasam(tashqariga)!... To‘tiniso! Hoy, quda!

U m i d a. Voy, ayangiz “quda” deyaptilarmi?

K a r i m j o n. Yo‘g‘-e! Qanaqa quda . . .

B o‘ s t o n. Quda deyman!

U m i d a. Voy, ana!

K a r i m j o n. Shoshmay turing-chi!. . .

B o‘ s t o n. Quda!

T o‘ t i n i s o (hovlisidan chiqadi). Ha, ha (yoqasiga tuflaydi). Nima gap o‘zi, Bo‘stonbuvi?

B o‘ s t o n. Mening hovlimga belanchak osar emish!. . . Hovlimni yasli qilar emish! Xayrixon qani, meni beto‘xtov ijroqo‘mga olib borsin!

T o‘ t i n i s o. Xayri ishda-ku! (Chiqadi).

U m i d a. Xayrixon kim?

K a r i m j o n. Shu xotinning qizi ... qo‘shni ...

U m i d a. Shunaqami! (Burilib jo‘nab qoladi).

K a r i m j o n . Shoshmang, gapga qulq soling? (Ketidan yuguradi).

J a m o l . Menga qara, hamma qarorlar chiqqan, qo'llar qo'yilgan bo'lsa... Nima qilasan ijroqo'mgani? (To'tinisoga qarab). Baribir buziladigan hovli, salqingga to'rtta belanchak osaylik desam ko'rmaysizmi, "ota go'ri" qilib o'tiribdi! (Bo'stonga). Ishning dolzarb vaqtı kolxozda ishlaganiningga yarasha bolalarga qarab tursang bo'lmaydimi, imonsiz!

B o' s t o n . Nima, kolxozda ishlaganimda yolchitganmiding? (O'pkasi to'lib). Sen o'lgur, o'shanda menga orden o'rniga medal yozmasang, ordenlik bo'lar edim.

J a m o l . O'shanda achchiq qilib kolxozdan ketib qolmaganingda orden olar eding! Hozir senga medal ham hayf! Bo'ldi, men sen bilan gaplashmayman, hademay Karimjon kelib qoladi (ketadi).

B o' s t o n . (ketidan). Hovli mening nomimda-yu, Karimjonni nega o'rtaga solasan (hovliga kiradi).

S o b i r j o n . (ko'chadan) Bo'stonbuvi Ermatova! Ermatova!

B o' s t o n . (tovushi) Ermatova yo'q! Ko'chib ketgan! Ermatova o'lgan!

S o b i r j o n . O'lgan? Xudo rahmat qilsin (foticha o'qiydi). Sal sabr qilganlarida pensiyalarini olib ketar edilar (kiradi).

B o' s t o n . Senmiding... Voy, girgiton!

S o b i r j o n . (qo'rqib ketadi). Qo'l qo'ying!

B o' s t o n . Jonim bilan!

S o b i r j o n . Xat ham bor...

B o' s t o n . Voy, bugun nechanchi? Shanba—uch, yakshanba—to'rt, dushanba... Voy, bugun oltinchi-ku! Quda, hoy quda, Karimjon kelyapti! Hozir kelib qoladi!

T o' t i n i s o . (kiradi). Voy, rostdanmi!

B o' s t o n . Shu xatni uch-to'rt kun oldinroq yubormaysanmi, jon bolam! Hozirgi yoshlarning ishi hamisha shunaqa, uchma-uch! Endi nima qilamiz! Hovlini yig'ishtiraylik.

### *Ikkovi hovliga chiqadi*

U m i d a . (uyning ichidan chamadonini olib, jo'nab qoladi) Xayr! Alvido!...

K a r i m j o n . Shoshmang!... (Ushlaydi). Nima gap o'zi?

U m i d a . Nima gapligini Xayrixoningizdn so'rang?

K a r i m j o n. Umidaxon, sizga nima bo'ldi, nega mening Xayrixonim bo'ladi, qo'shnini qizi-ya!

U m i d a. Sizlarning qishloqlaringizda qo'shnini quda deyishadimi? (kuyinib yig'laydi). Ayangizga ma'lum qilmaganligingizni vaji bor ekan-da! Meni bu yerga kalaka qilgani olib keldingizmi?

K a r i m j o n. Xayrixon... Yo'q, Umidaxon, sanamay sakkiz demang... Xayolimda yo'q gaplar! Sabr qiling! Bu gapning tagiga yetaylik, zig'irday rost joyi bo'lsa yuzimga bir tarsaki uringu, ketavering! Jon, Xayrixon.. Yo'q, yo'q, Umidaxon!

U m i d a. Xayrixoningiz bilan qo'shaqaring! (Qo'lidan chiqib qochadi)

K a r i m j o n. (*ketidan chopadi*) Umidaxon! Umidaxon!

Epik asarlardagi dialoglar ko'proq kishilar o'rtasidagi suhbatga o'xshasa, dramatik asarlardagi dialoglar ko'proq to'qnashuvlar asosiga quriladi. Shuning uchun ham dramatik asarlarni ifodali o'qishda, mazmunini talabalarga yetkazishda undagi ma'lum harakat, turli-tuman munosabatlar va hatto personajlarning bir-birlari bilan so'zlashib, tortishib turgan vaqtarda qilinadigan pauza ham katta o'rinni tutadi.

Bulardan tashqari, qahramonlarning tabiati, ruhiy holatlari, ularning portreti, voqealarni ifodali o'qishda faqat yuqorida aytilganlarga suyanibgina qolmaslik kerak. Asardagi qahramonlarning ruhiy holatini tasavvur qila bilish, ularning holatiga kira bilish kerak. Masalan, Hamza Hakimzoda Niyoziyning "Boy ila xizmatchi" dramasidan olingan quyidagi parchani olib ko'raylik:

B o y. Maston! G'ofir akangni chaqir!

M a s t o n. Xo'p bo'ladi!

B o y. Sizlar ichkariga kiringlar!...

G' o f i r. (*kirib*) Chaqirdingizmi, boy ota?

B o y. Qani, G'ofir, kel o'g'lim, o'tir! Gapir-chi, qalliqdan vaqtin chog'mi?

G' o f i r. Chog' bo'lganda qanday! Endi o'la-o'lguncha qulgingizman-da, boy ota!

B o y. Ha, ha, h... Yaxshi gap... qiz ham tayyor turgan ekan-da, G'ofirvoy!

G' o f i r. Yoshligimizda haligiday...

B o y. Butun shaharda duv-duv gap! Nima deysan: "Solihboy xizmatkorini to'y-tomosha bilan uylantirib qo'yibdi. Boy bo'lsa shunaqangi kambag'alga qayishadigan olihimmat, saxiy boy bo'lsa ekan", degan gaplar.

G' o f i r. Hammadan ham o'zim singari yetimlarning sevinganini aytmaysizmi, boy ota!

B o y. Barakalla, o'g'lim! Kambag'alga men birni bersam, xudo menga o'nni beradi... Halol mehnat qilsang, hamisha baxting olchi-da! Hamisha peshanangni silayman! Xo'sh, endi o'g'lim, hisobli do'st ayrilmas, degan gap bor.

G' o f i r. Haq gap, boy ota!

B o y. To'y bahonasida mendan senga o'tib qolgan arzimagan narsalar bor, shularni pulga chaqib, orani ochiq qilib qo'ysak degan edim.

G' o f i r. Ma'qul gap, boy ota!

B o y. Mana, musoaidasi ham tayyor! Ikki yuz so'm naqd pul. Besh pud guruch, ikki chorak un, bitta bo'rdoqi qo'y! Ho'sh deganingizdan bilsak, haligi eng yaxshi qandak o'rikdan uch pud, kattaqo'rg'on mayizidan besh pud, mag'iz bilan o'rikni bir oz qurt egan bo'lsa ham, pok-pokiza urib ketishibdi, azamatlar! Imom, qozilarga kiydirilgan o'n beshta a'lo-ovsat choponlar. Xo'sh, Hoji onang ustiga o'z qo'ling bilan ipak mursak, to'y kuni ayalaring ham bittadan atlas kiydilar. Otalik qilganim uchun mana bu chakmonni menga o'zing kiydirding, to'g'rimi?

G' o f i r. To'g'ri, boy ota, to'g'ri!!

B o y. Mana shularning borki hammasi bo'lib bir ming yetti yuz bo'lar ekan.

G' o f i r. (*cho'chib*). Shuncha qarzim bor ekanmi? Men buni qanday uzaman, boy ota? Mening cho'timda hammasi bo'lib, besh yuz so'mdan oshmas edi-ku? Yoki adashdingizmi ekan-a, boy ota?

B o y. Bu qanday gap? Non tepkilik qilma? Shu soqolim bilan yolg‘on gapiramanmi? Yulsam senday gadodan yulamanmi? Senlarga yaxshilik qilganning o‘zi ahmoq! Ko‘rnamat, it fe’l!

G‘ o f i r. Tavba qildim, boy ota!

B o y. Bir ming yetti yuz so‘m ham pul bo‘ldimi? Uzarsan! Uzolmasang, yana besh o‘n yil ishlab berarsan! U emas, bu emas, xotinlik bo‘lib qolganingga shukur qilsangchi, bachchag‘ar!

G‘ o f i r. Qulluq, boy ota, qulluq!

B o y. Ha, gap mana bunday bo‘pti-da, o‘g‘lim! Qani barmog‘ingni bos, kel qo‘y, mahkamada to‘g‘rilab olarmiz! Boraver! (*G‘ofir turadi*) Darvoqe, G‘ofir kelinga ayt, xizmat-pizmat qilib tursin. Sen o‘g‘limsan, xotining kelnim, aytganday, unga ko‘rmana ham berish kerak (pul berib) Ma, ro‘mol olib ber!

G‘ o f i r. Qulluq, boy ota, qulluq! (*O‘z uyi tomon ketadi*).

**Mashq.** Uyg‘un va Izzat Sultonning “Alisher Navoiy” dramasidan olingan quyidagi parchani o‘qing, so‘ngra, uni rollarga bo‘lib, o‘qishga tayyorlaning.

## ALISHER NAVOIY

Tong payti. Navoiy shiyponda o‘tirib, she‘r yozish bilan mashg‘ul.

N a v o i y. (*o‘qiydi*)

E, nasmiy subh, ahvolim diloromimga ayt!

Zulfi sunbul, yuzi gul, sarvi gulandonimga ayt!

Kom talxu, boda zahru, ashk gulgun bo‘lg‘onin ...

G u l i. (*paydo bo‘ladi. Navoiyni tinglaydi. So‘ng ilova qiladi*)

La‘li rangin, labzi shirin, sho‘x xud komimga ayt.

N a v o i y. Ko‘zimning nuri kel, toza gulim kel!

Ko‘ngil bog‘ida sayroq bulbulim kel!

G u l i. Ko‘rib gulzor ichida sizni yolg‘iz

So‘roq, indamay, men behayo qiz.

Kechirgaysiz, kelishga jur‘at etdim.

N a v o i y. Ko‘ngil armoni kel! Maqsadga yetdim.

Nechuk bezovtasan! Barvaq turibsan?

Malak yanglig‘ o‘zing tanho yuribsan?

G u l i. Sahar chog‘i turib, shirin g‘azaldin

Eshitmak odatim bo‘lgan azaldin.

- N a v o i y.** Qulqoq soldingmi?
- G u l i.** Yolg‘iz men emas, gul,  
Samo, yer, koinot, aftoda bulbul –  
G‘azaldin bu kabi zavq olmagan kim?  
G‘azalkim, so‘zlagay mehru vafodin.  
G‘azaldin bu kabi zavq olmagan kim?
- N a v o i y.** Ko‘ngil ilhomchisi sensan, azizim.  
Bularning barchasi senga otolg‘on.
- G u l i.** Xudo bilsin, so‘zingiz, balki yolg‘on.
- N a v o i y.** Nechuk? Xo‘sh!
- G u l i.** So‘nggi chog‘da kamnamosiz.  
G‘arib, bechora men – yer, siz – samosiz.
- N a v o i y.** Yoningda bo‘lmoq orzum ertayu-kech,  
Faqat, naylay, ilojin topmadim hech.  
Ariq qazimoqdamiz, cho‘llarda ish ko‘p,  
Rabotu, madrasa, yo‘llarda ish ko‘p.  
Yumush der, yerdagi har zarra tuproq,  
Yumush der, bog‘dagi har toza yaproq.
- G u l i.** Kimki bo‘lsa inson, bo‘lsa odam  
Xaloyiqning g‘amin eydur damodam.
- N a v o i y.** Vafodorim, shuning-chun kamnamoman,  
Olur vaqtimni bu ishlar tamoman.
- G u l i.** Alisher! Chindanam shersiz buyuk sher!  
Ulug‘ ishlarni qilmoq istagan er  
Bo‘lur sherdai jasur qaytmas izidin,  
Qilich kelganda ham qaytmas so‘zidin,  
Faqat ko‘pdur, esiz ko‘p dushmaningiz.
- N a v o i y.** Yengur zulmatni nur, albatta, shaksiz.
- G u l i.** Biroq, hozircha zulmatning kuchi ko‘p,  
Haqiqat nurini so‘ndirguchi ko‘p  
Kecha ko‘rgan edim, men bir yomon tush  
U tushni eslasam boshdin uchar xush...
- N a v o i y.** Nechuk tush?
- G u l i.** So‘ramangiz
- N a v o i y.** So‘zla, azizam!
- G u l i.** Tilim bormaydi hech, qalbim to‘la g‘am...  
Yotibsiz yerda siz, qo‘l-bo‘yin bog‘liq.  
Va sizni qurshamish bir to‘p pichoqlik.

Yozib, men sochlarimni yig‘lar erdim,  
Jafo tig‘ida bag‘rim tig‘lar erdim  
Cho‘chib uyg‘ondimu, bildim banogoh  
Tush ekan. Shul mahaldin nolayu oh  
Ezar bag‘rimni qattiq, o‘rtanur dil,  
Misoli o‘tka tushgan bir uzun qil...

Navoiy Gulining so‘zlaridan qattiq ta’sirlanadi. Ammo ta’sirlanganini yashirishga tirishib, Gulini ovuta boshlaydi.

**N a v o i y.** Gulim, behudaga bezovta bo‘lma,  
O‘zingni qiynama, g‘amlarga to‘lma.  
Dadil bo‘lsang vahmning rangi so‘lg‘ay,  
Ishon, odatda tushning aksi bo‘lg‘ay.  
Meni shersiz deding, yovlar quyondir,  
Quyonlarning ishi sena ayondur.

**G u l i.** Durust, shersiz... faqat... zanjiri band sher...

**N a v o i y.** (*g‘oyat ta ‘sirlanib og ‘ir*).  
Ajab, zanjiri band sher, engaman, der

**G u l i.** Esiz, men sizni ranjitedim...

**N a v o i y.** (*o‘zining yangi devonini Guliga taqdim etadi*)

**G u l i.** (*devonni olib*)

Jonim bilan.

**N a v o i y.** Yangi bitilgan  
Sening ishqing bilan  
O‘sib yetilgan.

Umuman ifodali o‘qish talabalarni estetik jihatdan tarbiyalashning muhim vositalaridan biri bo‘lib, aql-idrokni charxlaydi, zavq va nazokat uyg‘otadi hamda to‘g‘ri fikrlash va ravon gapirish mahoratini o‘stiradi.

### **Ommaviy chiqishlarga tayyorgarlik ko‘rish**

Notiq tinglovchilar bilan muloqotga kirishganda oldin auditorianing holatini hisobga olishi shart. Avvolo, auditorianing toza va ozodaligi, stol va stullarning tartibli joylashtirilganligi, barcha tinglovchilarning o‘zlari uchun qulay o‘rnashib o‘tirganligi, birlariga xalaqit bermasligi, nutqni erkin eshitish imkoniyati borligini kuzatish shart. Notiqning o‘zi ham toza va ozoda kiyungan

bo'lishi, o'zining tashqi ko'rinishiga jiddiy e'tibor bermog'i lozim. Ya'ni soch-soqoli tartibga keltirilgan, kiyim boshlari o'ziga yarashgan holatda bo'lishi kerak. Agar biz bularni notiq va auditoriyaning tashqi shakliy ko'rinishi deb olsak va ularning bir-biriga mosligini ta'minlasak, muloqotni yoki nutqimizni boshlavversak bo'ladi.

Notiq o'z nutqini boshlash uchun minbarni egallashi va auditoriyaga savol nazari bilan qarab salomlashishi hamda mavzuni e'lon qilib tinglovchilar diqqatini o'ziga jalb etmog'i lozim. Agar texnik vositalardan foydalanish lozim bo'lsa, uni boshqarishni bilishi yoki biladigan odamni tayinlab qo'yishi shart.

Agar auditoriyada g'ala-g'ovur bosilmasa, nutqini boshlamay turishi, biroz chetga burilib birdan auditoriyaga (tinglovchilarga) tik boqishi (bunday holatda g'ala-g'ovur birdan tinadi) va nutqini barchaning e'tiborini tortadigan gap va jumlalar bilan boshlamog'i kerak. Notiq endi auditoriyaning hokimi. Hammaning e'tibori unga qaratilgan. Endi buyog'i notiqning o'ziga bog'liq. Agar gapirayotganida tinglovchilar uchun ular eshitmagan, yangi fikrlarni aniq va lo'nda, qisqa va tushunarli etib yetkazib bersa tinglovchilar miq etmay eshitishadi. Bordi-yu, shu qoidalarni buzib qo'ysa, yana auditoriyani tartibga chaqirishga to'g'ri keladi. Gapirganda bosiqlik bilan, hovliqib qolmasdan vazminlik orqali shirali ovoz va shirin muomala bilan, ortiqcha xatti-harakatlar qilmasdan o'z fikrlarini ritorik savol va unga aniq javoblar asosida nutqni davom ettira olsa, o'zi bilan tinglovchilar o'rtasidagi muloqotning shartlariga amal qilgan bo'ladi. Yo'l-yo'lakay (nutqi davomida) audotoriyaga savollar berib va tinglovchilarning o'tirgan joyida bergen qisqa savollariga aniq va qisqa javoblarni berib borsa muloqot yanada jonli va muvaffaqiyatli chiqadi. Bu o'rinda notiqning xalq orasidagi obro'-e'tibori ham muhim rol o'ynaydi. Eng muhimi, notiqdagi aql-zakovat va so'zamollik muloqotning asosiy shartlaridan sanaladi. Nutq davomidagi kerakli pand-nasihat ham bugungi kunlardagi yoki shu holatdagi vaziyat bilan bog'lab olib borilsa juda o'rinli hisoblanadi.

Endi notiq bilan auditoriya o'rtasidagi muloqotga ta'sir ko'rsatadigan salbiy holatlarga kelsak, ular yuqoridagi ijobjiy holatlarning teskarisi. Auditoriya pala-partish, tinglovchilar o'rnashish holatida tartibsizliklar bo'lsa, notiq nutqida chaynalishlar

sodir bo'lsa, ortiqcha kirish (anaqa, xo'sh-xo'sh, aytaylik kabi) so'zlar ko'p ishlatsa, berilgan saollarga aniq va qisqa javob berilmasa, notiq va tinglovchi o'rtasidagi muloqot zil ketadi.

Ko'ryapsizmi, hamma narsa kelib notiqning aql-farosatiga, bilimi va ziyrakligiga, vaqtidan unumli foydalanishiga va auditoriyani nutqidagi aqlli so'zлari va yangi fikrlari bilan ushlab turishiga bog'liq.

### Ommaviy nutq mas'uliyati

Notiqlik san'ati — ijtimoiy hodisa. Ayniqsa, ommabop nutqda notiqning nutqi va uslubi muhim ahamiyatga ega. Ommabop nutq hamma uchun, uning tinglovchilari oddiy dehqondan tortib, injenergacha, pedagogdan tortib tibbiyot xodimigacha, boringki, jamiyatimizda taraqqiyot uchun xizmat qilayotgan ommaga mo'ljallanadi. Ya'ni badiiy asar o'z bahosini faqat adabiy tanqidchidangina emas, ommadan kutgani kabi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, teleko'rsatuvlardagi nutq ko'pchilik e'tiborini tortadigan (televiddeniedagi hamma ko'rsatuvlarni ommabop deyish qiyin), sodda uslubdagagi yoshu-qari tushunadigan va uni eshitib fikrlaydigan aniq, ravon va xalq tilidagi va dilidagi nutq bo'lishi kerak.

Ommabop nutqda haqqoniylit, mantiqiy mutanosiblik, uslubiy sayqaldorlik, badiiy jozibadorlik, ma'nан yetuklik va lo'ndalik kabi sifatlar o'z aksini topmog'i lozim.

Buning ustiga talaffuzning tiniqligi ifodali so'z tanlash, har bir so'zga ohangdan libos kiydirishi muhim.

Gapning grammatik qurilishi til qonun qoidasiga asoslanmog'i shart. Nutq davomida keltirilishi lozim bo'lgan she'riy parchalar nutqdagi fikrlarni qo'llab-quvvatlashga va mustahkamlashga xizmat qildirilishi tinglovchilar diqqatini oshiradi.

Ommabop nutq og'zaki matnga qaralmasdan (matn bo'lsada) o'qilishi, iloji bo'lsa mikrofonsiz so'zlanishi tinglovchi omma e'tiborini yanada o'ziga jalb etadi. Bunday nutqda ilmiy jumlalar (agar ishlatsa, iloji boricha ishlatilmagan ma'qul), chet tillaridan olingan (oke, koroche, shes sekund, stavka, shapka, shef kabi) so'zlar me'yorini saqlash ham notiqqa mas'uliyat yuklaydi. Demak, notiq har bir so'zning sodda shaklini tanlamog'i, sheva va jargon so'zlardan foydalanishning afzal tomonlari va meyyorini bilishi kerak.

Notiq o‘z ma’ruzasida tinglovchilar hushyorligini oshinuvchi turli savollar qo‘yishi va uni lo‘nda qilib esda qoladigan sodda usul bilan tushuntirmog‘i muhim ahamiyat kasb etadi.

Notiq ommabop nutqda til imkoniyatlaridan samarali foydalanishni bilishi uning o‘ziga xos uslubidagi mahoratidan darak beradi. Ko‘p ma’noli va ma’nodosh so‘zlardan foydalanganda, uni shevadagi variantlariga qiyoslash ham samarali foyda beradi. Ayniqsa, notiq mavzuni o‘z so‘zлari bilan (kitobiy emas) so‘zlash mahoratini egallagan bo‘lishi kerak. Ommabop nutqqa xos yana bir muhim jihat nutq jarayonida hayotiy misollardan foydalanishdir, bunda ma’ruza o‘qilayotgan joyning, hududning o‘zidan kelib chiqadigan hayotiy misollardan foydalansa ayni muddao bo‘ladi. Demak notiq uchun mas’uliyat og‘ir. U Andijonda ma’ruza o‘qiydimi, Qarshi yoki Buxoro, Xorazmda o‘qiydimi, o‘sha hududning tashqi va ichki faktik materiallarini aniq bilmog‘i, agar bilmasa, o‘sha “materiallarni” o‘qib, eshitib o‘rganmog‘i darkor. Shuningdek, shu hudud bilan bog‘liq rivoyat va afsonalardan o‘rnida foydalanish nutqning yanada jozibali bo‘lishini ta’minlab tinglovchilarning e’tiborini oshiradi. Ayniqsa, nutqda milliylik va mahalliy xususiyat saqlanishi muhimdir.

## VI bo‘lim. LUG‘AT USTIDA ISHLASH

### Lug‘atlardan foydalanish va ularni tuzish malakalarini shakllantirish

Madomiki, o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish ona tili mashg‘ulotlarining asosiy vazifalaridan biri ekan, ularni turli lug‘atlar bilan tanishtirish, bu lug‘atlardan foydalanish malakalarini shakllantirish hamda shaxsiy lug‘atlar tuzish malakalarini takomillashtirish o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi. Lug‘at o‘quvchining imlo savodxonligini oshirish, so‘z boyligini kengaytirish va boyitishning muhim manbai, asosiy maslahatchisidir.

Lug‘atlarga qiziqish – ehtiyoj mahsuli. Chunki ehtiyoj sezilmasa, o‘quvchi lug‘atga murojaat qilmaydi. Ma’lum bir so‘zning imlosi, ma’nosи, ma’nodoshi, qarama-qarshi ma’nosи, uyadoshini bilish zaruriyati o‘quvchida lug‘atga ehtiyojni vujudga keltiradi. Shuning uchun o‘quvchilarni lug‘atlar bilan tanishtirishga alohida e’tibor berish zarur. Chunki lug‘at bilan tanish o‘quvchi nimani qayerdan izlash kerakligini yaxshi biladi.

Ma’lumki, keyingi yillarda o‘zbek lug‘atchiligi katta muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritdi. Ayniqsa, 2000–2006 yillarda chop etilgan 14 tomlik “O‘zbek milliy ensiklopediyasi”, “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” (Toshkent, “Faн” nashriyoti, 1976, maktab o‘quvchilari uchun 5-nashri, Toshkent, “O‘qituvchi”, 1987), “O‘zbek tili morfem lug‘ati” (A. G‘ulomov va boshqalar, Toshkent, “O‘qituvchi”, 1977), “O‘zbek tilining frazologik lug‘ati”, (Sh.Rahmatullayev, Toshkent, “Qomuslar Bosh tahririysi”, 1992), “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati” (A. Hojiyev, Toshkent, “O‘qituvchi”, 1974), “O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati” (Sh.Rahmatullayev, Toshkent, “O‘qituvchi”, 1984), “O‘zbek tili antonimlarining izohli lug‘ati” (E.Ma’rupov, Toshkent, “O‘qituvchi”, 1971), “Geografik nomlar lug‘ati” (S.Qorayev, Toshkent, “O‘zbekiston” 1978), shuningdek joy nomlari lug‘ati, turli sohaga oid atamalarining izohli lug‘atlari (masalan, paxtachilik atamalarining izohli lug‘ati, matematik

atamalarning izohli lug‘ati kabi)ning chop etilganligi o‘zbek lug‘atchiligining taraqqiyotidan dalolat beradi.

Ammo bu lug‘atlarning asosiy qismi akademik lug‘atlar bo‘lib, ulardan foydalanish o‘rta maktab o‘quvchilari uchun ancha qiyinchilik tug‘diradi. Shuning uchun bugungi kunda maktab o‘quvchilariga mo‘ljallangan va ular uchun ixtisoslashtirilgan “O‘zbek tilining qarama-qarshi ma’noli so‘zlar lug‘ati” kabilarning yaratilishi tobora ko‘proq hayotiy zaruriyatga aylanib qoldi. Keyinchalik bu lug‘atlar sirasi “O‘zbek tilining tovushdosh so‘zlar lug‘ati”, “O‘zbek tilining eskirgan so‘zlar lug‘ati”, “O‘zbek tili va adabiyoti: o‘rta maktab o‘quvchilari uchun qomus” va hokazolar bilan to‘ldirilishi kerak.

Lug‘atlardan tez va to‘g‘ri foydalanish uchun o‘quvchi zarur malakalarga ega bo‘lishi lozim. Bu malakalardan eng muhimini alifbo tartibini yaxshi bilishdir. Alifboni yoddan bilmagan o‘quvchi lug‘atdan zarur so‘zni tez topa olmaydi. Shuning uchun boshlang‘ich sinflardayoq o‘quvchilarning alifbo tartibini yaxshi bilishlariga erishish va izchil kursni o‘rganish jarayonida bu borada muntazam ish olib borishga to‘g‘ri keladi.

O‘quvchi qanday sharoitda qaysi lug‘atdan foydalanishi kerakligini ham bilishi kerak. Sinonimik qatorlar hosil qilish kerak bo‘lganda, u hech vaqt imlo lug‘atiga murojaat etmaydi, albatta. Ehtiyoj doirasida qaysi lug‘atga murojaat etish kerakligini bilgan bola esa, shubhasiz, har bir lug‘atdan samarali foydalana oladi.

Lug‘atlar turli-tuman bo‘lgani kabi ular bilan ishlash usullari ham xilma-xildir. Quyida ulardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida alohida-alohida to‘xtalishga harakat qilamiz.

“Imlo lug‘ati” bilan ishlash. “Imlo lug‘ati” nafaqat o‘quvchilarning imlo savodxonligini, balki so‘z boyligini oshirishda ham muhim qo‘llanmadir.

O‘zbek tilining barcha sathlarini o‘rganishda “Imlo lug‘ati” dan unumli foydalanish zarur. Masalan, fonetika, orfoepiya, grafika va orfoepiya” bo‘limini o‘rganishda *a*, *i*, *u*, *o*‘ harflari ishtiroy etgan so‘zlar topish: *u-o’*, *i-u*, *a-i* va hokazo juftlar bilan farqlanuvchi so‘zlar tanlash, birinchi bo‘g‘inda *u*, ikkinchi bo‘g‘inda *u* yoki *i* kelgan so‘z juftlari /urush-urish, tushum-tushim va hokazo ustida ishslash, *i,u* tovushlari /harflari/ning tushib qolishi, bu tovushlar tushib qolgan so‘zlar ro‘yxatini tuzish: *o-a* bilan

farqlanuvchi so‘z juftlari /ana-on, ata-ota va hokazo/ tanlash, *i-e/e/* bilan farqlanuvchi so‘z juftlari topish/ ish-esh, bil-bal, tish-tesh va hokazo/ kabi ishlarni bajarishda “Imlo lug‘ati” o‘ta zarurdir.

“Ot” so‘z turkumini o‘rganishda otlarning ma’no guruhlariga misollar tanlash, juft shaxs otlari, qo‘shib yoziladigan va ajratib yoziladigan qo‘shtmə otlar ro‘yxatini yozish “sifat+turdosh ot”, “Son+turdosh ot”, “ot+fe'l+-ar” qolipli hosilalar ustida ishslash kabi mustaqil ishlarni bajarishda “Imlo lug‘ati”ga murojaat etiladi.

Shunga erishish lozimki, “Imlo lug‘ati” o‘quvchilarning doimiy yo‘ldoshiga aylansin. Chunki bu lug‘atdan o‘quvchilar nafaqat ona tili mashg‘ulotlarida, balki boshqa o‘quv predmetlari darslarida ham, uy mashg‘ulotlarini bajarishda ham keng foydalanishlari zarur. Bu metodik va moddiy omillar bilan mustahkamlanishi shart. Imlo lug‘atlarining ko‘p miqdorda bosilishi va arzon narxlarda hamisha sotuvda bo‘lishi davlat moddiy va madaniy qudratidan dalolat berishini esdan chiqarmaslik lozim.

O‘quvchilarning “Imlo lug‘ati” ustida ishslash malakalarini shakllantirishda ta’limiy mantlardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, “Fonetika” bo‘limini o‘rganishda “Imlo lug‘atidan foydalanish tartibiga oid quyidagi matn tavsiya etiladi.

### Lug‘atlar — so‘zlar xazinası

Tilimizning so‘z boyligi lug‘atlarda yig‘ilgan bo‘ladi. Shuning uchun lug‘atlar tilimizning so‘zlar xazinasidir. Lug‘atlar xilma-xil bo‘lib, ularning har biri ma’lum bir maqsadni ko‘zlaydi.

Kichik lug‘atlar bir necha yuz yoki ming so‘zni, katta lug‘atlar esa yuz minglab, hatto millionlab so‘zлarni o‘z ichiga oladi. Lug‘atdan foydalanishni yaxshi bilgan kishi istagan so‘zni undan yarim daqiqada topishi kerak.

Tasavvur qilib ko‘ring. Yuz mingta so‘z ichidan istaganingizni yarim daqiqada topish. Buning uchun so‘zlar lug‘atlarda juda ham aniq va qulay usul bilan qat‘iy bir tartibda joylashtirilgan bo‘lishi kerak. Bu alifbo tartibidir. Dastlab birinchi harfga ko‘ra “A” bilan boshlanuvchi so‘zlar, “B” bilan boshlanuvchi so‘zlar “D” va hokazo harflar bilan boshlanuvchi so‘zlar o‘zbek alifbosini harflariga ko‘ra ajratiladi.

Lug‘at ham harflarga bo‘linadi: a, b, d, e, f, g... kabi. Lekin shunda ham har bir bobda bir necha ming so‘z to‘plangan bo‘ladi.

So'zlarni boblar ichida joylashtirishda yana alifbo tartibiga asoslaniladi. Lekin endi birinchi harfni emas /chunki bu harf lug'at bobini belgilaydi/ balki so'zning yozilishidagi ikkinchi, keyin uchinchi va h.k. harflar asosida joylashtirib borilaveradi. Chunonchi, lug'atda bibi so'zi bobo so'zidan oldin keladi. Chunki bibi so'zining ikkinchi harfi *i* o'zbek alifbosida 8-o'rinda turadi. Bobo so'zining ikkinchi harfi esa — *o*. Bu harf alifbomizda 15-o'rinni egallaydi /ya'ni *i* harfidan olti harf keyin/. Shuning uchun lug'atda bibi so'zi bobo so'zidan oldin keladi.

Buva so'zi bobo so'zidan oldin keladi. Chunki bu so'zdagi 4-harf — *a*, buvi so'zidagi 4-harf *i* dan oldin keladi. Mana shu qat'iy alifbo tartibida so'zlar lug'atda aniq o'ringa ega bo'ladi.

*Qomusiy va izohli lug'atlar bilan ishslash.* Qomus — ilm-fanning hamma sohalarini o'z ichiga olgan yoki biror soha bo'yicha keng, to'liq ma'lumot beradigan lug'at tarzidagi ilmiy to'plamdir. O'quvchi undan barcha jumboqlarga javob topadi: istagan bir tushuncha haqida keng va atroflicha ma'lumot oladi. Ayniqsa, qomus o'quvchilarining so'z hazinasini yangi tushunchalar bilan boyitishda, bu tushunchalarni ularning nutqiy faoliyatiga ko'chirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ona tili mashg'ulotlarida maktab o'quvchilarini uchun ixtisoslashtirilgan "U kim — bu nima?" (2 tomli) qomusdan unumli foydalansa bo'ladi. O'quvchilar ushbu qomusdan foydalanib, ma'lum bir sohaga taalluqli tushunchalar ro'yxatini tuzishlari, bu tushunchalarning ma'nosini aniqlashlari, tushuncha va so'z orasidagi farqni bilib olishlari mumkin.

Qomus va qomusiy lug'atlardan, asosan, ma'lum bir ilmiy atama, tarixiy voqeа-hodisa haqida bilim olish mumkinligini o'quvchilar tushunib etgan bo'lishlari kerak. Shuning uchun qomusiy lug'atlarga ular so'zning ma'nosini bilish uchun emas, balki so'z bildirib kelgan narsa, tushuncha, voqeа, hodisa haqida ma'lumot olish uchun murojaat qilishlarini tushuntirish lozim.

So'zlarning ma'nolari faqat izohli lug'atlarda sharhlanadi.

O'quvchilar izohli lug'atdan ma'nosi o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarning tavsifini topadilar: ko'p ma'noli so'zlarning ma'no turlari haqida ma'lumot oladilar. So'z ma'nosi tavsiflash jarayonida lug'atdan uning ma'nodoshlari, uyadoshlari haqida ma'lumot oladilar. Lug'atlardan foydalanishda o'quvchilar so'zlar alifbo

tartibida joylashishini, ma'nolari o'zaro bog'liq bo'lgan shakldosh so'zlar alohida-alohida uyalarda berilishini, otlar birlik sonning bosh kelishik shaklida /Ot, qalam va h.k./, sifatlar oddiy daraja shaklida /och, qizil, zangori, ko'k kabi/, fe'lllar —moq qo'shimchasi bilan /otmoq, ochmoq, to'kmoq, yashamoq, bermoq kabi/ berilishini bilishlari zarur.

Hozirgi kunda o'quvchilning izohli lug'atlardan foydalanish imkoniyati cheklangan. Chunki 2 tomli "O'zbek tilining izohli lug'ati"ni maktab kutubxonasidan topish qiyin. Shuning uchun o'quvchilarda badiiy va tarixiy asarlarni o'qiyotganda ularga ilova qilinadigan qisqacha izohli lug'atlardan foydalanish, o'zlarining shaxsiy izohli lug'atchalarini tuzish ko'nikmalarini hosil qildirish zarur. Metodist va lug'atchilarimiz zimmasiga esa maktab o'quvchilarini ular uchun mos "Izohli lug'at" bilan ta'minlash vazifasi turibdi.

### **Ma'nodosh (sinonim) so'zlar ustida ishlash**

Bunday lug'at o'quvchilarga izohli lug'atdan ko'ra ham zarurroq. Lekin bunday lug'atlar ustida ishlash izohli lug'at bilan ishlashdan ko'ra mushkulroq. Sababi juda oddiy: A.Hojievning 1974-yilda chop etilgan "O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati"ni maktab kutubxonalaridan topib bo'lmaydi.

Shuning uchun hozirgi kunda o'qituvchilarimiz o'quvchilarning shaxsiy "Ma'nodosh so'zlar lug'at"larini tuzish va uni to'ldirib borish ustida jiddiy ish olib borishlari zarur. Shu sababli bunday lug'atni tuzish ustida mufassalroq to'xtalamiz.

Ma'nodosh so'zlar — bu ma'nolari bir-biriga yaqin so'zlar sirasidir. Chunonchi, yuz — bet — aft — bashara — chehra — jamol — diyordi — oraz — uzor — ruxsor; yaxshi — durust — tuzuk — binoyi — xub — soz; odam — kishi — inson — odamzod — kimsa; shamol — shabada — el kabilar shunday so'zlar siralaridandir.

Ma'nodosh so'zlar qatorida bitta so'z, albatta, umumiy ma'noli, keng iste'molli so'z bo'ladi. Yuqoridagi siralarda yuz, yaxshi, odam, shamol shunday so'zlardir. Bunday so'zlar ma'nodosh so'zlar qatorining bosh, etakchi yoki asosiy so'zi deb ataladi. Ma'nodosh

so‘zlar qatoridagi boshqa so‘zlarning ma’nosisi bosh so‘z ma’nosiga nisbatan aniqlanadi. Chunonchi, bet — turq — bashara — yuz tushunchasini ijobjiy munosabat bilan ifodalaydi. Oraz — uzor — ruxsor so‘zlar esa ko‘tarinki, badiiy, she’riy uslubga xos ijobjiy munosabatli so‘zlardir.

Ma’nodosh so‘zlar qatori lug‘at daftarchasida ma’nosisi qisqacha sharhlanishi lozim. Chunonchi, yuz so‘zining ma’nodoshlari uyasi taxminan quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi. Bu so‘zlar sirasi yu harfi bobida berilishi lozim. Chunki qatorning bosh so‘zi yuz yu harfi bilan boshlanadi: yuz — bet — aft — bashara — angor — turq — chehra — jamol — diydor — oraz — uzor, ruxsor, bu qatordan keyin ma’nodosh so‘zlarning umumiyligi ma’nosisi tavsiflanishi lozim. Ya’ni, yuz... — boshning old qismining umumiyligi ko‘rinishi. Bet — aft — bashara — angor — turq so‘zlarida salbiy munosabat bo‘yog‘i oshib boradi. Masalan, uning betiga qaragim kelmaydi. Mastning aftiga qarab bo‘lmash edi. Uning tirjaygan xunuk basharasi hali-hali ko‘z oldimda. Qayerlarda sanqib yuribsan? Aftu angoringga qarab bo‘lmaydi. Xasadgo‘yning turqi qursin. Chehra — jamol — diydor so‘zlarida ijobjiy munosabat darajalanadi. Masalan, uning quvnoq chehrasidan xursandligi balqib turardi. Do‘sht jamoli tunni ham yoritadi. Janobi oliylarining muborak diydorlarini ko‘rishga tuyassar etsangiz.

Ma’nodosh so‘zlar lug‘atining har bir uyasi taxminan mana shunday tuzilishga ega bo‘lishi kerak:

Ma’nodosh so‘zlar sirasini asta-sekin iboralar bilan boyitib borish yana ham maqsadga muvofiqdir. Chunki tom ma’nodagi so‘z san’ati va notiqlik kamoloti iboralarni to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llashda namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchilarimiz uchun o‘ta zarur lug‘atlardan yana biri “Uyadosh so‘zlar lug‘ati”dir. Bunday lug‘atlarni o‘quvchilar va o‘qituvchilar o‘zlarini tuzishlariga to‘g‘ri keladi.

Uyadosh so‘zlar deganda bir jinsdagi narsa, belgi, harakatning har xil ko‘rinishlarini atovchi so‘zlar qatori tushuniladi. O‘quvchilar qizil so‘zining qizg‘ish, qirmizi, och, qonrang; ko‘k so‘zining ko‘kish, ko‘kimir, yashil, moviy, havorang; yurmoq so‘zining qimirlamoq, emaklamoq, sudralamoq, chopmoq, yugurmoq, yelmoq, uchmoq, kulmoq so‘zining tabassum qilmoq, jimaymoq, kulumsiramoq, xohalamoq, qahqahlamoq, tirjaymoq, ishshaymoq

kabi uyadoshlarini topib, lug‘at daftarchalariga qayd etsalar va ulardan o‘z nutqlarida foydalansalar, lug‘at boyliklarini keskin oshirgan bo‘lar edilar. Tajribalar shuni ko‘rsatdiki, ma’lum meva, poliz ekinlari va o‘simlik turlari mahsulotlarini, kundalik hayotda keng qo‘llaniladigan uy-ro‘zg‘or buyumlari, ovqat turlari, kosiblik va hunarmandchilik mahsuloti turlarining nomlarini topish va tushuntirish bolalarda katta zavq uyg‘otadi. O‘tkazgan tajribalarimiz shuni ko‘rsatdiki, bolalar qovun, olma, uzum kabi mevalarning 10 tadan 20 tagacha turini, zirak, uzuk kabi taqinchoqlarning 6–10 turini, kapgirning 6–8 turini, qozonning 8–10 turini qiyalmay topishdi. Bu ishda ularga ota-bobolari, kosib, hunarmand va dehqonlar zo‘r maroq bilan yordam berishlari mumkin. Bunday mustaqil ishlarning muhim tomoni shundaki, u bolalarning o‘zida katta qiziqish uyg‘otadi. Ayrim o‘quvchilar so‘zlarni topish va tavsiflash bilan chegaralanib qolmay, hatto, rasmli albomlar tuzishga muvaffaq bo‘lishdi.

Ona tili mashg‘ulotlarida lug‘atlar bilan ishslash imkoniyatlari benihoya cheksizdir. Qanday bo‘lmashin, lug‘at bilan ishslash ona tili mashg‘ulotlarining tarkibiy qismiga aylanmog‘i shart. Lug‘atlar bo‘lmasa, biz o‘quvchilarni shunday lug‘atlarni tuzishga undashimiz, o‘rgatishimiz, qiziqtirishimiz zarur. Bu esa so‘z boyligini oshirishning asosiy omili sanaladi.

## VIII bo‘lim. MUSTAQIL ISHLAR.

### 1-bob. Yakka darslar

Yakka darslar, asosan har bir talaba uchun alohida tarzda uyushtiriladi. Ya’ni har bir talabaga yakka tartibda (individual) yondoshilib, undagi bilim va qobiliyatni yuzaga chiqarishga harakat qilinadi. Yakka dars mashg‘ulotlarini amalga oshirishda talaba o‘zidagi mavjud imkoniyatlarni ishga solishi lozim. Ya’ni, mazkur fan bo‘yicha olgan nazariy bilimlari hamda amaliy mashg‘ulot paytida orttirgan tajribalariga suyanmog‘i, ulardan omuxta tarzda foydalanmog‘i shart.

Jumladan, artikulatsiya va nafas mashqlarini bajarishda amaliy mashg‘ulotlar bo‘limida ko‘rsatib o‘tilgan “Nafas — nutq vositasi” mavzuida berilgan 4 ta mashqni bajarishi, so‘ngra yakka darslarda o‘zlarini sinab ko‘rishlari lozim bo‘ladi. To‘g‘ri nafas olish va nafas chiqarishni mukammal o‘zlashtirishgach, nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz qilish qoidalariga amal qilmog‘i, buning uchun esa nazariy va amaliy mashg‘ulotlarda ko‘rsatib o‘tilgan maslahatlarga tayanmog‘i lozim bo‘ladi. Unli va undosh tovushlar talaffuzidagi nozik nuqtalarni ilg‘ab olishi, sonlar, tovushlar ustida mashq qilishlari yakka darslar samaradorligini oshiradi.

Orfoepik mashqlarni bajarishda tez aytishlar va sajlarni yoddan aytish ko‘nikmasini o‘zlarida shakllantirmog‘i shart (tez aytish va sajlarni talaba o‘zi topib kelishi yoki o‘qituvchi yordamiga tayanmog‘i lozim).

Badiiy asarlarni o‘qishda oddiydan murakkablik tomon borilsa to‘g‘ri bo‘ladi. Talaba avval qisqa hikoyalar, so‘ngra yirik nasriy asarlarni, tarixiy, hajviy, humoristik va jiddiy asarlarni ifodali o‘qish mashqini o‘tashi kerak.

Talabaga lirik she’rlarni ifodali o‘qishni o‘rgatishda, dastlab kichik she’riy parchalar, so‘ngra mumtoz janrdagi murakkabroq she’riy asarlarni, katta hajmdagi doston yoki poemalarni ifodali o‘qish mashqi o‘rgatiladi. Bunday asarlarni talaba o‘zi topib kelishi yoki mazkur qo‘llanmaning “Amaliy mashg‘ulotlar” bo‘limidagi

matnlardan, misollardan foydalanishi yoxud o'qituvchi tavsiya etgan misollardan mashq qilishi lozim.

Talabani dramatik asarlarni ifodali o'qishga o'rgatishda avval dramalar, keyin komediya, so'ngra tragediya janridagi asarlarni rollarga bo'lib ifodali o'qish mashqi o'tiladi. Bu mashqni o'tashda ham kitobdag'i misollarga tayanish yoki talaba o'zi bilan olib kelgan materialdan foydalansa bo'ladi.

Gazeta materiallarini ifodali o'qish va uni sharhlashga o'tish qoidalariga kelsak, talaba o'zi olib kelgan kundalik gazeta materiallaridan foydalanib o'qishi va o'qigan mavzuini qisqacha sharhlab berishi kerak. Talabaning sharhlash jarayonida uning material mazmunini tinglovchiga qanday yetkaza olish qobiliyati kuzatiladi.

Shuningdek, turli gazeta va jurnallardan tanlab olingan parchalar ifodali o'qilishi va sharhlanishi lozim. Talaffuzi qiyin so'zlar uchrasa, ularni to'g'ri talaffuz qilishni mashq qilishi hamda lug'at yordamida ularning mazmunini to'liq anglab, tushunib olishi darkor bo'ladi.

Ommaviy chiqishlarga tayyorlarlik ko'rishda talaba mustaqil o'zi tayyorlab kelgan (mavzu tanlashda o'qituvchi ko'rsatmasiga amal qilinadi) matnni o'qituvchi bilan bamaslahat muhokama qilib, nuqsonlari bo'lsa tuzatiladi. Shundan keyin tinglovchilar e'tiboriga xavola etiladi.

## 2-bob. Mustaqil ish

Talabalar mustaqil ish jarayonida yakka darslarda o'zlarini tanlagan materiallardan foydalanishlari va yana o'zlarini xohlagan she'r va matnlarni topib yoxud o'qituvchi maslahati bilan material tanlashlari mumkin.

Bu borada unli va undosh tovushlarning, so'zlarining turli o'rnlarda qo'llanishiga va turli talaffuz qilinishiga o'zlarini misollar topib foydalanishlari lozim.

Tez aytishlar va sajlarni yodlashlari hamda ularni ifodali o'qishni mashq qilishlari shart. Badiiy asarlardan o'zlarini tanlagan parchalarni ifodali o'qishga tayyorlanishi (hikoya, qissa va romanlardan olingan misollarni) muhim.

Lirik she'rlarni ifodali o'qishda talaba o'zi yoqtirgan shoirlarning she'r, doston yoki mumtoz adabiyot namunalaridan o'zları tanlab mashq qilishlari mustaqil ish samaradorligini oshiradi.

Shuningdek, dramatik asarlar – komediya, tragediya yoki daramalardan talaba o'zi tanlagan parcha yoki ko'rinishlardan olingen misollarni ifodali, aktyorlarga xos mahorat bilan o'qishga intilsalar, mashq qilsalar, ayni muddaoga erishadilar.

Ilmiy asarlardan, gazeta, jurnal va boshqa manbalardan parchalar tanlab, ifodali o'qishni mashq qilish ham talabalar dunyoqarashini va aqlini charxlaydi.

Ommaviy chiqish turlari uchun o'qituvchi talabalarga mustaqil matnlar mavzusini tanlashda yordam berib, ularning yozgan ishlarini nazoratdan o'tkazib baholashi lozim.

Talabalar lug'at bilan ishlashda qo'llanmaning amaliy mashg'ulot qismida berilgan "Lug'at bilan ishslash" mavzusidagi ko'rsatmalarga amal qilishni unutmasliklari kerak.

### **3-bob. Talaba mustaqil ish ustida**

#### **Til va nutq**

##### **Topshiriqlar:**

1. Matnni o'qib chiqing, ajratib ko'rsatilgan so'zlarning lug'aviy ma'nolarini "O'zbek tilining izohli lug'ati" dan foydalanib aniqlang va ularni nutq parchasida anglatadigan ma'nolari bilan solishtiring.

2. Matnda so'z lug'aviy ma'nosining qaysi qirrasi (semasi) ishtirok etganini ko'rsating. Qolgan semalarni yuzaga chiqaruvchi matnlar tuzing.

##### **Adabiyotlar:**

1. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik. Toshkent, 1972-yil.

2. Begmatov E. Nutq madaniyati problemasining paydo bo'lishi va asoslanishi, "Nutq madaniyatiga oid masalalar" to'plami, Toshkent, 1973-yil.

3. Mirzayev M. Til va nutq madaniyati to'g'risida. "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" gazetasi, 1984-yil 10-aprel.

## **1-variant.**

Rostdan ham Usmonjon qish kuni tarnovda paydo sumalakdek qiyofasini tez-tez o'zgartirib turadigan, chap qo'lining kafti bilan kindigini bosib turib yo'taladigan g'alati odam edi. Bozorboy ichida qani ikki tulki bir ishlasin, deb kuldi.

Avvaliga Begijon Usmonjonning u yengidan kirib, bu yengidan chiqib yurdi. Sal kunda ikkalasi til topishib qolishdi. Begijon munaqa ishni orzu qilib yurgan ekan, omborni havas bilan tartibga soldi. Bor mollarni navlarga qaysi firmadan chiqqaniga qarab joylashtirdi. Biron narsa kerak bo'lganda qidirib yurmay, qo'l uzatganda darrov topiladigan qildi. Usmonjon bu ishidan xursand bo'ldi.

Buni qarangki, Usmonjonning dardi ichida ekan, o'ng biqinida naxotdek bir yaracha paydo bo'ldi-yu, kengayib danakdek bo'ldi. Shifoxonaga yotdi. Rak ekan, operatsiyadan keyin bandalikni bajo keltirb, bu dunyodan ko'z yumib ketdi. Uning o'limi ham Begijonga qo'l keldi.

Bu Begijon tushmagur balo chiqdi. Usmonjon o'n besh yil ishlab qilmagan ishlarni o'ynab-kulib qiladigan bo'ldi.

(Said Ahmaddan)

## **2-variant.**

— Direktor tushmagur qiziq ekan pashshadan fil yasadi-ya!

Uchiriqni anglab ori qo'zidi. Lekin har qancha buralib-to'lg'anmasin, depsinmasin, baribir, shiddat bilan miyasiga — aka, odamni juda yerga urdingiz-ku, unchalikka bormang-e, kerak bo'lsa, yer ostigayam tushishdan toymayman, degan qabilidagi muddaosini tiliga ko'chira olmadi, qurib ketsin, bu bir illatda!

Qandini ursin Naim Badriyevich, gapni ayni o'mnida o'rinaltdi, shamasi soz bo'ldi, ayniqsa avvalgi joyiga tushdi. Chindan ham Latifboyimiz basavlat, iligi to'q yigitlardan, uni tengqurlari ichida osongina ajrim qilasiz: bo'yи uzun, tik, rang-ro'yi toza, qarashlari shahd burgutni cho'chitadi. Tovba, shunday yigitni lab-dahanidan qisgan-a!

Mana hozir ham ichidagisini shartta aytolmadi. Nima, Naim Badriyevich siltab tashladilarmi? Yo'q, aksincha, agar u dangallik qilganda edi, ehtimol, Naim Badriyevich ham o'zini taroziga solmas, haligidaqa shubhalariga izn bermas edi.

Endi bu yog‘i jiddiylashdi: Latifboy qovun tushirdi.

Doim shunaqa, yo‘q yerdan g‘alva orttiradi, mabodo qattiq-qattiq piching eshitsa, biror zug‘um o‘tsa, huda-behuda ichiga solaveradi. Shu odatini qishloq yigitlari ham avvaldan bilishadi. Ba‘zan uni kurakda turmaydigan hazil-huzulga ko‘mib tashlaydi.

Latifboy umrida bir martagina sobit turgan...

Bari yodida, o‘sha kez Asal atrofida aylanisha boshlaganini sezgan yigitlar mutoyibalarini tikanga, pichinglarini naqd to‘qmoqqa aylantirishdi: dovuldek qo‘zg‘alon tahdidiga tez-tez keldi. yolhizligi bilinib qoldi. Agar sobiq sinfdoshi Mamarayim qayishmasa, Sayfi montyorning tish qayratgan to‘dasiga qalqon qilmasa, holi yomon kechardi.

(Asad Dilmuroddan)

### 3-variant.

Aliqissa, topshiriqni ado etish navbati qiyomatli do‘st tutingan bir-biridan ko‘rkam, bir-biridan odobli, bir-birini yerusi ko‘kka ishonmaydigan yigitlarga kelibdi. Ular kerak bo‘lsa bir-birlariga jonlarini sadaqa qilgudek mard ekanlar. Oxiri Oqsoqol omonatni ularga topshirib oq yo‘l tilab qolibdi.

Yigitlar yo‘lboshchilikni galma-gal zimmalariga olib yo‘lga tushibdilar. Omonatni goh u, goh bu qo‘riqlab, manzil sari boraveribdilar. Shu tariqa yetti sahro-yu yetti daryoni, yetti vohayu yetti vodiyni, yetti tog‘u yetti toshni oshib o‘tib, yettinchi iqlimga ozib-to‘zib, yo‘llarda yana chayr tortib, oftobu shamollarda qorayib pishib, hech kim yeta olmagan yerga yetganlaridan ruhan bardam tortib kirib boribdilar-u, omonatni aytilgan cho‘qqiga olib chiqib, ochib qo‘yibdilar.

Qarangki, unga oftob nuri tushib, tilla yurakdayin lovullab yonib ketibdi. U qo‘shyurak yombi ekan...

Do‘stlar lov-lov yonayotgan yuraklarga hayratlanib, yana ham bardam tortib tikilisharkan, uning sirtidagi bir yozuvga ko‘zlar tushibdi.

“Bu yombi – yombi emas, sizning yuraklaringizdir”, deb yozib qo‘yilgan emish...

(M.Mansurovdan)

#### **4-variant.**

Qurban osmonga tikilaverib charchadi-da, boshini burib uyoq-buyoqqa qaradi, qo‘rg‘on tomonga nazar tashladi. Ie, bu qanaqa mo‘jiza? Tushimi yo o‘ngi? Axir bugun ertalab Qurban ustaxonaga kelgan paytda tepa usti tap-taqir bo‘lib, huvillab yotgan edi-ku! Faqatgina yonbag‘irlarda, u yer-bu yerda yantoq bilan chaqirtikanak ko‘rinardi, xalos. Shamol esa serrayib qolgan daraxt shoxlariga tegar-tegmas, go‘yo bir narsa olgandek, o‘zini olib qochardi. Hozirchi! Atrof tip-tiniq bahor osmoni gumbazi ostida yashnar, go‘yoki butun borliq yam-yashil beqasam to‘n kiyandek, maysa ko‘ktatlari bilan bezanib, botayotgan quyosh nuridan jilvalanardi...

U sevinchini ichiga sig‘dirolmay, yugурганicha yoshlik chog‘idan tanish bo‘lgan so‘qmoqdan tepalikka chiqdi-da, ro‘parasida cho‘zilib yotgan bepayon sarg‘ish qamishzorga, bo‘mbo‘sh yo‘lga, hozircha barg chiqarolmagan o‘riklar ortidan mo‘ralab turgan kulbasi tomonga qaray boshladi.

Turnalar ancha uzoqlashib ketganidan tashvish to‘la mungli ovozi kunbotar mahalidagi sokinlikda tobora sekinlashib asta-sekin so‘nmoqda edi. Ularning ulkan va og‘ir karvoni qizg‘ish osmonda marvarid shodasidek jilvalanib deyarli ufqqa borib qoldi.

(A. Udalovdan)

### **Mustaqil ish**

#### **Topshiriqlar:**

1. Matni o‘qing, undagi so‘z birlklari va ularning ma’nolariga diqqat qiling.
2. Matning qaysi uslubda yozilganligi, unda ishlatilgan til belgilari aniqlab chiqing.
3. So‘zlashuv, rasmiy, ilmiy, badiiy, publitsistik uslublarning biriga aloqador kichik matn tuzing.

#### **Adabiyotlar:**

1. Abdurahmonov G. Stilistik normalari. “O‘zbek tili va adabiyoti” journali, 1996, 6-son.
2. Yo‘ldoshev B. Badiiy nutq stilistikasi. Samarqand, 1982.

3. Toshaliyev I. Stilik norma muammolari. “O’zbek tili va adabiyoti” jurnali, 1989, 5-son.

4. Shomaqsudov A. va boshqalar. O’zbek tili stilistikasi masalalari, Toshkent. 1988.

5. O’rinboyev B. O’zbek tili so’zlashuv nutqi sintaksisi masalalari, Toshkent. 1975.

6. Tursunpo’atov M. O’zbek so’zlashuv nutqi leksikasi. Toshkent. 1988.

7. Qo’chqortoyev I. Badiiy nutq stilistikasi. ToshDU, 1975.

### **1-variant.**

Oqsil’ juda murakkab yuqori molekulali birikmadir. Suv molekulasi uch atomdan: bir atom kislород va ikki atom vodoroddan iborat. Oqsil molekulasi bo’lsa, yuz minglab atomlardan tashkil topgandir. Uning tarkibida azot, uglerod, vodorod, kislород hamda boshqa bir qancha unsurlar bor.

Tabiatda xilma-xil oqsillar uchraydi, ammo ularning ikkita bir-biriga o’xhashini topish qiyin. Oqsillar tarkibida aminokislotalar soni 20 taga yaqin. Ammo taxminan ularning yarmini boshqalari bilan almashtirib bo’lmaydi, bu aminokislotalar organizm uchun nihoyatda zarur.

Tarkibida faqat 20 ta aminokislota bo’lgan oqsil nihoyatda xilma-xil ko’rinishga ega. Aminokislotalar molekula tarkibida rang-barang o’rin almashtirishlar tashkil etadi. Aminokislotalarni tanlashga ko’ra oqsillar mukammal va nomukammal bo’ladi.

Inson ovqati organizimning hamma ehtiyojlarini qondiradigan zarur oqsil bilan ta’minlangan bo’lishi kerak. Inson organizmi mushak oqsili, qon oqsili kabi turli vazifalarni bajaradigan xilma-xil oqsillarni talab qiladi. Ovqatimiz oqsilli bo’lishi lozim, axir tiriklikning negizi oqsil-ku.

(O. Mitrofanovadan)

### **2-varinat**

“O’zbekiston o’zbeklarning tarixiy Vatanidir. Respublika shu millat nomi bilan ataladi. O’zbekiston o’zbek millatining asosiy qismi yashaydigan, asrlar davomida rivojlanib kelayotgan o’zbek (turkiy) tili to’la davlat muhofazasiga olinishi lozim bo’lgan respublikadir.

1-modda. O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

O'zbekiston Respublikasi o'zbek tilini butun choralar bilan rivojlantiradi. Siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha sohalarida to'liq qo'llanishini ta'minlaydi.

2-modda. O'zbek tili o'zbek xalqining ma'naviy mulkidir. O'zbekiston Respublikasining davlat tili taraqqiyoti, qo'llanishi va muhofazasini har tamonlama ta'minlashga oid barcha masalalar O'zbekiston Respublikasining vakolat doirasiga kiradi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqil va teng huquqli respublika sifatida o'z zaminida tilga oid har qanday masalani hal qilish huquqiga ega.

3-modda. O'zbekiston Respublikasi o'z hududida yashovchi barcha millat va elat tillarini hurmat qilishni ta'minlaydi hamda bu tillarning rivojlanishiga sharoit yaratadi.

4-modda. O'zbekiston Respublikasida yashaydigan har bir shaxs davlat va jamoat idoralari, tashkilotlarga yumush, takliflar, ariza hamda shikoyat bilan Respublika davlat tilida murojaat qilish hamda javob olish huquqi bilan ta'minlanadi. Boshqa maqbul tilda murojaat qilish huquqi ham cheklanmaydi".

(“O'zbekiston Respublikasining davlat tili to‘g‘risida”gi qonunidan).

### 3-variant

“Sen qo'shiq ayt, Zubayda, yonib-yonib qo'shiq ayt. O'zing ko'rмаган бу дунёoning rangлари haqida, oftob nuri, buloq suvi, daraxt gullari, chechaklar va qizg'aldoqlar haqida qo'shiq ayt: sen yig'lab-yig'lab xirgoysi qilu, bu qo'shiq meni mana shu to'qaydagи qoqi guliga, hech qursa yovshonlardan biriga aylatirsin, men seni ko'rish va mudom birga bo'lish uchun shu yulg'unzorda qolib ketay, sening oyoqlaring tagiga qovjirib to'kilay, mayli g'uborga aylanib sochingga qo'nay, faqat sening bo'yningdan ufurayotgan gul hidini hidlab tursam bo'ldi.

Men seni ovuta olmayman, Zubayda. Seni qushlar chug'uri, qanday ochilishini sen hali ko'rмаган гуллар, сенин шивирларинг каби ўзига бодраб чиққан майсалар, соchlaringni sog'инган shabodalar, jimir-jimir yog'ayotgan yomg'ir, tonggi shafaq ovutsin.

O, nafaqat sen, nazarimda, yaratgan ham unutib qo'ygan bu to'qayga quyoshning bir parchasi sinib tushgan, yo'q-yo'q, seni

parvardigor yulduzlar ichidan topib olgan. Sening og‘ushing oftobning yotog‘iga o‘xshaydi, badaningdan bexisht yalpizning bo‘yi keladi.

Men sening ko‘zlariningga termulib-termulib o‘tirgim keladi, sening ko‘zlariningdagi ko‘lga cho‘kkim keladi...”

(Nazar Eshonqulovdan)

#### 4-variant.

#### Millatning sarvati

Kechagina, albatta, biz dunyodan ozmi-ko‘pmi xabardor edik. Dunyo ham, yolg‘on bo‘lmasin, bizni ozmi-ko‘pmi bilardi. Lekin fojiamiz shunda ediki, biz dunyoni tugal tanimasdik. Dunyo ham bizni tugal tanimas va tan olmasdi. Nomimiz O‘zbekiston bo‘lgani bilan bizni bepayon imperiyaning bir chekka viloyati deb bilar, xalqimiz esa dunyo afkor ommasi nazarida o‘z haq-huquqlarini tanimagan, olijanob shiorlar bilan pardalangan mustabid zulm ostida yashayotgan, bu zulmdan qutulib chiqishga o‘zida kuch-g‘ayrat topolmayotgan bir xalq edi.

Qarang, O‘zbekiston xalqaro manfaatli munosabatlarga qanchalar shitob va dadillik bilan kirib boryapti! Juhonning turli mamlakatlaridan atoqli davlat arboblari, siyosatdonlar, qudratli banklar va korxonalarning rahbarlari, kordonlar paydar pay kelib turibdilar.

Hozir O‘zbekistonga qanchalab uchuvchilar (harbiy uchuvchilar ham), aloqachilar, shifrlar bilan ishlovchilar, korchalonlar, harbiy mutaxassislar, zabitlar, barcha ichki va tashqi ishlarimizni eng yuksak saviyada olib boradigan siyosatdonlar, diplomatiya xodimlari, elchilar, konsullar kerak!

Mustaqillik har bir sohada shukuh va milliy sarvatga ega bo‘lishlikni talab qiladi.

(Ibrohim G‘ofurovdan)

#### 5-variant.

Appon chol likopchadan bir dona anjir olib unga berdi, keyin maqtadi:

— Zo‘r bola ekansan-da! Buvangni choptirmay olib keldingmi-a?

Bahodirga uning maqtovi yoqib, balalarcha taltayib anjirni tishlagan edi, ta'mi ko'ngliga o'tirishmadi chog'i, yuzi burishib ketdi.

— Men buningizni patisonmi depman. Buningiz shirin ekan-ku! — deya nolidi.

Appon chol soqolini silarkan, kulib qo'ydi.

— Nima, anjir emaganmisan? Anjir shirin bo'ladi-da! — deb tushuntirdi.

— E, anjiringiz bo'lindi, ota, — dedi Bahodir kayvonlik qilib, to'garak yuzini bir tirishtirdi-da, anjirni Appon cholning o'ziga qaytardi. — Patison sho'rtang bo'ladi, uni esangiz maza qilasiz...

— Batisoning nimasi, o'g'lim?

— Batisonmas — patison, — astoydil kuyinib Appon cholga dakki berdi bola.

— Xo'p ana sen aytgancha bo'lsin, patison...

— Shuniyam bilmaysizmi? — taajjublanib boqdi Bahodir, — Patison shisha bankada bo'ladi. Mana bunday shisha bankada, — deb qo'lida o'lchab ko'rsatdi. — Dadam bizga opkelardilar o'shandaqa patisondan...

— Senam anjirni bilmas ekansan-ku! Anjirni bilmagan o'zbek bormi?! — hazillashgan bo'ldi Appon chol.

— Bilama-an! — Bola Appon chol uni anjirni bilmaslikda ayblashidan ranjidi. — Mana shunaqa anjirdan mening o'rtog'imnikidayam bor. Ulug'larnikidayam bor. Ishonmasangiz opchiqaman. Ishonmaysizmi? Opchiqayimi?

Appon chol uning qizisha boshlaganini sezdi. Shuning uchun ham:

— Ishondim, ishondim! — deb ikki qo'lini yuqoriga ko'tardi...

— Bormisan Appon?! — Shokir bazzozning serjin yuziga quvonch taralib, qiyiq ko'zlarida yosh yiltilladi.

— Omonmisan-esonmisan, og'ayni?! Nechuk? Nechuk xudo yorlaqadi?

(Abbos Saidovdan)

## Umumuiy norma va adabiy norma

### Topshiriqlar:

1. Matndan adabiy normadan tashqari, o'zbek tili uzusiga aloqador hodisalarini aniqlang va izohlang.

2. O'zbek tili uzusiga xos til belgilarining qaysi o'zbek lahjasiga tegishli ekanligini ko'rsating va tushuntiring.

3. Matnni sinchiklab o'rganing, undagi o'zbek tili tizimidan chetga chiqqan o'rirlarni qayd qiling va izohlang.

4. Matnda uchraydigan eski norma elementlarini topib izohlang, yangi variantlari bilan almashtirib, matnni qayta yozing.

Adabiyotlar:

Ицкович А.А. Языковая норма. М., 1968.

Begmatov E. Nutq madaniyati va adabiy norma. Toshkent, 1973.

Begmatov E. va boshqalar. Adabiy norma va nutq madaniyati. Toshkent, 1986.

Begmatov E. va boshqalar. O'zbek nutqi madaniyati ocherklari. Toshkent, 1988.

### 1-variant.

— Bir necha so'z xotirga kelib edi, aytmoqlik vojib ko'rinxur, - deb so'zida davom etdi mehtar salobat bilan

— Avval ulkim, Maskop ulug' kenoslari birla do'stlig shevasida so'zlamoq, ba'd in'omlar ila aning ko'nglini ovlamoq lozimduur, toimki har ikki podshoning arosidagi savdo-tijorat ishlari ravnoq topgay. Yana ulkim, o'rus yurtida Buxoro savdogarlari bojxiroj lafzini eshitmasinlar, agar biz tomonga o'rus savdogarlari kelib to'xtasa biz dog'i boj olmaydurmiz.

Hojitarxon bog'bon bizning savdogarlardin xafa bo'lib qoloptilar, oxa. Bahri Hazarda kema darg'alari alarga o'n besh so'mdan boj solib to'xtabdurlar, bo Hojitarxon kenosi tamga pul olibdur. Siz oq podshoga, ya'ni Maskop ulug' kenosig'a aytinkim, tujjor ahlining boshidan boj-xiroj balosini daf etsin. Yana ulkim, Buxoroda oqu sariq shohi, kimxob, baxmal kasod bo'lib to'xtaptu. Akun, biz bu mollarni sotmoq uchun o'rus bozorlarini ilkimizga olmog'imiz zarur.

(M. Osimdan)

### 2-variant.

Parizodlar yana Xotamni o'tga tashladilar. Bu tarzda uch martaba o'tning orasida kuydurdilar.

Vaqtiki ko'rdilarki, bu kuymaydur, nechand toshni olib kelib Xotamni yotquzub, toshni ustiga qo'ydi. Xotam toshni ostidan

chiqdi. Vaqtki, Xotamni parizodlar tirik toptilar, turib daryoi Sho'rg'a tashladilar. U joydan parizodlar oz joyiga yondilar, Xotamni nahang yutti, suvda go'makdan qoldi. Bildiki, janvorning qursoqiga tushubdur. Darhol muhrini og'ziga soldi: harorat badaniga zohir bo'ladur, behush bo'ldi. Suning nihoyati sovuqliqidin hushiga kelib har taraf nahangning qornida yugurdi.

Nahangning dili va jigarini putining ostida depsidi: to'la yurmakdin nahang ojiz bo'ldi. Daryoning qanorig'a kelib, xashakda yumalandi. Xotamni og'zidan qay qildi, darhol tashladi va o'zi suvning orasiga qochti.

(“Xotamnoma”dan)

### 3-variant.

— Iya, polvon! — dedi iljayib. Qo'lidan panskha tushib ketdi. Xush ko'rdik!

Ammo o'sha zahoti qiyiq ko'zlarida tag'in o't chaqnadi. Siyrak mo'ylovi qaytadan tippa-tik bo'lib ketdi. Yerda yotgan panskhanani olib tahdidli silkitdi.

— Jubor! — dedi hayqirib. Panskhanani “Qora ko'zoynak”ning qorniga tiradi.

— Qo'yib jubor!

“Qora ko'zoynak” hamon bizni changallagancha òrqaga chekina boshladi.

— Qo'yanma — jo'qma...?

— Jotibmiz, Rais bova!

— Sen shunaqa yotishni bilasan. — Birpas jimlik cho'kdi. Keyin yana Rais buvaning ovozi eshitildi. — Ertaga komissiya keladi.

— Kelsa jaxsi.

— Yaxshi-ya yaxshi! Shu galgisi anoyi emas. Oblastdan keladi.

— Jaxsi!

— Yana yaxshi deydi-ya? Fermangga qara, axlatxonaga aylanib ketibdi-ku.

— Ma'qul, rais bova, tozalayibmiz.

— Tozalaysan... menga qara, Musayin, go'shtni qancha deb yozgansan?

— Juz o'ttiz poiz! Nazarda dundurganmiz.

— Isparavkalar joyidami?

— Joyida, Rais bova.

- Sut-chi.
- Har siyirdan ikkiming uch juz kilo.
- Qog‘ozи bormi?
- Bor, Rais bova...
- Musayip! Bu qo‘zilatishni qanaqa deb yozuvding.
- Juz sovliqdan juz jetmish ketdi.
- Jetmish-petmish demasdan ikki yuz qilib qo‘ya qolsang o‘lasanmi?
- O‘zi tuvg‘ani juz o‘nta, Rais bova!

(O‘. Hoshimovdan)

#### **4-variant.**

- Taqsir, — dedi u, tiz cho‘kib o‘tirgan yerida qo‘l qovushtirib,
- mulla G‘ulom Ashur Mirzoga taassub qilib, madrasani tarki abad qilmoq azmindadurkim, aning soibaddi tolibu ilmlarni: az jumla kaminal kamtarinni g‘azabnok qilmoqdur. Necha oydirkim, biz yoru birodarlar birlan hamsuhbat, hamkalima bo‘lmoqlikdan qochib, umri g‘animatini qayonlardadur zoe va foni etmoqdadur. Kecha oqshom Ashur Mirza birlan ketib, hanuz qaytmadi va binobarin bugun bomdod nomozini taqsirim imomatlarida iqtido etmadi.

Chuvak mullavachcha gapini tugatib, tik holda qo‘l qovushtirib turdi. Mahdum bo‘lsa uzun, oq soqolini o‘ng qo‘li bilan silab:

- A? A? — deyar edi.

Qoramag‘iz, xushro‘y mullavachcha o‘rnidan turdi.

- Asad Qorining gaplari durug‘, taqirim, dedi u, domлага qarab. — Mulla G‘ulom necha kundan beri betob, nihoyat bugun yotib qoldi.

Mahdum unga sinovchi nazar bilan tikilib turardi. U gapini tugatib, ixcham salsa ostidagi xushbichim kallasini xiyol egib ta’zim qilgandan so‘ng, Mahdum Asad qoriga “shundaymi?” degandek qaradi. Asad qorining sarg‘imtil yuzida qizarish bo‘lmaganidek, bo‘zarish ham ko‘rinmas edi. U istehzo bilan jilmayib, etaklarini silkib qo‘ydi.

- Ne dersiz, mulla Asad, aning gapiga? —dedi Mahdum, kallasi bilan qoramag‘iz mullavachcha tomonga ishora qilib.

(M. Ismoiliydan)

## 5-variant.

— Sardor! O'g'lonlardan biron xabar bormi? — deb so'radi kampir.

Kampir tomondan sardor deb atalgan ellik-ellik besh yoshlardagi bu kishi:

— Tirik bo'lsalar, g'ozi bo'lib keladir, agar tangrining buyrug'i bilan ajallari yetgan bo'lsa, shahid bo'larlar; so'ramoq nega kerak,  
— deb sovuqqonlik bilan javob berdi va chol namoz o'qib turgan uyga qarab to'g'ri yurdi...

— Xush kelding, dug'oni sardor! Xush keldingiz, o'g'lonlar,  
— deb chol mehmonlarga joy ko'rsatdi va o'zi joynamoz ustiga o'tib o'tirdi...

— Hovva, to'g'ri, — dedi Abdurahim sardor, — menda ham shunday hol yuz berdi, ammo men so'fi qilingan xayollarimdan uchtasini quvib yubordim, shu bilan ro'zg'or xarajatlarimni bir oz yengillatdim.

(S. Ayniydan)

— Ulamo hazratlari bizdan aslo rajimasinlar, — dedi qori dadil ohangda, — bu masalalar xususida bir oz og'iz ochsak, maktab, madrasalarga bir oz isloh kiritaylik desak, hazratlar o'ta mutaassiblik ila ziddiyat ko'rsaturlar. Istambulda dorilfunun bor. Turkiyaning Anqara, Izmir kabi shaharlarda yangi usul mакtablar ochilmish...

Turkiston viloyatida maorif mash'ali yo'q, xalqimiz hayoti tom zulmat. Eski maktablar g'oyat qoloq. Holimiz foje va ayanchli. Bular ham shariatimizni, qur'oni sharifni muqaddas bilurlar, inchunun, maktab ishlariga g'amxo'rlik ko'rsaturlar.

(Oybekdan)

## Adabiy normaning variantdorligi

### Topshiriqlar:

1. Matndagi ayrim so'z va so'z shakllarining normativ variantlarini aniqlang. Qavs ichida berilgan til belgilarining asosiy ma'no komponentlariga ko'ra variant ekanligini asoslang.

2. Qavs ichida berilgan so'z variantlarining ma'no farqlanuvchi ottenkalari bor-yo'qligiga e'tibor bering. Agar ular qandaydir

jihatdan farqlanadigan ottenkalarga ega bo‘lsalar, ularni ko‘rsatuvchi matn tuzing va izohlang.

Normativ variantlarning kelib chiqishi (boshqa tildan o‘tganmi, shu til shevalaridan kirganmi yoki shaklning o‘zi yana ma’no kasb etganmi) yo’llarini ko‘rsating.

### Adabiyotlar:

1. Begmatov E. va boshqalar . Adabiy norma va nutq madaniyati. Toshkent, 1986.

2. Begmatov E. va boshqalar. O‘zbek nutqi madaniyati ocherklari. Toshkent, 1988

3. Begmatov E. Nutq madaniyati mezonlari. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali, 1976, 5-son.

4. Umarqulov B. So‘z tanlash san’ati. Toshkent, 1985.

### 1-variant.

Iyul kunlarining birida ertalab choydan so‘ng (nonushtadan so‘ng) Saidiy o‘zining ish stoli yonida o‘qishga erinib (xushi kelmay) kitob varaqlab o‘tirar edi. Kimdir hansiragan tovush (ovoz) bilan derazadan “Rahimjon” deb chaqirdi-da, to‘xtamay darvoza tomonga o‘tib ketdi. Saidiy irg‘ib (sapchib) turdi va pardani ko‘tarib qaradi. Chaqirgan kishi (kimsa) darvozadan kirdi, Saidiy uni orqasidan ko‘rib qoldi va shu ondayoq (shu lahzada) bu odam (kishi) unutayozgan do‘sti – Ehson eknini bildi-da, negadir hammayog‘i uvishib (jimirlab) ketdi. U Ehsonning hozir kelishini sira xohlamas edi. Ehsonning kelishi unga universitet (dorilfunun) binosiga rabfak zalidan o‘tishdan ham maloliroq bo‘ldi. Hayal (zum) o‘tmay Ehson eshikni ochib kirdi va talay (ancha) vaqtgacha Saidiyni quchog‘idan qo‘yib yubormadi. Saidiy Ehsonning kelganiga benihoya (nihoyatda, nihoyasiz) shod ekanligini ko‘rsatish uchun aytgan hamma gapi, har bir harakati uquvsiz artist (san’atkor) tomonidan birinchi (ilk) martaba birinchi repititsiyada (mashqda) bajarilgan rolday yasama chiqdi.

(A. Qahhordan)

### 2-variant.

Xabaringiz bor (sizga ma’lumki), kamina (men) ko‘p yillar ilmiy ish bilan shug‘ullangan bir olim sifatida ilm-fan, falsafa (filosofiya) va ayniqsa, adabiyot va san’atga oid kichikroq bir

kutubxona (biblioteka) yig‘ishga tuyassar bo‘lganman. Salkam o‘n ming jilddan (tomdan) iborat bu kutubxonamni jamoa xo‘jaligiga qarashli o‘rta maktabga in’om (xadya) etganimdan boxabarsiz (xabardorsiz). Bu maktubni (xatni) yo‘llash (jo‘natish) dan birinchi tilagim (maqsad) shukim, umrim davomida (bo‘yi) yiqqan bu kutubxonam duch kelgan odamga emas, kitobning qadrini bilgan, fan va adabiyotga tashna (chanqoq) bir kishiga topshirilsakim (berilsakim), toki bu nodir (kamyob) asarlardan o‘sib kelayotgan (o’spirin) yosh avlod bahramand bo‘lsa.

(O. Yoqubovdan)

### 3-variant.

Hammaning diqqati (e’tibori) xatda edi. Ergash konvertga ko‘z yogurtirdi (tashladi)-da, pastki labini tishlab, xatni darrov (tezda, birdan) cho‘ntagiga (kissasiga) solib qo‘ydi. Tikilib (qarab termulib, ko‘z tikib) turganlarga nima deyishini bilmay, qulqlari qizarib ketdi.

Soya qaytganda quruvchilar dam olishaga (xordiqqa) chiqdilar, yarim kunda titkilab, qiyofasi (ko‘rinishi) o‘zgarib ketgan katta (ulkhan) maydon tepasida (ustida) chang (to‘zon) bosildi, quruvchilar shovqin-suron (g‘ala-g‘ovur) bilan chekkaga chiqib ariq bo‘ylariga (yoqalariga), daraxt tagi, soya-salqin joylarga yopirildilar.

Ergash qurilish boshqarmasiga ketdi. Idora Qudratillaxo‘janing Naymanchadagi hovli-joyiga (darxonasiga) o‘rnashgan (joylashgan) edi. Bu joyni (yerni) boy mol (boylik) bo‘lishganda o‘g‘li bilan urishib (janjallashib) qolishib, Nusratillaga esa, kutilmaganda (to‘satdan) hukumatga sadoqatini (sodiqligini) ko‘rsatish (nomoyish etish) uchun bo‘lsa kerak, qurilishga “taqdim” etdi.

(A. Muxtordan)

### 4-variant.

Go‘yo u botqoqlikdan sug‘urilib chiqdi-da, tiriklik suviga chayindi va so‘ng uchib borib naq yulduzlar og‘ushiga singib ketdi. O‘sha damda mudom bir navo yangrab turdi, bu navo qoniga qo‘shilib oqdimi uning va yoki falakdan taraldimi, yoki unga shunday — qo‘shiq yangrayotganday bo‘lib tuyuldimi, o‘zi ham

aniq bilmaydi buni. Lekin shu navo unga qanot bo‘lganligi, uchar gilam yanglig‘ olib uchganligi rost.

Oradan yillar, ehtimol oylar, balki lahzalar o‘tib, u jismida bir og‘riq tuydi. Ehtimol, kimning dastidan shunday aziyat chekayotganligini bilish uchun ham qaytib u falakdan turgan joyiga tushgan chiqar?..

Bir jondor kelib qo‘lidan chaqayotganday bo‘lib tuyuldi. Joni og‘rigach, u istamaygina ko‘zini ochdi, og‘ushida samoviy xurliqo, u shiringina tush ko‘rayotganday, tush ko‘rib uxlayotgan go‘dakday, chehrasida ilohiy bir osoyish, ma‘sumlik; o‘zining ko‘z ochgani, ehtimol holatining o‘zgarishi mana shu osoiyshga xiyol bo‘lsa-da, dahl qilganligini u payqadi va ko‘zlarini chirt yumdi.

(G‘affor Xotamovdan)

### 5-variant.

Yo‘q, birdan (to‘satdan) o‘zgardi hammasi (barchasi), birdan! Go‘yo u talay (ancha) muddat – bir yilmi, besh yilmi g‘aflat uyqusida yotdi-yu, uyg‘onsa (ko‘z ochsa) – mana shu ahvol. Go‘yo uning bir yilmi, besh yilmi ko‘zi ko‘rmay, qulog‘i eshitmay qoldi-yu, bir kuni tuzalsa (sog‘aysa) – hammasi boshqacha (o‘zgacha)! Odamlar (kishilar) qandaydir (allaqanday) o‘zgarib (boshqacha bo‘lib) qolgan, lafzu liboslari antiqa, dunyolari antiqa – tanib (anglab) bo‘lsa, o‘lay agar, mana jon!

Qarasa – mulla Shodining qushdek xurkak, qo‘ydek yuvosh qizi Gulchehra boshyalang, sochini kungrador turmaklab, ko‘chada velosiped (shaytonarava minib yuribdi! Kuppa-kunduzi (oyni-kunni yorug‘ida)! yo pirim-ey! To‘rt yil ikkovi bir partada o‘tirgan qiz!...)

O‘shandan boshlab Berdiboy battar aynidi: neki yangilikknii ko‘rsa g‘ijinadigan, dushman ko‘zi bilan qaraydigan bo‘lib qoldi. O‘ziku azaldan (boshdan) shunday ori nozik, irimchi... Onasi rost aytadi: “Tiniq momoning o‘gitini (nasihatini) yeb-ichib katta bo‘ldi. Qishloq xo‘jalik bilim yurtida o‘qib yurgan (tahsil ko‘rgan) kezlari ham kursdoshlari (hamkurslari) unga olaqarg‘adek, orqavarotdan (sirdan, ketidan) kulib qarashardi”.

(Erkin A’zamovdan)

## Nutqning to‘g‘riligi. Talaffuz normalari

### Topshiriqlar:

- 1.Matndagi adabiy talaffuzdan chetlashgan so‘z shakllarini aniqlang va izohlang.
2. Bunday talaffuz nimaga (qanday manbaga) asoslanganini tushuntiring.
- 3.Adabiy normadan chetlashuvga ko‘proq qaysi nutq tovushlari vosita bo‘lmoqda?

### Adabiyotlar:

- 1.Begmatov E. Adabiy talaffuz madaniyati. Toshkent, 1982.
- 2.Begmatov E va boshqalar O‘zbek adabiy talaffuzi lug‘ati. Toshkent, “Fan” 1984
- 2.Ibrohimov S. Nutq madaniyati va adabiy talaffuz haqida. Toshkent, 1972.
- 3.Ibrohimov S. Adabiy talaffuz madaniyati. Toshkent, 1972.

### 1-variant.

U shu istiholaga borib, gapni boshqa yoqqa burdi:

— ...Shaharda dong siqargan bir milisa oshpoz bor...

Mana masalan, o‘zimiz ham buyra a’zosi bo‘lganmiz rayonda...

— Judayam unaqa emas, — e’tiroz bildirda G‘iyos naychi uning gapini cho‘rt kesib. — Juda zo‘r bronza. Tunov kuni... magazinidan qo‘ng‘iroq qilib:”Sizga ham ikki kilo olib qo‘ydik”, deyishgan edi. Op keldim. O‘ziyam polishinskiy ekan deng: qaramabman, yog‘i tegib kastondi rasvo qilipti...

— Qaysi texnikumda?

— Tenikumiyliz nimasi?

— Institutga, — dedi u jiddiy...

— Unvoningiz ham bordir unda? — deb so‘radim men avaylabgina.

— Qanaqa unvon?

— Masalan, kandidat, dotsent degandaqa.

— E, umi?...Kandidatskiyim tayyor, kelasi xafsa yoqlayman...

— Bu aptoripratingiz nimasi tag‘in?

(Nosir Fozilovdan)

## **2-variant.**

Ayniqsa kutib o‘tiruvchilar ichidagi yamoq to‘nlik, qo‘li qadoq dehqon mahdumning diqqatini o‘ziga jalb etgan edi.

— Xo‘sh, kim, hali siz qishloqdan kelgan ko‘rinasiz, - dedi mahdum, - qani aytin-chi, kasal nima?

Dehqon mahdumning hurmatiga o‘rnidan turib, qo‘l qovushtirdi:

— O‘n uch tanob yerimiz bor edi, taqsir... Chamasi yong‘in bo‘gonda, o‘ttiz uch tanobga haq sog‘onlar. Men shunga arza yozdiraymi, deb...

— Ximmm, - dedi mahdum, - qishlog‘ingizda oqsoqol yo‘qmi?

— Bo‘gon bilan, taqsir... qulq soladigan emas.

Maxdum yana bir martaba dehqonni boshidan-oyoq ko‘zdan kechirdi:

— Ariza yozdirishga chaqa kerak bo‘ladi, uka. Chaqangiz bo‘lmasa ovoragarchilikka arzimaydi, inim.

Dehqon belini timirskilab, go‘yo aqchasini ko‘rsatadirgandek harakatlandi:

— Chaqasiz arzaga kelib jinni bo‘g‘onmizma, taqsir...

Mahdum, eshonni hatto darvozagacha kuzatib chiqishga ham ensasi qotib, dehon yonida to‘xtadi:

— Nima gap, ariza yozdirdingizmi, uka?

— Yo‘q, taqsir! — dedi dehqon. — Taqsirim shu kovozni pitib berdilar, tanobchiga ko‘rsataturgan kovoz ekan.

— Ko‘p yaxshi, — dedi mahdum. — Qalam uchi berdingizmi?

— Yo‘q. Chaqa bersam olmadi, taqsirim.

— Ozgina ber...

Mahdum “ozgina bersangiz” demoqchi edi, biroq “ozgina ber...” bilan tilini tishlab, dami ichiga ketishga majbur bo‘ldi. Chunki hozir mehmonxona tomonidan Anvar kelib chiqqan va mahdumga salom bergen edi.

— Vaalak... Men, shunday masjiddan, — dedi mahdum shoshgan holatda va o‘z og‘ziga qarab turgan dahqonga ishorat qildi, — ishingiz bitgan bo‘lsa, boravuring.

(A. Qodiriydan)

## **3-variant**

Moshina yo‘l chetidan atrofi uch poxta duvol minan o‘ralgan eski mina oldiga kelib tukradi. Minan rangi unniqib ketgan,

quvna yagach darvozasi oldidan chuqur oriq oqardi. Chetrxasta, karri tol oldida shuvaglari ko'chib yotgan balant poysuppa.

Darvoza olida ulardi iynida kara plash, oyag'ida xrom utik, boshida paxal shlapa kiygan, soriga moyil bir tigit — sugurta idarasi maxolli kamitetining rayisi kutib oldi.

(N. Aminovdan)

#### 4-variant.

— Amaki, eshayni rosa o'rgatipsiz-ku. Qarang yangnog tepasiya chiqib rumoliyizga xaddor chaqiropti.

— Yo'g', unaqamas. Bozochchi amakim ro'mollani sotib bugunlaricha eshay karovulliy kilopti. Milisa kesa xa'rab xavar qilaman deb chiqqan.

Oqsoqol bu gaplarga qulq solmas, askiyalarga parvo qilmas, tinmay g'o'ldirab so'kinar edi.

Qilg'ulikni qilib qo'ygan Azizzon odamlarga xa-xolab kulardi.

Azizzonni boyagi qanor ko'tarishini kinoya ogan xronika apiraturalari asvop-uskunalarini elkaya ettib kaytishotgan edi. Ermaytalab igilladan biri angnog tepasini ko'rsatib, ularga gap qotti:

— Manovi hangomaniyam kinoya olip qo'yyla, antiqa tamosha bo'ladi.

(S.Ahmaddan)

#### 5-variant.

"Aziz farzanodivuz, jigar gushavuz Azizzon. Seni sevikli Vatanivuzzi yovuz dushmandan himoya qilish uchun jangda ko'rsatgan qahramonligingni eshitib boshivuz ko'kka yetdi. Dilivuz quvonchka to'ldi. Vatan uchun fidokorona jang qilotgan azamatlar safida ekanligingdan faxrlanavuz. Hamisha mana shuday mard bo'l. Biza, hamqishloqlaring dushmanni Berlingacha quvib borishingni, uni o'z uyasida yanchib tashlashningni istayvuz. Chekinma. Dushman galalariga sherdek tashlan. Uni yanch. Xonavayron bo'lgan oilalarri, yetim qolgan bolalarri qasosini ol. Onalari ko'z yoshi esingda tursin. Kul bo'lgan koshonalarri gulxanlari esingda tursin. Dorga osilgan, bo'g'ziga xanjar qadalgan jigarbanlarivuz esingda tursin. Shularri hammasi, hammasi uchun

qasos ol, azamat lochinivuz...” — Tog‘a xatti shu yeriga kelganda yonidan ro‘molchasini chiqazib ko‘z milklarini artib oldi.

(S. Ahmaddin)

## Nuqta egalik qo‘sishimchalaridan foydalanish normalari

### Topshiriqlar:

1. Matnni ko‘chiring. Unda egalikning ishlatalishiga e’tibor qiling va tagiga chizib qo‘ying.
2. Fikrning yuzaga chiqishida egalik qo‘sishimchalari bajarayotgan vazifalarni izohlang.
3. Qaratuvchi talab qilmaydigan egalik shakllarini aniqlang va izohlang.

### Adabiyotlar:

1. Mirzayev M. va boshqalar. O‘zbek tili, Toshkent, 1979.
2. Abdusaidov A. Gazeta tili va adabiy norma. Samarqand, 1986.

### 1-variant.

Mendan ko‘p xavotirlanma, Robiya. Men bir dehqon odamman. Havo ochilsa, dalaga chiqib qo‘sishni haydayman. O‘rog‘imni o‘raman. Yog‘iyning menga ne ishi bor? Lekin sen... ehtiyyotingni qil. Andijon qo‘rg‘onida amakilaring bor.

— Andijonda sizning ham mulla tog‘oyingiz borlar-ku! Yo birga ketaylikmi?

Tohir o‘ylanib qoldi.

...Andijon arkida Mulla Fazliddin samoviy naqshlar va koshonalar bilan bezab qurgan devonxona tojdor Umarbaxsh Mirzoga ma’qul bo‘lgandan keyin unga tubichoq ot va bir hamyon oltin in’om qilganini Tohir ham eshitgan.

— Robiya, mayli, iloji bo‘lsa, Andijonga birla keturmiz. Lekin dadamlarni ko‘ndirish oson emas... Mahmud og‘ang eshikdam? Iftordan so‘ng biznikiga o‘tsin. Maslahat bor.

— Do‘konga chiqqan edilar. Iftorgacha keladurlar. Nima edi?

— Iftordan so‘ng biznikiga o‘tsin. Maslahat bor.

— Xo‘p, men aytaman...

(P. Qodirovdan)

— Mirzo, validangizning tayinlaganlari boshqa edi! — dedi Qosimbek.

— Voldalari bu yerdagi ahvolni bilmaganlar! — deb Boburning o‘rniga Sherimbek javob qildi. Ammo Qosimbek uning gapiga qulq solmay Boburga yondashdi:

— Xonim hazratlari bugun dafn marosimni o‘tkazib ertaga Andijonga kelurlar. Ulug‘ onangiz ham chorbog‘dan qo‘rg‘onga ko‘chmoqchi edilar. Ular sizni qayerdan topurlar?

(P. Qodirovdan)

### **2-variant.**

Ertasi kuni mahdum keldi. Muhammad Rajabbek mahdum bilan so‘zlashib, Anvarni o‘rda xizmatiga olish fikrida bo‘lganligini, buning uchun arabcha, forschadan yana ham chuqurroq ma‘lumot olishi lozimligini va hisob o‘rganishi kerakligini aytadi. Mahdum Muhammad Rajabbekning Anvarga bunchalik marhamati uchun bir oz shoshib qolsa ham, lekin bu mehribonchilik sababiga yaxshi tushunganligi jihatidan avvalo bekning yetimpvarligini, so‘ngra Anvarning zako va iste’dodini maqtadi. Anvarni odam qilish yo‘lida chekkan o‘z mashshqqatlarini ham shikoyat yo‘sindida so‘zlab chiqqach, bu kunlarda ehtimomi tom bilan Anvarga fors va arabiyyidan dars berib turganini va alhom ham Anvar forcha tazkira va tahrirlar yoza olishini bayon qilib, necha xil uzrlar ichida o‘zining ilmi hisobdan bahrasizligini bildirdi, ya’ni Anvarning ilmi hisob o‘rganishi uchun boshqa muallim kerak bo‘lur, dedi.

(A. Qodiriydan)

### **3-variant.**

Bobur agar yov bilan bu yerda to‘qnashsa, qishloq oyoq osti bo‘lishini o‘ylaydi. Bu yerda u bilan birga yurgan onasini, bek va navkarlarini yovdan omon saqlash uchun ham, o‘zi boyagi cho‘ponga o‘xhash qasoskorlarning tasodifiy qurban ni bo‘lib ketmasligi uchun, dahkatlik kadxudoning tuzini oqlash uchun ham Bobur yana qaytadan qurol-yarog‘ taqishga va odamlariga boshchilik qilishga majbur ekanini, hozir shundan boshqa iloji yo‘qligini his vildi-yu, og‘ir “uh” tortdi.

— Shohlik taqdirimdan yalang oyoq qochib qutilolmas ekanman! Janob Sherimbek! Siz endi Qosimbekning o‘rnida amiral umarosiz!

Boburni 12 yoshida Olatog‘ tomonlarga olib qochib ketib qutqarmoqchi bo‘lgan keksa Sherimbek tog‘oyi quvonib ta’zim qildi:

— Inoyatingizdan sarafruzmen, amirzodam! — dedi. — Buyuring.

— Odamlarimizning barchasiga amrimizni yetkazing. Ko‘chko‘ronni yig‘ishtirsinlar! Shu bugun kechasi Dahkatdan jo‘nab ketgaymiz!

— Muborak buyrug‘ingiz alhol ado etilur, amirzodam!

Yana zirhli kiyimlar kiygan, qurol-yarog‘ taqqan Bobur o‘sha kecha tog‘dan-toqqa oshib kunchiqish tomonga — Isfaraga qarab ketdi.

(P. Qodirovdan)

#### 4-variant.

— Har kimsa ham pushti panohning marhamatlariga loyiq ko‘rila olmaydi. Pushti panoh o‘zlarini domodlikka chog‘lab bu bashoratni bizlar orqali sizga yetkazishga amr qildilar...

— Taqsirimda ojiz borligini pushti panoh eshitgan ekanlar... — dedi tunqator.

— Mirzo Anvar kabi donishmand yetishdirgan kishi oqila va jamila qiz ham tarbiya qilmaganmukin degan andishaga boribdirlar. Shogirdingizga qilgan marhamatli janobingiz va karimangiz niyatida, bizni xizmatingizga buyurdilar. Albatta, bu marhamatning nechog‘lik ulug‘ligini sizga so‘zlab o‘ltirish hojat emas.

— Qulluq, rahmat, pushti panohning davlatlari ziyoda bo‘lsin! — dedi mahdum...

— Janoblariga ojizona uzr... Avvalo kamina ojiz-notavon, aftodahol, pushti panoh jihatlaridan sodir bo‘lgan ulug‘ marhamatga sazovor va loyiq emasdirmen; soniyal-ojizamiz olampanohdek ulug‘ zotga hamxob bo‘lmoq uchun kofiya tarbiya olmagan bir qulbachchadir... Bas, biz shu kayfiyatda onhazratning mehribonchiliklariga arzirmizmu, taqsirlar?

— Pushti panohning sizdek ahli ilmlarga qaratilgan daryo marhamatlari arzitar, taqsir!

(A. Qodiriyydan)

## **5-variant.**

Go‘ro‘g‘libekka xudo farzand bermadi, oti o‘chmadi. Shunda Go‘ro‘g‘libek” Aslida taqdir-qismatda bizga farzanddan taqsim bo‘lgan yo‘q ekan” deb taqdirga tan berib, Hasanxonni Vayangandan, Avazxonni Xunxordan olib kelib ikkovini ulum deb, iskasam gulim deb, jonus dilim deb, tobutimni chegasi, el-yurtimning egasi, o‘lsam merosxo‘rim deb, ikkovi bilan ko‘nglini xush qilib, shularga bino yo‘qib, “bolam, bo‘tam” deb parvarish qilar edi.

Avazxonni Og‘a Yunus pari “O‘g‘lim deb yoqasidan solib, etagidan olib edi; Hasanxonni Misqol pari yoqasidan olib, etagidan olib edi; ikki pari ikkovining enasi bo‘lib edi. Parilar ikkoviga bino qo‘yib, bolam deb syuib, har qaysi o‘z uylarida parvarish qilib tarbiya qilar edi.

Ikkovini katta qildi. Avazxon bilan Hasanxon ham sher haybatli, yo‘lbars kelbatli, qoplon yurakli, arslon bilakli yigitlar bo‘ldi...

Avazxon bir-ikki yildan so‘ng bir qizli bo‘ldi. Go‘ro‘g‘libek quvonib suyunib bunga ham to‘ylar qilib, otini Gulanor qo‘ydi. Enagalar parvarish qilib, boqib, bachchalarini tarbiya qilib katta qildi...

Gulanor ko‘p suluv: yaxshi suratli, shirin so‘zli, quralay ko‘zli tor biqin, o‘rtə bo‘yli, uzun o‘yli, keng ko‘krak, zehni tez, serfahm qiz edi.

(“Ravshan” dostonidan)

## **Nutqda ko‘p ma’noli so‘zlar**

### **Topshiriqlar:**

1. Matnni sinchiklab o‘qib chiqing. Unda qatnashgan so‘zlarning narsa ma’nosi bilan matndagi vazifasining mosligiga e’tibor bering.
2. Ko‘p ma’nolilik (polisemik), sinonimik, ononimik ma’noga ega bo‘lgan so‘zlarning matndagi vazifasiga diqqat qiling, nomoslik yuz bergan o‘rinlarini izohlang.
3. Chetdan kirgan so‘zlarning, professionalizmlar, dialektizmlar va boshqalarning o‘rinli qo‘llanilganligiga diqqat qiling.
4. Matnda paronimlar bo‘lsa, ularga izoh bering.

## Adabiyotlar:

1. Головин Б.Н., Основы культуры речи. М., 1980.
2. Ицкович В.А. Языковая норма. М., 1968.
3. Shoabdurahimov Sh. O'zbek tilining leksik normalari, Nutq madaniyatiga oid masalalar. Toshkent, 1973.

### 1-variant.

Keyingi yillarda xutor sistemasini yo'q qilish bahonasi bilan aholiga serob katta-katta qishloqlarni ham yo'q qilish, o'sha joylar hisobiga ekin yerlarini kengaytirish avj olib ketgan edi. Aholilar esa markazlashgan yangi qishloqlarga ko'chirilardi. Chorkapaga qo'shni So'limbek qishlog'i qismatida ham xuddi shunday savdo bor ekan. Tag-tugi bilan yo'q qilindi. Endi navbat Chorkapaga yetibdi. Chunki katta xo'jalik boshlig'i Qobul Komilovich Chorkapani ko'chirib o'rniغا zavod qurishni niyat qilibdi. Shu fikr uning miyasiga qat'iy o'tirib qolgan, niyatini amalga oshirishga astoydil kirishgan ko'rinadi. Shuning uchun erta-indin Chorkapaning ham umri tugaydi, deganday hukm chiqarib qo'yib, uni obodonlashtirishni butunlay unutib qo'ygan edilar. Yaqingacha ham yashnab, gavjumlashib turgan qishloq yildan-yilga piligi tugagan chiroqday xira tortib, huvillab borardi. Aholini tezroq ko'chirish uchun esa ularga qishloq markazida uch-to'rt qavatli uylar qurilishi jadallashtirilardi.

(J. Abdullaxonovdan)

### 2-variant.

Arslon chiroqli kostyumlarini gardirobga ilib kombinzon kiyib, universal mindi. Dala oftobida yangi hammomdan chiqqan odamdek a'zoyi badani so'lqillab, ishga kirishib ketdi. Mayin dala shamoli ko'ksini yelpidi. Kechki chigitkalar chirillashini zavq bilan tingladi.

Oradan uch kun o'tgach, yon qishloq — qo'shni kolxozga ham bordi. Arslon Po'latov degan mexaniaztor yigitning o'z kolxoziqa qaytib kelganini qo'shni kolxozdagilar qatori Ra'no ham eshitgan edi. U Arslonning kelishiga, u bilan yana uchrashishga ishonar va buni yurakdan kutardi... Xuddi shunday bo'ldi: ular dalada, kumush jiyda soyasida uchrashishdi. Ra'no jiyda shoxidan uzib olgan niholni tishlab turib Arslonga yana boshdan-oyoq tikildi. Uning bu tikilishida juda katta ma'no bor edi. Ular yana ham jim

turib qolishdi... Nariroqda, arava yo'lida tol novdasini ot qilib minib, "chuh-chuh"dab ketayotgan dumaloq qoramag'iz bolaga qarab turib, birdan ikkovlari baravar kulib yuborishdi.

(Mirmuhsindan)

### 3-variant.

Kimdir uni ko'chaga itarib yubordi. O'sha ko'yi hamon sargardon yuribdi. Hamon tentiraydi. Makonini izlab sanqiydi. O'shanda tinchini ham yo'qotgan ekan hamon izlab topa olmaydi. Shu siltovda yo'qotganlarini na bir idora, na chizgan suratlari, na alam ustida orttirgan oshiqlari qaytara oldi unga. Hech kim, hech nima in'om eta olmadni.

Jahon tepada Fidoyevning boshiga qaradi. Negadir ko'zi tindi. Quloqlari shang'illay boshladni. Xayoliga enasi keldi: munis, mehribon, beozor. Sochlari Fidoyevnikiga o'xshash oq oralagan. Kir qorga o'xshaydi. Quloqlari ostida shu beozor kampirning achchiq bir gapi jaranglaydi: "Qiz tuqquncha tosh tug'sam bo'lmasmidi?!" Jahonning yuzi chatnab, olov bo'lib yona boshladni. Shu yerdan chiqib ketsa bu azoblardan xolos bo'ladigandek sassiz eshikkacha bordi. "Qaytar eshigingni qattiq yopma", deguvchi edi onasi. Bu go'shaga yana qaytadi, majbur. U qayrilib qaradi. Qirmizi lablari tabassumga monand yo'sinda tirishdi. Qaytdi. Kelib Fidoyevning qarilik nuhsiga urgan po'rsildoq yuzidan o'pgan bo'ldi, o'pa turib ko'zlarini chirt yumdi.

(Gulnora Ernazarovadan)

### 4- variant.

Sultonmurod majlisdagilarning gapidan, Alisherning hali saroya ekanligini fahmladi. Oradan ko'p vaqt o'tmay kimdir shoirning kelganidan xabar berdi. Sultonmurod darhol o'zini ayvonga oldi. Shu vaqt uyidagilarning aksari, shu jumladan mavlono Fasixiddin ham chiqdi. Hammaning ko'zi unda-munda daraxtlar o'sgan hovlida edi. Zarbob to'n kiygan, mag'rur bir necha saroy odamlari orasida Sultonmurod shoirmi xuddi ilgari ko'rgandek darrov tanib oldi, ko'zlarini cheksiz quvonch bilan yonib ketdi. Shoirning boshida uchli ko'k taqyaga o'ralgan ko'r kamgina salsa. Egnida odmi shoxi to'n, ustida yalang qo'ng'ir movut chakmon... Navoiy o'ttizdan oshmagani bo'lsa ham, yoshi ulug'roq

ko'rindi. Qomati o'rtadan baland, ingichka; lekin pishiq barmoqlari uzun va nafis; qora va qisqa soqoli, xushbichim miyiplari tekis va silliq, yonoqlari chiqiqroq, kengina yuzida doimiy tafakkurning asl ma'nosi, ma'naviy qudrat va yengil, go'zallashtiruvchi bir xorg'inlik jilvalanadi. Qabariqroq qovoqlari ostidagi qiyg'och ko'zlarida go'yo tafakkur va xayol bilan birga qandaydir iroda kuchli ifodalanadi.

(Oybekdan)

### Nutq boyligi

#### Topshiriqlar:

1. Matnning mazmuni bilan tanishing va shu fikrlarni yuzaga chiqarish uchun muallif qancha til birligidan foydalanganiga e'tibor bering.
2. Matnda ishlatilgan so'zlarni alifbo asosida yozib chiqing. Ko'p marta ishlatilgan so'zlarning sonini aniqlang. Qaysi turkum so'zlari ko'proq takrorlangan.
3. Ortiqcha ishlatiladigan so'zlarning bor-yo'qligiga e'tibor bering.

#### Adabiyotlar.

- 1.Qo'ng'irov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. Toshkent, 1977.
- 2.Qilichov E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. Toshkent 1962.
- 3.Головин В.Н. Основы культуры речи. М., 1980.
- 4.Umirqulov B. So'z tanlash san'ati. Toshkent, 1985.
5. A'limova M.Nutqda aks etar bir olam boylik. Toshkent, 1988.

#### 1-variant.

Xadichaxon Boburni qasrning muhtasham qabulxonasida kutib oldi va oyog'i ham quyma oltindan ishlangan, ustiga yaxlit sadaf qoplangan miz yoniga o'tqazdi.

Salobatli xushqomat beginning orqarog'ida —qabulxonaning eng ko'zga ko'rinarli joyida bir tup atirgul yarqirab turibdi: poyalari oltindan, barglari zumraddan, to'q qizil gullari yoqutdan. Gul shoxiga qo'nib turgan kichkina oltin bulbulning tumshuqchasida don o'mida sof gavxar jilolanib turibdi. Qabulxonaning eshik va

derazalariga osilgan shoxi darpardalariga ham durlar, la'llar va boshqa qimmatbaho toshlar qadalgan.

Faqat Xadichabeginning o'zi qoramtil-kumushrang parchadan bezaksiz qabo kiygan, uning boshidagi ko'kish toqida ko'zga uncha tashlanmaydigan siyrak marvarid donalari ko'rinar edi. Aqlni shoshiradigan bunday javohirot orasida go'zal qiz-juvonlar qurshovida o'tirgan ellik yoshli ulug'sifat malika Boburni ham, Qosimbekni ham ancha dovdiratib qo'ydi.

(P. Qodirovdan)

### 2-variant.

Mana, qariyb bir oydirki, Onaxon uyda to'shakda mixlanganday qimir etmay yotadi... Tinimsiz azobli og'riq uning ruhini, miyasini charchatar, bu ayniqsa boshini yo qo'lini bir oz qimirlatganda yoki uning karavatini uydan ayvonga va ayvondan uyga ko'chirganlarida ko'proq sezilar edi. Ba'zan miyadagi og'riq lovullab butun badanini qoplab olar, isitma birdan ko'tarilib, ko'zlaridan o't chiqquday bo'lar, keyin hammayoq qorong'ilashib, Onaxon tubsiz va dahshatli qandaydir yoqimsiz iliq to'lqinda suzib ketayotganday bo'lar, xushini yo'qotar edi... Avvallari ikki haftagacha uni uyqusizlik qiyndi, sal pinakka ketishi bilan ko'z oldida paydo bo'ladigan qo'rqinchli narsalar, bosinqirashlar uni uyqudan cho'chitib qo'ydi, uyqu unga dahshatli ko'rinar edi, shuning uchun ko'zini yummashlikka tirishar, bu esa uni battar toliqtirar, og'riqqa qarshi chidamini susaytirar edi. Dastlabki kunlarda o'qtin-o'qtin xushidan ketib turgan Onaxonning nazarida uning hayoti milt-milt etib xira yonayotgan shamdek, uzilib-uzilib davom etganday ko'rinar edi.

(A. Muxtordan)

### 3-variant.

Men dunyoga kelgan kundanoq  
Vatanim deb seni uyg'ondim,  
Odam baxti bиргина senda.  
Bo'luriga mukammal qondim.  
Qulog'imga noming kirganda  
Qumlik kabi tashna boqurman,  
Sening jannat vodiylaringdan  
Nahrlarday to'lib oqurman.

Bilsinlarkim, yo'ldoshim bo'lmas,  
Ko'zda yoshi bilan kulganlar,  
Tillari bor, o'zları hayot,  
Lekin yurak-bag'ri o'lganlar.  
Har aytganing buyuk jangnoma,  
Qayga desang qaytmay keturnaman.  
Ko'zlarimni yummashman aslo —  
Daryo kabi uyg'oq o'turman.

(H. Olimjon)

#### 4-variant.

Shoir "Xiyobon" ko'chasini o'tib, "Bog'i zog'on"ning katta darvozasiga yetishi bilan bu yerda tartib kuzatib turgan navkarlar Muhurdorga salom berib, darrov otning jilovini ushladilar. Shoir ularning yordamisiz otdan tushdi-da "Bog'i zog'on"ga kirdi. Bu turli qasrlar, ko'llar va boshqa go'zal binolar va ajoyib xiyobonlarga boy g'oyat katta bog' edi. Daraxtlar oralab ketgan keng, toza va quyosh nurlari bilan olachalpoq yo'ldan borib, bir necha tanob joyni ishg'ol etgan katta gulzorga chiqdi. Bu yerga go'yo butun dunyoning gullari to'plangan edi. Turli-tuman rang va ziyo bilan quyoshda yashagan bu chaman ko'zlarni qamashtirardi. Navoiy gulni, rangni juda sevar edi. Har kungidek to'xtab, zavq bilan tomosha qildi. Keyin bu chamanzor qarshisidagi koshonaga — devorlari, ustlari, eshiklari naqqoshlar qo'li bilan yasalgan naqsh gulzorini tovlantirgan binoga tomon yurdi. Oltin qubbachalar, o'ymakor gullar bilan bezangan eshikni ochib, kichikroq, lekin serhasham bir xonaga kirdi.

(Oybekdan)

#### 5-variant.

Anvar "istehzoli" vaziyatda Sultonaliga yon qaradi:

— Menim qarshimga ishlab, janobga neqadar sodiq qolsangiz ham, sadoqatingiz sizni najotga chiqara olmadi, bil'aks, siz o'ylagancha men insofsiz sizni qutqardim... Siz shuni unutmasangiz bo'ldi, Sultonali aka! — dedi Anvar va xonga ishorat qildi, - Qo'limni bog'lasinlar, chiqarib o'ladirsinlar!

Sultonali orqasiga qaytdi, qaytar ekan, ko'zidan bir necha tomchi yosh oqib tushdi. Jalloidlardan biri kelib, Anvarning qo'lini

orqasiga bog‘ladi. Anvarning qo‘li bog‘lanar ekan, Muhammad Niyozi domla o‘rnidan turib, xonga qulluq qildi.

— Shu odobsizning gunohini mening uchun kechsinlar.

Xon yuzini chetga o‘girdi:

— Rastag‘a chiqaring!

Anvar, xonni va hamnishinlarini masxaralagandek, ta’zim ado qildi. Jallod oldinga tushdi. Uning orqasidan ikki qurollik yasovul ergashdilar. Anvar o‘zini o‘rdaga kirishda qanday tetik tutgan bo‘lsa, o‘lim sari chiqishda ham o‘shandog‘ parvosiz edi. Ko‘zi tushgan har kimsa bilan “xayr”, “xush” degan kabi imlashib olar edi. Rangi quv o‘chib, xushsiz kabi tashqi darvoza yonida turgan Sultonali bilan ham alohida vidolashdi. Anvarning qarashidagi ma’noga tushungan Sultonalining yuragi suv bo‘lib oqdi va xushsiz, hissiz Anvar ko‘zdan yo‘qolguncha qarab qoldi...

(A. Qodiriydan)

### Ovozni ishlatalish va nutq mexanikasi

Adabiyotlar:

1. Ortiqov Q., Obidova M, Ifodali o‘qish. Toshkent, 1962.
2. Ibrohimov S. Adabiy talaffuz madaniyati. Toshkent, 1972.
3. Ibrohimov S. Nutq madaniyati va adabiy talaffuz haqida. Toshkent, 1972.
4. Usmonova O‘. Talaffuz madaniyati. Toshkent, 1976.
5. Mirzayeva M. va boshqalar. O‘zbek tili (darslik). Toshkent, 1979.

### 1-variant.

Topshiriqlar:

Quyidagi berilgan so‘zlarda *l* va *r* tovushlarini aniq talaffuz qilishni mashq qiling, ular talaffuzida ishtiroy etgan nutq organlariga e’tibor bering.

O‘zbek tilining izohli lug‘atidan foydalangan holda *a* xarfi bilan bog‘langan so‘zlarning ma’nolarini aniqlang: har bir ma’noni ochuvchi jumlalar tuzing.

A) lab-raf, latta-raddiya, lobar-rahbar, loy-roy, laycha-ra'yicha, lota-ruda, lasso-raso, lat (yemoq)-rad (etmoq), limon-remont, limit-remen.

B) bol-bor, ol-or, zol-zor, xol-xor, kal-kar, to'l-to'r, ko'l-ko'r, bo'l-bo'r, zal-zar, tol-tor;

D) kalla-karra, alla-arra, balli-barra, salla-surra, zarra, buro, qirra, urra!, taraq, tilla, balli.

2. She'riy parchani ifodali o'qing, *l*, *r* tovushlarini jarangdor aytishga harakat qiling.

Yurtim, senga she'r bitdim bukun,  
Qiyosingni topmadim aslo,  
Shoirlar bor, o'z yurtin butun —  
Olam aro atagan tanho.  
Ular she'ri uchdi ko'p yiroq,  
Qanotida kumush diyori.  
Bir o'lka bor dunyoda bitroq,  
Bitilmagan dostondir bori:  
Faqat ojiz qalamim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim...

(A. Oripovdan)

## 2-variant.

### Topshiriqlar:

1. Quyidagi berilgan so'zlarda *s* va *sh* tovushlarini to'g'ri va ravshan talaffuz etishni mashq qiling; ajratib berilgan so'zlarning ma'nolarini "O'zbek tilining izohli lug'ati" asosida aniqlang va ular ishtirokida gaplar tuzing. Yondosh kelgan *sh*, *s* tovushlarining assimilatsiyasiga e'tibor bering:

- a) so'r-sho'r, so'ra-sho'ra, sira-shira, siroj-shirach
- b) tos-tosh, tus-tush, qis-qish, is-ish, os-osh, bos-bosh, es-esh, xas-g'ash, guras-kurash;
- d) oshsiz, boshsiz, tishsiz, ishsiz, kurashsiz.

2. Parchani ifodali o'qing. *s*, *sh* tovushlarining talaffuz meyyorlariga e'tibor bering. Har bir so'zning ma'nosidan qat'iy nazar hayajon bilan o'qishga intiling.

"Bola kechalari yolg'iz o'zi hovliga chiqishga qo'rqadi, nazarida tunning ajinalari, o'g'rilari bo'lardi. Ayniqsa, uzun qish kechalari tashqarida jahldor shamollar vahshat solib chopishganda u onasining yonidan nari ketmasdi. Bolaning Barchin opasi hamda Botir akalari esa sandal atrofiga tizilishib, negadir ajinalaru boyo'g'lilar,

allaqanday ko'zga ko'rinas narsalar haqida biri olib biri qo'yib, uzoq gaplashishardi. Onasi har zamonda: "Bo'ldi hu-uv, ertaga maktabga... qayoqdagi gaplarni topasanlara-ey" deb qo'yardi.

(Jurnaldan)

### 3-variant.

#### Topshiriqlar:

1. Quyidagi so'zlarda *x* va *h* tovushlarini to'g'ri talaffuz etishni mashq qiling. Ularning har birini talaffuz etishda qaysi nutq organlari ishtirok etadi? "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan ajratib berilgan so'zlarning ma'nolarini toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

a) xol-hol, xat-hat, xar-har, xam-ham, xas-hasrat, xalq-halqum, xo'r(lamoq)-hur, xalta-halqa, xusumat-hukumat;

b) axloq-ahvol, ixtiyor-ehtiros, baxt-bahs, mixlat(moq)-mehnat, bexol-ahvol, taxir-Tohir, zaxmdor-zahmatkash, intixob-imtihon.

2. Parchani *x* va *h* tovushlarining talaffuziga e'tibor berib, ifodali o'qing. O'qiganda nafasdan to'g'ri foydalaning. Tovushlarning paydo bo'lishi o'rnlari, usullari, ular talaffuzida ishtirok etgan nutq organlari ustida mulohaza yuriting, *x* va *h* harfli so'zlarni ustunlarga bo'lib ko'chiring.

"Sarbadorlarning g'aroyib ishlari takyaxonada o'tirganlarning xayolini butkul o'g'irlab qo'ydi. Hech kim ovoz chiqarmas, garchi hikoya tugaganligini bilsalar ham, nechukdir davomini kutishardi. Barcha hozir Samarcanda, Lakshmanning chuqurtak hovlisida emas, go'yo Sabzavorda, Boshtish, Mashhad, Nishapur, Kirmanu, Simnonda kezib yurardi. Usta Kulol oyoqlarini yig'ib, bir-biriga chalishtirib olgan qo'llarini tizzalariga qo'ygancha bir maromda, ohista boshini tebratib o'ltirardi. Halvoyi kichik jussasini qayerga qo'yishini bilmagandek bezovta bo'lib "Bay-bay! Bay-bay!" deb qo'yardi. Nozim Mehmet jim o'tirar, xayollar og'ushida tez-tez burnini ushlab qo'yayotgannini o'zi sezmasdi. Lakshman katta-katta ko'zlarini roviya tikkancha qotib qolgandi. Xo'rdak Buxoriyga hikoya shunchalar ta'sir qildiki, butun hikoya davomida u goh-gohida "Ie! Ie! Men bo'lma'bman-da!", "Qangshariga solish kerak edi!", "Izini quritish kerak!" deb g'o'ldirab o'ltirdi. Mavlonozoda

tinglar ekan, ichida Xo'rdak Buxoriydan benihoya minnatdor bo'lardi. Axir u bo'lmaganda, Mavlonozodaga bu yerlar qayoqdayu, sarbadorlar haqidagi turfa naqlni eshitish qayoqda edi?"

(Muhammad Alidan)

#### 4-variant.

##### Topshiriqlar:

1. Berilgan so'zlarning birinchi, ikkinchi, uchinchi bo'g'inlarida kelgan, *a*, *o* tovushlarini to'g'ri talaffuz qiling. Tilning harakatiga ko'ra ularning qayerda paydo bo'lishiga ahamiyat bering. Ajratib beriladigan so'zlarning ma'nolariga diqqat qiling, ular ishtirokida gaplar tuzing:

- a) anor-ona, aro-ora, balo-bola, qaro-qora, sado-soda, ato-ota, alam-olam, dari(moq)-dori, asar-osar;
- b) karomat, salomat, sadoqat, saodat, adolat, ijobat, andoza;
- d) musallo, musaffo, indallo, diydiyo, Surayyo, Nasrullo.

She'rni ifodlai o'qing. Ba'zi so'zlarda "a"ga moyil "o" tovushiga e'tibor bering.

Agar...

Bilag'on deya kerilma,  
Ilmi amalingga sajda qilma san.  
Aflatun bo'lsang ham, bilganlaring bekor,  
O'z xalqingning dardin bilmasang.  
Hazarati Suloyman bo'l , ming bir zabon bil,  
Egalla bulbulning xush ovozini,  
Ammo soqov, karsan, agar unutsang  
O'z xalqingning so'zu sozini,  
O'z kuningni ko'r izlab yolg'iz  
So'ngan o'choqlaring kulidan,  
Kun ko'rmabsan bo'lsang bexabar,  
O'z xalqingning ko'rgan kunidan,  
Jumlai basharni ulug'la, mayli,  
Ming tavof qil basti-qaddini,  
O'zgalardan qadr topmagaysan,  
O'z xalqingning bilmay qadrini

Majnun bo'l, qalbingni tortiq qil,  
Qasam ich, sevganiningdan dostonlar yasa.  
Baribir ko'ksingda yurak emas, tosh,  
O'z xalqing mehridan olovlanmasa!

(Ahmad Selo'g'li)

### 5-variant.

#### Topshiriqlar:

1. Berilgan co'zlardagi *u*, *o'* tovushlarini to'liq maxraji bilan to'liq aytishga intiling: *u* ni, *i* dan, *o'* ni, *u* dan keskin ajratib talaffuz eting. Berilgan so'zlarning ma'nolarini aniqlang va gaplar tuzing.

a) ur-o'r, tur-to'r, sur-so'r(moq), turoq-o'roq, Usmon-O'smat, turt-to'rt, uzum-o'zim, qursoq-qo'rsroq, kurak-ko'rak;

b) unum-inim, uzum-izim, tuzum-tizim, burun-birin (-ketin), turna-tirnoq, ushla(moq)-ishla(moq), tulak-tilak, kuzak-kizak, urmoq-irmoq, surat-siyrat.

2. Parchani ifodali o'qing. Yozuv bilan talaffuz orasida farq sezilgan o'rnlarni belgilang, sababini tushuntiring.

«Nabi Taroq oltmishdan oshib qolgan. Bir mahallar xuddi otasi – Qobil Taroqchidek yo'g'ondan kelgan baland bo'yli, keng peshanali, qirra burun, jingalak sochli xushsurat yigit edi. Vaqt kutmas ekan, ancha qarib, cho'kib qoldi. Sochlari qachon oqorganini, qachon suyraklashib ketganini eslolmaydi ham (kim biladi, Bahrom sartaroshdan surishtirish kerakmikan?) U hamma vaqt sochini qirtishlab oldirib yuradi. Uzoq yilning erta ko'klamidan beri o'ng oyog'i oqsaydigan bo'lib qoldi. Urush yillarida to'pig'ini uchirib o'tgan o'qning asoratimi, u murojaat qilgan vrachlarning belgilashi bo'yicha o'sha yerga tuz yig'ilganidanmikan, ishqilib, oqsaydigan bo'ldi-ko'ydi. Faqat, fe'li o'sha-o'sha. Ana shu o'zgarmas fe'li tufayli ham biri ikki bo'lmaydi...

U ingichka, uchi qayrilgan mis sim bilan samovar tagini kavladi: bir siqim kul tushdi. O'txonaga tutantiriq tashlab, olov yoqdi. O't tezda olib, achchiq tutun burqsadi. Taroqning ko'zлari achishib yoshlandi. U ko'z yoshlарini ko'ylagining yengiga artdi, otashkurakda uch-to'rt bo'lak ko'mir tashladи, undan so'ng chiqib odoq bo'lган, og'zi qiyshayib ketgan samovar karnayini kiyg'izди”

(Abbos Saidovdan)

---

## IX bo'lim. SHE'R O'QISH MASHQI

### NAZM NAMUNALARI

*ALISHER NAVOIY*

---

Mehr ko'p ko'rguzdim, ammo mehribone topmadim,  
Jon base qildim fido oromi jone topmadim.

G'am bila jonimg'a yettim, g'amgusore ko'rmadim,  
Hajr ila dilxasta bo'ldum, dilsitone topmadim.

Ishq aro yuz ming malomat o'qig'a bo'ldum nishon,  
Bir kamon abro'da tuzlukdin nishone topmadim.

Ko'nglum ichra sarv o'qdur, g'uncha paykon, gul tikan,  
Dahr bog'i ichra mundoq gulistone topmadim.

Husn mulki ichra sendek shohi zolim ko'rmadim,  
Ishq ko'yida o'zimdek notavone topmadim.

Ko'p o'qudum Vomiqu Farhodu Majnun qissasin,  
O'z ishimdin bul — ajabroq dostone topmadim.

Ul amon ichinda bo'lsun, ey Navoiy, garchi men,  
Bir zamon ishqida mehnatdin amone topmadim.

Ta'b ganjidin maoni xurdasin yuz qatla hayf,  
Kim nisor etmakka shohi xurdadone topmadim.

Kimga qildim bir vafokim, yuz jafosin ko'rmadim,  
Ko'rguzib yuz mehr, ming dardu balosin ko'rmadim.

Kimga boshimni fido qildimki, boshim qasdig'a,  
Har tarafdin yuz tuman tig'i jafosin ko'rmadim.

Kimga ko'nglum ayladi mehru muhabbat foshkim,  
Har vafog'a yuz jafo oning jazosin ko'rmadim.

Kimga jonimni asir ettimki, jonim qasdig'a,  
G'ayr sori xulqu lutfi jon fizosin ko'rmadim.

Kimga soldim ko'z qaroyu oqini ishq ichrakim,  
Qon aro pinhon ko'zum oqu qarosin ko'rmadim.

Sen vafo husn ahlidin qilma tavaqqu', ey rafiq,  
Kim, men ushbu xaylning husni vafosin ko'rmadim.

Ey, Navoiy, tavba andin qilmadim shayx oldida,  
Kim bu ishda dayr pirining rizosin ko'rmadim.

O'n sakkiz ming olam oshubi agar boshindadur,  
Ne ajab, chun sarvinozim o'n sakkiz yoshindadur.

Desa bo'lg'aykim, yana ham o'n sakkiz yil husni bor,  
O'n sakkiz yoshinda muncha fitnakim boshindadur.

O'n sakkiz yil dema, yuz sakson yil o'tsa, uldurur,  
Husn shohi, ul balolarkim ko'zu qoshindadur...

Tan anga siymu ichinda tosh muzmar ko'nglidin,  
Aqlg'a yuz hayrat ul oyning ichu toshindadur.

May ketur, ey mug'ki, yuz hayrat aro qolmish Masih,  
Bul ajablarkim, bu eski dayr xuffoshindadur.

To Navoiy to'kti ul oy furqatindin bahri ashk,  
Har qachon boqsang, quyosh aksi aning yoshindadur.

\*\*\*

Necha yolg'on so'zu muzhik harakot, ey voiz,  
Majlis ahli yuzidin yo'qmu uyot, ey voiz.

Dedilar: pand ila tavsanalig'in elning o'kut,  
Kim dedi: tepkilu minbarni ushot, ey voiz.

Huru jannatni ko'p o'qding magar ul yon elni,  
Yuborurga qilasen qat'i hayot, ey voiz.

Yoshurun dardimadur ashku, emas nutqingning,  
Asaridin yuzum uzra qatarot, ey voiz.

Kecha ichmak mayu kunduz demak ichmang ani,  
Hikmat ichra bu erur yaxshi sifot, ey voiz.

O'zgacha bo'lmoqu o'zgacha o'zin ko'rsatmoq,  
Ko'z tut o'z holingga tafzihini bot, ey voiz.

Dayr piri qulidurmenkim, agarchi may ichar,  
Bori bor o'z ichinda anga sabot, ey voiz.

Elni chun zarq namozi so'ziga jam' etting,  
Tortg'il tafriqaga emdi salot, ey voiz.

### SAYDING QO'YA BER, SAYYOD

Sayding qo'ya ber, sayyod, sayyora ekan mandek,  
Ol domini bo'ynidin, bechora ekan mandek.  
O'z yorini topmasdan, ovora ekan mandek,  
Iqboli nigun baxti ham qora ekan mandek.  
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mandek,  
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mandek.

Kes rishtanikim, qilsin chapaklar otib jasta,  
Hajrida alam tortib, bo'ldi jagari xasta.  
Tog'larga chiqib bo'lsun yori bila payvasta,  
Kel, qo'yma balo domi birla oni porasta,  
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mandek,  
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mandek.

Besh kun seni davringda bechora xirom etsun,  
Ohular ila o'ynab, ayshini mudom etsun,  
Yomg'ir suvi to'lganda tog' lolani jom etsun,  
Haqqing'a duo aylab, umrini tamom etsun,  
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mandek,  
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mandek.

Sargashta bu vodiyda bir boshig'a rahm etkil,  
Yo'q toqati bandingga, bardoshiga rahm etkil,  
Yig'lab senga termular, ko'z yoshiga rahm etkil,  
Rahm etmasang o'ziga, yo'ldoshiga rahm etkil,  
Hijron o'qidin jismi ko'p yora ekan mandek,  
Kuygan jigari-bag'ri sadpora ekan mandek.

Tog‘da ochilib lola, yer sabza bahor o‘lsa,  
Oxir bu nechuk bedod, olam anga tor o‘lsa.  
Chiqmay desa joyidin – uzlatda fitor o‘lsa,  
Gar chiqsa banogohi dimog‘a duchor o‘lsa,  
Hijron o‘qidin jismi ko‘p yora ekan mandek,  
Kuygan jigari-bag‘ri sadpora ekan mandek.

Bechorani zulm aylab, qo‘l-bo‘ynini bog‘labsan,  
Har sori chekib-sudrab, o‘ldirgani chog‘labsan,  
Ko‘ksin jafo birla lola kabi dog‘labsan,  
Sot manga, agar qasding olg‘uvchi so‘rog‘labsan!  
Hijron o‘qidin jismi ko‘p yora ekan mandek,  
Kuygan jigari-bag‘ri sadpora ekan mandek.

Yo‘q xushi, pari tekkan devonaga o‘xshaydur,  
Ko‘z yoshi yana to‘lgan paymonag‘a o‘xshaydur,  
G‘am seli bilan ko‘ngli vayronaga o‘xshaydur,  
Furqatda bu Sa’dullo hayronaga o‘xshaydur,  
Hijron o‘qidin jismi ko‘p yora ekan mandek,  
Kuygan jigari-bag‘ri sadpora ekan mandek.

### GO'ZAL

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,  
Eng yorug' yulduzdan seni so'raymen.  
Ul yulduz uyalib, boshini bukib,  
Aytadir: "Men uni tushda ko'ramen.

Tushumda ko'ramen shunchalar go'zal,  
Bizdan-da go'zaldir, oydan-da go'zal!.."

Ko'zimni olamen oy chiqqan yoqqa,  
Boshlaymen oydan-da seni so'rmoqqa,  
Ul-da aytadirki: "Qizil yonoqqa  
Uchradim tushimda ko'milgan oqqa.

Oqqa ko'milganda shunchalar go'zal  
Mendan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!.."

Erta tong shamoli sochlari yozib,  
Yonimdan o'tganda so'rab ko'ramen.  
Aytadir: "Bir ko'rib, yo'limdan ozib,  
Tog'u toshlar ichra istab yuramen!

Bir ko'rdim men uni shunchalar go'zal,  
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!.."

Ul ketgach kun chiqar yorug'lik sochib,  
Undan-da so'raymen sening to'g'ringda.  
Ul-da uyatidan berkinib, qochib,  
Aytadir bir ko'rdim, tushdamas o'ngda.

Men o'ngda ko'rganda shunchalar go'zal,  
Oydan-da go'zaldir... mendan-da go'zal!..”

Men yo'qsil na bo'lib uni suyubmen?!  
Uning-chun yonibmen, yonib-kuyubmen.  
Boshimni zo'r ishga berib qo'yubmen,  
Men suyub... men suyub... kimni suyubmen?  
Men suygan “suyukli” shunchalar go'zal,  
Oydan-da go'zaldir, kundan-da go'zal!!!

## *OYBEK*

---

### **O'ZBEKİSTON**

Bir o'lkaki, tuprog'ida oltin gullaydi,  
Bir o'lkaki, qishlarida shivirlar bahor.,  
Bir o'lkaki, sal ko'rmasa, quyosh sog'inar...  
Bir o'lkaki g'ayratidan asabi chaqnar.  
Baxt toshini chaqib, bunda kuch guvillaydi.

.....

Yaratildi bir shoh asar, go'zal bir doston,  
'Gadir - budur mehnat qo'li bitgandir buni,  
Kelajakning bahoridan olingan kuyi,  
Xayollarga sig'maydi hech buning mazmuni,  
Qofiyadir fabriklar - la qizlar qo'shig'i,  
O'qi va sev! Buning ismi yosh O'ZBEKİSTON.

### **NA'MATAK**

Nafis chayqaladi bir tup na'matak  
Yuksakda, shamolning belanchagida,  
Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul,  
Viqor-la o'shshaygan qoya labida.  
Nafis chayqaladi bir tup na'matak...

Mayin raqsiga hech qoniqmas ko'ngil,  
Vaxshiy toshlarga ham u berar fusun.

So'nmaydi yuzida yorqin tabassum.  
Yanoqlarni tutib oltin bo'sa-chun,  
Quyoshga tutadi bir savat oq gul!

Poyida yig'laydi kumush qor yum-yum...  
Nafis chayqaladi bir tup na'matak  
Shamol injularin separ chashmadek  
Boshida bir savat oq yulduz — chechak,  
Nozik salomlari naqadar ma'sum!

Tog'lar havosining feruzasidan  
Mayin tovlanadi butun nixoli.  
Vahshiy qoyalarning ajib ijodi:  
Yuksakda raqs etar bir tub na'matak  
Quyoshga bir savat gul tutib xursand!

· VAQT

G'uncha ochilguncha o'tgan fursatni  
Kapalak umriga qiyos etgulik,  
Ba'zida bir nafas olgulik muddat –  
Ming yulduz so'nishi uchun yetgulik.

Yashash soatining oltin kapgiri  
Har borib kelishi bir olam zamon,  
Koinot bu damda o'z kurrashidan  
Yasab chiqa olur yangidan jahon.

Yarim soat ichida tug'ilib, o'sib  
Yashab, umr ko'rib, o'tguvchilar bor:  
Ko'z ochib yumguncha o'tgan dam – qimmat.  
Bir lahza mazmuni bir butun bahor.

Bir onning bahosin o'lchamoq uchun  
Oltindan tarozu, olmosdan tosh oz.  
Nurlar qadami-la chopgan sekundning  
Barini tutolmas ayyuhannos ovoz.

Aziz asrimizning aziz onlari,  
Aziz odamlardan so'raydi qadrin.  
Fursat g'animatduri, shoh satrlar-la  
Bezamoq chog'idir umr daftarin.

Hayot sharobidan bir qultum yutay,  
Damlar g‘animatdur, umrzoq soqiy.  
Quyosh-ku falakda kezib yuribdi,  
Umrimiz boqiydir, umrimiz boqiy.

## VATAN UMIDI

Agarchi ismim Erkin,  
Erki yo‘q, banda kishan bo‘ldim,  
Ko‘zim bog‘liq, dilim bog‘liq.  
Tilim yo‘q, besuxan bo‘ldim.  
Ko‘rib hayratga tushdi  
Bu jahon holi parishonim,  
Bamisli ankabut so‘rgan —  
Chibin, pajmurda tan bo‘ldim.  
Muazzam Sayhunu Jayhun —  
Labida tashnalab qoldim,  
Kiyintirdim jahonni,  
Jismi uryon, bekafan bo‘ldim.  
Chekibdur Boburu Furqat  
Vatan hajrida afg‘onlar,  
Men ersam, vah, ne g‘urbatkim,  
Vatanda bevatan bo‘ldim.  
Olisda, oh diyorum, deb  
Sog‘ingan, ey vatandoshim,  
Dema sen, o‘zni bebaxt,  
Baxti yo‘q aslida man bo‘ldim.  
Shukrkim, keldi istiqlol,  
Umidim rost qil, Ollohim,  
Ki shoyad beqafas bulbul  
Kabi sohibchaman bo‘ldim.  
Ishonchim bor, Vatan, bir kun  
Kelar chin nurli davroning,  
Degayman shunda chin Erkin,  
Chin inson qaytadan bo‘ldim.

## VATAN ISTAGI

Bu Vatanda bir Vatan  
qurmoqni istaydi ko'ngil,  
Beqafas qushdek o'zin  
ko'rmoqni istaydir ko'ngil.  
Bu Vatan timsoli bo'lsa,  
teng quyoshi shu'lavor,  
Shu'lalar qo'ynida charx  
urmoqni istaydir ko'ngil.  
Ul Vatanga bayroq — insof,  
tug'i — sarhad, muhri — mehr,  
Sarhad uzra soqchidek  
turmoqni istaydir ko'ngil.  
Ul Vatan bo'yniga zanjir  
solmoq istar kimki boz,  
Ko'ziga nafrat o'qin  
urmoqni istaydir ko'ngil.  
Ul Vatan yelkanlarini  
ma'rifat ummonida  
Qiblai imon sari  
burmoqni istaydir ko'ngil,  
Bas, yetar yolg'on saodat,  
yolg'on erk, yolg'on Vatan,  
Hurriyat zavqini chin  
surmoqni istaydir ko'ngil.  
Qutlug' istiqlol kunida  
ey, Vatan, bag'ringda shod  
Erkin o'g'ling bo'lib  
yurmoqni istaydir ko'ngil.

## O'ZBEKISTON

Yurtim, senga she'r bitdim bukun,  
Qiyosingni topmadim aslo.  
Shoirlar bor, o'z yurtin butun –  
Olam aro atagan tanho.  
Ular she'ri uchdi ko'p yiroq,  
Qanotida kumush diyori.  
Bir o'lka bor dunyoda biroq  
Bitilmagan dostondir bori.  
Faqat ojiz qalamim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Yurmasman hech behishtni izlab,  
Topolmasam chekmasman alam.  
O'tirmasman ertaklar so'zlab,  
Musallo deb yo'nmasman qalam.  
Ko'klamingdan olib sururni  
Dovrug' soldi ustoz Olimjon.  
G'afur G'ulom tuygan g'ururni  
Qilmoq mumkin dunyoga doston.  
Olis tarix qadamim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Kechmishing bor chindan ham uzoq,  
Ilg'ay olmas barchasin ko'zim.  
Maqtamasman moziyni biroq,  
O'tmishingni o'ylayman bir zum.

Zabtga olib keng Osiyoni,  
Bir zot chiqdi mag'rur, davongir.  
Ikki asr yarim dunyoni  
Zir qaqshatdi Buyuk jahongir.  
Aytgum, bukun, u manim, manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Bobolardan so'z ketsa zinhor,  
Bir kalom bor gap avvalida.  
Osmon ilmi tug'ulgan ilk bor  
Kuragoniy jadvallarida.  
Qotil qo'li qilich soldi mast,  
Quyosh bo'lib uchdi tilla bosh.  
Do'stlar, ko'kda yulduzlar emas,  
U Ulug'bek ko'zidagi yosh.  
Yerda qolgan, o, tanim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Ko'z oldimda kechar asrlar,  
Ko'z-ko'z etib nuqsu chiroyin.  
Sarson o'tgan necha nasllar  
Topolmasdan tug'ilgan joyin.  
Amerika – sehrli diyor,  
Uxlar edi Kolumb ham hali.  
Dengiz ortin yoritdi ilk bor  
Beruniyning aql mash'ali.  
Kolumbda bor alamim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Ko'p jahongir ko'rgan bu dunyo,  
Hammasiga guvoh – yer osti.  
Lekin, do'stlar, she'r ahli aro  
Jahongiri kam bo'lar, rosti.  
Besh asrkim, nazmiy saroyni

Titratadi zanjirband bir sher.  
Temur tig'i yetmagan joyni  
Qalam bilan oldi Alisher.  
Dunyo bo'ldi chamanim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Bobolardan so'zladim, ammo  
Bir zot borkim, baridan suyuk:  
Buyuklarga baxsh etgan daho,  
Ona xalqim, o'zingsan buyuk.  
Sen o'zingsan, eng so'nggi nonin  
O'zi emay o'g'liga tutgan.  
Sen o'zingsan, farzandlar shonin  
Asrlardan opichlab o'tgan.  
Ona xalqim, jon-tanim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim...

Bosh ustingdan o'tdi ko'p zamon,  
O'tdi Budda, o'tdi Zardushti,  
Har uchragan nokasu nodon,  
Ona xalqim, yoqangdan tutdi.  
Seni Chingiz g'azabga to'lib  
Yo'qotmoqchi bo'ldi dunyodan,  
Jaloliddin samani bo'lib  
Sakrab o'tding Amudaryodan.  
Sensan o'shal samanim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

Toleingda bor ekan yashash,  
Goh qon ichding, gohida sharob,  
Etmoq bo'lib yurtim homtalash,  
Bosh ustingga keldi inqilob.  
Chora istab jang maydonidan  
Samolarga uchdi unlaring,

Shahidlarning qirmiz qonidan  
Alvon bo‘ldi qora tunlaring.  
Qonga to‘lgan kafanim manim,  
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Lekin oftob poymol o‘lmas,  
Kavaklarda qolmas oy nuri,  
Odil hakam — Haq bor, beg‘araz,  
Mazlumlarning buyuk g‘amxo‘ri.  
Qilich serpab tole tongida  
O‘zligingni tanib qolding sen.  
O‘g‘lonlarning qatra qonida  
O‘zbekiston nomin olding sen.  
Nomi qutlug‘ gulshanim manim,  
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Tinch turarmi bu ko‘hna olam,  
Tinch turarmi dog‘uli zamon.  
Oromingni buzdi sening ham  
Fashist degan vahshiy olamon.  
Qonim oqli Dansigda manim,  
Sobir Rahim yiqilgan chog‘da.  
Lekin, yurtim, kezolmas g‘anim,  
O‘zbekiston atalgan bog‘da.  
Sensan nomus va sha’nim manim,  
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Kech kuz edi, men seni ko‘rdim,  
Derazamdan boqardi birov.  
U sen eding, o, dehqon yurtim,  
Turar eding yalagto‘sh, yayov.  
— Tashqarida izillar yomg‘ir,  
Kir, bobojon, yayragil bir oz.

Deding: — Paxtam qoldi-ku axir,  
Yig‘gishtiray kelmasdan ayoz.  
Ketding, umri mahzanim manim,  
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Sen ketarsan balki yiroqqa,  
Farg‘onada balki balqarsan.  
Balki chiqib oqargan toqqa,  
Cho‘pon bo‘lib gulxan yoqarsan.  
Balki ustoz Oybekdek to‘lib,  
Yozajaksan yangi bir doston,  
Balki Habib Abdulla bo‘lib,  
Sahrolarda ochajaksan kon.  
Tuprog‘i zar, ma’danim manim,  
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Mayli, yurtim, kezsang ham dunyo,  
Fazolarga qo‘ysang ham qadam,  
O‘zligingni unutma aslo,  
Unutma hech, onajon o‘lkam.  
Bir o‘lingdek men ham bu zamon  
Kechmishingni qildim tomosha  
Iqbolingni ko‘roldim ayon,  
Istiqlolning ufqlari osha.  
Iqboli hur, sho‘x-shanim manim.  
O‘zbekiston, Vatanim manim.

Zavol ko‘rma hech qachon o‘lkam,  
Zavol bilmas shu yoshing bilan.  
Muzaffar bo‘l, g‘olib bo‘l, o‘ktam,  
Do‘sru yoring, qardoshing bilan.  
Asrlarning silsilasida  
Boqiy turgay koshonang sening.

Ulug' bashar oilasida  
Mangu yorug' peshonang sening.  
Mangu yorug' maskanim manim,  
O'zbekiston, Vatanim manim.

## FURQAT NIDOSI

Men Vatandan ketmaganman,  
Ayri tushganman xolos,  
Ajragandek suv kecharda  
Bir nafas tandin libos.  
Yurt u yonda, men bu yonda,  
O'rtada hijron seli,  
Anga ko'prik tashlamakka  
Baytlarim bo'ldi asos.  
O'ksib-o'ksib yig'ladim men,  
Misli til bilmas go'dak,  
Onaizor ko'kragidan  
Ayrilib qolgan bexos.  
Men Vatanda Xolmuhammad  
O'g'li Zokirjon edim,  
Furqatiy deb nom qozondim,  
Bunga hijron iqtibos.  
So'nmagan ishq, o'limgan qalb,  
Bir uyum tuproq bo'lib  
Sarzamindan bosh ko'tardi,  
Ushbuga qabrim qiyos.  
Kim Vatan deb yona-yona  
Kul bo'lib bitmish magar,  
O't-olovni mendan olsin,  
O't-olov mendan meros.  
Shoiringni yod etarda  
O'zbegin, Sendan o'tinch:  
Bir-biringga qil muruvvat,  
Bir-biringga bag'ringga bos!

## “MUNOJOT” NI TINGLAB

Qani ayt, maqsading nimadir sening,  
Nega tilkalaysan bag'rimni, ohang.  
Nechun kerak bo'ldi senga ko'z yoshim.  
Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am!  
Eshilib, to'lg'onib ingranadi kuy,  
Qaylardan kelmoqda bu ohu faryod.  
Kim u yig'layotgan? Navoymikin,  
Va yo may kuychisi Xayyommikin, dod!  
Bas, yetar, cholg'uvchi, bas qil sozingni,  
Bas, yetar, ko'ksimga urmagil xanjar.  
Nahotki dunyoda shuncha g'am bordir...  
Agar shu “Munojot” rost bo'lsa, agar.  
Agar aldamasa shu sovuq simlar,  
Gar shul eshitganim bo'lmasa ro'yo.  
Sen beshik emassan, dorsan tabiat,  
Sen ona emassan, jallodsan, dunyo!..  
Eshilib, to'lg'onib ingranadi kuy.  
Asrlar g'amini so'ylar “Munojot”.  
Kuyi shunday bo'lsa, g'amning o'ziga  
Qanday chiday olgan ekan odamzod!

**SO‘Z QADRI**

Bo‘lsa takror qadri ketgay  
                Ne ulug‘ so‘zlarni ham,  
So‘z bilish – kam, bil yana  
                O‘rnin topib so‘zlarni ham.

Nogahoniy bitta so‘z  
                Dil mulkini yag‘mo etur,  
So‘z – ulug‘ qudrat, eritgay  
                Toshni ham, muzlarni ham.

Kunduzi yulduz taqib, olamga  
                Ko‘z-ko‘z aylama,  
Qadri bo‘lgay qop-qaro tun  
                Ichra yulduzlarni ham.

Senga bir so‘z aytajakman  
                Dilginamga asragan,  
Jam etibman bag‘riga ming  
                Kecha-kunduzlarni ham.

So‘z aro inson kamoli,  
                Yor jamoli jilvagar,  
Sarbaland etgay g‘azalga  
                Ne qaro ko‘zlarni ham.

“Xamsa” vodiysi aro so‘z  
                Mulkini kezdim kecha,  
Tingladim yayrab go‘zal  
                Gulchehra, Gulyuzlarni ham.  
So‘zda hikmat, so‘zda ibrat,  
                So‘zda millat barqaror,  
Yaxshi so‘z birla toparsan, eng aziz  
                Do‘stlarni ham.

## BAHORGİ BOĞ‘

1

O!.. Olamdan to‘kildi gunoh!  
 Oralagan bog‘larga sanmi –  
 Gullaysanmi shunaqa, olloh,  
 Olloh shunday ko‘karasanmi?

Yomg‘irlaring bir dunyo xitob!  
 Olam qayta yaraldi – yangi!  
 Mening qaysi “oh”imga javob –  
 Yig‘laysanmi shunaqa, tangrim?

Sen – saxiysan, Mehrdir boring.  
 Gullashingu yig‘lashing – oshkor...  
 Men – bir to‘zg‘in maysangman, tangrim,  
 Men – bir qatra yoshingman, jabbor.

2

Zirqiradi ildizim – tuproq  
 Zarrasini arang ko‘tardim.  
 Hali qorlar bo‘lmasdan adoq,  
 Sabrim yetmay, tangrim, ko‘kardim.  
 Turfa ko‘kat yerdan qalqidi,  
 Tevaragim to‘ldi ziyoga.  
 Men ham bitta giyoh talqini –  
 Qarindoshman hamma giyohga.  
 Beparvodir bahor gullari:  
 Xush lahzaga tashlab ixtiyor,  
 Yomg‘irlarga tutib qo‘llarin –  
 Ochilishdi menday baxtiyor.

Baxtli bo'ldim mehringdan men ham,  
Chaqmoqlarda yorishdi yuzim –  
Teraklarda erksevar ko'klam  
O'rmalarkan ko'klarga uzun.  
Bog'laringda turarkan to'lib,  
Boshlarimga urildi tuman.

Angladim, bu – tumanmas, bulut,  
Angladimki, men ham tog'lardan.  
Erib bitdi qishning munglari –  
Mahv bo'ldingmi sen ham oxir, marg?  
Navdalarning so'lu o'nglari –  
Kurtaklari sachrab ochdi barg.  
Yer yumshadi ona bag'riday,  
Sochil, Hayot! – davroning keldi.  
O, bahor ham olqish – tangridan –  
Ko'karguvchi zamoning keldi.  
Telbalik et, barq ur, yashillan,  
Gulla! – nuru bo'yga qorishib.  
Asablarim, qara, yashindan  
Jismu jonim borar yorishib.  
Ko'kka boqdim – ko'zim yo'liqdi –  
O'tmoqdadir turna galasi:  
Tizilishdi – o'l kam to'liqdi,  
"Qur-ey"... – oqdi ko'zim jolası.  
Kelin tonglar salqinlarida,  
Shabnamlarga pochalarim ho'l,  
Kezarkanman chorborg'laringda –  
Tangrim, sezdim, hali qalbim mo'l...  
Zirqiradi ildizim – tuproq  
Zarrasini ozod ko'tardim.  
Bir ko'rgani ro'yingni bu choq  
Men ko'kardim, tangrim, ko'kardim...

Yeru ko'kni ko'mding ziyoga —  
 Mehru shafqat ko'rgazding, jabbor.  
 O'sayotgan har bir giyohda  
 Bandalarga talpinishing bor.  
 Mana, mening charchoq boshimga  
 Telba-telba yomg'iring quydi.  
 Bir uyg'onish tuydim loshimda —  
 Mehri qattiq ko'k meni suydi.  
 Olov otib ketdi ko'zimga  
 Umri qisqa, jununvor yashin —  
 Men ko'nglimni ko'rdim o'zimda —  
 Ruhim tortdi nogoh yam-yashil.  
 Xayolimning adirlarida  
 Bag'rini qon etdi qizg'aldoq.  
 Mening g'amgin satrlarimda  
 Qanot qoqdi bir qushcha sayroq.  
 Yo'q, achinmay qo'ydim qadrimga —  
 Men yo'qdirmal! Men — sening nolang!  
 Jabbor! Bir qush yig'lar satrimda —  
 U meningmi, yo sening nolang?...

*Shavkat RAHMON*

### GUL YIG'ISI

Qachon gul hidlovdim,  
 Qachon suvlarda  
 Yog'dular raqsini tomosha qildim?  
 Nasimlar mavjida yelgan hurlardan  
 Ko'zlarim uzolmay qachon yiqlidim?  
 Bilmadim.  
 Xayoliy dunyomidir bul,

Judolig‘ bag‘rimni tugatdi tamom,  
Yana bu tubanlig‘ dashtida maqtul  
Jismimni unutib izlayman payg‘om.  
Bu yerda vahshiylar yo‘l qarar edi  
Tag‘in bir vallomat qonini istab,  
Tunlarning yirtilgan ko‘lkalarida  
Valilar so‘ngagin g‘ajirdi itlar.

4

Endi menga emas munosib,  
Yuragimni oshkora yoqmoq.  
Yarashadi – aqldan ozib,  
Ko‘kragimda bekingan chaqmoq;  
Yo tomosha etmoq – quvonib –  
Dilda uchgan kapalaklarni;  
Ham izlamoq – nogoh uyg‘onib –  
Tushimdagi kamalaklarni;  
Yoki bizni nurga undagan  
Haq aytgan chog‘ haqiqat so‘zin –  
Boshni shartta qo‘ymoq kundaga,  
Birodarlar uchun ham o‘zim;  
Nafrat otin yo‘lda qantarmoq –  
Adashganga mehr nurin sochib  
Va yurakni tanga qaytarmoq  
Hujayralar zehrini ochib...

Ey, o‘zini menga baxsh etgan  
Umr! Tavba ko‘ksimda uryon.  
Shamolimda sovrilib ketgan  
Kunlaringni qaytaray qachon?  
Yulduzlarni borar oqizib,  
Boshim uzra yo‘lovchi dunyo...  
O‘tmoq nega, axir, gard bo‘lib,  
Men, axir, dard bo‘lmoqchiman, o!

Xabar bergin, ko'nglim, falakka –  
Men yangicha yashay boshladim:  
Yoqamgamas, qara, yurakka  
Sizib tushar achchiq yoshlarim.  
Mayli, osmon boshimda xira,  
Bahorimda chillaning qishi –  
Menga muhim chalkashlik ichra  
O'z-o'zimni anglamoq ishi.  
Shafqatning keng chorborg'larida  
Bir daraxtday gulladi mehrim.  
Nafratning chars qiyonoqlaridan  
Qutilmoqda yurakning sehri.  
Ruhning sokin girdibodida  
Uchar ekan tanning kullari,  
Istaymanki, dilning dodiga  
Sado bersin hayot gullari.  
Men ko'nglimni gul kabi uzdim!  
Tangrim, yubor gulga zor kasni...  
Tangrim, qanday o'yinni buzdim –  
Hech kimga gul kerak emasmi?

## 6

Tovushini yo'qotgan emas,  
Yurak hamon devona hofiz.  
Faqat uning yonida besas  
Paydo bo'ldi dono Kaykovus.  
Hamon tunlar to'lg'aydi navo,  
Qovurg'alar chanqovuz – tanda.  
Faqat oshiq dilda uyg'ondi  
Tazarruga bosh ekkan banda.  
Shafqat tanni zabit etdi-oldi,  
Chohdan chiqdi hamma so'zlarim.  
Mening jismim tamom yo'qoldi –

O'tkirlashdi faqat ko'zlarim.  
Yurak endi avjlarni qo'yib,  
Past pardada kuylar shikasta —  
Jonu jismim ketaru kuyib,  
Yoshlarimni artaman asta.  
Qalbdan toshday og'ir ko'chgan she'r  
Hayotdami, o'limda ko'proq?  
Anglamayman, zalvorlimi Yer,  
Yo kaftdag'i bir hovuch tuproq?  
Ushbu she'rni bitarkan, armon  
Yuragimga takror buyurdi:  
— Bemalol uch — uzoqdir osmon,  
Yer qattiqdir — bemalol yurgin.

## 7

Agar dardga to'lsang do'stni izlama,  
Endi so'zlar ketdi — so'zni izlama.  
Shafqat keltirguvchi ro'zni izlama —  
Dardingni telbavor shamolga yashir.

Maqomsan — dilni sho'x bayot tushunmas,  
Sen — saydsan, "oh"ingni sayyod tushunmas,  
Hasratni gullagan hayot tushunmas —  
Ko'z yoshning ta'birini savolga yashir...

Hamdard bo'lmoqlikka bemorlar topgin,  
Vatanning ko'yida zor-zorlar topgin,  
Yiqmoqqa daraxtmas, devorlar topgin —  
Erk so'zin qafasda beholga yashir.

Bu go'zal bog' ichra bahor dengizi,  
Mavjları — yam-yashil, ufqi — qirmizi,  
Bahor — payg'ambardir, sen ham — Termiziy —  
Bir hadis topsang gar niholga yashir.

Bahor yuragingga bir shirin sasdir,  
O‘zliging sezmaydi – bu dunyo mastdir,  
Mastlik ham beshafqat hayotdan bahsdir –  
Hayotning ma’nosin zavolga yashir.

8

Oh, ayon daraxtlar yasholmas yakka –  
Gullab-ochilishgan bog‘larda to‘p-to‘p...  
O, tangrim, kezaman men yolg‘izlikda,  
Gunohlarim ko‘pdir, gunohlarim ko‘p.  
To‘p-to‘p yashamoqda – sokin kamoldir,  
Yolg‘iz yashamoqda – bepoyon to‘zim.  
Hamma daraxtlarga bitta shamoldir,  
Hamma shamollarga bitta men o‘zim.

9

Ana, yurak qush kabi uchdi!  
Bahor chog‘i vujud – yoriltosh...  
Cheksizlikka ko‘nglimdan tushdi,  
Men yo‘qotgan qatra sevinch yosh.

Bahorholim! – Beadoq kenglik –  
Ko‘rinmaydi “oh”imning cheti...  
Urinadi – mitti qush – “men”lik,  
Yo‘q, sevinchga bo‘lmaydi yetib...

Qirq ot qo‘ydi qismat qarshimda,  
Egarlama, kerakmas, dedim.  
Yuragimning so‘ngsiz dashtidan  
Men piyoda o‘tmoqchi edim.

Qirq qush qo‘ydi qismat qarshimda,  
Yo‘q, Semurg‘lar kerakmas, dedim.

Yuragimning yuksak arshiga  
Men qanotsiz ketmoqchi edim.

Qarshimdagi qirq yoshim — qirq g‘am,  
Senga yig‘lab nimalar dedim?  
Bahorimni birgina ko‘rsam  
Kuzga o‘zim ketmoqchi edim...

*Muhammad YUSUF*

## ARMON

Topmoq — yo‘qotmoqdir.  
Yo‘qotmoq — topmoq.  
Sen so‘lib,  
Men yashnab,  
To‘lishimga boq.  
Sensiz topganimdan ko‘proq yo‘qotdim —  
Sen meni yupatding,  
Seni yig‘latdim.  
Sen meni yaratding,  
Seni tugatdim.  
Uyalmay Ona deb,  
Kelishimga boq!..

Sog‘inch haqda she’rlar  
Yozdim o‘zimcha,  
Mendan — peshonangda  
Dog‘lar tizimcha.  
O‘g‘ling bo‘lmay o‘lay,  
Attang, ming attang.  
Qiz tug‘sang netardi,  
Ko‘proq qiz tug‘sang!..  
Tirgak bo‘lolmadim  
Bitta qizingcha,

Uyalmay shoirman  
Deyishimga boq.

Joningdan aylanay,  
Turgil jonajon,  
Yo'l qarab bo'ldimi  
Jigarginang qon.  
Boqma ko'zlarimga  
Bemajol xasta,  
Mening topgarlarim  
Gulmi bir dasta,  
Yo'qotganim senmi  
Endi, Onajon?..  
O'z etimni o'zim  
Eyishimga boq.

Bilsang,  
Yuragimni bir alam elar,  
Buyursang, qo'limdan  
Kelmaydi nelar  
Ayt,  
Pichan yig'aymi,  
O'tin yoraymi,  
Yerni haydayinmi,  
Ko'k ag'daraymi?..  
Itdek oyog'ingga  
Suykalgim kelar —  
Uchib-uchib, mana,  
Qo'nishimga boq.

Hech narsa kerakmas,  
Bolam, hech deysan.  
Endi kech deysan-da,  
Endi kech deysan.  
Yuzimni bosaman  
Muzday yuzingga,

Onajon,  
Zor qilib ketma izingga!..  
O'lim oldida ham  
G'amimni eysan.  
Men-chi, jim taqdirga  
Ko'nishimga boq.

...She'rim bitdi.  
**XAYR.**  
Do'stlar, xush qoling.  
Bedil yashamakka  
O'rganmang mendek.  
Boring,  
Volidangiz ko'nglini oling,  
Ertaga  
Kech qolib,  
O'rtanmang mendek.

### BIR QIZ YIG'LAR

Bir qiz yig'lar buloq boshida,  
Ma'yus majnuntollar qoshida.  
Ko'ngil oxi ko'zin yoshida,  
Bevafo ko'p ekan dunyoda...

Nigohida oftoblari bor,  
Nolishlarin javoblari bor,  
So'ngan sevgi azoblari bor,  
Bevafo ko'p ekan dunyoda...

Tovoniga tushgan kokillar,  
Qizginaga qo'shilib yig'lar,  
Bir so'z dilga sanchadi tig'lar –  
Bevafo ko'p ekan dunyoda...

Dildan ko'chib ketsa xayollar,  
Yomonga yo'q ekan jazolar.  
Yolg'on dunyo ekan dunyolar,  
Bevafo ko'p ekan dunyoda...

Ermak ekan endi Laylolar,  
Majnun G'arib kezgan sahrolar,  
Ertak ekan Tohir – Zuhrolar,  
Bevafo ko'p ekan dunyoda...

Qo'y, yig'lama, mening jon singlim,  
Men ham sendek bag'ri qon, singlim,  
Menga ham yo'q mehribon, singlim,  
Bevafo ko'p ekan dunyoda...  
Muhabbat yo'q ekan dunyoda!

*Sirojiddin SAYYID*

### SIZGA

Hovlingizdan sharqiragan soy o'tsa,  
Elkangizdan quyosh o'tsa, oy o'tsa.  
Qoshlaringiz mangu kamon yoy o'tsa,  
Sarv yanglig' adil qolsa bo'yingiz,  
To'larmidi hech to'limgan ko'nglingiz?

Bor yulduzlar sizga xizmat qilsalar,  
Ummonlar ham siz deb qurib, to'lsalar.  
Gullar sizdan rangu ifor olsalar,  
Chaman bo'lsa yurgan ko'cha-ko'yingiz,  
To'larmidi hech to'limgan ko'nglingiz?

Sevinch bilan ochilsalar eshiklar,  
Uyingizni tor aylasa beshiklar,  
Yangrasalar armon bo'lgan qo'shiqlar,  
Qiqirlasa ko'rghan qizu o'g'lingiz,  
To'larmidi hech to'limgan ko'nglingiz?

Yellar qaro zulfigizni qulf etib,  
Yelib tursa xusningizni mulk etib,  
Saodatu malohatni ko'rk etib,  
Sarg'aymasa hargiz rangu ro'yingiz,  
To'larmidi hech to'limgan ko'nglingiz?

Do'stlar kelib ul kun bag'rim tilalar,  
Bo'g'zim yilib, andin bir nay qilsalar,  
Hammalari qatorlashib chalsalar,  
Ovozalar bo'lsa o'g'il to'yingiz,  
To'larmidi hech to'limgan ko'nglingiz?

*Iqbol MIRZO*

### AYTGIL, DO'STIM

Boshing egib, ta'zim ayla, shukrona ayt,  
Seni guldek erkalagan chaman uchun.  
Osmonlarda yurgan bo'lasang, tuproqqa qayt,  
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

Ko'zi qora, yuragi oq shu el uchun,  
Tuproq uchun, shu yurt uchun, chaman uchun,  
Ulug' inson boshlab bergen shu yo'l uchun,  
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

Eldan ketib, el bo'lganni kim biladi?  
Don axtargan go'shtxo'r larga yem bo'ladi.  
Dil qonasa ona tuproq em bo'ladi,  
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

Qachongacha qorming o'ylab o'tadirsan?  
Qachongacha ko'kdan chalpak kutadirsan?  
Axir Vatan bitta, sen ham bittadirsan,  
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

Buncha bino qo'yma zarrin cho'ponlarga,  
Saratonda yaproq bo'lgin dehqonlarga,  
Suyangani tayoq bo'lgin cho'ponlarga,  
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

Hech kimdan kam emassan, kam bo'lmagaysan,  
Yerda qolsang, oftob bo'lib kulmagaysan.  
Qachon belni mahkam tortib bo'g'lagaysan?  
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

Shu soylardan suvlar urgin yuzingga sen,  
Bir bor nazar solgin bosgan izingga sen,  
Shu savolni berib ko'rgin o'zingga sen,  
Aytgil, do'stim, nima qildik Vatan uchun?

*Ikrom OTAMUROD*

## MADAD KUCHLAR KERAK

Madad kuchlar kerak odamga,  
Yiqilganga suyanmoq uchun.  
Goho hayot yuklagan g'amga  
Yetmas faqat bardoshing kuchi.  
Malham kutgan intiq bemorga  
Bir og'iz so'z bo'ladi darmon.  
Bir og'iz so'z ayaymiz nega?  
Yuraklarga cho'kkanda armon.  
Madad kuchning avvali ZAMIN –  
Kunduk qoning to'kilgan tuproq  
Xidi qalbga o'rnashsa, tayin  
Umidlaring rang tortar ko'proq.  
Sinovlarga boshlasa agar,  
Yo'llar, zinhor, qilmayin shafqat.

Bilgin, shunda madadkor bo‘lar  
Ko‘ksingni to‘ldirgan MUHABBAT.  
Tasodif yo shunday nogahon  
Bir kun, armon kelsa duchma-duch.  
DO‘ST kerakdur turib yonma-yon,  
Dalda berib, dard oluvchi kuch.  
Muyulishlar girdobi aro  
Chorrahada qotsang benajot,  
Bu, tumandan qilmay yuzqaro  
Seni olib chiqqay E’TIQOD.  
Davralarda kelmayin hadding –  
Dasting qisqa qolganda nochor,  
Yo‘g‘ingni bor qilib, xam qadding  
Ko‘taruvchi EL bo‘lur darkor –  
Va, nihoyat, ko‘p ulug‘ sehri,  
VATAN kerak, nurli, yarqiroq.

*Sharifa SALIMOVA*

## **SENDAN BIR DAM AYRO TUSHMAYMIZ, VATAN!**

Bir kuni yo maysa, giyoh bo‘lamiz,  
Shunda ham holingdan ogoh bo‘lamiz.  
Shoir qalamingga siyoh bo‘lamiz,  
Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!

Yo yomg‘ir bo‘lamiz, bo‘lamiz shabnam,  
G‘unchalar kiprigin aylayjakmiz nam.  
Nogoh xazon misol to‘kilganda ham,  
Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!

Biz singil, yo ini, yoki og‘amiz,  
Bag‘ringda daryo yo tog‘dek qolamiz.  
G‘anim boshiga tosh bo‘lib yog‘amiz,  
Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!

Ko'ksingda qulunlar bo'lib chopamiz,  
Archa bo'lib tog'lar bag'rin yopamiz.  
Burgut bo'lib cho'qqing izlab topamiz,  
Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!

Mayli, tikanlaring qonatsin qo'lim,  
Mayli, izg'irinlar qilsinlar zulm.  
Sen rozi bo'lsang bas, enajon elim,  
Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!

Sendan xayolda ham ketmaymiz nari,  
Onasini quchgan farzand singari.  
So'ng so'z yozganda ham umr daftari,  
Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!

Tug'ing nafaslarin ichganda dunyo,  
O'zbek degan nomga to'lgandi samo,  
Biz bag'ringda yotib, qilgansa duo  
Sendan bir dam ayro tushmaymiz, Vatan!

*Muhiddin OMON*

### OTA MAKONIM

Agar bobo Quyosh kulta sahardan,  
Charaqlab taralsa shafqat ziyosi,  
Ko'kdan oqib tushgan shu bahri zardan  
Ko'karsa dillarning mehrigiyosi,  
    Bu — mening diyorim, ota makonim,  
    Dilimga madorim, mehrga konim.

Ayni Navro'z chog'i shudgor oralab,  
Tuproqni to'tiyo aylasa har chol,

Iymon mujdasini noz-la erkalab,  
Qalbda poklik unsa bekam, bezavol.

Bu — mening elimdur — azmi ulug‘im,  
Zahmati qutlug‘im, ko‘ngli o‘tlug‘um.

Beqiyos, benazir farog‘at tuyib,  
Subhidam sog‘ilgan sutu qaymoqdan,  
Onaga intilgan boladay iyib,  
Ketolmay qolsangiz yashil o‘tloqdan,

Siz xijolat bo‘lmang, aziz qo‘nog‘im,  
Bu — mening qishlog‘im, mening qishlog‘im.

Keng hovli, so‘rida chordana qo‘yib,  
Sarxush simirsangiz rayhon iforin,  
Tushlikka oshdan so‘ng handalak so‘yib,  
Mezbon dasturxonga to‘kkanda borin,

Ohista taralsa Munojot kuyi,  
Bu — shaksiz otamning, onamning uyi...

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. — T., “O‘zbekiston”, 1992.
2. O‘zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi (Yangi tahrirdagi) Qonuni. — T., “O‘zbekiston”, 1995.
3. Karimov I.A. “Istiqlol va ma’naviyat”. — T., “O‘zbekiston”, 1994.
4. Karimov I.A. “Jamiyatimiz mafkurasi xalqni—xalq, millatni—millat qilishga xizmat etsin”, T., “O‘zbekiston”, 1998.
5. Aristotel “Ritorika”. — M., 1978.
6. Aflatun “Qonunlar”. — Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2002.
7. Abu Homid G‘azzoliy “Mukoshafat-ul qulub”. “Yangi asr avlodi”, — T., 2004.
8. Alisher Navoiy. “Muhokamatul lug‘atayin”. — T., “Fan”, 1982.
9. Alisher Navoiy. “Mahbubul qulub”. — T., “Fan”, 1982.
10. Alisher Navoiy. “Nazmul javohir”. — T., “Fan”, 1982.
11. Alisher Navoiy. “Majolisun-nafois”. —T., “Fan”, 1982.
12. Alimuhamedov A. “Antik adabiyot tarixi”. — T., “O‘qituvchi”, 1969.
13. Bekmirzayev N. Notiqlik asoslari. — T., “Fan”, 2006.
14. Bekmirzayev N. Notiqning yon daftari. T., — “Fan”, 2007.
15. Bekmirzayev N. Nutq madanlyati va notiqlik asoslari. — T., “Fan”, 2007.
16. Begmatov E. Adabiy talaffuz normalari. — T. “O‘zbekiston”, 1982.
17. Z.M. Bobur “Boburnoma”, — T., “Fan”, 1960.
18. Волков А.А. “Курс русской риторики” — М., 2001.
19. Jumaxo‘ja N.A. “Istiqlol va ona tilimiz”. — T., “Sharq”, 1998
20. Jumaniyozov R. “Nutqiy mahorat”. — T., “Adolat”, 2005.
21. Kaykovus “Qobusnomा”. — T., “Meros”, 1992.
22. Kaykovus “Qobusnomа”. — T., “O‘qituvchi”, 2006.
23. Карнеги Д. “Как вырабатывать уверенность в себе и влиять на людей, выступая публично“. — T., “Sharq”, 1992.
24. Кузнецов И.Н. “Современная риторика”, — М., 2003.

25. Mahmidov N. “O‘zimiz va so‘zimiz”. — T., G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 1997.
26. Mahmudov N. “O‘qituvchi nutq madaniyati”. — T., A. Navoiy nomidagi milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
27. Mirhamidov M. “Norpo‘latov N., Hasanov S. “Yuristning nutq madaniyati”. — T., “Fan va texnologiya”, 2005.
28. Mo‘min Siddiq. “ So‘zlashish san’ati”. “Farg‘ona” nashriyoti, 1995.
29. Об ораторском искусстве. — М., “Изд. политической литературы”, 1973.
30. Ortikov A. “Nutq madaniyati va notiqlik san’ati”. — Т., 2002.
31. Rustamov A. “So‘z xususida so‘z, — T., “Fan”, 1987.
32. Qung‘urov R., Begmatov E., Tojiyev Yo. “Nutq madaniyati va uslubiyot asoslari”. — T., “O‘qituvchi”, 1992.
33. Qudratov T. “Nutq madaniyati asoslari” — T., “O‘qituvchi”, 1993.
34. Цицерон “Философские трактаты”. — М., Изд. Наука, 1985.
35. Sitseron. “Notiqlik san’ati haqida ikki risola” — T. “Yangi asr avlodni”, 2007.
36. “Операторское искусства” — [www.orator.ru](http://www.orator.ru), [www.silaslora.ru](http://www.silaslora.ru), [www.besonus.narod.ru](http://www.besonus.narod.ru)

## MUNDARIJA

So‘zboshi o‘rnida .....	3
Kirish .....	5

### I bo‘lim. Notiqlik san’ati haqida tushuncha

“Notiqlik san’ati” ning predmeti, maqsad va vazifalari .....	9
“Notiqlik san’ati” ning boshqa fanlar bilan aloqasi va “Nutq madaniyati” dan farqi .....	11

### II bo‘lim. Notiqlik san’ati tarixi

I-bob. Qadimgi Yunon va Rim notiqligi tarixi .....	16
Lisiy .....	18
Aristotel .....	22
Demosfen .....	24
Sitseron .....	27
II-bob. Sharq va Markaziy Osiyoda notiqlik tarixi .....	31
Abu Homid G‘azzoliy .....	40
Kaykovus va uning “Qobusnama” asari .....	44
Alisher Navoiy notiqlik haqida .....	50
Zahiriddin Muhammad Boburning badiiy nutq mahorati .....	56

### III bo‘lim. Notiqlik san’atinig asosiy ko‘rinishlari

Nutq texnikasi va orfoepiya .....	67
Orfoepiya .....	68
Notiq nutqining to‘g‘riliği .....	72
Ommaviy chiqishlarda notiqlik san’atining ahamiyati .....	75
Kutubxonashunoslik ishlarida notiqlik san’atining ahamiyati .....	81
Nutq a’zolari va ularning nutqdagi vazifasi .....	84

## **IV bo‘lim. Muomala — inson ziynati**

I-bob. Muomala madaniyati .....	87
So‘z haqida so‘z.....	97
Notiq amal qilishi lozim bo‘lgan qoidalar. Notiq uchun 41 qoida .....	99
Ma’ruzafga qiziqishni oshirish yo‘llari .....	103
Notiq muvaffaqiyatining oltita sharti .....	106
Odamlarga yoqish va ular e’tiborini qozonish qoidalari.....	109
Xulosa .....	111

## **V bo‘lim. Amaliy mashg‘ulotlar**

I-bob. Artikulatsiya va nafas mashqlari .....	115
Nafas — nutq vositasi .....	116
Ovoz qanday hosil bo‘ladi .....	118
Sonor tovushlar .....	119

## **VI bo‘lim. Badiiy asarlarni ifodali o‘qish**

She’riy asarlarni ifodali o‘qish .....	123
Barmoq tizimidagi she’rlarni o‘qish .....	123
Erkin tizimdagi she’rlarni o‘qish .....	127
Nasriy asarlarni ifodali o‘qish .....	131
Ertaklarni ifodali o‘qish .....	131
Hikoyalarni ifodali o‘qish .....	133
Qissalarni ifodali o‘qish .....	138
Romanlarni ifodali o‘qish .....	140
Dramatik asarlarni ifodali o‘qish .....	141
Ommaviy chiqishlarga tayyorgarlik ko‘rish .....	150
Ommaviy nutq mas’uliyati .....	152

## **VII bo‘lim. Lug‘at ustida ishlash**

Lug‘atlardan foydalanish va ularni tuzish malakalarini shakllantirish .....	154
Lug‘atlar — so‘zlar hazinasi .....	156
Ma’nodosh sinonim so‘zlar .....	158

## **VIII bo‘lim. Mustaqil ishlar**

1-bob. Yakka darslar .....	161
2-bob. Mustaqil ish .....	162
3-bob. Talaba mustaqil ish ustida .....	163
Til va nutq .....	163
Umumiy norma va adabiy norma .....	170
Adabiy normanining variantdorligi .....	174
Nutqning to‘g‘riligi. Talaffuz normalari .....	178
Nutqda egalik qo‘sishimchalaridan foydalanish normalari .....	181
Nutqda ko‘p ma’noli so‘zlar .....	184
Nutq boyligi .....	187
Ovozni ishlatish va nutq mexanikasi .....	190

## **IX bo‘lim. She’r o‘qish mashqi**

She’r o‘qish mashqi .....	195
Foydalanilgan adabiyotlar .....	232

**Norqul Bekmirzayev**

## **NOTIQLIK SAN'ATI ASOSLARI**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

Toshkent – «Yangi nashr» – 2008

Muharrir *M. To'ychiyev*  
Texnik muharrir *T. Smirnova*  
Musahhih *F. Komilova*

Bosishga ruxsat etildi 20.02.2008-y. Bichimi 60x90 1/16.  
Tayms TAD garniturasi. Sharthi b.t. 15,0. Nashr t. 15,0. Adadi 1000 nusxa.  
Shartnoma N 03/07. Buyurtma N 55.  
Bahosi shartnoma asosida.

«Yangi nashr» MChJ nashriyoti. Toshkent, Jarariq, 15/108-uy.

«Arnaprint» MChJ bosmaxonasida bosildi.  
Toshkent, Bayqaro ko'chasi, 41.

**83.7**

**B49**

**Bekmirzayev, Norqul.**

**Notiqlik san'ati asoslari:** O'quv qo'l./N. Bekmirzayev; Mas'ul muharrir A. Rafiyev; O'zR oliy va o'rta-maxsus ta'llim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'llimi markazi. — T.: Yangi nashr, 2008. - 240 b.

**BBK 83.7ya7**

---

---

**MA'LUMOT UCHUN**

---

---

---

**MA'LUMOT UCHUN**

---

ISBN 978-9943-330-30-6



9 789943 330306